
ABDULLA ORIPOVNING O‘ZBEK ADABIYOTI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI: FALSAFIY VA AXLOQIY MOTIVLAR. AVLODLAR VORISLIGI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2026-YIL 18-MART

MATERIALLAR TO‘PLAMI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

“SCIENCE AND INNOVATION” XALQARO JURNALI

“ABDULLA ORIPOVNING O‘ZBEK ADABIYOTI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI: FALSAFIY VA AXLOQIY MOTIVLAR. AVLODLAR VORISLIGI”

mavzusidagi shoirning 85 yosh xotira yubileyiga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy

KONFERENSIYA MATERIALLARI TO‘PLAMI

2026-yil 18-mart

Toshkent -2026

UDK: 821.512.133(092); 821.512.133.09
BBK: 83.3(5)6-8

“Abdulla Oripovning o‘zbek adabiyoti rivojiga qo‘shgan hissasi: falsafiy va axloqiy motivlar. avlodlar vorisligi” mavzusidagi shoirning 85 yosh xotira yubileyiga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami.-Toshkent, 2026. - 312 b.

Mas’ul muharrir: *filologiya fanlari doktori, professor* **F.I.Ikramxanova**

Tahrir hay’ati: *pedagogika fanlari doktori, professor* **Sh.A.Abdullaeva**
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), **N.I.Boynazarova**
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), **S.R.Tasheva**

Mazkur to‘plam Abdulla Oripov tavalludining 85 yosh xotira yubileyiga bag‘ishlab o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya materiallarini o‘z ichiga oladi.To‘plamda shoir ijodi, uning o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga qo‘shgan hissasiga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar jamlangan.

Mualliflar tomonidan shoir asarlaridagi falsafiy va axloqiy g‘oyalar turli ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, uning she’riyatidagi milliy ruh, ma’naviy qadriyatlar va insonparvarlik g‘oyalari yoritilgan bo‘lib, unda Abdulla Oripov ijodida avlodlar vorisligi masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Maqolalarda shoir ijodining zamonaviy adabiyot taraqqiyotiga ta’siri ham tahlil etilgan.

To‘plamda adabiyotshunoslar, olimlar, tadqiqotchilar va yosh izlanuvchilarning ilmiy ishlari o‘rin olgan.Shu bilan birga, unda shoir ijodining turli qirralarini yorituvchi tadqiqotlar jamlangan.

Ushbu nashr Abdulla Oripov ijodini o‘rganishda muhim ilmiy manba sifatida ahamiyat kasb etadi. Mazkur to‘plam shoir merosini keng targ‘ib qilish va uning adabiy an’analarini davom ettirishga xizmat qiladi.

Mazkur to‘plam “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti Kengashida muhokama qilindi va nashr etishga tavsiya etildi (2026-yilning 27-fevraldagi 7-son Bayonnomasi)

© “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti
© “Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnali
© Mualliflar

Kirish

Assalomu alaykum, hurmatli xalqaro konferensiya ishtirokchilari, aziz olimlar, adabiyotshunoslar, professor-o‘qituvchilar, talabalar va qadrli mehmonlar!

Barchangizni bugungi nufuzli ilmiy anjuman “*Abdulla Oripovning o‘zbek adabiyoti rivojiga qo‘shgan hissasi: falsafiy va axloqiy motivlar. Avlodlar vorisligi”* mavzusida o‘tkazilayotgan xalqaro konferensiyada samimiy qutlashdan mamnunman.

Mazkur konferensiya o‘zbek milliy adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Abdulla Oripov ijodi, uning ma’naviy merosi va badiiy-falsafiy qarashlarining bugungi kun adabiyoti hamda jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘rnini ilmiy jihatdan chuqur o‘rganishga bag‘ishlangani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Abdulla Oripov nafaqat buyuk shoir, balki millat ruhiyatini, xalq orzu-umidlarini, insoniy qadriyatlarni yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etgan ijodkor sifatida o‘zbek adabiyoti tarixida alohida o‘rin tutadi. Uning she’rlarida inson ruhiyati, hayot ma’nosi, ma’naviy poklik, vatanparvarlik, milliy g‘urur kabi mavzular chuqur falsafiy mushohada bilan uyg‘unlashgan holda talqin etilgan.

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Abdulla Oripov- o‘zbek xalqining buyuk shoiri, yuksak ma’naviyat va milliy g‘urur timsolidir! Uning betakror ijodi xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, millatimiz ma’naviyatini yuksaltirishga beqiyos hissa qo‘shgan”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10 dekabr kuni qabul qilingan “Iqtisodiyot tarmoqlari uchun innovatsiyalar va raqamlashtirishga asoslangan muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-42-son qarori bilan institut milliy tadqiqot universiteti maqomini oldi va “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti sifatida qayta tashkil etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatda adabiyot va ma’naviyatni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar doirasida buyuk shoir Abdulla Oripov xotirasini abadiylashtirish, uning ijodini keng targ‘ib qilish, ta’lim muassasalari va ilmiy markazlarda uning merosini o‘rganish masalalariga alohida e’tibor qaratdi. Bu tashabbuslar doirasida universitetda Abdulla Oripov nomidagi stipendiyalar, ilmiy-ma’rifiy tadbirlar, adabiy kechalar va ilmiy konferensiyalar tashkil etib kelinmoqda, ilmiy ishlanmalar, maqolalar, monografiyalar nashr ettirilmoqda.

Abdulla Oripovning sermazmun va falsafiy ruhdagi she’rlari xalqimiz qalbida vatanparvarlik, milliy iftixor va insonparvarlik tuyg‘ularini yanada mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda. Shoir ijodida falsafiy va axloqiy motivlar markaziy o‘rin egallaydi. U insonning ichki olami, uning vijdoni, hayot oldidagi mas’uliyati haqida teran fikr yuritadi. Shu ma’noda Abdulla Oripov she’riyati nafaqat badiiy estetik qimmatga, balki ulkan ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga ham ega. Uning asarlari insonni ezgulikka, adolatga, ma’naviy kamolotga chorlaydi.

Bugungi globallashuv davrida milliy adabiyotlar, ayniqsa, ularning ma’naviy-falsafiy asoslarini chuqur o‘rganish va keng jamoatchilikka yetkazish juda muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Abdulla Oripov ijodini xalqaro miqyosda tadqiq etish, uning badiiy merosini turli mamlakat olimlari ishtirokida muhokama qilish bugungi konferensiyaning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Shoir ijodidagi yana bir muhim jihat- bu avlodlar vorisligi g‘oyasidir. Abdulla Oripov asarlarida milliy an’analarga hurmat, tarixiy xotirani asrash, ma’naviy merosni keyingi avlodlarga yetkazish masalalari alohida o‘rin tutadi. U o‘z she’rlarida millatning o‘tmishi, buguni va kelajagi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni chuqur his ettirgan. Shu ma’noda, Abdulla Oripov ijodi nafaqat adabiyotshunoslar, balki keng ma’noda jamiyat uchun ham muhim ma’naviy maktab vazifasini bajaradi. Uning she’rlari yosh avlodni milliy qadriyatlarga sodiqlik, vatanga muhabbat va insonparvarlik ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega.

Bugungi konferensiya ana shu dolzarb masalalarni muhokama qilish, yangi ilmiy yondashuvlar va tadqiqot natijalarini o‘rtoqlashish, shuningdek, milliy adabiyotimizning jahon ilmiy maydonidagi o‘rnini yanada mustahkamlashga xizmat qilishiga ishonaman.

Konferensiya doirasida taqdim etiladigan ma’ruzalar, ilmiy muhokamalar va fikr almashuvlar Abdulla Oripov ijodining falsafiy, estetik va ma’naviy qirralarini yanada kengroq ochib berishga, uning adabiyotimiz va milliy ma’naviyatimiz rivojidagi o‘rnini yanada chuqur anglashga xizmat qiladi. Ayni paytda, bunday xalqaro ilmiy muloqotlar turli mamlakat olimlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, adabiyotshunoslik sohasida yangi tadqiqotlar uchun zamin yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fursatdan foydalanib, konferensiya ishida ishtirok etayotgan barcha olimlar va mutaxassislarga o‘z minnatdorchiligimni bildiraman. Sizlarning ilmiy izlanishlaringiz, tahlil va xulosalaringiz mazkur anjumanning mazmunan boy va samarali o‘tishiga xizmat qiladi, deb ishonaman.

Barchangizga konferensiya ishida muvaffaqiyat, ilmiy izlanishlarda yangi yutuqlar va samarali fikr almashuvlarini tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat!

Bahodir Suyunov
“TIQXMMI” MTU rektori

ABDULLA ORIPOV IJODIDA AXLOQIY QADRIYATLARNING BADIIY IFODALANISHI VA AVLODLAR VORISLIGI MASALASI

Choriev Ro‘zimurot Kungratovich
“TIQXMMI” MTU Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha prorektor, pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri- Abdulla Oripov ijodining ma’naviy-axloqiy xususiyatlari ilmiy tahlil qilingan. Shoir she’riyatida insonparvarlik, vatanparvarlik, vijdon, adolat va ma’naviy poklik kabi axloqiy qadriyatlarning badiiy ifodasi yoritiladi. Shuningdek, uning asarlarida aks etgan avlodlar vorisligi g‘oyasi, milliy ma’naviy merosni saqlash va uni kelajak avlodlarga yetkazish masalalari tadqiq etiladi. Tadqiqot natijasida Abdulla Oripov ijodining o‘zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o‘rni, shuningdek, yosh avlod ma’naviy tarbiyasidagi ahamiyati ochib berilgan.*

Tayanch tushunchalar: *Abdulla Oripov, o‘zbek she’riyati, axloqiy motivlar, ma’naviy qadriyatlar, vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy adabiyot, avlodlar vorisligi, ma’naviy tarbiya.*

Аннотация. *В данной статье проведён научный анализ духовно-нравственных особенностей творчества одного из выдающихся представителей узбекской литературы — Abdulla Oripov. В поэзии поэта раскрывается художественное выражение таких нравственных ценностей, как гуманизм, патриотизм, совесть, справедливость и духовная чистота. Также исследуются идеи преемственности поколений, отражённые в его произведениях, вопросы сохранения национального духовного наследия и передачи его будущим поколениям. В результате исследования раскрыта роль творчества Абдуллы Орипова в развитии узбекской литературы, а также его значение в духовно-нравственном воспитании молодого поколения.*

Ключевые слова: *Абдулла Орипов, узбекская поэзия, нравственные мотивы, духовные ценности, патриотизм, гуманизм, национальная литература, преемственность поколений, духовное воспитание.*

Abstract. *This article presents a scientific analysis of the spiritual and moral characteristics of the works of one of the prominent representatives of Uzbek literature — Abdulla Oripov. The poet’s poetry reveals the artistic expression of moral values such as humanism, patriotism, conscience, justice, and spiritual purity. The study also examines the idea of generational continuity reflected in his works, as well as the issues of preserving the national spiritual heritage and transmitting it to future generations. As a result of the research, the role of Abdulla Oripov’s tvorchestvo in the development of Uzbek literature and its significance in the spiritual and moral education of the younger generation are revealed.*

Keywords: *Abdulla Oripov, Uzbek poetry, moral motives, spiritual values, patriotism, humanism, national literature, generational continuity, spiritual education.*

XX asr o‘zbek adabiyoti tarixida o‘zining chuqur falsafiy mushohadalari, badiiy tafakkurining kengligi va yuksak ma’naviy g‘oyalari bilan ajralib turadigan ijodkorlardan biri - Abdulla Oripov hisoblanadi. Bugungi kunda bunday buyuk ijodkorlar merosini chuqur o‘rganish va uni yosh avlodga yetkazish masalasi Uzbekistanda amalga oshirilayotgan ta’lim sohasidagi keng ko‘lamli islohotlar doirasida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakat rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning mazmun-mohiyatini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish hamda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan qator muhim dastur va qarorlar qabul qilindi. Ularda ta’lim jarayonini ilm-fan va innovatsiyalar bilan uyg‘unlashtirish, oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, shuningdek, milliy adabiyot va ma’naviy merosni chuqur o‘rganishga keng yo‘l ochish kabi masalalar ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “yangi O‘zbekistonni barpo etishda bilimli, keng dunyoqarashga ega, yuksak ma’naviyatli yoshlar hal qiluvchi kuch hisoblanadi” [1]. Shu bois ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, milliy adabiyot namoyandalari ijodini keng targ‘ib qilish, ularning asarlarida mujassam bo‘lgan axloqiy va ma’naviy g‘oyalarni yoshlar ongiga singdirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunday yondashuv nafaqat ta’lim sifatini oshirishga, balki milliy o‘zlikni anglash, avlodlar vorisligini ta’minlash va yosh avlodni yuksak ma’naviyat ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Shu ma’noda, Abdulla Oripov kabi buyuk shoirlar merosini o‘rganish va targ‘ib etish mamlakatimiz ta’lim siyosatidagi muhim yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universitetiga Abdulla Oripov nomini abadiylashtirish tashabbusi davlat siyosati doirasida ilgari surilgan. Bu tashabbus O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan adabiyot va ma’naviyatni qo‘llab-quvvatlash g‘oyasi bilan bog‘liq ravishda bildirildi.

Abdulla Oripov ijodi o‘zbek adabiyoti rivojining yangi bosqichini boshlab berdi. Shoir o‘z asarlarida insonning ma’naviy olami, hayotning mazmuni, vijdon, adolat va insoniylik kabi masalalarni chuqur badiiy talqin qildi. Ayniqsa, uning she’riyati milliy qadriyatlarni ulug‘lash va ularni kelajak avlodlarga yetkazish g‘oyasi bilan ajralib turadi.

Bugungi globallashuv davrida milliy madaniyat va adabiyotning tarbiyaviy ahamiyati yanada ortib bormoqda. Shu jihatdan qaraganda, Abdulla Oripov ijodini o‘rganish nafaqat adabiyotshunoslik, balki ma’naviy tarbiya nuqtayi nazaridan ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Abdulla Oripov o‘zbek she’riyatida yangi badiiy tafakkur yo‘nalishini shakllantirgan ijodkorlardan biridir. Uning she’riyati “badiiy obrazlarning boyligi, falsafiy teranligi va ma’naviy mazmunining chuqurligi bilan ajralib turadi” [3;12-b.].

Shoir asarlarida inson hayoti, uning ruhiy kechinmalari, jamiyatdagi ijtimoiy muammolar keng yoritilgan. Abdulla Oripov she’riyati orqali o‘zbek xalqining tarixiy xotirasi, milliy o‘zligi va madaniy merosi badiiy ifoda topgan.

Adabiyotshunoslar ta’kidlaganidek, Abdulla Oripov she’riyati milliy an’ana va zamonaviy badiiy tafakkur uyg‘unligining yorqin namunasidir. Shoir o‘z ijodi orqali o‘zbek she’riyatini yangi mazmun va badiiy shakl bilan boyitdi.

Shoir ijodining muhim jihatlaridan biri — undagi kuchli axloqiy yo‘nalishdir. Abdulla Oripov she’rlarida insonning ichki dunyosi, uning vijdoni, hayot oldidagi mas’uliyati va ma’naviy kamoloti masalalari keng yoritilgan.

“Shoir ijodidagi axloqiy motivlarni bir necha yo‘nalishlarda ko‘rish mumkin, ya’ni *insonparvarlik va ezgulik g‘oyasi, vatanparvarlik va milliy g‘urur g‘oyasi, samimiylik, halollik, vijdon g‘oyalari* va boshqalar” [4;54-b.].

Abdulla Oripov she’riyatida insonparvarlik g‘oyasi yetakchi o‘rin tutadi. Shoir insonni oliy qadriyat sifatida talqin qiladi. Uning asarlarida insonning ezgulikka intilishi, haqiqat va adolat uchun kurashi badiiy ifoda topgan.

Shoir nazarida insonning haqiqiy buyukligi uning ma’naviy pokligi va vijdonida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, shoir ijodida Vatan tushunchasi muqaddas qadriyat sifatida tasvirlanadi. Abdulla Oripov she’rlarida Vatan nafaqat geografik hudud, balki millatning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va ma’naviy qadriyatlari timsoli sifatida talqin qilinadi.

Vatanparvarlik g‘oyasi shoir she’riyatining asosiy motivlaridan biri hisoblanadi.

Shoir asarlarida halollik va vijdon masalasi ham alohida o‘rin egallaydi. U insonning haqiqiy qadr-qimmatini uning ma’naviy fazilatlari bilan bog‘laydi. Shoir nazarida vijdon inson hayotidagi eng muhim axloqiy mezondir.

Abdulla Oripov ijodining muhim jihatlaridan biri — avlodlar vorisligi g‘oyasidir. Shoir o‘z asarlarida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni kelajak avlodlarga yetkazish zarurligini ta’kidlaydi.

Shoir nazarida har bir avlod o‘zidan oldingi avlod yaratgan ma’naviy boyliklarni saqlashi va uni boyitib keyingi avlodlarga yetkazishi lozim. Bu g‘oya shoir she’riyatining muhim g‘oyaviy asoslaridan biri hisoblanadi.

Abdulla Oripov ijodi yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Uning she’rlari yoshlar qalbida vatanparvarlik, milliy g‘urur va ma’naviy poklik tuyg‘ularini shakllantiradi.

Bugungi kunda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir. Bu jarayonda Abdulla Oripov ijodi muhim ma’naviy manba hisoblanadi. Shoir asarlarida ilgari surilgan axloqiy g‘oyalar yoshlarni halollik, adolat, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalaydi.

Abdulla Oripov ijodi yoshlarni o‘z xalqining tarixini, madaniyatini va ma’naviy merosini qadrlashga undaydi. Shu jihatdan qaraganda, uning ijodi avlodlar vorisligini ta’minlashda muhim ma’naviy omil hisoblanadi.

Abdulla Oripov nafaqat iste’dodli shoir, balki xalq dardini yuragida his etgan, millat taqdiri uchun qayg‘urgan buyuk ziyoli sifatida ham xalqimiz xotirasida abadiy saqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripov o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk ijodkorlardan biridir. Uning she’riyati chuqur falsafiy mazmuni va yuksak axloqiy g‘oyalari bilan ajralib turadi.

“Shoir ijodida ilgari surilgan insonparvarlik, vatanparvarlik, halollik va ma’naviy poklik kabi qadriyatlar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda” [5;22-b.]. Ayniqsa, uning ijodida aks etgan avlodlar vorisligi g‘oyasi milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni kelajak avlodlarga yetkazish masalasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.-464 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar konsepsiyasi. – Toshkent, 2022.
3. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2019.-234 b.
4. Abdulla Oripov. Haj daftari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.-188 b.
5. Abdulla Oripov ijodi tadqiqotlarda. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi., 2020.
6. Ibrohim Haqqul. O‘zbek she’riyati talqini. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
7. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti tadqiqotlari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti. 2019.
8. Nazarov Baxtiyor. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2014.
9. Karimov Naim. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
10. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent:O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. 2018.
11. Sharafiddinov Ozod. Adabiyot – hayot darsi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2007.
12. Normatov Umarali. O‘zbek adabiy jarayoni. – Toshkent: Akademnashr, 2012.

АБДУЛЛА ОРИПОВ ЛИРИКАСИДА ИЖТИМОИЙ ДАРД ТАДРИЖИ ВА ТАСВИРИ

Улуғбек Ҳамдамов

филология фанлари доктори, профессор, ЎзФА, Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти етакчи илмий ходими

Аннотация. *Мақолада 60-йиллар авлоди шеърияти, хусусан, А.Орипов лирикасида ижтимоий дард эволюцияси тадқиқ этилган. Ушбу дард тасвири шоирни ўқувчига яқинлаштиргани босқичма босқич кузатилади.*

Калит сўзлар: *XX аср, 60-йиллар авлоди шеърияти, ижтимоий дард тараннуми, бадиий тафаккур тараққиёти, эстетик идеалга хизмат.*

Аннотация. *В статье исследуется эволюция социальных проблем в поэзии поколения 60-х годов, в частности, в лирическом творчестве А.*

Орипова. Отмечается, что образ этих проблем постепенно сближал поэта с читателем.

***Ключевые слова**: XX век, поэзия поколения 60-х годов, гимн социальным проблемам, развитие художественного мышления, служение эстетическому идеалу.*

***Abstract.** The article studies the evolution of social ills in the poetry of the 60s generation, in particular, in the lyrics of A. Oripov. It is observed that the image of this ills gradually brought the poet closer to the reader.*

***Keywords:** 20th century, poetry of the 60s generation, hymn to social ills, development of artistic thinking, service to the aesthetic ideal.*

60-йиллар шеърияти XX аср ўзбек поэзияси тарихида алоҳида ўрин тутади. Чунки айнан 60-йилларга келганда шеърият халққа, инсонга яқинлашди. Қ.Йўлдошев тўғри таъкидлаганидек, А.Ориповга қадар “шўро шоирининг қулоғи замон юрагида, кўзи партия оғзида бўлиши лозим эди. Шеърият олам ҳодисаларини ифодалаш воситаси, чақириқ, даъват саналарди. Абдулла Ориф эса одамнинг ўзини, унинг шахси, туйғулар оламини асосий қадрият деб билди. Шу боис инсоннинг қалбини тадқиқ этиш эҳтиёжини туйди”[1]. Натижада 60-йилларгача шеъриятда урф бўлган “ура-урачилик” ўрнида бутунлай бошқа бир моҳиятли поэзия – мунг тўла бир шеърият туғилиб келди. Бу шеърият яна инсонпарвар ва ҳақиқатпарвар бўлиб майдонга тушди. 60-йиллар авлоди шеъриятининг бош хусусияти ана шундай эди. Улар орасида Абдулла Орипов, Эркин Воҳидов ва Рауф Парфилар шеърияти янаям ажралиб туради. “Олтмишинчи йиллар Эркин Воҳидов ва Абдулла Ориповнинг йиллари эди. Олтмишинчи йилларнинг янгилиги Абдулла Орипов ва Эркин Воҳидов бўлди... Шеърият бу йиллар ва айниқса, олтмишинчи йилларнинг илк пайтлари волюнтаризм ва расмиятбозлик тугал шаклланган бирёқламалик асоратларидан қутулиш палласига кириб кела бошлаган эди. Ҳа, бирёқламалик унча-мунча нарса эмас, у – асорат. Расмиятчилик ва буйруқбозлик унча-мунча нарса эмас, у – асорат. Поэзия мана шундай маънавий асоратлар исканжасида анча қисилган эди. Абдулла Ориповнинг қўлига соз олган пайти мана шундай асоратлардан халос бўлишга уриниш даврига тўғри келди. Бу шоир асоратдан халос бўлган овоз билан шеър айта бошлади. Унинг эркин-ҳур куйи ҳаммамизни ром қилиб олди. Олтмишинчи йиллар ҳар бир ёзган шеъри чин овоза бўлди. Ҳар бир шеъри бир воқеа каби қабул қилинди”[2], - деб ёзади Иброҳим Ғафуров.

Ҳақиқатан ҳам Абдулла Орипов 60-йиллар шеъриятининг энг забардаст вакилларидан бири. У шеъриятимизда дабдаба ва мадҳиябозлик расм бўлган, шоир ҳам, ўқувчи ҳам шунга кўниккан бир пайтда “қўққисдан йиғлаб юборган” ижодкор. XX аср ўзбек шеъриятига биринчилардан бўлиб энг ёқимли, энг хуш мунгни олиб кирган шоирдир у. Шунинг учун ҳам ўша вақтдаги расмий доиралар ва ҳатто адабий танқидчилигу жамоатчилик бир

[1] Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Т., Янги аср авлоди, 2006. – Б.250.
[2] Ғафуров И. Дил эркинлиги. – Т., Маънавият, 1998. – Б. 119.

қадар тараддудланиб қолганига қарамай, бу шеърият кўпчилик томонидан қабул қилинган, ҳатто севиб қолинган эди.

Қайтгим келди, онам, ёнингга,
Юрагимда исмсиз дардлар.
Совуқ хонам, соат чиқ-чиқи,
Ташқарида хазонрез боғлар,
Ёмғирнинг жим хониш қилиши...
Бариси ҳам нечундир бу дам
Туширмоқда сени ёдимга... [1, 49-бет]

Шеър 1963 йилда ёзилган. Яқин ўтмишимиздан яхши биламизки, бу вақтда собиқ Иттифоқ бўйлаб социализм қурилиши авжида, оддий одамдан раҳбарларгача, етти ёшдан етмиш ёшгача ушбу улкан қурилишга маънан ва жисман сафарбар этилган, инсон қайси соҳада ишламасин, кайфият-ҳоли нуқтаи назаридан ўша азим ишларга монанд руҳда бўлмоғи талаб қилинган вазият эди. Шеъриятда улкан шоир Ғ.Ғуломнинг ўктам, улуғвор, ғурур ва ифтихорга тўла, айни пайтда сиёсий-мафкуравий ҳозиржавоб “календарь” шеърлари баралла янграётган, ўқувчи ҳам шунга кўникканди. Бироқ бирдан атрофни мунгли бир нола тутади-да юрагидаги исмсиз дардлардан, онасини қаттиқ соғинганидан, унинг ёнига қайтгиси келганидан, чунки табиат ҳар доим ҳам киши бошини она бўлиб силамаслигидан тўлиб-тошиб ёзади. Ҳа, Абдулла Орипов 60-йилларда мафкуравий тарғиб-ташвиқот остида қайсидир даражада “темир одам”га, “робот”га айланиб бораётган замондошига унинг ўз, аслий туйғуларини ёдига солган шоирлардан биридир. Бироқ айни пайтда ва энг аввало, асосан, Абдулла Ориповнинг ўрни улкан ижтимоий шеърияти билан белгиланади. Ҳамма гап шундаки, кўпнинг дарди – ижтимоий дард “мен”нинг дардига, шоир дардига айлангани учун ҳам Абдулла Ориповнинг ижтимоий шеърияти бир вақтнинг ўзида кўнгил лирикасидек қабул қилинади.

Парво қилма, дўстим, эзилма сира,
Ғамгин қўшиқларни куйласа шоир.
Мисралари гарчанд маъюс ва хира,
Лекин барчаси ҳам қалбига доир.
Буюк замонанинг оташин зарби
Унинг қаламига ёт эмас асло.
Агар керак бўлса, Шарқни ва Ғарбни
Ёлғиз бир шеърига эта олар жо. [1,181-бет]

Дарҳақиқат, Абдулла Орипов шеъриятида даврнинг, замонанинг оташин зарби – қайноқ нафаси уфуриб турадики, назаримда, бадиий асарнинг кенг муваффақият қозониши шартларидан бири айнан шу ерда мужассам. Лекин давр нафаси шеъриятда Абдулла Ориповгача, Эркин Воҳидовгача, Рауф Парфигача йўқ эдими? Нега энди 60-йилларга келган ёш авлод поэзияси ўқувчилар қалбини бунчалар ром этди? Ахир Ойбеку Ғафур Ғулом, Шайхзодаю Миртемир, Асқад Мухтору Шуҳрат, Зулфияю Саида Зунунова каби бошқа ўнлаб забардаст шоирлар ижодида ҳам замона нафаси баралла сезилиб турар эди-ку! Гап шундаки, 60-йилларга келиб нафақат ўзбек, балки

ўша вақтдаги умумиттифоқ поэзиясида ҳам улкан эврилишлар юз берди. А.Вознесенский, Н.Рубцов, Р.Рождественский, Қ.Қулиев, Р.Ҳамзатов, Ў.Сулаймонов каби етук шоирлар ижоди шундан дарак беради. Ўзгариш ва эврилишларнинг туб сабаби, табиийки, И.Сталин вафотидан кейин мамлакат ижтимоий ҳаётида юзага келган “илиқлик” билан изоҳланади.

Шоир теграсидаги олам, ундаги ҳаёт, одамлар, муносабатлар ўзгаришига юз тутаётган эди. Бунинг натижасида шоир ўз асри билан, замондоши билан юзма-юз, бақамти келди ва самимий куйлай бошлади. Унинг шеърлари она заминга, одамга, унинг муаммоларига яқинлашиб келди. Е.Евтушенко бир шеърида “Келди ўзга замонлар, Кўринди ўзга номлар”[3] деб ёзади ўзгариб бораётган замондошларини кузатар экан. Бошқа бирн шеърида “Қўлланган услублар сийқадир энди, Билмай қолдим нима қиларимни ҳам”[4] деб айтадики, “ўзга замонлар” келганлиги услубларнинг янгиланишига эҳтиёж туғдирган, замин яратгандек таассурот қолдиради. Ёки А.Вознесенский ёзади:

Тинглар сангдил аср ҳам...
Юракдан теран жўшиб,
Ўзга фикрли одам
Куйлар ажиб бир қўшиқ[5]

Кўринадики, 60-йилларда ёзилган бу шеърларда шоир инсоннинг ўзгариб бораётгани, бунга сабаб – унинг фикрлари, қарашлари бошқа мазмун, характер касб этаётганидан сўз очаяпти. Шундай мазмунга яраша ўзга услуб ҳам қидирилмоқда. Тахминан мана шундай кайфият 60-йиллардаги ўзбек шеъриятида ҳам ҳукм сурди. Натижада Э.Воҳидов, А.Орипов, О.Матчон каби шоирларимизнинг янги мазмунни янгича оҳанглар, ифодалар билан тараннум этган шеърлари майдонга келди. Албатта, бу ўриндаги “янги мазмун”, “янги оҳанг”, “янги ифода” каби иборалар ғоят баҳсталаб. Чунки шеъриятдаги чинакам янги мазмун ва шунга муносиб янги шакл XX аср аввалида пайдо бўлган. Шунга қарамасдан, 40 – 60- йиллар оралиғида ўзбек поэзиясида ҳукм сурган умумий баландпарвозлик ва схематизм қаршисида 60-йиллар шеърияти шартли маънода назмимизнинг қайтадан жонланиши, янгиланиши эди. Профессор О.Шарафиддинов: “А.Орипов янги ўзбек шеъриятини яратгани йўқ. У шеър тузилишини ислоҳ қилмади, аксинча, унинг ҳамма шеърлари традицион воқеалар асосида туғилган. У поэтик тафаккурнинг янги қонуниятларини кашф этгани йўқ”...[6] деб ёзса ҳам, барибир, А.Орипов мансуб 60-йиллар авлодининг ўзбек шеърияти бадиий тафаккур тараққиёти силсиласидаги улкан вазифасини бехато илғайди: “Чинакам шоир доим адабиётга шеъриятнинг янгича талқинини олиб келади ва бунда замоннинг эстетик эҳтиёжлари ифодаланади. Шундай вазифаларни янгича тушуниш, шоирнинг

[3] Ложувард осмон.Тўплам. М.Мирзо таржимаси. – Т., Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2008. – Б. 65.
[4] Ўша асар. – Б. 61.
[5] Ўша асар. – Б. 101.
[6] Шарафиддинов О. Ҳаёт билан ҳамнафас. – Т., Ёш гвардия. 1983. – Б.156.

жамият ҳаётидаги ўрнини янгича талқин қилиш А.Орипов учун ҳам характерли”[7].

60-йиллар аввалида А.Орипов кўпроқ инсон қисмати, муҳаббат, армон, умрнинг шошилинч оқиши, табиат каби мавзуларда қалам тебратади, кўнгил манзараларини чизди. Унинг ижодига чинакам ижтимоий ноталар Ватан мавзуси билан бирга кириб келди ва бу мавзу шоир поэзиясининг лейтмотивига айланди. Хусусан, 1964 йилда ёзилган “Мен нечун севаман Ўзбекистонни” шеърини олиб кўрайлик. Сарлавҳага чиқарилган савол шунчаки риторика эмас, балки ўз Ватанига бўлган муҳаббатини тушуниш мақсадида қўйилган мулоҳазакор саволдир. Савол шу тарзда қўйилганиёқ муаммо шоир учун ижтимоий-шахсий долзарблик касб этгани, мавжуд қарашлар уни қониқтирмаганидан бу борада ўз ғоявий-эстетик мавқеини белгилаш эҳтиёжи туғилганини кўрсатади. Шу эҳтиёж шоирнинг лирик-фалсафий мушоҳадаларига туртки беради:

Аслида, дунёда танҳо нима бор,
Пахта ўсмайдими ўзга элда ё?
Ахир қуёшли-ку бутун Осиё. [1;57-бет]

Демак, Ўзбекистоннинг серқуёшлиги ёки унда пахта ўсиши шоир севгисига етарлича сабаб эмас ва айни ҳол мавзу талқинида уни салафлардан фарқлайди. Шоир изланишда – Ватан муҳаббатига омил бўлган бош сабабни қидиришда давом этади. Ниҳоят, топади ҳам:

Хўш, нечун севаман Ўзбекистонни,
Сабабини айтгин десалар менга,
Шоирона, гўзал сўзлардан олдин
Мен таъзим қиламан она халқимга. [1;57-бет]

Шоир йўл юради, йўл юрса ҳам мўл юради, охир ўзи кўзлаган – қалбига таскин бағишлайдиган манзилга етиб келади. Лекин бу йўл шунчаки йўл эмас, балки рамзийдир. Унинг маъноси – ёш шоир тафаккур йўлини, англаш йўлини босиб ўтади. Ватанни тушуниш сари улоққан йўл уни халқининг қошига олиб келади.

Халқим, тарих ҳукми сени агарда
Мангу музликларга элтган бўлсайди,
Қорликларни макон этган бўлсайдинг
Меҳрим бермасмидим ўша музларга? [2;57-бет]

Демак, шоир учун Ватаннинг қаерда жойлашганлиги, боши устидаги қуёш нурининг оз-кўплиги аҳамиятсиз. У ҳатто “Мангу музликлар”да бўлса ҳам – барибир, шоир Ватанни севишда давом этаверади. Чунки бунга биринчи ва асосий сабаб – халқи! Халқни ўйлай бошлаган шоирнинг эса унинг ўтмиши, бугуни ва келажаги тўғрисида мулоҳаза юритмаслиги мумкин эмас. Бундай йўлни – фикр йўлини, мулоҳаза йўлини босиб ўтган шоирнинг қаламидан чиққан лирика, табиийки, ижтимоий мазмунга тўйинган ҳисобланади.

[7] Ўша жойда.

Юқорида ижтимоий дард “мен”нинг дардига айланганини айтдик. Агар шу шеърга татбиқан олсак, бу давр кишиларида Ватан туйғуси ўзгаришга учрай бошлаган ва айни ҳол шоир орқали аксланган деганидир. Худди шу туйғуни давр шеъриятининг бошқа бир йирик вакили Э.Воҳидов:

Йўқ, мўътабар эмас асли ер,
Қутлуғ эмас тупроқ ҳеч қачон.
Муборакдир инсон тўккан тер,
Мўътабардир қутлуғ тоза қон[8], –

дея ўзгачароқ йўсинда ифода этади. Яъни Ватан аждодларнинг тер ва қони тўкилган маъво эканлиги билан муқаддас, мўътабардир.

Ватанга бу тарз қиммат берилиши табиий равишда унинг ўтмишига назар солишга, тарихни қайта идрок этишга ундайди. Бу эса 60-йилларда шеъриятимизда Ватан мавзусидаги энг гўзал шеърлардан иккитаси дунёга келишига замин бўлди. Мен А.Ориповнинг “Ўзбекистон” шеъри ҳамда Э.Воҳидовнинг “Ўзбегим” қасидасини назарда тутмоқдаман. Салафлардан фарқ этиб, бу шеърларда иккала шоир ҳам юрти тарихига холис назар солишга интилади: агар 20-йиллар авлоди ўтмишда фақат қора саҳифаларни кўрган бўлса, бу авлод унинг шонли саҳифаларини ҳам варақлай бошлади. Ва бириси “Олис тарих қадамим маним, Ўзбекистон, Ватаним маним” [1,222-бет] дея, иккинчиси “Сенга тенгдош Помиру оқсоч Тиёншон, ўзбегим” [I,334-бет] дея фахр ҳиссини туйди. Шонли саҳифаларни варақлаш асносида буюк аждодлар – ўзбек тарихида ёрқин из қолдирган сиймолар амалга оширган улуғ ва хайрли ишлари қаторида ёдга олинади. Бу дегани ўша номлар ва уларга ёндош тарихий воқеалар шоирлар тафаккурида бир ерга жам этилиб, замондош инсон онгида қайта таҳлилдан ўтказилди. Агар Ватанга муҳаббат ўзи мансуб халққа муҳаббатдан келиб чиқишининг англаниши илк қадам бўлса, бу шеърларда Ватан муҳаббатига сабаб бўлган ҳадаф конкретлашади. Негаки, энди илдизларга назар солинмоқда: иккала шоир ҳам ўзини буюк аждодларга ворис деб билади, бундан фахр туяди. Бу шеърларда иккала шоир ҳам оламий миқёсда фикрлайди десак, хато бўлмайди. Чунки уларнинг ўтмишни идрок элагидан ўтказиши Ватани, халқининг дунёда тутган ўрнини, бошқача айтсак, миллий ўзликни англаш йўлидаги эҳтиёткорлик билан қўйилган илк қадамлардир.

Эҳтиёткорлик деганим бежиз эмас, замон шуни тақозо этарди. Хусусан, шеърларидаги шу хил янгича кайфият туфайли А.Ориповнинг хушёр мафкурачилар томонидан нишонга олингани ҳам шуни кўрсатади. Иккинчи томондан, ўз даври учун олға кетиш санаётганимиз бу шеърлар ҳам мафкура тазйиқидан ҳоли эмас эди. А.Орипов ҳам, Э.Воҳидов ҳам Ватан мавзусидаги шеърларини ёзар экан, ҳеч шубҳасиз, ижтимоиётга рўбарў келишган. Ҳа, 60-йиллардаги эркинлик эпкинлари ижодкор ботинидаги туйғуларни қўзғатиб юборганди. Образли қилиб айтганда, эркинлик шабадаси Алоуддин каби кўзани силаб ўтган ва оқибат унинг ичида ухлаб ётган дев уйғониб қолганди.

[8] Воҳидов Э. Сайланма. 2 жилдлик. 1-жилд. Муҳаббатнома. – Т., Адабиёт ва санъат, 1986. – Б.72; бундан кейин шу нашрдан кўчирма олинганда қавс ичида жилд ва саҳифа кўрсатилади.

Шунинг учун ҳам ўша давр поэзиясида ифода этилган ҳис-туйғую фикрлар, тарихимизнинг олдинги босқичига нисбатан олинса, чиндан ҳам мўъжиза. Масалан, рус шеъриятидан биргина В.Высоцкийни олайлик. У ҳеч қандай келишувчиликка бормайди, даврни, жамиятни, тузумни, ундаги кайфиятни аёвсиз танқид қилади:

Нечун мен жамият қалби бўлайин,
Қачонки, унда қалбнинг ўзи бўлмаса[9]

Шоир ўзи яшаётган жамиятни қалбсизликда айблайдики, бу ўз даври учун жуда кучли танқид эди.

Албатта, ўзбек шеъриятида бундай очиқдан-очиқ радикал кайфият маҳсули бўлган шеърлар ёзилмаган. Лекин шунга қарамай, тарих ва бугунни идрок этиш шоирни анча-мунча кўз юмилмас хақиқатлар майдонига чиқариб қўйган десак, янглишмаймиз. Ҳа, А.Орипов бу даврда 1981 йилда ёзилган “Мени олиб кетинг...” шеъридаги каби:

Талпинган диёрим – у Ўзбекистон,
Сеҳрини айтишга борми ҳеч имкон!
Йўқ, ўзга юртларда беролмасман жон,
Мени олиб кетинг Ўзбекистонга [1,443-бет].

Шоирнинг Ватанга муносабати заминида жуда улкан ижтимоий-сиёсий асос, қарийб йигирма йиллик изтиробли изланишлар ётибди. Яъни мазкур ғоя жамиятдаги илиқлик эпкинлари таъсирида илк ижодидаёқ ниш берган, унинг куртак ёзиши учун кўп вақт керак бўлди.

Фарҳод Ҳамроев “Ҳаёт фалсафаси ва шоир муҳаббати” (А.Орипов ва Н.Рубцов ижодининг муштарак ва ўзига хос хусусиятлари) тадқиқотида ҳар икки шоир ўртасидаги муштаракликни, аввало, “сокин лирика”даги адабий яқинликда кўради. Айни чоғда ижтимоий мавзулардаги уйғунликни ҳам эътироф этади: “А.Орипов ва Н.Рубцов ўзларигача бўлган даврдаги ижодкорларнинг бутун бир авлоди заминида шаклланган ноёб салоҳият эгаларидир... Бу шоирлар ижоди адабий омилларнинг ўзи билангина чекланмасдан, бошқа каттароқ миқёсдаги тамойиллар самараси бўлган дунёқарашнинг ўзига хос кўринишидир... Бу ҳол ҳар иккала шоирнинг Ватан ҳақидаги таъсирчан шеърларида, айниқса, яққол намоён бўлади”[10].

Тарихга – мозийга қайтиш, уни хаёлан сайр этиш, шунинг баробарида, замондош инсон сийратига боқиш А.Орипов шеърларининг ижтимоий-психологик асосини белгилайди. “Асримиз одами” шеъридан ўқиймиз:

Менинг кўз ўнгимда жонланар тарих,
Ғамлардан тўқилган шу кўҳна олам.
Асрлар бирма бир ўтар ва ахир,
Юксалар қаршимда энг бахтли одам.[1,62-бет]

Лекин шу бахтли одам “Бахтининг ёнида ғами кўринар, ғами кўринади бахтида унинг”. Нега? Чунки у XX аср одами. Маълумки, бу аср техника асри, атом асри, югур-югур, чоп-чоплар асри. Аслида, адабиётни

[9] Высоцкий В. Стихотворения. – М., Эксмо, 2008. – С.24.
[10]Ёшлар китоби. Тўплам. – Т., Шарқ, 2008. – Б.398.

ижтимоийлаштирган омиллардан бири ҳам – шу. Асримиз одами бой-бадавлат. Унинг ҳамма истаги муҳайё. Лекин “унинг чеҳрасида ташвиш бор, нечун?” Чунки у бир зум жим турмайди, иши бошидан ошиб ётибди. Барчасининг сабаби битта – асримиз одами “ўзи банди бўлган олам устидан Ҳоким бўлмоқни у истар ягона!” [1,62-бет] Мана, ниҳоят, мақсад юзага чиқди, аёнлашди. XX аср одами жонини жабборга бериб, шу кунгача ўзи банди бўлган олам устидан яккаю ягона ҳоким бўлишни ўйлаб ҳаловатидан, тинчидан айрилган. Ва, энг қизиғи, аср одамининг ўзи ҳаловат истаётгани йўқ: А.Ориповнинг лирик қаҳрамони “Менга ором истаманг, дўстлар” [1,89] деса, Э.Воҳидовники “Йўқ ҳаловат истамайман” [I,75],- дея жўр бўлади. Нега? Негаки, иккиси ҳам курашга ташна, курашчиларнинг сафида бўлгиси, яратиш шавқи билан жўшиб яшагиси келади уларнинг, эгизакларнинг бири Э.Воҳидов 1960 йилда ёзган “Йўқ, ҳаловат истмайман” шеърида, иккинчиси А.Орипов 1964 йилда ёзган “Шундай яшар одатда одам” шеърида бўй кўрсатади. Талқиндаги умумийлик, албатта, даврнинг ижтимоий кайфияти билан, иккала шоирнинг уни бирдек илғагани билан боғлиқ.

Жамиятдаги фасл алмашиши 60-йилларнинг ўрталаридан унинг шеъриятида ижтимоий асосдаги маънавий-руҳий изланишлар кучайганининг ижтимоий-психологик омилидир. Шу даврда яратилган “Альбомга”, “Юзма-юз”, “Ўйларим” шеърлари 60-йиллар ўзбек шеъриятидаги ижтимоий поэзиянинг бақувват намуналари бўлиш билан бирга, шоирнинг ижтимоий кечинмалари тадрижини кўрсатиши билан ҳам характерлидир. “Альбомга” шеърида лирик “мен”нинг коммунизм ғоясига беғараз муҳаббати, унга эътиқод даражасида ишонгани яққол кўзга ташланади. Шоир “ҳар ким ўз дардини айтиб бўзлаган” альбомнинг “ҳали из тушмаган оппоқ варағига” ўз дардимни ёзаман дейди.

А.Орипов “Мен нечун севаман Ўзбекистонни?” шеърида Ватанга муҳаббати боисини излагани каби “Юзма-юз”да ғояга эътиқоди сабабини тафтиш этади. Аввало, шеърда мунозара руҳи бор. Шоир коммунизм ғоясига ишончсизлик билан қараши мумкин бўлган мухолифларга қарата дейди:

Эй нозик ўқувчи, учмасин ҳушинг,
Буюк мақсад сари етса мисралар.
Фарёд солманг тағин, қизил гап, дея
Элга фарзанд элнинг гапин дер. [1,77-бет]

Шоир учун бу қизил гап эмас, унинг назарида “ўзимиз ахтарган бахтлар, Бўғзимизда ҳар эзгу армон, Барчаси бир сўзда жамланди, агар Ёқмаса топингиз бошқа бирор ном!” [1,79-бет] Яна шоир ўзи учун сўз шакли муҳим эмаслиги, мағизга қараётганини таъкидлайди. Мағизга қарагани ҳолда истиқболни куйлаган шоир унда “Ер юзида кезган зулмату ваҳшат, Чекинар-ку ахир, пок бўлур дунё!” [1,78-бет] дея умидланади, ўшанда “ул эзгу ният Халқимга бахтини айлар ҳадя” [1,78-бет] дея ишонади. Ватанга муҳаббати халқига муҳаббатдан озиқланган шоирнинг коммунизм ғоясига ишончу умиди ҳам шу халқ билан боғлиқ экан. Шу боис ҳам “миллион эгатларга сочилган ўзбек” нигоҳини қайта-қайта ўзига тортади, халқига қараганида “кузги япроқдайин маъюс ўсган”, турмуши оғир меҳнат билан кечаётган

рангпар синглисини кўради, “Сингилга – халқимга боқсам доимо, Улуғ келажакни айладим орзу” [3;79-бет] дейди.

Шу ўринда 20-30-йиллар шеъриятидаги талқин билан А.Орипов талқинидаги асосий фарққа эътибор қилиш зарур. 20-30-йиллар шеъриятида октябрь тўнтариши халқнинг бахтиёрлиги ва фаровонлигини таъминлади қабилидаги талқин устувор эди. А.Орипов эса қарийб ярим асрдан кейин ҳам “синглиси – халқи”нинг аҳволидан қониқмайди, чекаётган машаққатларини ўйлаб эзилади, истиқболда яхши бўлишига умид қилади. Фарқ шуки, 20-йиллар авлоди ғоя бағрига сингиб кетади ва шу туфайли фақат ўша жойдан туриб ҳаётга назар солади; А.Орипов бўлса ғоя бағридан туриб ҳаётга, ҳаётнинг қайноқ қўйнидан туриб ғояга ёндашади. Яъни салафлар учун, юқорида айтилганидек, ғоя бир байроқ – сиғиниладиган ашё, А.Орипов учун эса – ҳаёт ва ижоддаги дастурилмамал. Шу боис салафлар аксар ҳолларда ҳаётдан узилиб, ғоянинг оддийгина маддоҳига айланса, А.Ориповнинг 60-йиллар ижодида ғоядан келиб чиқиб ҳаётни, ҳаётдан келиб чиқиб ғояни тафтиш этишга ҳаракат кузатилади. Натижада кўнгли умид ва умидсизлик орасида талош бўлади, гоҳ қувониб, гоҳ изтиробга тушади – тўлақонли яшайди ва шу нарса шеърларига ҳаётийлик беради. “Ўйларим” [2;129-132] шеърида умидсизлик ғолиб палладаги изтироблар акс этган. Бу изтироблар идеал билан ҳаёт, тасаввурдаги олам билан реаллик орасидаги номувофиқликдан туғилган. “Мактаб бордик – оғир бўлиб қолдик дафъатан” деб ёзади шоир. Негаки, энди мурғак шуурга Ватан, одам ва олам, дўстлик, одамийлик... каби залворли тушунчалар сингиб боради. Шоирнинг “Бу дунёда алам бўлмас, бўлмас деб фироқ Даста-даста китоблардан ўқирдик таълим” [ЙА,130] деганида, менимча, 56-йилдан кейинги кайфият зуҳур этади. Шу кайфият таъсирида ёзилган мактаб дарсликларида 80-йилларга келиб кейин СССРда коммунизм қурилади деган чўпчаклар комил ишонч билан ёзилган, мурғак қалбларга шу ишонч сингдирилганди. Кишиларда эртанги кунга собит ишонч туғилган:

Равон йўллар қаршингизда турибди муштоқ
Дерди бизга ҳарф ўргатган ёш бир муаллим. [1;130]

Лекин ҳаёт бошқа, хаёл бошқа дейдилар. Энди, “йиллар она қучоғидан юлиб олган” лирик қаҳрамон ҳаёт билан тўқнашганида, “Юрагига бир маҳаллар кирган туйғулар энди сендан кетгаймиз деб сўрайди жавоб”. [1;130] Мана, изтиробнинг сабаби. У инсонни “нурдан яралган” деб ўйларди, лекин “разил одамлар” ҳам кўп экан, “олам пок” деб ўйларди, разолатга тўла экан... Ёшликда юксак ва эзгу мақсадлар билан ёнган юрак энди тўниб қолган, “Ўт беролмас қалбга энди у ёшлик дамлар”. Лирик қаҳрамон дилидаги изтироб юқорида айтилган жамиятдаги фасл алмашиши билан боғлиқ. Айни шу кайфият А.Ориповнинг 1966-68 йилларда ёзилган бошқа айрим шеърларида ҳам кузатилади. Жумладан, “Баҳор кунларида кузнинг ҳавоси” номли пейзаж шеъри:

Атрофимда ётар ғариб бир виқор,
Билмам нега ўчди қалбим сафоси.
Нима ҳам қилардим, на иложим бор

Баҳор кунларида кузнинг ҳавоси [1;173]

деб тугалланадики, бунда ҳам ижтимоий оҳанглар бордек. Ёки “Жаннат” номли ҳазил шеър. Унда укасига эрмак учун афсонавий жаннат ҳақида эртак сўйлаганию сўнг боланинг “топиб бер” дея қилган ҳархашасидан қанд-қурсу боқчани жаннат деб кўрсатиш билан аранг қутулгани ҳикоя қилингач, шундай якун ясалади:

Майли, болага бу ўйин бўлади,
Лекин катталарга сўйламанг эртак.
Улардан қутулиш қийин бўлади. [1,150-бет]

Назаримда, бу шеърда шоирнинг ўз-ўзига коммунизм ғоясига юрак-юракдан ишонган “ғўр” пайтига нисбатан киноя бор. Албатта, кейинги иккита шеърни бундай талқин қилишимга эътироз қилиш, ўзига мослаб талқин қилганликда айблаш мумкиндир. Лекин, менимча, бундай талқинга изн берадиган асослар етарли. Аввало, “Ўйларим” ёзилган пайтдаги ижтимоий кайфиятнинг уларда ҳам шоир шахси орқали акс этган бўлиши табиий. Демак, алоҳида шеър ўзининг мазмун-моҳиятини шоир ҳаётининг маълум бир босқичида ёзилган бошқа шеърлар контекстида тўлароқ очади.

Юқоридаги шеърлар таҳлили 60-йиллар охирига томон А.Ориповнинг ғояга муносабати муттасил ўзгариб борганини, бу ўзгаришлар жамиятдаги ўзгаришлар билан боғлиқ ҳолда юз берганини кўрсатади. Бундай кайфият биргина А,Ориповга хос бўлмай, балки фикрловчи кишиларнинг кўпига хос эди. 60-йилларнинг ўрталаридан бошлаб собиқ иттифоқда диссидентликнинг кучайгани шу ўзгаришлар билан боғлиқ эдики, бунинг бадиий адабиётда акс этмаслиги мумкин эмасди. Жумладан, Э.Воҳидовнинг юқорида зикр этилган “Илтижо” шеърида лирик қаҳрамон “мўъжизий қудрат”га “Ёруғ ишончимдан қилмагил жудо” дея илтижо қилади. Бу ўзининг ғояга ишонч-эътиқоди соб бўлаётганини ҳис этиб турган одам кайфиятидир. Лекин бу 60-йиллар авлоди, хусусан, унинг икки йирик вакили маслаксиз, ғоясиз қолди дегани эмас. Аксинча, уларнинг маслаги, ғояси конкретлашди. “Ўйларим”даги мана бу мисраларга диққат қилинг:

Юрагимга бир маҳаллар кирган туйғулар
Энди сендан кетгаймиз деб сўрайди жавоб.
Мени бир зум ҳол-жонимга қўймайди улар,
Қўймайдилар, ваъдаларинг чиқди деб сароб.
Кўз олдимда собит турар фақат шу Ватан,
Кулбаси ҳам кенглик қадар чулғайди мени.
Туйғуларим фақатгина унга берар тан,
Юртим мен ҳам умрим қадар севгайман сени. [1,131-бет]

Шеърлар таҳлилидан кўриняптики, изтиробга тўлиқ ижтимоий-руҳий изланишлари натижасида бир маҳаллар шоир онгу шуурини эгаллаган ўй-туйғулар йўқолди, собит қолгани биргина Ватанга муҳаббат бўлди. Ватанга муҳаббат эса, юқорида кўрдик, халққа муҳаббатдан келиб чиқади. Халққа муҳаббат унинг бугуни ва эртаси ҳақида қайғуртиради, унинг истиқболи ёруғ бўлиши ҳақидаги орзуларни туғдиради. Идеалнинг конкретлашиши деганда биз шуни назарда тутган эдик. Яъни шоир мавҳум ғояни идеал билиб унинг

қобиғида ўралиб қолмади, ҳаётдан келиб чиққан ҳолда иқтидор кучи билан уни ўзи учун аниқлаштириб олди. Ва унинг идеали ВАТАН – ХАЛҚ, ИСТИҚБОЛ отлиқ бир-бирига чамбарчас боғлиқ учта асосга қурилди. Шу маънода, А.Орипов коммунизм ғоясининг ёхуд мафкуранинг куйчиси деб бўлмайди, зеро, шоир луғатидаги “коммунизм” сўзида Ватан, халқ ва истиқбол маънолари доминантлик касб этгандир. Бошқа ҳолатлар, масалан, турли саналар муносабати билан ёзилган қутлов типидаги шеърлар эса муроса қабилидан саналиши мумкин. Зеро, эл назарига тушиб улгурган шоир ҳатто ўзи истаса-да доим ҳам жим туролмайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Орипов А. Йиллар армони. Тошкент: 1983.-124.
2. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Т., Янги аср авлоди, 2006.
3. Ғафуров И. Дил эркинлиги. – Т., Маънавият, 1998.
4. Ложувард осмон.Тўплам. М.Мирзо таржимаси. – Т., Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2008.
5. Шарафиддинов О. Ҳаёт билан ҳамнафас. – Т., Ёш гвардия. 1983.
6. Воҳидов Э. Сайланма. 2 жилдлик. 1-жилд. Муҳаббатнома. – Т., Адабиёт ва санъат, 1986.
7. Высоцкий В. Стихотворения. – М., Эксмо, 2008. – С.24.

ABDULLA ORIPOV ASARLARINI TA’LIM MUASSASALARIDA O‘RGANISHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Abdullaeva Shaxzoda Abdullaevna
“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Iqtisodiyot fakulteti “Tillar” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya. *Mazkur maqolada shoir asarlarini o‘qitishning metodik yondashuvlari, ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni va tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. Maqolada Abdulla Oripov ijodini oliy ta’limda o‘rganishdan ko‘zlangan asosiy maqsad, shoir asarlarini o‘qitishga doir kognitiv, kompetensiyaviy, integrativ yondashuvlar, ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan interfaol metodlar xususida fikr bayon etilgan. Shuningdek, muallif tomonidan Abdulla Oripov badiiy me’rosida ilgari surilgan g‘oyalar ta’lim oluvchilarda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirishi, shoir asarlarini bir qancha yo‘nalishlarda tasniflab o‘rganish maqsadga muvofiqligi xaqida ilmiy asoslangan g‘oyalar keltirilgan.*

Tayanch tushunchalar: *Abdulla Oripov ijodi, shaxs rivoji, tarbiya, ma’naviyat, axloqiylik, milliy o‘zlik, vatanparvarlik, o‘zbek xalqi, qadriyat, badiiy obraz, falsafiy qarash, poetika, uslub, obrazlar tizimi, ta’lim muassasasi, metodik yondashuv, tarbiyaviy ahamiyat, kognitivlik, kompetensiya, integrativlik.*

Аннотация. *В данной статье освещаются методические подходы к преподаванию произведений поэта, их роль в образовательном процессе и*

воспитательное значение. В статье изложены основные цели изучения творчества Абдуллы Орипова в системе высшего образования, а также рассмотрены когнитивный, компетентностный и интегративный подходы к преподаванию произведений поэта, особенности применения интерактивных методов в учебном процессе. Кроме того, приведены научно обоснованные положения о том, что идеи, выдвинутые в художественном наследии Абдуллы Орипова, способствуют формированию у обучающихся высоких нравственных качеств, а также о целесообразности классификации и изучения произведений поэта по нескольким направлениям.

Ключевые понятия: *творчество Абдуллы Орипова, развитие личности, воспитание, духовность, нравственность, национальная идентичность, патриотизм, узбекский народ, ценность, художественный образ, философские взгляды, поэтика, стиль, система образов, образовательное учреждение, методический подход, воспитательное значение, когнитивность, компетенция, интегративность.*

Abstract. *This article highlights methodological approaches to teaching a poet’s works, their role in the educational process, and their educational and moral significance. The article discusses the main objectives of studying the works of Abdulla Oripov in higher education, as well as cognitive, competency-based, and integrative approaches to teaching the poet’s works, and the interactive methods used in the learning process. In addition, the author presents scientifically grounded ideas on how the concepts advanced in Abdulla Oripov’s artistic heritage contribute to the formation of high moral qualities in learners, and argues for the expediency of studying the poet’s works through classification in several directions.*

Key concepts: *Abdulla Oripov’s creative work, personal development, education, spirituality, morality, national identity, patriotism, Uzbek people, values, artistic image, philosophical outlook, poetics, style, system of images, educational institution, methodological approach, educational significance, cognition, competence, integration.*

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotira va ma’naviy qadriyatlarga sodiqligini mustahkamlash zarurati ortib bormoqda. Bu jarayonda Abdulla Oripov ijodi kuchli tarbiyaviy manba bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek adabiyoti taraqqiyotida Abdulla Oripov ijodi alohida o‘rin tutadi. Uning she’rlari va dostonlari milliy tafakkur, vatanparvarlik, insoniylik, e’tiqod va ma’naviy barkamollik g‘oyalarini teran badiiy ifoda etishi bilan ajralib turadi. Shu bois Abdulla Oripov asarlarini ta’lim muassasalarida o‘qitish va o‘rganish nafaqat adabiy bilimlarni shakllantirish, balki yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Abdulla Oripov ijodi asosan O‘zbekistonda chuqur o‘rganilgan**,** ammo uning she’riyati xorijiy turkologiya, sharqshunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik doirasida ham tadqiq etilgan. Turkiyada o‘zbek adabiyoti, jumladan Abdulla Oripov ijodi turkologiya doirasida o‘rganilgan.

O‘zbek zamonaviy she’riyati, ayniqsa milliy g‘oya va vatanparvarlik mavzusidagi she’rlar tahlilida turkiyalik olimlar Abdullah Kara, Mehmet Saray Abdulla Oripov ijodiga murojaat qilishgan. Ular turkiy xalqlar adabiyotini qiyosiy o‘rganishda Abdulla Oripovni milliy ruhni ifodalagan zamonaviy shoir sifatida baholaydilar. Bugungi kunda ham Turkiya universitetlarida (Anqara, Istanbul, Egey universitetlari) Abdulla Oripov she’rlari magistrlik dissertatsiyalari va ilmiy maqolalarda tahlil qilinmoqda.

G‘arbda N.I.Prilutskiy, Ye.V.Abdullaeva (Rossiya Federatsiyasi), Edvard Olvort (AQSh) Abdulla Oripov ijodini o‘zbek adabiyoti asosan sharqshunoslik kontekstida o‘rganishgan hamda Markaziy Osiyo xalqlari zamonaviy adabiyoti haqidagi tadqiqotlarida Abdulla Oripov she’riyatidagi falsafiy yo‘nalishni qayd etishgan. Shuningdek, tadqiqotchilar O‘zbek poeziyasida milliy o‘zlik va ma’naviyat mavzularini tahlil qilar ekan, Abdulla Oripov ijodini alohida tilga olishadi. Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida qator olimlar Abdulla Oripov ijodini milliy uyg‘onish poeziyasi sifatida talqin etishmoqda.

Adabiyotshunos olim N. Karimov ta’kidlaganidek, “Abdulla Oripov she’riyati xalq qalbining dardlari va orzularini falsafiy teranlik bilan ifodalagan adabiy maktabdir”[5;86-b.]. Shu bois shoir asarlarini ta’lim muassasalarida o‘qitish masalasi bugungi kunda dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida qaralmoqda.

Abdulla Oripov ijodida inson, jamiyat va Vatan tushunchalari markaziy o‘rin egallaydi. Adabiyotshunos U. Normatov shoir ijodiga baho berar ekan, uning she’riyatini “milliy o‘zlikni anglashning poetik manifesti” deb ataydi[]. Shoir asarlarida badiiy obrazlar orqali chuqur falsafiy xulosalar beriladi.

Abdulla Oripov ijodida milliy ruh, falsafiy teranlik va badiiy soddalik uyg‘unlashgan. Shoir she’riyatida Vatan, ona til, inson qadr-qimmati, iymon va e’tiqod masalalari yetakchi mavzu sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, “O‘zbekiston”, “Munojot”, “Sohibqiron”, “Haj daftari”[3,4] kabi asarlari o‘quvchilarda chuqur hissiy-tafakkuriy ta’sir uyg‘otadi. Shoir o‘z asarlarida xalqona ohang va zamonaviy fikrni uyg‘unlashtirib, o‘quvchini mushohadaga chorlaydi. Bu esa uning ijodini ta’lim jarayonida o‘rganishga qulay va samarali qiladi. Abdulla Oripov she’rlari orqali o‘quvchilar nafaqat adabiy-estetik zavq oladi, balki hayotga, jamiyatga va o‘z shaxsiga nisbatan mas’uliyat hissini anglay boshlaydi.

Abdulla Oripov ijodini oliy ta’limda o‘rganishdan ko‘zlangan asosiy maqsad: ta’lim oluvchilarda adabiy tafakkur, mustaqil fikrlash va ma’naviy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini rivojlantirishdir. Ushbu maqsad quyidagi vazifalar orqali amalga oshiriladi: shoir ijodi bilan tanishtirish va uning adabiyotdagi o‘rnini anglatish; asarlarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini tahlil qilish ko‘nikmasini hosil qilish; o‘quvchilarda vatanparvarlik, milliy g‘urur va insonparvarlik tuyg‘ularini kuchaytirish; badiiy matn bilan ishlash madaniyatini rivojlantirish.

Mazkur vazifalar ta’limning barcha bosqichlarida- umumta’lim maktablari, akademik litseylar va oliy ta’lim muassasalarida izchil amalga oshirilib kelinmoqda.

Abdulla Oripov asarlarini ta’lim muassasalarida o‘qitish va o‘rganish ta’lim va tarbiya uyg‘unligini ta’minlaydi. Shoir ijodi orqali o‘quvchilar adabiy bilim bilan bir qatorda, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni egallaydi.

Zamonaviy metodik yondashuvlardan foydalanish esa ushbu jarayonning samaradorligini yanada oshiradi. Shu bois Abdulla Oripov ijodini o‘rganish ta’lim tizimida doimiy va uzluksiz tarzda olib borilishi, dars jarayonlarida innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan boyitilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shoir ijodini samarali o‘qitish zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodik yondashuvlardan foydalanishni talab etadi. An’anaviy izohli o‘qish bilan bir qatorda, interfaol usullar ta’lim samaradorligini oshiradi. Ta’lim jarayonida turli interfaol metodlardan foydalanish ham samarali natija beradi. Masalan, *matn tahlili metodi* — asar mazmunini chuqur anglashda muhim ahamiyatga ega. She’r yoki doston satrma-satr tahlil qilinib, obrazlar, badiiy vositalar va g‘oyaviy mazmun ochib beriladi.

Muammoli ta’lim metodi orqali o‘quvchilar mustaqil fikrlashga undaladi. Masalan, shoirning “Munojot” asari asosida iymon, inson va jamiyat munosabatlari haqida savol-javoblar tashkil etish mumkin.

Interfaol metodlar: Svot-tahlil, Breynshtorming, Keys-stadi, Veb-kvest kabi metodlar Abdulla Oripov ijodini o‘rganishda samaralidir va talabalar faolligini oshiradi. Guruhlar bilan ishlash orqali asar g‘oyasini tahlil qilish, sahnalashtirish yoki ijodiy topshiriqlar berish samarali natija beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham muhim. Shoir hayoti va ijodiga oid videolar, audio yozuvlar, elektron taqdimotlar darsni jonlantiradi.

Zamonaviy pedagogikada interfaol metodlarning ta’lim samaradorligini oshirishi alohida qayd etilgan. B. Bloom taksonomiyasiga ko‘ra, yuqori darajadagi tafakkur- tahlil, sintez va baholash bosqichlarida shakllanadi. Abdulla Oripov asarlarini o‘rganishda Breynshtorming, Veb-kvest kabi metodlar shoir yozgan asarlarning g‘oyasini aniqlash, falsafiy qarashlarni baholash, estetik tafakkurni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Pedagog olim Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, “Tarbiya- yo hayot, yo mamot… masalasidir”[1;34-b.]. Abdulla Oripov asarlari aynan shu tarbiyaviy vazifani bajaradi. Abdulla Oripov ijodi yosh avlod tarbiyasida beqiyos ahamiyatga ega. Shoir asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar ta’lim oluvchilarda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantiradi. Shoir asarlarini bir qancha yo‘nalishlarda tasniflab o‘rganish maqsadga muvofiqdir:

birinchidan, *vatanparvarlik tarbiyasi*. Shoir Vatan timsolini muqaddas tushuncha sifatida talqin qiladi. Bu esa yoshlarni yurtga sadoqat, milliy g‘urur ruhida tarbiyalaydi. Abdulla Oripov she’riyatida Vatan obrazi markaziy va yetakchi g‘oyalardan biri bo‘lib, u onaga, muqaddas zamin va taqdirga qiyos qilinadi. Shoirning “O‘zbekiston” she’rida Vatan timsoli yuksak badiiy pafos bilan ifodalanib, unga sadoqat va muhabbat eng oliy insoniy fazilat sifatida talqin etiladi. Bu asarlar orqali o‘quvchilarda Vatanga mehr, yurt taqdiriga daxldorlik va fuqarolik mas’uliyati tuyg‘usi shakllanadi.

Abdulla Oripovning “O‘zbegim” (O‘zbegimsan, o‘zbegim”) mavzusidagi mashhur vatanparvarlik ruhidagi she’rlaridan biri. Unda lirik qahramon qaerga

bormasin, milliy kimligini yashirmasligi**,** do‘ppi orqali o‘zbeklikning ramziy belgisini ko‘tarib yurishi, o‘zini faxr bilan “o‘zbek” deb atashi**,** milliy g‘ururni tashqi belgidan ko‘ra ichki iftixor sifatida his qilishi badiiy obrazlar orqali ifoda etiladi.

“Qayga bormay, boshda do‘ppim...”[3;17-b.].

Shoir buni oddiy urf emas, balki ajdodlardan qolgan g‘urur deb anglaydi. Shoir shu orqali “men o‘zbekman” degan iftixorni yuksak qiymatga aylantiradi. Bu she’r yosh avlodda milliy o‘zlikni anglash, milliy ramzlarga hurmat va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Do‘ppi obrazi orqali shoir tashqi belgidan ko‘ra ma’naviy iftixor ustuvor ekanini ta’kidlaydi.

Vatan mavzui Abdulla Oripov ijodida o‘ziga xos yuksak maqomga ega. Ijodkorning bu mavzudagi she’rlari she’riyatda mavjud qoliplarga aslo mos kelmaydi. “Vatan” so‘zini suiiste’mol qilish, targ‘ibot-tashviqot ruhi shoir ijodiga mutlaqo begona. Abdulla Oripov Vatan mavzuiga betakror yondashadi, kutilmagan tashbehlarni qo‘llaydi, misralar quyilib keladi. Natijada ularni mutolaa qilganlar qalbida o‘z-o‘zidan ona zaminga muhabbat tug‘iladi.

yevgeniy yevtushenko «O‘zbeklarga xos donishmandlik, bag‘rikenglik, xokisorlik va andisha Abdulla Oripov poeziyasiga singib ketgan»ini e’tirof etsa, O‘ljas Sulaymonov fikricha, «Abdulla Oripov lirikasida qadimiy o‘zbek she’riyatiga xos eng go‘zal jihatlar mujassamlashgan. U o‘zbekning ramzi bo‘lgan ijodkor».

Ikkinchidan, *ma’naviy-axloqiy tarbiya*. Insoniylik, halollik, iymon-e’tiqod masalalari shoir ijodida markaziy o‘rinda turadi. Bu g‘oyalar o‘quvchilarning ma’naviy dunyosini boyitadi. Davlat ta’lim standartlarida belgilanganidek, adabiyot fanining asosiy vazifasi — o‘quvchilarda badiiy-estetik tafakkur bilan bir qatorda, ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishdan iborat. Bu jarayonda Abdulla Oripov ijodi kuchli tarbiyaviy va g‘oyaviy manba bo‘lib xizmat qiladi. iymon, vijdon, insoniylik masalalari yoshlar ongida mustahkamlanadi. Shuningdek, badiiy obrazlar orqali go‘zallikni his etish qobiliyati rivojlanadi.

Uchinchidan, *yoshlar tarbiyasida estetik tarbiya* masalasi. Abdulla Oripov she’rlari badiiy go‘zallik, obrazlilik va musiqiylik bilan ajralib turadi. Bu esa o‘quvchilarda badiiy did va estetik tafakkurni rivojlantiradi.

Abdulla Oripov she’riyati estetik jihatdan yuksak badiiylik, obrazlilik va musiqiylik bilan ajralib turadi. Shoir tilining soddaligi va teranligi o‘quvchilarda badiiy go‘zallikni his etish, poetik obrazlarni anglash qobiliyatini rivojlantiradi. Shoirning she’rlarida tabiat manzaralari, ramziy obrazlar va metaforalar estetik zavq uyg‘otish bilan birga, chuqur falsafiy mazmunni ham o‘zida mujassam etadi. Bu esa estetik tarbiyaning muhim jihati bo‘lib, o‘quvchilarda nafaqat go‘zallikni ko‘ra olish, balki uni anglash va qadrlash malakasini shakllantiradi.

Bir o‘lka bor dunyoda, biroq
Bitilmagan dostondir bori:
Faqat ojiz qalamim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim[3;22-b.].

Estetik tarbiya nuqtayi nazaridan, Abdulla Oripov ijodi yoshlarni so‘z san’atiga hurmat bilan qarashga, badiiy tafakkur va ijodiy tasavvurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, *tarixiy xotira va milliy ongni tarbiyalash* masalasi.Abdulla Oripov ijodi o‘zbek adabiyotida milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlik g‘oyalarini badiiy-falsafiy jihatdan yuksak darajada ifodalagan adabiy hodisa hisoblanadi. Shoir asarlarida Vatan nafaqat geografik makon, balki xalqning tarixiy xotirasi, ma’naviy merosi va ruhiy dunyosini mujassam etgan muqaddas tushuncha sifatida talqin etiladi. Bu holat uning ijodini yosh avlod tarbiyasida muhim manbaga aylantiradi. Abdulla Oripov ijodida tarixiy xotira masalasi alohida o‘rin tutadi. Shoir o‘z asarlarida xalqning boshidan kechirgan murakkab tarixiy sinovlarini, mustaqillik uchun olib borilgan kurashlarni badiiy umumlashtirish orqali ifodalaydi. “Sohibqiron” dostoni va tarixiy ruhdagi she’rlari orqali o‘tmish buyuk shaxslar timsolida milliy g‘urur va tarixiy iftixor tuyg‘usi tarbiyalanadi. Yoki, “O‘zbekiston” she’rida shoir shunday xitob qiladi:

“*Besh asrkim, nazmiy saroyni*
Titratadi zanjirband bir she’r.
Temur tig‘i etmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher.
Dunyo bo‘ldi chamanim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim...”[3;46-b.]

Tarixiy xotirani uyg‘otish orqali shoir o‘quvchini o‘z ildizlarini anglashga chorlaydi. Bu esa tarbiyaviy jihatdan yoshlarning milliy ongini mustahkamlash, tarixga hurmat va ajdodlar merosiga sadoqat ruhini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyaviy nuqtayi nazardan, bunday badiiy talqin yoshlarni befarqlikdan yiroq bo‘lishga, milliy manfaatlarni shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yishga undaydi. Shoir Vatan obrazini idealizatsiya qilmasdan, uni tarix, dard va umid bilan bog‘lab ko‘rsatadi, bu esa o‘quvchining real hayotiy ongini shakllantirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, *yoshlarni milliy qadriyatlar va ma’naviy an’analar ruhida tarbiyalash* masalasi. Shoir ijodida o‘zbek xalqiga xos milliy qadriyatlar: ota-onaga hurmat, yurtga sadoqat, iymon, vijdon va or-nomus tushunchalari muhim o‘rin egallaydi. Abdulla Oripov bu qadriyatlarni didaktik nasihat shaklida emas, balki badiiy obraz va ramzlar orqali ifodalaydi. Bu esa ularning o‘quvchi ongida tabiiy va ta’sirchan tarzda singishiga imkon yaratadi. Ma’naviy an’analar, xususan, diniy-falsafiy qarashlar “Munojot”, “Haj daftari” kabi asarlarida chuqur badiiy talqin etiladi[3;41-b.]. Ushbu asarlar o‘quvchilarda ma’naviy poklik, sabr, shukronalik va hayotga mas’uliyat bilan qarash tuyg‘ularini tarbiyalaydi.

Oltinchidan, *yoshlar tarbiyasida iymon va ma’naviyat* masalasi. Abdulla Oripov ijodida milliy o‘zlik va vatanparvarlik g‘oyalari yosh avlod tarbiyasida muhim pedagogik ahamiyatga ega. Shoirning Vatan, tarixiy xotira va milliy qadriyatlarga oid qarashlari o‘quvchilarda: milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik va fuqarolik mas’uliyatini his etish, ma’naviy merosga hurmat, tarixiy xotira va milliy g‘urur tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois Abdulla Oripov asarlarini

ta’lim jarayonida o‘qitish nafaqat adabiy bilim berish, balki barkamol shaxs tarbiyasini ta’minlashning samarali vositasi hisoblanadi.

Oltinchidan, *yoshlar tarbiyasida inson va jamiyat munosabatlari*ning talqin qilinishi. Abdulla Oripov ijodining muhim jihatlaridan biri — iymon va ma’naviyat masalasining chuqur badiiy talqinidir. Shoir asarlarida iymon tushunchasi tor diniy doirada emas, balki insonning vijdoni, halolligi va ma’naviy pokligi bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi.

Shoirning “Munojot”, “Haj daftari”[4;-b.] kabi asarlarida insonning Yaratuvchi bilan ruhiy muloqoti, o‘zini anglash va ichki poklanish jarayoni ifodalanadi. Bu asarlar yoshlarni o‘z qalbiga nazar solishga, vijdon oldida mas’ul bo‘lishga chorlaydi. Tarbiyaviy nuqtayi nazardan, shoir ijodi o‘quvchilarda halollik, sabr, shukronalik va ma’naviy yetuklik fazilatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Abdulla Oripov ijodida inson va jamiyat munosabatlari chuqur falsafiy mazmunda talqin etiladi. Shoir insonni jamiyatdan ajralgan holda emas, balki uning faol va mas’ul a’zosi sifatida ko‘radi. Asarlarda shaxsning vijdoni, ijtimoiy adolatga munosabati va jamiyat oldidagi burchi asosiy masala sifatida ilgari suriladi. Abdulla Orimov she’riyatida befarqlik, loqaydlik va ma’naviy tanazzul keskin tanqid qilinadi. Bu holat o‘quvchilarni jamiyat hayotiga faol munosabat bildirishga, adolatsizlikka befarq bo‘lmaslikka undaydi. Tarbiyaviy jihatdan, Abdulla Oripov asarlari yosh avlodda ijtimoiy mas’uliyat, fuqarolik pozitsiyasi va adolatparvarlik tuyg‘ularini shakllantiradi.

O‘zbek adabiyotida Abdulla Oripov ijodi milliy tafakkur va zamonaviy badiiy fikr uyg‘unligini o‘zida mujassam etgan yuksak ma’naviy hodisa sifatida e’tirof etiladi.

Pedagogika fanida adabiy ta’lim shaxsga yo‘naltirilgan jarayon sifatida talqin etiladi. V. Davыdov va L. Zankov[8;46-b.] nazariyalariga ko‘ra, badiiy matnni tahlil qilish o‘quvchining tafakkurini rivojlantiruvchi omil hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, Abdulla Oripov asarlarini oliy ta’limda o‘rganishda quyidagi metodik yondashuvlar ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi:

Kognitiv yondashuv-talabalarning bilimni anglash, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi. Shoir she’rlaridagi ramz va metaforalarni tahlil qilish bu yondashuvning samarali namunasidir.

Kompetensiyaviy yondashuv –talabalarda adabiy, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantiradi. Masalan, guruhli munozaralar orqali asar g‘oyasini baholash.

Integrativ yondashuv - adabiyot fanini tarix, ma’naviyat va falsafa bilan bog‘lab o‘qitishga imkon beradi. Bu usul Abdulla Oripov ijodini keng kontekstda anglashga, o‘rganishga yordam beradi.

Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Abdulla Oripov asarlarini ta’lim muassasalarida o‘qitish metodik jihatdan puxta tashkil etilsa, u nafaqat adabiy bilimlarni, balki talabalarning ma’naviy kamolotini ham ta’minlaydi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ilmiy asoslangan metodlardan foydalanish shoir ijodining ta’limiy va tarbiyaviy salohiyatini to‘liq ochib berishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripov ijodida inson va jamiyat**,** iymon va ma’naviyat**,** estetik tarbiya masalalari bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda yoritiladi.

Shoir asarlari orqali yosh avlodda: ijtimoiy mas’uliyat va faol fuqarolik pozitsiyasi, ma’naviy poklik va vijdoniylik, badiiy did va estetik tafakkur kabi barkamol shaxsga xos fazilatlar shakllanadi. Shu bois Abdulla Oripov ijodini ta’lim jarayonida o‘rganish adabiy ta’lim bilan bir qatorda, tarbiyaviy jarayonning ham samarali vositasi hisoblanadi.

Abdulla Oripovning boy adabiy merosi bugungi va kelajak avlodlar uchun yuksak ma’naviyat maktabi bo‘lib xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. -Toshkent: Ma’naviyat, 2021,-184b.
2. Bloom B. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals.- New York: David McKay Company, 1956.-210 p
3. Oripov A. Tanlangan asarlar. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2015.-228b.
4. Oripov Abdulla. O‘qtirish//Tanlangan she’rlar to‘plami/ https://mum-toz.narod.ru/oripov.htm
5. Oripov A. Quyosh bekati: She’rlar, maqolalar, suhbatlar, tarjimalar. – Toshkent: - Sharq, 2010. – 384 b .
6. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti.- Toshkent: O‘qituvchi, -2019.-180 b.
7. Normatov U. She’riyat va tafakkur- Toshkent: Ma’naviyat, -2018.-256b.
8. O‘zbekiston Respublikasining Davlat ta’lim standarti: “Ona tili va adabiyti” ta’lim yo‘nalishi bakalavrlari uchun-Toshkent:Universitet, 2021.-104 b.
9. Zankov I. Izbrannыe pedagogicheskie trudы: Teoriya razvivayuщego obucheniya.-M.:Akademkniga, 2019.-426 s.

ABDULLA ORIPOV FENOMENINING BOSH XUSUSIYATLARI

Nurboy Jabborov
filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyatida maktab yaratgan shoir Abdulla Oripov fenomenining asosiy xususiyatlari yoritilgan. Shoir fenomeni atamasi zamondosh yozuvchi va olimlar tomonidan e’tirof etilgani asoslangan.*

Abdulla Oripov ijodiy kamolotining badiiy-estetik asosi buyuk salafi Alisher Navoiy ijodidan olgan saboqlari va uning she’riyatdagi an’analarini yangilay olganida ko‘rinishi aniq misollar tahlili orqali dalillangan. Shoir ijodida Alisher Navoiy an’analari quyidagi yo‘nalishlarda davom ettirilib, o‘z davri mezonlari asosida yangilangani tadqiq qilingan: 1) ijodda hech kimni takrorlamaslik, o‘z yo‘lini yaratish; 2) ona tilining taqdiri va millat sharafini yuksaltirish; 3) vatanga muhabbat tuyg‘usining betakror poetik talqini; 4) xalqparvarlik; 5) mumtoz

g‘azalnavislik an’anasining yangilanishi va 6) milliy ruh ifodasi orqali jahoniy miqyos qamrovi. Abdulla Oripov mazkur yo‘nalishlar orqali badiiy ijodda ulug‘ Alisher Navoiyga munosib izdoshlik qilib, bu orqali milliy she’riyatning yangi zamon sharoitidagi takomiliga munosib hissa qo‘shgani tahlil etilgan. Zarur o‘rinlarda shoir ijodini tadqiq qilgan mutaxassislar ilmiy qarashlariga munosabat bildirilgan.

Maqolaning Xulosa qismida tahlil natijalari ilmiy-nazariy jihatdan umumlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: *she’riyat, g‘azal, fenomen, ijodiy an’ana, badiiy takomil, tahlil.*

Abstract. *The article examines the key characteristics of the phenomenon of the poet Abdulla Oripov, who established a distinctive school in modern Uzbek poetry. The concept of the “poet phenomenon” is substantiated through its recognition by contemporary writers and scholars.*

The artistic and aesthetic foundation of Abdulla Oripov’s creative development is shown to stem from the lessons he derived from the works of his great predecessor, Alisher Navoi, as well as from his ability to renew poetic traditions. This is demonstrated through the analysis of specific examples. The study identifies the continuation and modernization of Alisher Navoi’s traditions in Oripov’s творчество along the following directions: (1) the creation of an original poetic path without imitating others; (2) the elevation of the status of the mother tongue and national dignity; (3) a unique poetic interpretation of love for the homeland; (4) humanism and devotion to the people; (5) the renewal of the classical ghazal tradition; and (6) achieving a universal scope through the expression of national spirit.

Through these directions, Abdulla Oripov is analyzed as a worthy successor to Alisher Navoi in artistic творчество, making a significant contribution to the development of national poetry under modern conditions. Where necessary, the article also engages with the scholarly views of researchers who have studied the poet’s work.

In the conclusion, the results of the analysis are generalized from a scientific and theoretical perspective.

Keywords: *poetry, ghazal, phenomenon, creative tradition, artistic development, analysis.*

Аннотация. *В статье освещаются основные характеристики феномена Абдуллы Орипова – поэта, сформировавшего собственную школу в современной узбекской поэзии. Обосновывается, что термин «феномен поэта» получил признание со стороны его современников – писателей и учёных. Художественно-эстетическая основа творческого становления*

Абдуллы Орипова раскрывается через анализ усвоенных им уроков из наследия его великого предшественника Алишер Навои, а также способности поэта обновить поэтические традиции. На конкретных примерах доказывается, что традиции Алишера Навои в творчестве Абдуллы Орипова были продолжены и модернизированы в соответствии с требованиями эпохи по следующим направлениям: 1) отказ от подражания и формирование собственного творческого пути; 2) возвышение значения родного языка и национального достоинства; 3) оригинальная поэтическая интерпретация чувства любви к Родине; 4) народность; 5) обновление традиции классического газелеписания; 6) достижение мирового художественного масштаба через выражение национального духа. Анализируется, что в рамках указанных направлений Абдулла Орипов выступает достойным последователем великого Алишера Навои, внося значительный вклад в развитие национальной поэзии в новых исторических условиях. В необходимых случаях рассматриваются и критически осмысливаются научные взгляды исследователей, изучавших творчество поэта. В заключительной части статьи результаты анализа обобщаются в научно-теоретическом аспекте.

Ключевые слова: *поэзия, газель, феномен, творческая традиция, художественное совершенствование, анализ.*

Har kimga ham ato etilavermaydigan favqulodda salohiyat egalariga nisbatan qo‘llanadigan “fenomen” istilohi O‘zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Abdulla Oripov siymosiga uzukka qo‘yilgan ko‘zdek muvofiq keladi. Bu ibora zamonamiz shoiru adiblaridan faqat ungagina nisbat berilgani, mazkur e’tirof ulug‘ adibu olimlarga tegishli ekani zamirida ham teran ma’no bor. Birinchi bo‘lib atoqli yozuvchimiz Odil Yoqubov: “Abdulla Oripov fenomeni hali oxirigacha anglanmagan bir tilsimdir”, deya shoir ijodiga yuksak baho bergani adabiyot ahliga ma’lum. Ushbu iborani adabiyotshunosligimiz qahramoni Ozod Sharafiddinov ham aynan Abdulla Oripovga nisbatan qo‘llagan. “Muvashshah” sarlavhali tadqiqotida olim: “XX asr she’riyatida, qolaversa, jahon she’riyatida Abdulla Oripov fenomenini to‘la bo‘lmasa-da, bir qadar mukammalroq ochib beradigan durustroq bir maqola ham yozgan emasman. Har gal bu ishga kirishmoqchi bo‘lganimda, bu she’riyat qarshisida qalamimning benihoya ojizligini his qilardim”, deya kuyinchaklik bildirgan edi. Aslida, ulug‘ shoir she’riyatiga doir eng teran tadqiqotlarni aynan Odil Yoqubov va Ozod Sharafiddinov yaratgani sir emas. Zamonamizning ikki mutafakkiri bu so‘zlari bilan Abdulla Oripov she’riyatining miqyosi nechog‘liq yuksak va ko‘lamli ekanini, uni to‘laqonli tadqiq etish oson emasligini uqtirgan.

Haqiqatan, bu ulug‘ shoir asarlarining salmog‘i tog‘ qadar viqorli va vazmin, mohiyati bahri muhit kabi tubsiz va teran, badiiyati samo yanglig‘ go‘zal va yuksak... Abdulla Oripovning: “Men Navoiydan masalaning mohiyatiga kirishni, she’rni sehrli tayoqchaday o‘ynatishni o‘rgandim”, degan so‘zlarida o‘z she’riyati xazinasiga yo‘lni qaerdan izlash zarurligiga ishora qilingan, nazarimizda...

She’r ahlining ikki jahongiri

Buyuk adiblar, ulug‘ mutafakkirlar qismatida, ijodiy qiyofasida muayyan mushtarakliklar bo‘lishi ko‘p kuzatilgan. Millatimizning ulug‘ shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy hamda zamonaviy she’riyatimizning zabardast namoyandasi Abdulla Oripov siymosi misolida bunga hayratga loyiq misollar keltirish mumkin. Hazrat Navoiydan roppa-rosa besh yuz yil keyin buyuk bobokalonimiz asarlaridagi umrboqiy an’analarni munosib davom ettirgani, milliy she’riyatimizda o‘ziga xos maktab yaratib, uni yangi zamon sharoitida chinakam yuksak darajaga ko‘tara bilgani Abdulla Oripov ijodining beqiyos ahamiyatiga hujjatdir, dalildir. Savol tug‘iladi: xo‘sh, bu ikki mutafakkir dunyoqarashidagi, ijodiy prinsiplaridagi, poetik kashfiyotlaridagi mushtaraklik, vorisiylik nimalarda ko‘rinadi? Ularning milliy ma’naviyatimiz, adabiyotimiz takomiliga qo‘shgan ulug‘vor hissalarida qanday mutanosiblik bor?

Buyuk beshlik – “Xamsa”ni ijod etar ekan, hazrat Navoiy mana bunday satrlarni bitadi:

Ani nazm etki, tarhing toza bo‘lg‘ay,
Ulusg‘a mayli beandoza bo‘lg‘ay.
Yo‘q ersa, nazm qilg‘onni xaloyiq
Mukarrar aylamak sendin ne loyiq.
Xush ermas el so‘ngincha raxsh surmak,
Yo‘lekim, el yugurmishdur – yugurmak.
Biravkim bir chamanda soyir erdi,
Nechakim gul ochilg‘on – ko‘rdi, terdi.
Hamul yerda emas gul istamak xo‘b,
Bu bo‘ston sahnida gul ko‘p, chaman ko‘p [1:340].

Ulug‘ mutafakkir xaloyiq nazm qilg‘onni mukarrar aylamoq – takrorlamoq fikridan yiroq. Ul zotning e’tiqodicha, birovlar ketidan ot surmoq, el yugurgan yo‘ldan yugurmoq ma’qul emas. Boshqalar gul tergan chamandan gul istamoq oqil ishi sanalmaydi. Vaholanki, “Bu bo‘ston sahnida gul ko‘p, chaman ko‘p”. Ya’ni har kim o‘z didiga mos gulni izlamog‘i, termog‘i zarur. Buni ijodga tatbiq etilsa, har kim o‘z so‘zini, o‘zigagina xos uslubda ifodalamog‘i kerak.

Abdulla Oripov she’riyat maydoniga qadam bosar ekan, hazrat Navoiyning ushbu o‘gitlariga har jihatdan hamohang keluvchi ijodiy dasturini e’lon qildi:

Men shoirman,

Istasangiz shu,
O‘zimniki erur shu sozim,
Birovlardan olmadim tuyg‘u,
O‘zgaga ham bermam ovozim... [4:127]

Ana shu dasturiy fikrning poetik ifodasi bilan boshlangan she’rning xotimasida shoir benihoya salmoqli xulosaga keladi. Ahamiyatlisi shundaki, bu xulosa ham hazrat Navoiy nomi bilan bog‘langan:

Xayol kabi keng erur olam,
Mayda gapni ko‘tarmagay she’r.
Kerak bo‘lsa, mening uchun ham
Javob berar bobom Alisher [4:127].

Ko‘rinib turibdiki, har ikki ijodkor yakdil fikrda: she’riyatda o‘zgalarni takrorlash (“mukarrar aylamak”) ayb. Chinakam shoir o‘z sozi bilan kuylashi lozim. Boshqalar ketidan ot surmoq, o‘zgalardan tuyg‘u olish haqiqiy ijodkor ishi emas. Taqlidchilik ijod tabiatiga zid. Shuning uchun ham Abdulla Oripov taqlidchi shoirga haqli ravishda mana bunday kinoya qiladi:

Taqlid qila bergin yetsa bardoshing,
Modomiki senda bor ekan havas.
Faqat bir qora kun ko‘tarib boshing,
Asl nusxaman deb dod solmasang bas [4: 271].

Taqlidchilik hazrat Navoiyning *“Ani nazm etki tarhing toza bo‘lg‘ay”* degan fikrlariga ham mohiyatan muvofiq emas. Chinakam ijod namunasi original bo‘lmog‘i zarur, toza tarh bilan bitilmog‘i kerak. Butun ijodiy faoliyati ana shunday yuksak e’tiqod, mustahkam tutum asosiga qurilgani bu ikki buyuk iste’dodning ijodkor sifatidagi prinsiplari nechog‘liq uyg‘un ekani dalilidir, bizningcha.

Ular ijod maydoniga chiqqan tarixiy sharoit o‘rtasida ham muayyan mutanosiblik bor. Hazrat Navoiy zamonida adabiyot tili sifatida fors tilining mavqei baland edi. O‘zlari turkiy millatga mansub ikki buyuk ijodkor – Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy ham “Xamsa”ni forsiyda yaratgan, adabiyot ahli o‘rtasida turkiy tilda bunday ulkan badiiy obidani yaratib bo‘lmaydi, bu tilning ifoda imkoniyati keng emas, degan qarashlar hukmron edi. Ulug‘ mutafakkir “Muhokamatu-l-lug‘atayn”da turkiy tilning fasohati va balog‘ati forsiydan kam emasligini, aksincha balandroq ekanini aniq dalillar bilan isbotladi. Ona tilining taqdiri uchun kuyundi, uning mavqeini ko‘tarmoq, millatning sha’nini yuksaltirmoq uchun bor salohiyatini safarbar etdi. Bu millatdan yetishib chiqqan tab’ ahlini – ijodkorlarni o‘zga lisonda emas, ona tilida bebaho badiiy asarlar bitmoqqa chorladi.

Abdulla Oripov ijod maydoniga kelgan o‘tgan asrning 60-yillarida ham ona tilimiz taqdiri uchun tahlikali vaziyat yuzaga kelgan, ko‘pmillatli sovet xalqining tarkibiy qismi sanalgan millatlar tilining yo‘qola borishi, bir tilga birlashib ketishi haqida “bashorat”lar qilinayotgan edi. Yirik nufuzli anjumanlar tugul kichik tashkilot yoki muassasalardagi yig‘inlar ham rus tilida olib borilishi urfga aylangan edi. Idora ishlari o‘zga tilda yuritilar, sobiq ittifoqdagi boshqa milliy tillar kabi o‘zbek tili ham deyarli xonadon tili darajasiga tushish xavfini boshdan kechirayotgan edi. Abdulla Oripov oldida ham “millatning dunyoda borligini ko‘rsatadurg‘on oyinai hayoti” (Abdulla Avloniy ta’biri – N.J.) – tili va adabiyotini yuksaltirish yo‘lida jonbozlik qilish vazifasi turar edi. “Ona tiliga tuganmas ishq, uning taqdiriyu kamoloti uchun mas’ullik va g‘amxo‘rlik – so‘z daholarini birlashtiruvchi birinchi fazilat. Dante italyan tilini xalqaro yo‘qlamada nechog‘lik barqaror etgan bo‘lsa, Navoiy ham shunday vazifani – jahonshumul vatanparvarlik ishini ado etdi. Etnik jihatdan bag‘oyat xilma-xil, qanchadan-qancha shevalarda gaplashuvchi kishilar tiliga xos so‘zlarni o‘zbek adabiy tili doirasiga olib kirdi. Navoiyning jur’ati va jasorati, mahorati tufayli o‘zbek adabiy tili mukammal shakllanishga erishdi” degan Abdulla Oripov ham bu borada o‘z davri uchun tengsiz xizmat qildi. Shoirning 1965-yilda yozilgan “Ona tilimga” she’ri bu jihatdan alohida ahamiyatga ega:

Ming yillarkim, bulbul kalomi
O‘zgarmaydi, yaxlit hamisha.
Ammo sho‘rlik to‘tining holi
O‘zgalarga taqlid hamisha.
Ona tilim, sen borsan, shaksiz
Bulbul kuyin she’rga solaman.
Sen yo‘qolgan kuning, shubhasiz,
Men ham to‘ti bo‘lib qolaman... [4:74]

Bor-yo‘g‘i sakkiz qator she’rda millatning taqdiri bilan bog‘liq muhim masalani bu tarzda samimiy, bunchalar obrazli va ta’sirchan ifodalash uchun so‘zlar qalb prizmasidan o‘tmog‘i zarur edi. Binobarin, “so‘z daholarini birlashtiruvchi birinchi fazilat” sanalgan “ona tiliga tuganmas ishq, uning taqdiriyu kamoloti uchun mas’ullik va g‘amxo‘rlik” – Abdulla Oripov ijodiy faoliyatining o‘zagini tashkil etadi. Bu jihatdan uni o‘zi nomlarini sanagan ulug‘lar – Navoiy va Dante safiga qo‘shish mumkin.

Vatanga muhabbat tuyg‘usining betakror poetik talqini borasida ham Alisher Navoiy va Abdulla Oripov ijodida ana shunday uyg‘unlikni kuzatish mumkin.

Vatan hubbi iymon nishoni durur [2:435]-

deb yozgan hazrat Navoiy asarlarida bu tuyg‘uning nechog‘lik muqaddas ekani teran mazmun va go‘zal badiiyat vobastaligida tasvirlangan. Bu mavzu Abdulla

Oripovning har bir she’rida o‘zgacha mahorat bilan ifodalangan. Vatan tushunchasi mavhumlik girdobiga tushirilgan murakkab va ziddiyatli davrda “O‘zbekiston – Vatanim manim” degan qalb hayqirig‘i har bir vatanparvar ko‘ksida aks sado bergan bo‘lsa, “Men nechun sevaman O‘zbekistonni?!” asarida bu muqaddas tuyg‘u hali hech kimning xayoliga kelmagan ohorli uslubda, tamomila o‘zgacha rakursda badiiy ifodasini topgani sir emas.

Mana, shoir to‘rt misra she’rda bobomeros “Vatan hubbi” tuyg‘usini qanday tasvirlaydi:

Balki chaman bo‘lar dashti Karbalo,
Balki, behisht mavjud yulduzlar aro.
Mening O‘zbekiston – Vatanim bordir,
Ularning baridan a’loroq, a’lo [5:16].

Vatan himoyasi, uni xavfu xatarlardan emin asrash – muqaddas burch. Hazrat Navoiy ijodida bu masala ham betakror poetik talqinini topgan:

Iyol-u Vatan uzra to joni bor,
Kishi harb etar toki imkoni bor [2:305].

“Vatan! Mening bor qismatim shu bir so‘zda hal”, deb yozadi Abdulla Oripov. Zero, chindan ham, inson uchun Vatan – Yaratganning ulug‘ ne’mati. Hech kimga uni tanlash imkoniyati berilmaydi. Vatan – taqdir, Vatan – qismat. Uni sevish iymondandir, odamiylik ziynatidir. Har ikki buyuk mutafakkir asarlari bizga bu haqda unutilmas saboqlar beradi.

O‘zi mansub bo‘lgan xalqqa muhabbat, el dardini o‘z dardi deb bilmoq har ikki ijodkor asarlari o‘zagini tashkil etadi. Ularning har ikkisi “el shod, mamlakat obod” bo‘lishini orzu qildi, butun ijtimoiy faoliyatini, ijodiy salohiyatini ana shu ulug‘vor maqsadga yo‘naltirdi. Bu jihatdan, hazrat Navoiyning mana bu misralari ayricha ahamiyatga ega:

Yuz jafo qilsa manga, bir qatla faryod aylamon,
Elga qilsa bir jafo, yuz qatla faryod aylaram [3:415].

Elga fidoyilik bundan ortiq bo‘lmas. Bu tuyg‘uning poetik talqini borasida ulug‘ shoirdan o‘tkazib bir narsa deyish mahol. Abdulla Oripov buyuklarga daho baxsh etgan, eng so‘nggi nonini ham o‘zi yemay o‘g‘liga tutgan, farzandlar shonini asrlardan opichlab o‘tgan, suyuklardan suyuk ona xalqini jonu tan barobarida ardoqladi. Muhimi, bu ardog‘ini betakror mazmun va tutilmagan tashbehlar bilan badiiy kashfiyot darajasida nazm silkiga chekdi. Olomonning xalqqa aylanishi uchun jon kuydirgan, o‘z qismatini ona xalqi taqdiri bilan uyg‘unlikda tasavvur etgan millatparvar sifatida buyuk mutafakkir bobosi yanglig‘ butun ijtimoiy faoliyatini, ijodiy salohiyatini ana shu ulug‘vor maqsadga safarbar etdi. Shoirning mana bu misralari chinakam xalqparvarlikning namunasidir:

Xalqim, moziy o‘tdi,

tole ko‘rmading,
Pishirding o‘zingga
benasib taom.
Kiygazding birovga,
o‘zing kiymading,
Yulduzni kashf etib,
nom olding avom... [4:62]

Abdulla Oripovning g‘azallari mumtoz shoirlarimiz, xususan, hazrat Navoiy poetik an’analarining munosib davomi deyilsa, mubolag‘a bo‘lmas.

Vahki, ishq sahrosida qoldim beishq tanho bu kun,
Chiqma, Qays, ohim bilan yonmoqda bu sahro bu kun [4:158].

G‘azal matla’ida mumtoz she’riyatga xos badiiy unsurlar ajib bir tarzda mujassam bo‘lgan. O‘zini ishq sahrosida beishq his etgan oshiq yor hajrida benihoya qattiq iztirob chekayotir. Natijada ishq dardi bois sahroni manzil etmoqqa o‘rgangan Qays bu odatidan voz kechmoqqa majbur. Ne uchunki, oshiqning o‘tli ohi sababidan sahroga ham o‘t ketgan. Endi Qays – Majnun uchun borarga makon qolmagan. Baytda tasvirlangan obraz yorqin va jonli, o‘quvchi ko‘z o‘ngida mutlaq unutilmas tasvirda namoyon bo‘ladi: olov ichida qolgan bepoyon sahro va ilojsiz Qays. Bir vaqtning o‘zida tazod, tajnis, ig‘roq fi-s-sifat singari mumtoz badiiy san’atlar imkoniyatidan mahorat bilan foydalanilgani baytning badiiy mukammalligini ta’minlagan. Ig‘roq fi-s-sifat (“*Chiqma, Qays, ohim bilan yonmoqda bu sahro bu kun*”) san’atini shoir nazariyotchilar talablari darajasida, balki undan ham o‘tkazib qo‘llaydi. Ma’lumki, Shayx Ahmad Taroziy bu san’atda “...bir narsaning vasfinda mubolag‘ani haddu g‘oyatdin o‘tkarurlar” deya ta’kidlagan. Atoulloh Husayniy mulohazalari Ahmad Taroziy fikrlarini to‘ldiradi: “Agar da’vo aqlg‘a sig‘sayu odatdin tashqari bo‘lsa ham maqbuldur va ani ig‘roq derlar”.

Milliy ruh va jahoniy miqyos

Mohiyatan umuminsoniyatga daxldor bo‘lsa-da, adabiyot milliy shaklda namoyon bo‘ladi. O‘zida millatning ruhini ifodalaydi. Bu xususiyatlar she’riyatda, ayniqsa, yaqqolroq bo‘y ko‘rsatadi. Zamonlar almashaveradi, tafakkur, taxayyul evrilaveradi, she’riyatda surat – shakl yangilanaveradi... Bundan qat’i nazar, har qanday holda adabiyotning, she’riyatning darajasi ikki mezon – milliy ruh va mahoratga ko‘ra belgilanadi.

Bugun she’riyatda yangidan-yangi nazmiy shakllarga rag‘bat ko‘rsatilmoqda. Uchlik, beshlik (tabiiyki, bu beshlik muxammas emas!), hatto geometrik shakllar ham she’riyatga dadil kirib kelayotir. Jahon she’riyati tajribasi bilan tanishuv, dunyo adabiyotidagi ilg‘or badiiy kashfiyotlarni milliy she’riyatimizga olib kirish benihoya zarur. Lekin.... Abdulla Oripov ana shu

jarayonda millat shoiru adiblari nimalarga amal qilmog‘i zarurligini mana bunday ta’kidlaydi: “Mayli, buyuklarga intilish bo‘lsin, jahonning, bashariyatning eng ilg‘or fikrlariga oshnolik bo‘lsin, G‘arb, Yevropa, Amerika deysizmi, mayli Lotin Amerikasi, mayli Oymi, Marsmi.... darajasida fikrlashsin, lekin o‘zbek fikrlasin, o‘zbekcha fikrlasin! Agar shu “kichkinagina” shart bajarilsa, qolganiga, albatta erishamiz”. Aslida, bu “kichkinagina” shartni bajarish oson emasligi ayon. Buning uchun ijodkorning qalbida o‘zi mansub millatga buyuk muhabbat tuyg‘usi jo‘sh urib turmog‘i zarur. Abdulla Oripov ana shu fazilatlarni to‘liq mujassam etgan benazir shoir, chinakam millatparvar, haqiqiy vatanparvar shaxs edi.

Shoir Yeri yuzidagi juda ko‘p davlatlarga safar qilgan. Turli xalqlar, millatlar hayot tarzi, adabiyoti, madaniyati bilan yaqindan tanishgan. Eng muhimi, qaysi bir diyorlarda bo‘lmasin, ona Vatanga, ona xalqiga bo‘lgan muhabbati uni bir lahza bo‘lsin tark etmagan. Jumladan, shoir Yaponiya safari tassurotlari aks etgan she’rlarida bu xalqning salohiyatiga dunyo qoyil ekanini ta’kidlab, yaponlarning hatto «burgani taqalab qo‘ya olishi»dan hayratga tushadi. Burgani taqalash – chinakam jozibali va o‘zbekona ifoda! Eng muhimi, shoirning bu to‘rtligi odamni mushohadaga, millatni o‘z ahvoli haqida fikrlashga undaydi:

Sening amalingga qoyildir jahon,
Burgani taqalab qo‘ygaysan oson.
Nozik san’atingga tikilaverib,
Ko‘zlarim qisilib ketdi-ku, yapon [6:90].

O‘z-o‘ziga mahliyo bo‘lish – illat. Ajdodlarimiz benazir bo‘lgani rost. Tarixda hayratga arzirli yutuqlarga erishganimizdan aslo ko‘z yumib bo‘lmaydi. Lekin chinakam saodatga erishmoq uchun bulardan faxrlanishning o‘zigina kifoya qilmas. Buning uchun o‘sha ajdodlarga munosib bo‘lmoq, ularning yutuqlarini yangilari bilan muttasil boyitib bormoq zarur. Afsuski, biz har doim ham bunga muvaffaq bo‘lavergan emasmiz. Tokioda yozilgan quyidagi to‘rtlik ana shu armon ifodasi o‘laroq yaralgan:

Dunyoda tugamas ekan armonlar,
O‘tdi qancha zamon, qancha sarbonlar.
O‘tira beribman buyukman deya,
Manzilga yetibdi boshqa karvonlar [6:90].

Shoir qay yurtda bo‘lmasin, ona-O‘zbekiston nomidan so‘z yuritadi. Uning safarnomalarida ona-zamin muhabbati, Vatan sog‘inchi alohida o‘rin tutadi. Shuning uchun ham o‘zbekning nomidan so‘z yuritadi:

Boshimda do‘ppi-yu egnimda chopon,
Mehmon bo‘lib keldim, men senga yapon.
Yaponcha salom bu – qaddim toki yo,
Senga ehtiromim bo‘lsin, Tokiyo [6:88].

Misralarning quyma ekanidan tashqari, “toki yo” va “Tokiyo” so‘zlari hosil qilgan tajnis fikrning ohorli poetik talqinini ta’minlagan.

Xulosa o‘rnida

Bu yil buyuk bobokalonimiz hazrat Alisher Navoiy tavalludining 585, zamonamizning fenomenal shoiri Abdulla Oripovning 80 yillik yubileylari nishonlanayotir. Bu ikki benazir ijodkorning milliy she’riyat maydonida jahongirlik qilishi orasida roppa-rosa besh asrlik muddat borligida ham o‘ziga xos ramziy ma’no mujassam. Endigi vazifa millatimizning buyuk ijodkorlari adabiy merosini har tomonlama chuqur o‘rganishdan, ular asarlaridagi hayotbaxsh g‘oyalarni xalqimiz, ayniqsa, o‘sib kelayotgan yoshlarimiz ongi va ruhiga singdirmoqdan iborat.

ADABIYOTLAR

1. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Олтинчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011
2. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. Sakkizinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013.
3. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. Navodir ush-shabob. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. Ikkinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2013.
4. Орипов, Абдулла. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2000
5. Орипов, Абдулла. Бедорлик. – Тошкент: Ёзувчи, 1999.
6. Орипов, Абдулла. Адолат кўзгуси. – Тошкент: Адолат, 2005.
7. Шарафиддинов, Озод. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004.

ANDROGOGIK TA’LIMDA ABDULLA ORIPOV IJODINI O‘RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK JIHATLARI

Rozmatov Elbek Erkinovich
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi (Ijtimoiy himoya tizimi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada andragogik ta’lim sharoitida Abdulla Oripov ijodini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda kattalar ta’limining o‘ziga xos xususiyatlari, andragogikaning asosiy tamoyillari hamda ularni shoir ijodini o‘qitish jarayoniga tatbiq etish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, shoir asarlarining falsafiy-badiiy*

qimmati, milliy va umuminsoniy g‘oyalar tizimi, ma’naviy-axloqiy tarbiyadagi o‘rni asoslab berilgan. Maqolada muammoli-tahliliy yondashuv, refleksiv tahlil, diskussiya va interaktiv metodlar asosida kattalar auditoriyasida adabiy asarlarni samarali o‘rganish usullari taklif etilgan. Tadqiqot natijalari andragogik ta’lim jarayonida Abdulla Oripov ijodidan foydalanish tinglovchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ma’naviy immunitetini mustahkamlash va milliy o‘zlikni anglash darajasini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Tayanch tushunchalar: *andragogika, kattalar ta’limi, ma’naviyat, badiiy tafakkur, ma’naviy-axloqiy tarbiya, milliy o‘zlik, vatanparvarlik, falsafiy lirika, interfaol metodlar, ijodiy kompetensiya, ijtimoiy faollik, kattalar ta’limining samarasi.*

Аннотация. *В данной статье научно проанализированы теоретико-методологические основы изучения творчества Абдулла Орипов в условиях андрагогического образования. В исследовании раскрываются специфические особенности обучения взрослых, основные принципы андрагогики и механизмы их применения в процессе преподавания произведений поэта. Обоснована философско-художественная ценность его творчества, система национальных и общечеловеческих идей, а также его роль в духовно-нравственном воспитании. В статье предлагаются эффективные методы изучения литературных произведений во взрослой аудитории на основе проблемно-аналитического подхода, рефлексивного анализа, дискуссий и интерактивных технологий. Результаты исследования показывают, что использование творчества Абдуллы Орипова в системе андрагогического образования способствует развитию критического мышления слушателей, укреплению их духовного иммунитета и углублению осознания национальной идентичности.*

Ключевые понятия: *андрагогика, обучение старшего поколения, духовность, литературное творчество, духовно-нравственное воспитание, национальная идентичность, патриотизм, философская лирика, интерактивные методы, творческая компетенция, социальная активность, эффективность андрогогической дидактики.*

Abstract. *This article scientifically analyzes the theoretical and methodological foundations of studying the works of Абдулла Орипов within the framework of andragogical education. The study examines the specific characteristics of adult learning, the fundamental principles of andragogy, and the mechanisms for their implementation in teaching the poet’s works. The philosophical and artistic value of his творчество, the system of national and universal ideas embodied in his poetry, and its role in moral and spiritual education are substantiated. The article proposes effective methods for teaching literary works to adult learners based on problem-based analytical approaches, reflective analysis, discussions, and interactive technologies. The findings demonstrate that incorporating Abdulla Oripov’s works into andragogical education enhances learners’ critical thinking skills, strengthens their spiritual resilience, and deepens their awareness of national identity.*

Bugun, 21 mart, atoqli o‘zbek shoiri, O‘zbekiston Respublikasi qaxramoni, Davlat madhiyasi matni muallifi Abdulla Oripov tavallud topgan kun. Agar, suyukli xalq shoiri, so‘z zargari bo‘lgan sevimli shoirimiz hayot bo‘lganida bugun 85 yoshini nishonlagan bo‘lar edi...

Shoirning zalvorli fikrlari yosh avlodda singdirilishi lozim bo‘lgan iftixor va iymon, vatanparvarlik va sadoqat, milliy ong va o‘zlikni anglash kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishini shoirning quyidagi satrlari ila ta’kidlamoqchiman:

“Zavol ko‘rma hech qachon, o‘lkam,
Zavol bilmas shu yoshing bilan.
Muzaffar bo‘l, g‘olib bo‘l, o‘ktam,
Do‘stu yoring, qardoshing bilan.
Asrlarning silsilasida
Boqiy turgay koshonang sening.
Ulug‘ bashar oilasida
Mangu yorug‘ peshonang sening.
Mangu yorug‘ maskanim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim...”[3;12-b.].

«Katta shoir hamisha o‘z vaqtida maydonga keladi, u – hamisha tarixiy. Zotan, katta shoir o‘z xalqining ovozi, uning orzu-umidlari va inson qalbi iztiroblarining ifodachisidir. Abdulla Oripov menga XXI asrga qadam qo‘ygan davrlarimizning buyuk madaniy ahamiyatga molik ana shunday shoiri bo‘lib gavdalanadi». Dunyoga mashhur qirg‘iz adibi Chingiz Aytmatovning Abdulla Oripov haqidagi e’tirofi shunday.

«Abdulla Oripov so‘zning ifoda kuchini bexato sezadi, hayotni o‘z bilishicha, o‘ziga xos yangi nazar bilan ko‘radi. Abdulla Oripov she’rlari bilan har bir uchrashuv she’riyat bayramiga aylanib ketadi». Bu fikrlar Quysin Qulievga tegishli. Darxaqiqat, Abdulla Oripov o‘zbek she’riyatida milliy ruh, vatanparvarlik, inson qadri, erkinlik va ma’naviy poklik g‘oyalarini yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etgan ijodkordir.

Hozirgi globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyoti, ma’naviy-axloqiy barqarorlik va fuqarolik ongining yuksalishi ta’lim tizimining samaradorligiga bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, kattalar ta’limi — andragogika sohasida milliy adabiyot namoyandalarining ijodini chuqur va tizimli o‘rganish shaxs ma’naviyatini boyitish, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va ijtimoiy faollikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, Abdulla Oripov ijodini andragogik yondashuv asosida tahlil qilish va o‘qitish metodikasini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Andragogika — kattalarni o‘qitish nazariyasi va amaliyotini o‘rganuvchi mustaqil pedagogik soha bo‘lib, u o‘quvchilarning hayotiy tajribasi, ijtimoiy faolligi va mustaqil fikrlash qobiliyatiga tayanadi. Kattalar ta’limida quyidagi tamoyillar ustuvor hisoblanadi:

1. Mustaqillik va onglilik tamoyili — o‘quvchi ta’lim jarayonining faol sub’ekti sifatida qatnashadi.

2. Tajribaga tayanish tamoyili — shaxsiy va kasbiy tajriba bilim o‘zlashtirishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.
3. Motivatsiyaning amaliyligi — o‘quv materialining hayotiy va kasbiy ahamiyati ustuvor ahamiyat kasb etadi.
4. Muammoli-tahliliy yondashuv — bilim tayyor holda berilmaydi, balki muhokama va tahlil orqali egallanadi.

“Abdulla Oripov ijodi mazmunan falsafiy, ijtimoiy va axloqiy qatlamlarga boy bo‘lgani bois, uni andragogik ta’lim doirasida o‘rganish yuqori samara beradi”[4].. Chunki kattalar poeziyadagi ramz, timsol va g‘oyaviy mazmunni hayotiy tajriba asosida chuqur anglash imkoniyatiga egadirlar.

“Abdulla Oripov asarlarida quyidagi mavzular yetakchi o‘rin tutadi:
Vatan va istiqlol g‘oyasi;
Milliy o‘zlik va tarixiy xotira;
Insonning ma’naviy iztiroblari;
Yaratuvchilik va hayot falsafasi;
Din va e’tiqod masalalari”[4;4-b.].

Shoir she’rlaridagi lirik qahramon — chuqur tafakkur sohibi, vijdonli va mas’uliyatli shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jihat andragogik ta’limda ayniqsa ahamiyatlidir, chunki katta yoshdagi tinglovchilar bunday falsafiy-axloqiy mulohazalarni hayotiy misollar bilan bog‘lay oladilar.

Ma’lumki, kattalar auditoriyasida adabiy asarlarni o‘rganish an’anaviy maktab metodikasidan farq qiladi. Shu sababli, Abdulla Oripov ijodini o‘rganishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:*Diskussiya va debat, Refleksiv tahlil,* Keys-stadi va organayzerlar: Klaster, Konseptual xarita, “B-B-B” jadvali va boshqalar. Shuningdek, multimedia taqdimotlar muhim o‘rin egallaydi. Tinglovchilar diskussiya va debat metodlarini ta’lim jarayoniga tatbiq qilganimizda global axborot maydonida milliy o‘zlikni saqlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etishini, bunda Abdulla Oripov ijodi milliy til, madaniyat va ma’naviyatni asrash g‘oyasini ilgari surishini e’tirof etdilar. Andragogik ta’limda ushbu jihatga alohida e’tibor qaratish orqali kattalarda milliy immunitetni shakllantirish mumkin ekanligi aniqlandi. Ular asosida yoshi kattalar shoirning inson mas’uliyatini qanday talqin etishini, uning she’riyatida vatan tushunchasi qay tarzda falsafiy mazmun kasb etishini, she’rdagi ramziy obrazlar nimani anglatishini muhokama qiladilar. Bu metod va usullar ularning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi. Kattalar ta’limida fikrlar xilma-xilligi tabiiy holdir. She’r mazmuni bo‘yicha erkin mulohaza almashish, ijtimoiy voqyelik bilan bog‘lash orqali bilim mustahkamlanadi. Tinglovchilar she’r mazmuni asosida shaxsiy hayotiy xulosalar chiqaradi. Bu jarayon ma’naviy o‘z-o‘zini anglashga xizmat qiladi.

Andragogik ta’lim faqat bilim berish emas, balki shaxsni ma’naviy kamolotga yetaklashni ham nazarda tutadi. Abdulla Oripov ijodi quyidagi tarbiyaviy imkoniyatlarga ega:

1. Vatanparvarlik tarbiyasi — shoir asarlarida Vatan muqaddas qadriyat sifatida talqin etiladi.
2. Ma’naviy poklik g‘oyasi — inson vijdoni va axloqiy mas’uliyati ustuvor qo‘yiladi.

3. Milliy g‘urur va iftixor — tarixiy merosga hurmat hissi kuchaytiriladi.
4. Insonparvarlik tamoyili — inson qadri oliy ne’mat sifatida ulug‘lanadi. Katta yoshdagi tinglovchilar bu g‘oyalarni ijtimoiy faoliyati va kasbiy vazifalari bilan uyg‘unlashtirish imkoniga ega bo‘ladilar.

Biz tomonimizdan 2025-2026 yillarda malaka oshirish kursi tinglovchilari orasida shoir ijodini o‘rganish bo‘yicha tajriba-izlanish ishlari olib borildi.

Andragogik guruhlarda Abdulla Oripov ijodini o‘rganish bo‘yicha shartli pedagogik model quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oldi:

1. Diagnostik bosqich — tinglovchilarning adabiy savodxonligi va ma’naviy qiziqishini aniqlash.
2. Mazmuniy bosqich — asarlarni tizimli tahlil qilish.
3. Faoliyat bosqichi — ijodiy va tahliliy topshiriqlar bajarish.
4. Refleksiv bosqich — umumlashtirish va shaxsiy xulosalar chiqarish.

Tajriba ishlarida androgogik o‘qitish uchun biz interaktiv va raqamli texnologiyalardan foydalandik va ularning samarali ekanligini, muhim ahamiyat kasb etishini sinovdan o‘tkazdik. Jumladan, Keys-stadi-she’r mazmunini hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lashda samarali ekanligi kuzatilgan bo‘lsa, Klaster va konseptual xarita tuzish-g‘oyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashda muhimligini ko‘rsatdi. Portfolio texnologiyasi esa tinglovchining shaxsiy tahlil ishlarini jamlashga yordam berdi. Multimediali taqdimotlar esa, she’rlarni audio va video formatda tahlil qilishga xizmat etdi. Bu metod va texnologiyalar ta’lim jarayonini faol, mazmunli va natijaviy qilishga yordam berdi. Tahlil natijalariga ko‘ra, bunday yondashuv tinglovchilarning: tanqidiy fikrlash qobiliyatini; ma’naviy ehtiyojlarini; ijtimoiy faolligini;badiiy tafakkurini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Shoir asarlari orqali: milliy o‘zlikni anglash; ma’naviy barqarorlikni ta’minlash; yot g‘oyalarga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirish imkoni yaratiladi.

Andragogik ta’limda Abdulla Oripov ijodini o‘rganish nafaqat adabiy bilimlarni boyitish, balki katta yoshdagi tinglovchilarning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlashga xizmat qiladi. Shoir asarlarining falsafiy chuqurligi, milliy ruh bilan sug‘orilganligi va insonparvarlik g‘oyalari andragogik ta’lim tamoyillari bilan uyg‘unlashadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, muammoli-tahliliy yondashuv samarali hisoblanadi. Interaktiv metodlar bilim o‘zlashtirishni chuqurlashtiradi, refleksiv tahlil esa, shaxsiy xulosa chiqarishni rag‘batlantiradi.

Shunday qilib, shoir ijodi kattalar ma’naviy dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilishi tajriba natijalaridan ayon bo‘ldi. Shu bois, andragogik ta’lim dasturlariga Abdulla Oripov ijodini tizimli ravishda kiritish, maxsus o‘quv-metodik qo‘llanmalar yaratish va ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oripov A. Tanlangan asarlar. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2015.-228b.
2. Oripov Abdulla. O‘qtirish. Tanlangan she’rlar to‘plami / https://mum-toz.narod.ru/oripov.htm

3. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti.- Toshkent: O‘qituvchi, -2019.-180 b.
4. Normatov U. She’riyat va tafakkur- Toshkent: Ma’naviyat, -2018.-256b.
5. O‘zbekiston Respublikasining Davlat ta’lim standarti: “Ona tili va adabiyti” ta’lim yo‘nalishi bakalavrlari uchun-Toshkent:Universitet, 2021.-104 b.

XALQ SHOIRI ABDULLA ORIPOV POEZIYASIDA PEYZAJ MOTIVLARI VA UNING FALSAFIY IFODASI

Ikramxanova Feruza Ikramovna
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri, O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov ijodi va uning poetik merosi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoir poeziyasida tabiat va peyzaj motivlarining badiiy ifodasi, ularning lirik qahramon ruhiyatini ochib berishdagi o‘rni hamda ma’naviy-falsafiy mazmun yaratishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, tabiat manzaralari orqali inson his-tuyg‘ulari, hayot haqidagi falsafiy mushohadalar va milliy ruhning ifodalanishi tahlil qilinadi. Maqolada, ayniqsa, Abdulla Oripov ijodida qo‘llanilgan badiiy-tasviriy vositalar — metafora, solishtirish va qiyoslash san’atlarining o‘ziga xos xususiyatlari keng yoritiladi. Ushbu uslubiy vositalarning poetik obraz yaratish, abstrakt tushunchalarni konkretlashtirish, she’rning emotsional ta’sirchanligini oshirish hamda falsafiy mazmunni chuqurlashtirishdagi funksiyasi tahlil etiladi. Shu bilan birga, shoirning tabiat obrazlarini inson ruhiyati va ijtimoiy-ma’naviy masalalar bilan bog‘lash mahorati misollar asosida ko‘rsatib beriladi. Ushbu maqolada Abdulla Oripov she’riyatida peyzajning poetik funksiyalari, ramziy-obrazli tabiati va inson ruhiyatini ochishdagi o‘rni tahlil qilinadi.*

Tayanch tushunchalar*: poeziya, tabiat, Vatan, Abdulla Oripov ijodi, peyzaj, badiiy tasvir vositalari, metafora, qiyoslash, poetik obraz, milliy ruh, lirika.*

Аннотация. *В статье особое внимание уделяется художественно-изобразительным средствам, используемым в творчестве Абдулла Орипов, — таким как метафора, сопоставление и сравнение, а также раскрываются их специфические особенности. Анализируется функция этих стилистических средств в создании поэтического образа, конкретизации абстрактных понятий, усилении эмоциональной выразительности стихотворения и углублении философского содержания. Также на конкретных примерах показано мастерство поэта в соединении образов природы с внутренним миром человека и социально-духовными проблемами.*

Ключевые слова: *поэзия, природа, Родина, творчество Абдулла Орипов, пейзаж, художественные средства, метафора, сравнение, поэтический образ, национальный дух, лирика.*

Abstract. *This article provides a scientific and theoretical analysis of the творчество and poetic heritage of one of the prominent representatives of Uzbek literature, Hero of Uzbekistan and People’s Poet of Uzbekistan Абдулла Орипов. The study examines the artistic representation of nature and landscape motifs in the poet’s works, their role in revealing the inner world of the lyrical hero, and their significance in creating spiritual and philosophical meaning. It also analyzes the expression of human emotions, philosophical reflections on life, and the manifestation of the national spirit through images of nature. The article particularly focuses on the artistic and figurative devices used in the poetry of Абдулла Орипов, such as metaphor, comparison, and simile, highlighting their distinctive features. The functions of these stylistic devices in creating poetic imagery, concretizing abstract concepts, enhancing the emotional impact of poetry, and deepening philosophical meaning are examined. In addition, the poet’s skill in linking natural imagery with the human inner world and socio-spiritual issues is demonstrated through specific examples.*

Keywords: *poetry, nature, homeland, творчество Абдулла Орипов, landscape, artistic devices, metaphor, comparison, poetic image, national spirit, lyric poetry.*

O‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri, O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov ijodi milliy she’riyatimiz taraqqiyotida alohida bosqichni tashkil etadi. Uning poetik merosida Vatan, inson, tarix, imon-e’tiqod, muhabbat va tabiat mavzulari o‘zaro uzviy bog‘liq holda talqin etiladi. Ayniqsa, peyzaj — tabiat tasviri shoir poetikasida faqat fon vazifasini emas, balki g‘oyaviy-estetik yukni ko‘taruvchi muhim badiiy unsur sifatida namoyon bo‘ladi.

Abdulla Oripov she’riyatida tabiat manzarasi ko‘p hollarda lirik qahramonning ichki kechinmalari bilan uyg‘unlashib ketadi. Tabiat tasviri tashqi voqyelik emas, balki inson ruhiyatining badiiy proeksiyasi sifatida xizmat qiladi. Masalan, kuz manzarasi orqali hayot falsafasi, o‘tkinchilik, hijron va tafakkur holati ifoda etilsa, bahor tasviri orqali yangilanish, umid va ruhiy poklanish g‘oyalari berilgan.

Shoir tabiatni jonlantirish, antropomorfik obrazlar yaratish orqali uni inson taqdiri bilan bog‘laydi. *Shamol, yomg‘ir, tun, sahro, osmon kabi* peyzaj detallari faqat real tasvir emas, balki ma’naviy-ramziy mazmun kasb etadi. Bu jihat shoir poetikasida peyzajning psixologik funksiyasini kuchaytiradi[1;52-b.].

Abdulla Oripov poeziyasida peyzaj milliy kolorit bilan yo‘g‘rilgan. O‘zbek zamini, sahrolar, tog‘lar, kengliklar obrazi shoir ijodida Vatan timsoli sifatida gavdalanadi. Tabiat tasviri orqali milliy o‘zlik, tarixiy xotira va xalq taqdiri ifoda etiladi.

Ayniqsa, ona zamin obrazi shoir she’rlarida muqaddas tushuncha darajasiga ko‘tariladi. yer, tuproq, sahro — bu oddiy geografik tushunchalar emas, balki millatning ma’naviy tayanchi sifatida talqin etiladi. Shu ma’noda peyzaj milliy g‘oyani badiiylashtiruvchi vositaga aylanadi.

Tadqiqot natijasida Abdulla Oripov poeziyasida tabiat va peyzaj tasvirlari nafaqat badiiy fon sifatida, balki inson, Vatan, vaqt va hayot haqidagi falsafiy g‘oyalarni ifodalovchi muhim poetik vosita sifatida namoyon bo‘lishi o‘rganildi.

Ayniqsa, birinchi kurs talabalari orasida shoir asarlaridagi solishtirish va qiyoslash san’atlari poetikada obrazlilikni kuchaytiruvchi, milliy ruhni namoyon etuvchi va o‘quvchiga kuchli estetik ta’sir ko‘rsatuvchi muhim badiiy omil ekani aniqlandi.

Abdulla Oripov she’riyatida tabiat manzaralari ko‘pincha falsafiy mushohada bilan uyg‘unlashadi. Osmon va yer qarama-qarshiligi, tun va kun almashinuvi, fasllar aylanishi hayotning abadiy harakatini, inson qismatining murakkabligini anglatadi.

Shoir tabiat orqali vaqt kategoriyasini his ettiradi. Masalan, quyosh botishi — umr shomi, tong otishi — yangi umidlar ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu esa peyzajning simvolik funksiyasini kuchaytiradi. Peyzaj real manzaradan ramziy-falsafiy makonga aylanadi.

Shoir ijodida ayrim tabiat tasvirlari dramatik ruh bilan yo‘g‘rilgan. To‘fon, shamol, qorong‘u tun kabi obrazlar ichki ziddiyat, ruhiy iztirob, ijtimoiy beqarorlik holatlarini aks ettiradi. Bunday holatlarda peyzaj lirik qahramonning ruhiy dramasini kuchaytiruvchi kompozitsion vosita vazifasini bajaradi. Ayniqsa, inson va tabiat munosabati orqali ijtimoiy-axloqiy muammolarga ishora qilinadi. Tabiatning iztirobli holati inson ma’naviyatidagi inqiroz bilan uyg‘unlashtiriladi.

Abdulla Oripov poetikasida peyzaj ko‘p qirrali badiiy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. U:

-lirik qahramon ruhiyatini ochish vositasi;

-milliy ruh va Vatan g‘oyasini ifodalash shakli;

-falsafiy mushohadaning ramziy maydoni;

-dramatik ta’sirni kuchaytiruvchi kompozitsion element vazifasini bajaradi.

Shoir tabiat tasvirini tashqi fon darajasidan ko‘tarib, uni ma’naviy-estetik mazmun tashuvchi markaziy poetik unsurga aylantirgan. Shu jihatdan, Abdulla Oripov ijodida peyzaj — inson, Vatan va abadiylik g‘oyalarini birlashtiruvchi muhim badiiy tizim sifatida baholanadi.

Abdulla Oripovning poetik tafakkuri chuqur falsafiylik, milliy ruh, kuchli emotsionallik va obrazlilik bilan ajralib turadi. Shoir she’riyatining ta’sirchanligi, avvalo, badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalanishiga bog‘liq. Ayniqsa, metafora va qiyoslash san’atlari uning poetikasida yetakchi o‘rin tutadi.

Shoir ko‘p hollarda abstrakt tushunchalarni aniq, jonli obrazlar orqali ifodalaydi. Masalan, vaqt, vijdon, taqdir, yurak, Vatan kabi tushunchalar metaforik obrazlar orqali ma’naviy-ruhiy mazmun kasb etadi.

Abdulla Oripov she’riyatida metafora shunchaki badiiy bezak emas, balki poetik fikrlash tarzining asosiy shakli hisoblanadi. Metafora — o‘xshatish belgisi (kabi, go‘yo, xuddi) ishtirokisiz, bir predmet yoki hodisani ikkinchisi orqali ifodalashga asoslangan ko‘chma ma’no vositasidir.

Abdulla Oripov ijodida Vatan ko‘p qirrali metaforalar tizimi orqali tasvirlanadi. Vatan — ona, muqaddas tuproq, yurak, qalb, muqaddas qadamjolar ramzi sifatida ifoda etiladi. Bu yerda metafora milliy g‘oyani kuchaytiruvchi vositaga aylanadi. Masalan, yurakni Vatanga qiyosan emas, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri Vatan sifatida tasvirlash holatlari uchraydi. Bu orqali shoir inson va Vatan o‘rtasidagi ajralmas ruhiy bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Metafora orqali Vatan geografik hudud emas, balki ma’naviy makon sifatida talqin etiladi.

Shoir she’riyatida inson kechinmalari ko‘pincha tabiat yoki predmet obrazlari orqali metaforalashtiriladi. Masalan: qayg‘u — qorong‘u tun; umid — tong; vijdon — tirik guvoh; so‘z — o‘t; yurak — yong‘in. Bunday metaforalar orqali ruhiy holatlar konkretlashtiriladi, o‘quvchi hissiyotiga ta’sir kuchayadi. Abdulla Oripov metaforani faqat tashqi o‘xshashlikka emas, balki ichki ma’naviy uyg‘unlikka asoslaydi[1;5-b.]..

Tabiatni tasvirlar ekan, shoir badiiy-tasviriy so‘zlarni ishlatadi, ular ko‘pincha falsafiy mazmunga ega bo‘ladi. Hayot — imtihon, inson — yo‘lovchi, dunyo — sahna kabi metaforik modellar orqali shoir insoniyat taqdiri haqida mushohada yuritadi.

Bu turdagi metaforalar she’rga umuminsoniy mazmun bag‘ishlaydi va uning g‘oyaviy qamrovini kengaytiradi.

Abdulla Oripov ijodida qiyoslash obrazlilikni kuchaytirish, ruhiy holatni aniqlashtirish va estetik ta’sirni oshirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Qiyoslash — ikki narsa yoki hodisani ma’lum bir o‘xshashlik belgisi asosida “kabi”, “go‘yo”, “misoli”, “xuddi” kabi vositalar orqali

Shoir ko‘pincha insonni tabiat hodisalariga qiyoslaydi. Masalan: inson umri — sham yoki yulduz; yurak — dovul yoki daryo; orzu — qush.

Bu qiyoslar orqali inson tabiatning bir bo‘lagi sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, tabiat obrazlari orqali inson ruhiyatidagi o‘zgarishlar yorqinroq namoyon bo‘ladi.

Abdulla Oripov qiyoslash san’atidan milliy koloritni yaratishda ham foydalanadi. Masalan, insonning matonati tog‘larga, sabri sahroga, pokligi buloq suviga qiyos qilinadi. Bu holat milliy tabiat va milliy xarakter uyg‘unligini ta’minlaydi. Shoir ayrim hollarda keskin qiyoslardan foydalanib, dramatik ta’sir yaratadi. Masalan, inson qadrini zarraga, yoki aksincha, zarrani koinotga qiyoslash orqali ma’naviy ziddiyatni kuchaytiradi. Bunday qiyoslar falsafiy umumlashmaga xizmat qiladi.

Abdulla Oripov she’riyatida metafora va qiyoslash ko‘pincha bir-birini to‘ldirib keladi. Avval qiyoslash orqali o‘xshashlik yaratiladi, keyin esa u metaforaga aylanib, mustaqil badiiy obraz sifatida yashay boshlaydi. Masalan, yurakni avvalo “sham kabi” deyish orqali qiyoslash, keyin esa uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri “sham” sifatida berish — metafora. Bu jarayon shoirning obraz yaratishdagi bosqichma-bosqich fikrlash uslubini ko‘rsatadi.

Abdulla Oripov ijodida metafora va qiyoslash:

1. She’rning emotsional ta’sirchanligini oshiradi.
2. Abstrakt tushunchalarni konkretlashtiradi.
3. Milliy va umuminsoniy g‘oyalarni obrazli shaklda ifodalaydi.
4. Lirik qahramon ruhiyatini chuqur ochib beradi.
5. Falsafiy mushohadani badiiy shaklga soladi.

Shoirning badiiy mahorati shundaki, u metafora va qiyoslashni sun’iy bezak sifatida emas, balki fikr va tuyg‘u tabiiy ehtiyojidan kelib chiqqan holda qo‘llaydi.

Abdulla Oripov ijodida metafora va qiyoslash san’atlari poetik tafakkurning asosiy ustunlaridan biridir. Metafora orqali shoir hayot, Vatan, inson va vaqt haqidagi falsafiy qarashlarini chuqur va ramziy ifodalaydi. Qiyoslash esa obrazlarni aniqlashtirish, ta’sirchanlikni kuchaytirish va milliy ruhni namoyon

etishga xizmat qiladi. Abdulla Oripov poetikasida metafora va qiyoslash nafaqat uslubiy vosita, balki g‘oyaviy-badiiy tizimning ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning uyg‘unligi shoir she’riyatining obrazlilik darajasini yuksaltirib, uni zamonaviy o‘zbek adabiyotida alohida mavqyega ega etgan.

Shu bois, shoir ijodida metafora va qiyoslash san’atlari nazariy jihatdan emas, balki aniq poetik misollar orqali namoyon bo‘ladi. Quyida shoirning ayrim she’rlaridan olingan namunalar asosida ushbu badiiy vositalar tahlil qilinadi. Abdulla Oripovning “O‘zbekiston” she’rida: “Yuragimning to‘ridirsan, Vatanim.”,-degan misrada Vatan “yurakning to‘ri” sifatida berilgan[2;32-b.].. Bu yerda “kabi” yoki “go‘yo” so‘zlari ishtirok etmaydi, ya’ni bu to‘liq metaforadir. Shoir Vatanni inson tanasining eng muqaddas joyi — yurakning to‘riga aylantiradi. Demak, aytish mumkinki, Vatan — geografik hudud emas, balki ruhiy makon va bu yerda so‘z ifodaliligini kuchaytirish uchun metafora orqali Vatan va inson bir butunlikka aylanadi, obraz esa, emotsional ta’sirni kuchaytiradi.

Abdulla Oripovning “Sajda” she’rida: “Inson — ummon ichra bir zarra”,-degan misrani uchratamiz. Bu misrada inson “zarra” sifatida talqin qilingan. Dunyo yoki koinot esa “ummon” sifatida tasavvur qilinadi. Inson hayotining kichikligi va ojizligi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, zarra ham ummonning bir qismi ekani falsafiy mazmun beradi. Bu — kosmik miqyosdagi metafora. Shoirning “Munojaat” she’rida: “Yuragimda yonar alam” mtsrasida alam “yonayotgan olov” sifatida berilgan. Bu yerda alam- abstrakt tuyg‘u, ammo u olovga aylantirilgan. Bu yerda ruhiy iztirob konkretlashtirilgan. “Yonar” fe’li obrazga harakat va kuch beradi. Metafora ichki dramatizmni kuchaytiradi. Shoirning “Kuz” mavzusidagi she’rida:“Umrim kuzgi xazon kabi sarg‘aydi”,-degan misra mavjud. Bu yerda umr kuzgi xazonga qiyoslangan. Kuz-o‘tkinchi fasl ramzi sifatida, “kabi” vositasi esa qiyoslash uchun foydalanilgan. Inson umrining o‘tib borayotgani ta’sirchan ifoda etilgan.

Shoirning “Onajon” she’rida: “ona mehri quyosh misoli iliq” ekanligi tasvirlanadi. Bu misra orqali shoir ona mehrini quyoshga qiyoslaydi, qiyoslash orqali mehrning issiqligi va hayotbaxshligini ochib beradi, milliy ruh va oilaviy qadriyatlar aks etgan. Yoki, boshqa she’rlarida: “Qalbim dovul kabi to‘lqinlanar” satrida yurak, qalb dovulga qiyoslangan. Bu misralarda ichki iztirob tabiat hodisasi orqali ifoda etilgan va qiyoslash dramatik ta’sirni oshirgan. Ayrim hollarda shoir avval qiyoslash qo‘llab, keyin uni metaforaga aylantiradi. Masalan: “Yuragim sham kabi titraydi” satrlarida uslubiy o‘tish obrazni mustahkamlaydi va fikrni chuqurlashtiradi[1;14-b.].

Xulosa sifatida aytstish mumkinki, Abdulla Oripov she’rlarida badiiy so‘z tasvirlari abstrakt tushunchalarni jonli obrazga aylantiradi, obrazni aniqlashtirib, ta’sirchanlikni kuchaytiradi;, ruhiy kechinmalar tabiat hodisalari orqali ifoda etiladi. Shoirning badiiy so‘z tasvirlaridan foydalanish mahorati uning she’riyatiga falsafiy chuqurlik, milliy ruh va yuksak estetik ta’sir bag‘ishlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oripov Abdulla. Tanlangan asarlar. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2015.-228b.

1. Oripov Abdulla. Sohibqiron: she’riy drama. – T.: Adabiyot va san’at, 1996. – 128 b.
2. Davlatova A. Abdulla Oripov she’riyatida poetik tafakkur tadriji: filol. fan. dok-ri (DSc) diss. – Toshkent, 2022. – 260 b.
3. Is’hoqov Yo. So‘z san’ati so‘zligi. – Toshkent: Akademnashr, 2014.- 320 b.

ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA AYOL OBRAZINING ULUG‘LANISHI

Kodirova Ra’no Tuxtaevna
“TIQXMMI” MTU «Iqtisodiyot» fakulteti xotin-qizlar masalalari bo‘yicha dekan maslahatchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyatining yirik namoyandasi Abdulla Oripov ijodida ayol obrazining badiiy talqini va uning ma’naviy mazmuni tahlil qilinadi. Shoir she’rlarida ayol obrazi ona, yor, hayot manbai va ma’naviy poklik timsoli sifatida namoyon bo‘lishi ilmiy jihatdan yoritiladi. Maqolada ayol obrazining milliy qadriyatlar, insoniylik va ma’naviy tarbiya bilan bog‘liq jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, shoir she’rlaridan keltirilgan misollar orqali ayol obrazining estetik va tarbiyaviy ahamiyati ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ayol obrazi, ona timsoli, ma’naviyat, badiiy obraz, o‘zbek she’riyati, muhabbat mavzusi, ma’naviy qadriyatlar, milliy an’ana.*

Аннотация. *В данной статье анализируются художественная интерпретация и духовное содержание образа женщины в творчестве выдающегося представителя современной узбекской поэзии Абдуллы Орипова. В поэзии поэта образ женщины раскрывается как символ матери, возлюбленной, источника жизни и духовной чистоты. В статье рассматриваются связи образа женщины с националными ценностями, гуманизмом и духовно-нравственным воспитанием. Кроме того, на основе примеров из стихотворений поэта показано эстетическое и воспитательное значение женского образа.*

Ключевые понятия: *образ женщины, образ матери, духовность, художественный образ, узбекская поэзия, тема любви, духовные ценности, национальная традиция.*

Abstract. *This article analyzes the artistic interpretation and spiritual essence of the image of a woman in the works of the prominent representative of modern Uzbek poetry, Abdulla Oripov. In the poet’s works, the image of a woman appears as a symbol of a mother, beloved, source of life, and spiritual purity. The article examines the relationship between the image of a woman and national values, humanism, and spiritual education. Furthermore, through examples from the poet’s poems, the aesthetic and educational significance of the female image is demonstrated.*

Keywords: *image of a woman, mother image, spirituality, artistic image, Uzbek poetry, theme of love, spiritual values, national tradition.*

Mamlakatimizda ayollarga bo‘lgan e’tibor va ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Ayniqsa, mustaqillik yillarida xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va jamiyat hayotidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada davlat tomonidan ayollarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ta’lim olishi, mehnat qilishi va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlarning huquqiy maqomini mustahkamlash maqsadida qator qonunlar va davlat dasturlari qabul qilingan. Xususan, xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini ta’minlashga qaratilgan islohotlar mamlakat taraqqiyotining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Bu borada Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ta’lim va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bir qator qaror va farmonlar qabul qilindi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyatdagi faolligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi kabi tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Ushbu tashkilotlar ayollarning huquqiy, ijtimoiy va ma’naviy manfaatlarini himoya qilish, ularning oila va jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, xotin-qizlarning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi va tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi uchun turli dasturlar amalga oshirilmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ayollarning siyosiy va ijtimoiy hayotdagi ishtiroki ham sezilarli darajada oshdi. Bugungi kunda xotin-qizlar davlat boshqaruvi organlarida, parlamentda, ta’lim va ilm-fan sohalarida, shuningdek, tadbirkorlik va ishlab chiqarish tarmoqlarida faol ishtirok etmoqdalar. Bu esa ayollarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati tobora ortib borayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mamlakatimizda ayollarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish, ona va bola salomatligini ta’minlash masalalariga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Tibbiy xizmat sifatini oshirish, onalik va bolalikni muhofaza qilish dasturlarini amalga oshirish orqali ayollar salomatligini saqlashga katta ahamiyat berilmoqda.

O‘zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va jamiyat taraqqiyotidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan islohotlar mamlakat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa mamlakatimizda ayollarga bo‘lgan hurmat va e’tiborning yuksak darajada ekanini yaqqol namoyon etadi va barcha sohalarda, xususan adabiyot yo‘nalishida ham ayol siymosini gavdalantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Shuni ta’kidlash joizki, o‘zbek adabiyotida ayol obrazi azaldan yuksak ehtirom bilan tasvirlangan. “Ayol — ona, tarbiyachi, mehr-muhabbat manbai va hayot davomiyligining ramzi sifatida ko‘plab badiiy asarlarda muhim o‘rin egallaydi”[3;43-b.]. Ayniqsa, she’riyatda ayol obrazi nafaqat go‘zallik timsoli, balki ma’naviy poklik va insoniylikning oliy namunasi sifatida talqin qilinadi. Bu an’ana zamonaviy o‘zbek she’riyatida ham davom ettirilib, uning yorqin

namoyandalaridan biri bo‘lgan Abdulla Oripov ijodida ayol obrazi alohida badiiy va ma’naviy ahamiyat kasb etadi. Shoir she’rlarida ayol nafaqat muhabbat mavzusining markaziy qahramoni, balki millat ma’naviyati va inson ruhiyatini ifoda etuvchi muhim obraz sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek adabiyotida ayol obrazi yuksak ma’naviy qadriyat sifatida talqin qilib kelingan. Ayol – hayot manbai, mehr-muhabbat ramzi, oila va jamiyat barqarorligining asosiy tayanchi sifatida ko‘plab badiiy asarlarda markaziy obrazlardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, “zamonaviy o‘zbek she’riyatida ayol obrazi nafaqat go‘zallik timsoli, balki ma’naviy poklik, sabr-toqat, fidoyilik va insonparvarlikning yuksak namunasi sifatida ulug‘lanadi” [4;56-b.].

Zamonaviy o‘zbek shoirlari ijodida ayol obrazi turli badiiy talqinlarda namoyon bo‘lib, u ona, yor, millat tarbiyachisi va hayot ma’nosini anglatuvchi ma’naviy timsol sifatida tasvirlanadi. Bu borada bir qator shoirlar ijodida ayol obrazi alohida badiiy va g‘oyaviy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek she’riyatida ayol obrazini yuksak darajada tasvirlagan shoirlardan biri — Abdulla Oripov hisoblanadi. Shoir ijodida ayol obrazi asosan ona timsoli orqali ulug‘lanadi. Uning she’rlarida ona nafaqat farzand tarbiyachisi, balki inson ma’naviyatini shakllantiruvchi muqaddas zot sifatida tasvirlanadi.

Abdulla Oripov she’riyatida ona obrazi mehr-muhabbat, fidoyilik va sabr-toqat ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. “Shoir ona obrazini tasvirlar ekan, uni insoniylik va ma’naviy poklik manbai sifatida ko‘rsatadi. Bu orqali u jamiyatda ayolning o‘rni va qadrini yuksak darajada e’tirof etadi” [3;48-b.].

Zamonaviy o‘zbek adabiyotining yana bir yirik namoyandasi — Erkin Vohidov ijodida ham ayol obrazi alohida badiiy ahamiyatga ega. Shoir she’rlarida ayol nafaqat muhabbat mavzusining qahramoni, balki ma’naviy go‘zallik va insoniy fazilatlar timsoli sifatida namoyon bo‘ladi.

Erkin Vohidov she’riyatida ayol obrazi nafosat, sadoqat va insoniylik kabi fazilatlar bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. Shoir ayolning ichki go‘zalligiga alohida e’tibor qaratadi. Uning she’rlarida ayol nafaqat go‘zallik ramzi, balki ma’naviy kamolotga yetaklovchi kuch sifatida ham talqin qilinadi[2;52-b.].

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida ayol obrazini samimiy va xalqona ruhda tasvirlagan shoirlardan biri — Muhammad Yusuf hisoblanadi. Uning she’rlarida ayol obrazi, ayniqsa ona timsoli orqali juda ta’sirchan va samimiy ifoda etilgan.

Muhammad Yusuf she’riyatida ona obrazi xalqona soddalik va samimiylik bilan tasvirlanadi. Shoir uchun ona — hayot ma’nosi, mehr-muhabbat va insonparvarlikning oliy timsolidir. Uning ko‘plab she’rlarida onaga bo‘lgan muhabbat va ehtirom kuchli lirik tuyg‘ular orqali ifoda etilgan.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida falsafiy ruh va chuqur lirizm bilan ajralib turadigan shoirlardan biri — Usmon Azim hisoblanadi. Uning she’rlarida ayol obrazi inson ruhiyati, muhabbat va hayot mazmuni bilan bog‘liq holda talqin qilinadi.

Usmon Azim ijodida ayol obrazi ko‘pincha ruhiy go‘zallik va ichki dunyo timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir ayolning qalbiy pokligi va ma’naviy boyligini alohida badiiy obrazlar orqali ifoda etadi.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida ayol obrazini eng chuqur va ta’sirchan tarzda yoritgan shoirlardan biri — Halima Khudoyberdiyeva hisoblanadi. Uning she’rlarida ayol obrazi mustaqillik, matonat va milliy g‘urur ramzi sifatida namoyon bo‘ladi.

Halima Xudoyberdieva ijodida ayol nafaqat ona yoki yor sifatida, balki jamiyatdagi faol shaxs sifatida ham tasvirlanadi. Uning she’rlarida ayolning ichki kuchi, irodasi va ma’naviy barkamolligi alohida badiiy ta’sirchanlik bilan yoritiladi.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida ayol obrazi yuksak ma’naviy va estetik mazmun bilan tasvirlangan. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Usmon Azim va Halima Khudoyberdiyeva kabi shoirlar ijodida ayol obrazi ona, yor, ma’naviy poklik va hayot go‘zalligi timsoli sifatida ulug‘langan[1;14-b.].

Bu shoirlar she’riyatida ayol obrazining yuksak talqini jamiyatda ayolga bo‘lgan hurmat va ehtiromni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ayol obrazining bunday badiiy talqini milliy ma’naviyatni boyitish va yosh avlodni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Abdulla Oripov ijodida ayol obrazining eng yuksak va muqaddas ko‘rinishi ona timsoli orqali ifoda etiladi. Ona shoir talqinida inson hayotining bosh manbai, mehr-oqibat va tarbiya ramzi hisoblanadi.

Shoirning ko‘plab she’rlarida ona obrazi mehr va muhabbat bilan tasvirlanadi:

Onajon, sen borsan — hayot bor menda,
Sen borsan — qalbimda nur bor, ziyo bor[1;13-b.].

Bu misralarda ona nafaqat oilaviy mehr manbai, balki inson ma’naviyatining asosiy ustuni sifatida ko‘rsatiladi. Shoir uchun ona obrazi muqaddas va beqiyos qadriyatdir.

Ona obrazi orqali shoir insonni mehr-oqibat, hurmat va insoniylikka chorlaydi. Shu sababli bu obraz shoir she’riyatida tarbiyaviy ahamiyatga ham ega.

Abdulla Oripov she’riyatida ayol obrazi muhabbat mavzusi bilan ham chambarchas bog‘liq. Shoir muhabbatni inson qalbini poklovchi va uni ma’naviy kamolotga yetaklovchi tuyg‘u sifatida talqin qiladi.

Shoirning muhabbat haqidagi she’rlarida ayol go‘zallik va nafosat timsoli sifatida tasvirlanadi. Biroq bu go‘zallik faqat tashqi ko‘rinish bilan cheklanmaydi. Shoir ayolning ichki dunyosi, ma’naviy pokligi va sadoqatini ham ulug‘laydi.

Bunday tasvirlar orqali shoir ayolga bo‘lgan hurmat va ehtirom tuyg‘ularini shakllantiradi.Abdulla Oripov ijodida ayol obrazi faqat muhabbat mavzusi bilan cheklanmaydi. U ko‘pincha ma’naviy poklik, sabr-toqat va hayotga muhabbat timsoli sifatida namoyon bo‘ladi.

“Shoir talqinida ayol inson ma’naviyatini yuksaltiruvchi kuch sifatida ko‘rsatiladi. Ayol mehri va sadoqati inson hayotiga ma’no va mazmun baxsh etadi. Bu obraz orqali shoir jamiyatda ayolning o‘rni va qadrini yuksak darajada baholaydi” [5;16-b.].

Abdulla Oripov she’riyatida ayol obrazi milliy an’analar va qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq holda tasvirlanadi. Shoir o‘zbek ayolini iffat, hayo, sabr va matonat timsoli sifatida ko‘rsatadi.

Bunday tasvirlar orqali shoir milliy madaniyat va ma’naviy qadriyatlarni ulug‘laydi. Ayol obrazi milliy oilaviy an’analarning saqlovchisi sifatida ham namoyon bo‘ladi.Shu sababli shoir she’riyatida ayol obrazi nafaqat badiiy obraz, balki milliy ma’naviyat ramzi sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Abdulla Oripov ijodidagi ayol obrazi katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu obraz orqali inson qalbida ayolga nisbatan hurmat, ehtirom va mehr tuyg‘ulari shakllanadi.

Ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida bunday she’rlar muhim rol o‘ynaydi. Chunki ayol obrazining yuksak talqini jamiyatda ayol qadrini anglashga yordam beradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, aytish mumkinki, o‘zbek adabiyotida, ayniqsa Abdulla Oripov she’riyatida ayol obrazi yuksak badiiy va ma’naviy mazmun bilan tasvirlangan. Shoir ayolni ona, muhabbat manbai, ma’naviy poklik va hayot go‘zalligi timsoli sifatida ulug‘laydi. Bu obraz orqali inson qalbida mehr-oqibat, hurmat va insoniylik tuyg‘ulari shakllanadi. Shu sababli Abdulla Oripov she’riyatidagi ayol obrazi o‘zbek adabiyotida muhim ma’naviy va estetik ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2001.
2. Abdulla Oripov. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2011.
3. Ozod Sharafiddinov. Adabiyot – hayot darsligi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
4. Ozod Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2004.
5. Ibrohim Gafurov. Adabiyot va tafakkur. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.

Naim Karimov. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999,-170.

АБДУЛЛА АРИПОВ:ОЧЕРК УСТРЕМЛЕНИЙ

Ахмедов Исмаил Ризаевич
доктор педагогических наук, профессор кафедры “Языков”
“Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства” Национального исследовательского университета

Аннотация. *Поэзия Абдуллы Арипова имеет большое воспитательное и идейное значение, такая поэзия проникновенно говорит о духовности и просвещении каждого узбека. Теперь уже наше духовное будущее, планы и перспективы невозможно представить без творчества Абдуллы Арипова. Его стихи служат торжеству справедливости, веры в светлое будущее народа, воспитывают молодое поколение в духе высокого патриотизма.*

Ключевые слова: *духовность, просвещение, торжество справедливости, вера в светлое будущее народа, философия вечной песни добру, матери, родине, новое видение человека, поиск истины, независимость духа, стремление проникнуть в сущность бытия,*

постижение смысла счастья и горя, зерно истины, лирический герой, образ цельной личности, философская лирика, размышления о жизни и месте человека в этом мире, рассуждения о познанном, о гармонии природы и человека, описание борьбы добра и зла, повествования сущности жизни.

Annotatsiya. *Abdulla Aripov she’riyatining tarbiyaviy va g‘oyaviy ahamiyati katta, bunday she’riyat har bir o‘zbekning ma’naviyati va ma’rifatidan dalolat beradi. Endi Abdulla Aripov ijodisiz ma’naviy kelajagimizni, rejalarimiz va istiqbollarimizni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Uning she’rlari adolat, xalqimizning yorqin kelajagiga ishonch tantanasiga xizmat qiladi, yosh avlodni yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi.*

Kalit so‘zlar: *ma’naviyat, ma’rifat, adolat tantanasi, xalqimizning yorqin kelajagiga ishonch, ezgulik, onalik, vatanga abadiy qo‘shiq falsafasi, insonning yangi qarashlari, haqiqatni izlash, ruhning mustaqilligi, mavjudlikning mohiyatiga kirishga intilish, baxt va qayg‘u ma’nosini anglash, haqiqat donasi, lirik qahramon, yaxlit shaxs tasviri, falsafiy lirika, insonning bu dunyodagi hayoti va o‘rni haqida fikr yuritish, bilim to‘g «risida, tabiat va inson uyg‘unligi to‘g» risida mulohaza yuritish, yaxshilik va yomonlik kurashining tavsifi, hayotning mohiyati haqida hikoya qilish.*

Abstract. *The poetry of Abdullah Aripov has great educational and ideological significance, such poetry sincerely speaks of the spirituality and enlightenment of every Uzbek. Now our spiritual future, plans and prospects cannot be imagined without the work of Abdullah Aripov. His poems serve the triumph of justice, faith in the bright future of the people, educate the younger generation in the spirit of high patriotism.*

Key words*: spirituality, enlightenment, triumph of justice, faith in the bright future of the people, the philosophy of the eternal song to good, mother, homeland, a new vision of man, the search for truth, the independence of the spirit, the desire to penetrate the essence of being, the comprehension of the meaning of happiness and grief, a grain of truth, a lyrical hero, an image of an integral personality, philosophical lyrics, reflections on the life and place of man in this world, reasoning about the known, about the harmony of nature and man, a description of the struggle between good and evil, a narrative of the essence of life.*

Выдающийся узбекский поэт и драматург Абдулла Арипов родился в 1941 году в кишлаке Некуз Касанского района Кашкадарьинской области Узбекистана. Это был одаренный ребенок. Учился мальчик хорошо. Семья поддерживала его в хорошем учении, а братья, учившиеся в Самарканде и Ташкенте, привозили ему книги по его просьбам. Эти всегда любимые книги, вечная красота долин, гор и предгорий, теплые отношения в семье, песни матери, тяжелые военные и послевоенные годы, заставившие рано повзрослеть и быть ответственным, сделали нужное дело – мальчик много читал, начал задумываться о жизни, о мире, о любви и стал писать стихи. Абдулла всегда просился пасти домашний скот на близлежащих обильных лугах. Рано утром выгонял скотину, а сам читал – читал. Так познакомился со

стихами Навои, Пушкина, Алимджана, Зульфии, Айбека и Гуляма... Было бесконечное восхищение ими, раздумья и размышления. Пытался рассуждать о стихах великих с друзьями - они только поднимали его на смех, с братьями – те отмахивались, недосуг, нашел время, подходи давай, помогай, с матерью – она только брала в свои натруженные, вечно пахнущие хлебом из тандыра, руки его личико и целовала, а он отбивался, крича в восторге, что не за этим пришел («теперь вот хочу, но нет поцелуя её, лишь только слышен шепот шагов, но нет, почудилось – то шелест травы у отцовского дома»). Только учителя слушали его, и восхищались, приговаривая: «Будешь большим поэтом! Только не забудь про нас в своих стихах». Он обещал… А «вечерами, запрокинув голову, я вглядывался в звездное небо, и мысли уносили меня далеко – далеко в другие края, за пределы вселенной… И то, что переполняло душу, мои ощущения жизни, природы я старался воплотить в строки стихов».

В 1958 году, закончив школу с золотой медалью, Абдулла поступает учиться в Ташкентский университет, на факультет журналистики. Была учеба, не сказать, что очень трудная, всё-таки не высшая математика, начертательная геометрия и сопромат, а что-то близкое, родное: о пробе пера, о писательском труде, о языке и стиле сочинения, об образах героев и сюжете, идее, замысле и композиции. Был студенческий быт: жил, как и все, от стипендии до стипендии. Когда поджимало, шел с друзьсми на товарную станцию или на рынок подзаработать – 5-10 рублей были серьезные деньги. Но больше всего нравились студенческие сборища, эти неизменные вечеринки, где Абдуллу всегда просили прочесть из своего, нового, только что написанного. Тогда же под воздействием новых книг и новых наставников Абдулла окончательно сформировал свое мировоззрение как мотив творчества: быть честным человеком, сыном своей родины и искренним в стихах:

За какою тайной по земле брожу я?
Может быть найду я, может не найду.
Радуясь и мучаясь, плача и бушуя,
Над родной землею ветром я пройду.
Здесь прохладны реки. Здесь поля светлы.
Здесь не позабудут имя Абдуллы.
Лунные долины. Милые края.
Назабвенный ветер. Родина моя.

После окончания университета Абдулла работал в различных издательствах, был главным редактором молодежного журнала «Гулхан» («Костер»), председателем союза писателей республики, депутатом парламента. Но главным, любимым делом оставались стихи:

Понял я – одна на свете
Мне дана страна родная.
И вот эта степь без края
Мне одна – как плач сурная.
Кто б ни высился – в почете,
Высока лишь ты, я знаю,

Счастье мое грозное,
Синь моя, Поэзия,
Мой престол и родина,
Жизнь моя, Поэзия!

Гений поэта был замечен и одобрен узбекскими писателями: Каххаром, Миртемиром, Шайхзодой, да и всем читающим народом. Поэзия Абдуллы Арипова имеет большое воспитательное и идейное значение, такая поэзия проникновенно говорит о духовности и просвещении каждого узбека. Теперь уже наше духовное будущее, планы и перспективы невозможно представить без творчества Абдуллы Арипова. Его стихи служат торжеству справедливости, веры в светлое будущее народа, воспитывают молодое поколение в духе высокого патриотизма.

Стихи Абдуллы Арипова говорят о его философии вечной песни добру, матери, родине, новом видении человека:

Сколько муки! До крови, до боли
Истерзал меня поздний закат.
Ах, оставь свои струны, довольно,
Не терзай мою грудь, музыкант.
Если правда, что было так плохо,
Как твердит этой музыки плач,
Значит мир нам не люлька, а плаха!
И природа не мать, а палач…
Как рыдает напев! Как стремится
Прозвучать чей-то горестный век!
…Если музыка так им томится –
Как же прожил его человек?..

Стихи его правдивы и смелы, устремлены к поиску истины, независимы духом, стремятся проникнуть в сущность бытия, постичь смысл счастья и горя, искать и находить зерно истины. Стихи его обладают образностью, где мысль родившаяся есть чувство выстраданное, оттого искренне и чистое. Его стихам присущ драматический накал повествования, глубокий лиризм описания, гармония слова и музыкальной мелодии:

Иду к ручью, устав от неудач.
Иду к тебе, мой старый карагач.
Пусть я пою, пусть бессловесен ты –
Мы родственники средь мирской тщеты.
Но люди сень твою благодарят,
Меня ж за доброту они корят.
Ответь мне шумом вековых ветвей,
Как жить на свете с участью моей?
Давай меняться. Станем над ручьем
Ты человеком, я карагачом.
Чтоб ты, всю жизнь меня благодаря,
Однажды на костре спалил меня.

Лирический герой Абдуллы Арипова – образ цельной личности со своими убеждениями, характером, планами и надеждами. Это вовсе не Алпамыш или Фархад, не сомневающийся в своей правоте и силе в борьбе за счастье. Нет, это человек, тоже радующийся весне, любви, матери, но сомневающийся, прав ли он сделал, может ли он стать сильным, когда призовет Родина, найдет ли единственную любимую среди многих, найдет ли верного друга среди многих. Но одно отнять у ариповского героя – его бесконечную любовь к родной земле, родному кишлаку, рукам матери и делам отца, словам учителя, нежному взгляду любимой, смеху друга и улыбке детей. Он родился здесь и горд за прошлое Отчизны, иногда светлое, как голубое небо и чистый родник, иногда страшное, как мутная вода, унесшая Машраба, Бехбуди, Чулпана, Кадыри. Он радуется ее настоящему – мы живем в самой солнечеой стране, на самой благодарной земле. Наконец – то узбекский народ стал ценен своему государству, процветает в мире и спокойно трудится:

На белом свете мудрость есть одна,
О самом важном говорит она:
Чтоб в жизни был счастливым жребий твой,
Должно быть мирным небо над страной.
Но чтоб страна, где ты живешь, цвела,
Могуча, изобильна и светла,
Будь верным сыном Родины своей.

Философская лирика – это размышления о жизни и месте человека в этом мире, рассуждения о познанном, о гармонии природы и человека, описание борьбы добра и зла, а в итоге – повествования о сущности жизни.

Поэт хочет видеть своего героя личностью совершенной, но сам признается, что этого не достичь – совершенен только Создатель. А бессмертие человека – в продолжении его рода:

Не надо от тебя мне, родной,
Богатства дома, роскоши ковровой.
Достаточно мне, сын любимый мой,
Чтоб рядом ты ходил живой – здоровый.
Щитом не будь мне, коль придет беда.
Достаточно, чтоб ты под нашим кровом
В тот день, когда усну я навсегда
Стоял бы надо мной живой – здоровый.

Лирический герой Абдуллы Арипова любит женщину глубоко, всем сердцем, с чистотой помыслов, неся чистые и подлинные чувства. Любовь – это страсть, но о такой страсти не говорят наружу, но можно говорить об уважении и достоинстве, о стремлении видеть и не сказать, о вечной нежности и отдаленном обожании. Образ любимой нарочито приземлен, она не может сказать тех слов, что пьянят голову и туманят взор, но ее преданность, верность, чистота отношений говорят, намекают: ты пришел с работы в дом, где тебя ждут не только люди, но сам воздух благородства и чистоты слов и дел. Так будь и ты таким же доброскло нным:

В цветущий сад забрел сначала,
Потом в степи искал следы…
Не от твоих ли щечек ало
Повсюду вспыхнули цветы?
Нигде не встретилась мне ты.
Ты по весне не заскучала?
От горьких мыслей отвлекала
Гор отдаленных вышина.
Потом ты снова возникала,
И вновь я видел – не она…
Мы одиноки – я, весна.
Ты по весне не заскучала?
Победно песнь одна звучала
В шиповнике, а между скал
Летела лань. Вода журчала,
Поток стремительный сверкал.
Но мой взор лишь тебя искал.
Ты по весне не заскучала?
Я знал, но ты не отвечала.
Грущу наедине с весной.
Дарю цветы, кому попало –
А я их нес тебе одной.
Но почему ты не со мной?
Ты по весне не заскучала?

Поэтом написаны три поэмы: «Дорога в рай» (1978), «Авиценна и смерть» (1980), «Сохибкирон» (1995). Их объединяет любовь к жизни, потребность творить добро, несмотря на коварство и подлость людей, не ведающих, что творят. Борьба истины и лжи идет постоянно, пока есть человек с его силой и слабостями, помыслами лучшей доли для себя. А для других? – спрашивает автор. Ответ кроется в радении человеком вечных идеалов.

На русский язык стихи поэта переведены Риммой Казаковой, Александром Файнбергом, Наумом Гребневым. Сам он блестяще перевел «Божественную комедию» Данте, стихи Пушкина, Тараса Шевченко, Леси Украинки, Халила Ризо и др. В своих стихах он гордился, что он узбек, его окрыляла высокая мечта видеть свой народ счастливым, отличала глубокая гуманистическая философия, его стихи основывало честное, реалистическое мировоззрение.

Народный художник Узбекистана, лауреат государственной премии Абдулла Арипов в 1998 году был удостоен высокого звания «Герой Узбекистана». Умер от болезни сердца в 2016 году.

Список литературы:

1. Абдулла Арипов. «Дорога в рай» Т., Узбекистон, 2020.
2. Абдулла Арипов. «Авиценна и смерть» - Т., Янги аср авлоди, 2020.

3. Абдулла Арипов. «Сохибкирон» - Т., Фан, 2020.
4. Абдулла Арипов. Избранные стихи. - Т., Янги аср авлоди, 2020.
5. Абдулла Арипов. Собрание сочинений. - Т., Укитувчи, 2020.
6. Переводы стихов Арипова на русский язык Риммой Казаковой, Александра Файнберга, Наума Гребнева. - Т., Янги аср авлоди, 2020.
7. Уткир Хошимов. «Узбеклар» - «Узбеки» - Т., Узбекистон, 2020.
8. Пиримкул Кадыров. «Бахор кайтмайди» - «Весна не вернется», - Т., Саодат, 2020.
9. Мухаммад Юсуф. «Нур борки, соя бор» - «Есть свет – есть и тень», - Т., Баркамол авлод, 2020.
10. Мухаммад Юсуф. «Инсон садокати». - Т., Баркамол авлод, 2020.

ТЕМА РОДИНЫ И ПАТРИОТИЗМА В ТВОРЧЕСТВЕ АБДУЛЛЫ ОРИПОВА

Абдуллаева Камола Абдурашидовна
доктор философии по педагогическим наукам(PhD), университет Альфраганус

Аннотация. *В статье рассматривается тема Родины и патриотизма в творчестве Абдуллы Орипова - выдающегося поэта Узбекистана, общественного и государственного деятеля. Анализируются основные мотивы его лирики, в которых образ Родины предстает как духовная ценность, историческая память и нравственный ориентир народа. Особое внимание уделяется взаимосвязи понятий национальной идентичности, исторической ответственности и личной гражданской позиции поэта. Подчеркивается роль природных образов в раскрытии патриотической идеи, где родная земля выступает символом национального характера и духовной стойкости. Рассматривается значение творчества Абдуллы Орипова в период обретения независимости Узбекистана, а также его вклад в формирование национального самосознания, включая создание текста Государственного гимна страны. Делается вывод о том, что патриотизм в поэзии Арипова носит глубоко личностный и одновременно общенациональный характер, соединяя прошлое, настоящее и будущее Родины.*

Ключевые понятия: *Абдулла Орипов; тема Родины; патриотизм; национальная идентичность; историческая память; духовное наследие; независимость Узбекистана; гражданская позиция; образ природы; государственный гимн; национальное самосознание.*

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonning buyuk shoiri, jamoat va davlat arbobi Abdulla Oripov ijodida Vatan va vatanparvarlik mavzusi yoritiladi. Uning lirikasidagi asosiy motivlar tahlil qilinib, unda Vatan obrazi ma’naviy qadriyat, tarixiy xotira va xalq uchun axloqiy yo‘l-yo‘riq sifatida talqin etilishi ko‘rsatib*

beriladi. Shoirning milliy o‘zlikni anglash, tarixiy mas’uliyat va shaxsiy fuqarolik pozitsiyasi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikka alohida e’tibor qaratiladi. Tabiat obrazlarining vatanparvarlik g‘oyasini ochib berishdagi o‘rni ta’kidlanib, ona zamin milliy xarakter va ma’naviy bardoshlilik timsoli sifatida namoyon bo‘lishi yoritiladi. Shuningdek, Abdulla Oripov ijodining O‘zbekiston mustaqillikka erishgan davrdagi ahamiyati hamda mamlakat Davlat madhiyasi matnini yaratish orqali milliy o‘zlikni shakllantirishdagi hissasi tahlil etiladi. Xulosa sifatida, Oripov she’riyatidagi vatanparvarlik chuqur shaxsiy va ayni paytda umumxalq xarakteriga ega bo‘lib, Vatan o‘tmishi, buguni va kelajagini o‘zaro bog‘lab turishi qayd etiladi.

Kalit so‘zlar: *Abdulla Oripov; Vatan mavzusi; vatanparvarlik; milliy identiklik; tarixiy xotira; ma’naviy meros; O‘zbekiston mustaqilligi; fuqarolik pozitsiyasi; tabiat obrazi; Davlat madhiyasi; milliy o‘zlikni anglash.*

Abstract. *The article examines the theme of the Motherland and patriotism in the works of Abdulla Oripov, an outstanding poet of Uzbekistan and a prominent public and state figure. The main motifs of his lyric poetry are analyzed, in which the image of the Motherland appears as a spiritual value, historical memory, and a moral guide for the people. Particular attention is paid to the interconnection between the concepts of national identity, historical responsibility, and the poet’s personal civic position. The role of natural imagery in expressing the patriotic idea is emphasized, where the native land serves as a symbol of national character and spiritual resilience. The article also explores the significance of Abdulla Aripov’s творчество during the period of Uzbekistan’s independence, as well as his contribution to the formation of national self-consciousness, including the creation of the text of the State Anthem of the country. It is concluded that patriotism in Aripov’s poetry possesses a deeply personal yet at the same time nationwide character, uniting the past, present, and future of the Motherland.*

Keywords: *Abdulla Oripov; theme of the Motherland; patriotism; national identity; historical memory; spiritual heritage; independence of Uzbekistan; civic position; image of nature; State Anthem; national self-consciousness.*

Абдулла Орипов-один из самых значительных поэтов Узбекистана, государственный и общественный деятель. Его творчество стало духовным отражением эпохи. После обретения независимости Узбекистана Абдулла Орипов стал символом национального возрождения и духовного обновления, так как его стихи освещали вопросы национальной идентичности и становления независимого Узбекистана. В настоящее время его стихи продолжают изучаться в школах и университетах, вдохновляя новые поколения читателей.

Уже в ранних стихах Абдуллы Орипова заметны философская глубина и искренность переживаний. Его детство пришлось на трудные послевоенные годы, что сформировало в нём глубокое чувство сострадания, любви к родной земле и уважения к простому человеку..

Поэт вошёл в литературу в 1960-е годы — время духовных поисков и осторожных художественных экспериментов. Его первые сборники сразу привлекли внимание читателей яркой образностью и необычайной музыкальностью языка.

Hozirgi globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyoti nafaqat iqtisodiy yoki texnologik omillar bilan, balki insonlarning ma’naviy kamoloti va ruhiy barkamolligi bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Ma’naviy ruh insonning ichki dunyosi, axloqiy qadriyatlari, milliy o‘zligi va jamiyat oldidagi mas’uliyatini belgilab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Shu bois bugungi kunda ma’naviy ruhni shakllantirish masalasi davlat va jamiyat oldidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, yosh avlodni milliy qadriyatlarga sodiq, ma’naviy jihatdan barkamol insonlar etib tarbiyalash mamlakat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. Chunki ma’naviy barkamol shaxs jamiyatda barqarorlik, tinchlik va taraqqiyotni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Ma’naviy ruh insonning axloqiy va ma’naviy kamolotini belgilab beruvchi asosiy tushunchalardan biri hisoblanadi. U insonning hayotga bo‘lgan munosabati, jamiyatdagi o‘rni, milliy qadriyatlarga hurmati va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantiradi.

Bugungi kunda ma’naviy ruhni shakllantirishning ahamiyati bir necha jihatlarda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, ma’naviy ruh insonni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qiladi. Globallashuv sharoitida turli axborot oqimlari inson ongiga ta’sir ko‘rsatayotgan bir paytda ma’naviy barkamollik insonning mustaqil fikrlashi va to‘g‘ri qaror qabul qilishiga yordam beradi. Ikkinchidan, ma’naviy ruh jamiyatda axloqiy barqarorlikni ta’minlaydi. Insonlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik kabi fazilatlar jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Uchinchidan, ma’naviy ruh milliy o‘zlikni anglashga xizmat qiladi. Milliy madaniyat, urf-odatlar va an’analarni qadrlash orqali inson o‘z xalqi tarixi va madaniyatiga hurmat bilan qaraydi.

O‘zbekistonda ma’naviy tarbiya va ma’naviy ruhni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarida bu sohada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ma’naviy-ma’rifiy sohani rivojlantirishga qaratilgan qator muhim qaror va dasturlar qabul qilindi. Bu islohotlar jamiyatda ma’naviy muhitni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Jumladan, mamlakatimizda ma’naviy tarbiyani kuchaytirish maqsadida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi faoliyati yanada takomillashtirildi. Ushbu markaz jamiyatda ma’naviy muhitni mustahkamlash, milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish va

aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida ma’naviy tarbiya ishlarini tashkil etishda muhim rol o‘ynamoqda. Shuningdek, ta’lim tizimida ham ma’naviy tarbiyaga alohida e’tibor qaratilmoqda. Maktab, litsey va oliy ta’lim muassasalarida ma’naviyat va ma’rifatga oid darslar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar va ma’rifiy loyihalar muntazam o‘tkazilmoqda.

Ma’naviy ruhni shakllantirishda yosh avlod tarbiyasi alohida ahamiyatga ega. Chunki yoshlar jamiyatning kelajagini belgilab beruvchi asosiy kuch hisoblanadi. Shu sababli ularni milliy qadriyatlarga sodiq, bilimli va ma’naviy barkamol insonlar etib tarbiyalash davlat siyosatida ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda yoshlarni ma’naviy tarbiyalashga qaratilgan ko‘plab madaniy, ma’rifiy va ijtimoiy loyihalar amalga oshirilmoqda. Adabiyot, san’at, teatr va madaniyat sohalarida o‘tkazilayotgan turli festivallar, tanlovlar va ma’rifiy tadbirlar yoshlarning ma’naviy kamolotiga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, milliy adabiyot va madaniyat namoyandalari ijodini targ‘ib qilish orqali ham yoshlarda ma’naviy ruhni shakllantirishga katta e’tibor berilmoqda.Demak, ma’naviy ruhni shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. U insonning axloqiy kamoloti, milliy o‘zligini anglashi va jamiyatda faol fuqaro bo‘lib yetishishida muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonda ma’naviy tarbiyani rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati jamiyatda ma’naviy muhitni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar va ta’lim tizimidagi yangilanishlar mamlakatimizda ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qilayotgan muhim omillardan hisoblanadi.

Ma’lumki, XX asr o‘zbek adabiyoti milliy o‘zlikni anglash, xalqning ma’naviy qadriyatlarini tiklash va tarixiy xotirani asrash jarayoni bilan chambarchas bog‘liq ravishda rivojlandi. Bu jarayonda zamonaviy o‘zbek she’riyatida milliy ruh va milliy g‘oyani badiiy ifoda etish alohida ahamiyat kasb etdi. Mazkur adabiy jarayonda Abdulla Oripov ijodi alohida o‘rin tutadi. Shoir o‘z she’rlarida milliy ruh, Vatan muhabbati, inson qadri va ma’naviy kamolot masalalarini ramziy obrazlar orqali yoritadi.

“Adib ijodidagi milliy timsollar xalqning tarixi, madaniyati va ma’naviy dunyosi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, inson qalbida milliy g‘urur va ma’naviy mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi”[5;42-b.].

Adabiyotshunoslikda timsol muayyan g‘oya yoki tushunchani badiiy obraz orqali ifoda etuvchi vosita hisoblanadi. Milliy timsollar esa xalqning tarixi, madaniyati va ma’naviy qadriyatlarini aks ettiradigan obrazlardir.

O‘zbek she’riyatida Vatan, ona, til, tuproq, tarixiy shaxslar va tabiat obrazlari milliy timsol sifatida keng qo‘llaniladi. Bu timsollar orqali shoirlar xalqning ichki dunyosi va milliy tafakkurini ifoda etadilar.

Abdulla Oripov ijodida ham ana shu an’ana izchil davom ettirilib, milliy timsollar orqali inson ma’naviyatini yuksaltirish g‘oyasi ilgari suriladi.

Abdulla Oripov ijodida Vatan timsoli markaziy o‘rinni egallaydi. Shoir Vatanni faqatgina geografik makon sifatida emas, balki muqaddas qadriyat va milliy o‘zlik ramzi sifatida tasvirlaydi.

Mashhur “Men nechun sevaman O‘zbekistonni?” she’ridan keltirilgan quyidagi misralar bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi:

“Men nechun sevaman O‘zbekistonni,
Tuprog‘ini o‘pib, ko‘zimga surtaman”[1;14-b.]

Shoirning ushbu misralarida Vatan tuprog‘i muqaddas timsol sifatida tasvirlanadi. Shoir Vatanga bo‘lgan muhabbatni inson qalbidagi eng oliy tuyg‘ulardan biri sifatida talqin qiladi.

Abdulla Oripov she’riyatida ona obrazi inson tarbiyasi, mehr-muhabbat va ma’naviy poklik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi.

Shoirning mashhur misralaridan biri bu obrazning ma’naviy mazmunini ochib beradi:

“Onajon, sen borsan — hayot bor menda,
Sen borsan — qalbimda nur bor, ziyo bor”[2;38-b.]

Bu misralarda ona obrazi nafaqat oilaviy muhabbat, balki inson ma’naviyatining asosiy manbai sifatida talqin qilingan.

Abdulla Oripov ijodida ona tili ham muhim milliy timsollardan biri hisoblanadi. Til millatning tarixi, madaniyati va ruhini ifoda etuvchi asosiy vosita sifatida tasvirlanadi.

Shoirning quyidagi misralari bu fikrni ifodalaydi:

“Ona tilim — jonimga jo bo‘lgan kalom,
Sen bilan tirikdir millatim nomi”[2;39-b.]

Shoirning ushbu misralarida til millatning ma’naviy mavjudligini ta’minlovchi asosiy omil sifatida ko‘rsatiladi.

Abdulla Oripov she’riyatida tarixiy xotira va milliy meros ham muhim o‘rin tutadi. Shoir xalqning o‘tmishi va ajdodlar merosini badiiy obrazlar orqali yoritadi.

Uning mashhur misralaridan biri bu g‘oyani aks ettiradi:

“Moziydan sado kelar — sen kimsan, deb,
Ildizingni unutma, inson!”[2;42-b.]

Mazkur misralar insonni o‘z tarixi va ildizlarini unutmaslikka chorlaydi.

Abdulla Oripov ijodidagi milliy timsollar inson ma’naviyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu timsollar orqali insonda Vatanga muhabbat, milliy g‘urur va ma’naviy mas’uliyat tuyg‘ulari shakllanadi. Ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida bunday she’rlar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Chunki milliy timsollar yoshlarda milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy barkamollikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta’kidlash joizki, Abdulla Oripov ijodi o‘zbek she’riyatida milliy ruh va ma’naviyatni yuksaltirishga xizmat qilgan muhim badiiy meros hisoblanadi. Uning she’rlaridagi Vatan, ona, til va tarix kabi milliy timsollar xalqning ma’naviy qadriyatlarini badiiy ifoda etadi. Bu timsollar orqali shoir inson qalbida milliy g‘urur, ma’naviy poklik va Vatanga muhabbat tuyg‘ularini shakllantiradi. Shu sababli Abdulla Oripov ijodi nafaqat adabiy, balki ma’naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo‘lib, zamonaviy o‘zbek ma’naviyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbek adabiyotida milliy g‘oya va ma’naviy qadriyatlarni badiiy obrazlar orqali ifoda etish an’anasi muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, XX asr ikkinchi yarmi va

mustaqillik davri adabiyotida milliy ruhni tiklash, xalqning tarixiy xotirasi va ma’naviy merosini badiiy ifoda etish masalasi markaziy mavzulardan biriga aylandi. Bu jarayonda zamonaviy o‘zbek she’riyatining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Abdulla Oripov ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Adib o‘z she’rlarida Vatan, millat, tarix, til va ma’naviyat kabi tushunchalarni ramziy va timsoliy obrazlar orqali ifodalab, milliy ong va ma’naviy ruhni shakllantirishga xizmat qilgan. Shu jihatdan, uning ijodida milliy timsollardan foydalanish usuli o‘zbek adabiyotida alohida estetik va g‘oyaviy ahamiyatga ega.

“Adabiyotshunoslikda timsol (simvol) muayyan g‘oya, tuyg‘u yoki ijtimoiy ma’noni ifoda etuvchi badiiy obraz sifatida talqin qilinadi”[4;68-b.]. Milliy timsollar esa xalqning tarixi, madaniyati, urf-odatlari va ma’naviy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan obrazlar hisoblanadi.

O‘zbek she’riyatida Vatan, ona, til, tuproq, tarixiy shaxslar, tabiat obrazlari milliy timsol sifatida keng qo‘llaniladi. Bu timsollar orqali shoirlar xalqning ichki dunyosini, milliy g‘urur va ma’naviy qadriyatlarni ifoda etadilar.

Abdulla Oripov ijodida ham ana shunday milliy timsollar muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Uning she’rlarida milliy ruh, xalq taqdiri va inson ma’naviyati bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda tasvirlanadi.

Abdulla Oripov ijodida Vatan obrazi ona obrazi, ayol obrazi bilan o‘xshatiladi. Vatan onadek muqaddas, ayoldek ulug‘vor markaziy timsollardan biri hisoblanadi. Shoir Vatanni faqat geografik hudud sifatida emas, balki muqaddas qadriyat, milliy o‘zlik va ma’naviy makon sifatida talqin qiladi. Uning she’rlarida Vatan ko‘pincha ona, tuproq, tarix va muqaddas meros bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. Bu orqali shoir insonda Vatanga muhabbat, mas’uliyat va fidoyilik tuyg‘ularini shakllantirishga harakat qiladi. Ayniqsa, mustaqillik davrida yaratilgan she’rlarida Vatan timsoli xalqning erkinlikka bo‘lgan intilishini ifoda etuvchi muhim ramz sifatida namoyon bo‘ladi.

Abdulla Oripov ijodida ona va til obrazlari ham muhim milliy timsollardan hisoblanadi. Ona timsoli mehr-muhabbat, poklik va inson tarbiyasining asosiy manbai sifatida talqin qilinadi.

Shoir ona obrazi orqali insonning ma’naviy kamoloti, axloqiy qadriyatlari va milliy an’analarini ifoda etadi. Bu timsol insonni ezgulikka, mehr-oqibatga va insoniylikka chorlaydi.

Shuningdek, til obrazi ham shoir ijodida alohida ahamiyatga ega. Til millatning ruhi, tarixi va madaniyatini saqlab keluvchi asosiy vosita sifatida tasvirlanadi. Shu bois shoir o‘z she’rlarida ona tilini asrash, uni qadrlash va rivojlantirish g‘oyasini ilgari suradi.

Abdulla Oripov she’riyatida tarix va milliy xotira ham muhim timsollar sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir o‘z asarlarida xalqning o‘tmishi, buyuk ajdodlar merosi va tarixiy saboqlarini badiiy obrazlar orqali yoritadi.

Bu obrazlar insonni o‘z tarixi va ildizlarini anglashga undaydi. Milliy xotirani saqlash esa millatning ma’naviy barqarorligi va kelajak taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi.

Shu jihatdan qaraganda, shoir ijodidagi tarixiy timsollar milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy ruhni mustahkamlash vazifasini bajaradi.

Milliy timsollar inson ma’naviyatini tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Ular orqali insonda Vatanga muhabbat, milliy g‘urur, tarixiy xotira va axloqiy qadriyatlar shakllanadi.

Abdulla Oripov ijodidagi milliy timsollar ham aynan shu vazifani bajaradi. Uning she’rlari o‘quvchi qalbida milliy iftixor, ma’naviy uyg‘onish va insonparvarlik tuyg‘ularini uyg‘otadi. Shu bilan birga, shoir ijodi yosh avlod tarbiyasida ham muhim ahamiyatga ega. Chunki “milliy timsollar orqali yoshlar o‘z tarixi va madaniyatiga hurmat ruhida tarbiyalanadi” [5;77-b.]

Muxtasar qilib aytganda, Abdulla Oripov ijodi o‘zbek adabiyotida milliy ruh va ma’naviyatni yuksaltirishga xizmat qilgan muhim badiiy meros hisoblanadi. Uning she’rlaridagi Vatan, ona, til va tarix kabi milliy timsollar xalqning ma’naviy qadriyatlarini ifoda etadi. Bu timsollar orqali shoir inson qalbida milliy g‘urur, ma’naviy poklik va Vatanga muhabbat tuyg‘ularini shakllantiradi. Shu bois, Abdulla Oripov ijodi nafaqat adabiy, balki ma’naviy-tarbiyaviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2011,-324b.
2. Abdulla Oripov. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2011-428b.
3. Ibrohim Gafurov. Adabiyot va tafakkur. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018.-456b.
4. Naim Karimov. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019,-201 b.
5. Sharafiddinov Ozod. Adabiyot – hayot darsligi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2012,-198b.
6. Sharafiddinov Ozod. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2014,-164b.

IJODKOR IDEOLEKTIDA MADANIY XOTIRA VA INDIVIDUAL ONG SINTEZI

Nishonov Sarvar Jasur o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti doktoranti (DSc)
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
sarvar0202pm@gmail.com
Orcid: 0000-0001-6558-3495

Annotatsiya. *Mazkur maqola Abdulla Oripov asarlarida ijodkor ideolektini madaniy xotira va individual ongning o‘zaro sintezi sifatida talqin qilingan. Ideolekt shaxsning til vositasida borliqni idrok etishi va uni yangi ma’no qatlamlari bilan boyitish jarayonini aks ettiradi. Tadqiqotda ijodkor nutqida milliy-madaniy kodlar, tarixiy xotira, an’anaviy obrazlar hamda individual tafakkur xususiyatlarining uyg‘unlashuvi lingvistik va falsafiy nuqtai nazardan*

tahlil qilinadi. Shuningdek, ideolektning shaxsiy ong va ijtimoiy xotira o‘rtasidagi dialektik aloqani ifodalovchi fenomen sifatidagi ahamiyati asoslab beriladi. Natijada ijodkor ideolekti madaniy uzluksizlikni ta’minlovchi va individual estetik tafakkurni namoyon etuvchi murakkab semantik tizim sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: *Abdulla Oripov, ijodkor ideolekti, madaniy xotira, individual ong, lingvistik shaxs, milliy-madaniy kod, estetik tafakkur, semantik tizim, badiiy nutq, falsafiy tahlil, ijtimoiy ong.*

Аннтотация. *Данная статья посвящена интерпретации идеолекта творца в произведениях Абдуллы Орипова как синтеза культурной памяти и индивидуального сознания. Идеолект рассматривается как форма языкового выражения личностного восприятия мира, переработки культурного наследия и наделения его новыми смысловыми пластами. В работе анализируется взаимодействие национально-культурных кодов, исторической памяти, традиционных образов и индивидуальных особенностей мышления в речи автора с лингвистической и философской точек зрения. Обосновывается значимость идеолекта как феномена, отражающего диалектическую связь между личным сознанием и социальной памятью. В результате идеолект творца интерпретируется как сложная семантическая система, обеспечивающая культурную преемственность и выражающая индивидуальное эстетическое мышление.*

Ключевые слова: Абдулла Орипов, идеолект творца, культурная память, индивидуальное сознание, языковая личность, национально-культурный код, эстетическое мышление, семантическая система, художественная речь, философский анализ, социальное сознание.

Abstract. *This article is devoted to the interpretation of the creator’s idiolect in the works of Abdulla Oripov as a synthesis of cultural memory and individual consciousness. The idiolect is viewed as a linguistic manifestation of personal perception of reality, reinterpretation of cultural heritage, and enrichment of it with new semantic layers. The research analyzes the interaction of national-cultural codes, historical memory, and individual cognitive features within the author’s discourse from linguistic and philosophical perspectives. The significance of the idiolect as a phenomenon expressing the dialectical relationship between personal consciousness and social memory is substantiated. As a result, the creator’s idiolect is interpreted as a complex semantic system that ensures cultural continuity and reflects individual aesthetic thinking.*

Keywords: *Abdulla Oripov, creator’s idiolect, cultural memory, individual consciousness, linguistic personality, national-cultural code, aesthetic thinking, semantic system, literary discourse, philosophical analysis, social consciousness.*

Ma’lumki, ma’lum bir ijodkorning mahoratini ilmiy baholashda uning individual tildan foydalanishini tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu filologiya fanining badiiy adabiyot tilini, individual badiiy nutqni xolisona o‘rganishdagi eng muhim vazifalaridan biridir. Bundan tashqari, ijodkor tilning lingvistik imkoniyatlaridan foydalanish bilan bir qatorda, uni til jamiyatining boshqa a’zolariga nisbatan keng va chuqur o‘rganish maqsadida o‘z hissasini

qo‘shadi. Binobarin, ijodkorning shaxs tilidan foydalanish mahorati, bir tomondan, «til - nutq» tamoyili asosida ahamiyatga ega bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uning lingvistik imkoniyatlarini boyitish nuqtayi nazaridan «nutq - til» nuqtai nazaridan yondashuv ilmiy qiymat kasb etadi.

Ijodkor ideolekti - bu shaxsning til orqali namoyon bo‘ladigan betakror tafakkur uslubi, dunyoni anglash va talqin etish modelidir. Har bir ijodkor o‘z asarlarida nafaqat umumxalq tilining imkoniyatlaridan foydalanadi, balki uni shaxsiy ruhiy tajribasi, estetik qarashlari va dunyoqarashi bilan boyitadi. Shu bois ideolektni oddiy uslubiy xususiyatlar yig‘indisi sifatida emas, balki madaniy xotira va individual ongning o‘zaro uyg‘unlashgan murakkab tizimi sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir. Madaniy xotira - bu xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlari, an’analari, mifologik tasavvurlari va ramziy kodlarining avloddan avlodga o‘tib keluvchi ma’naviy qatlamidir.

Har bir badiiy matnda milliy obrazlar, tarixiy ishoralar, diniy-falsafiy tushunchalar yoki folklor elementlari orqali madaniy xotira o‘z aksini topadi. Ijodkor esa ushbu umumiy xotirani individual tafakkur prizmasidan o‘tkazib, uni yangicha talqin qiladi. Individual ong esa ijodkorning shaxsiy hayotiy tajribasi, ruhiy kechinmalari, estetik ideali va falsafiy qarashlarini o‘zida mujassam etadi. Har bir metafora, timsol, sintaktik qurilish yoki ohang – bu shaxsiy ongning ifodasidir. Ijodkor ideolektida madaniy xotira tayanch vazifasini bajarsa, individual ong uni harakatga keltiruvchi va yangilovchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jarayonda umumiylik va xususiylik o‘rtasida dialektik birlik yuzaga keladi. Ideolektni madaniy-falsafiy fenomen sifatida o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ijodkor til orqali nafaqat borliqni tasvirlaydi, balki uni qayta yaratadi.

U milliy madaniyat kodlarini o‘z ichki dunyosi bilan sintez qilib, yangi semantik makon hosil qiladi. Natijada badiiy matn madaniy xotiraning davomiyligini ta’minlaydi, shu bilan birga individual estetik tafakkurning o‘ziga xosligini namoyon etadi.

Tilshunos B.Umurqulov o‘zining «Poetik nutq leksikasi» nomli monografik tadqiqotida badiiy nutq sohasi muammolari haqida fikr yuritar ekan, badiiy nutqni o‘rganish mumkinligi haqidagi fikrni ilgari suradi. Tilshunos olim badiiy nutq xususiyatlariga bag‘ishlangan asarlarni quyidagi xarakterli belgilariga ko‘ra uch guruhga ajratadi: «1) badiiy adabiyot tilining umumiy muammolari; 2) badiiy adabiyot tilini lingvistik aspektda o‘rganish; 3) badiiy adabiyot tilini adabiyotshunoslik aspektida o‘rganish» [1].

Ma’lumki, til imkoniyatlaridan foydalanish mahoratini tahlil qiluvchi ishlar individual badiiy nutqni u yoki bu jihatdan ilmiy o‘rganishga bag‘ishlangan. Bunday tadqiqotlarni lingvistik va lingvopoetik tadqiqotlarga ajratish mumkin. Abdulla Oripov poetikasining bu boradagi xususiyatlarini tadqiq etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Uning she’riyatida o‘zbek xalqining hayoti, orzu-intilishlari yuksak badiiy saviyada tasvirlanib, milliy tilning milliy ruh bilan yo‘g‘rilgan imkoniyatlari mohirona ochib berilgan.

Shunga ko‘ra, adabiyotshunoslikda Abdulla Oripov poetikasi keng o‘rganilmoqda. B.Nazarovning ta’kidlashicha, «o‘zbek adabiyoti tarixida XX

asrning so‘nggi 30-35 yilida Abdulla Oripovdek tanqidchilar e’tiborini qozongan shoirni kamdan kam uchratish mumkin» [2].

XX asrning 60-yillaridayoq Abdulla Oripov o‘zbek tilining badiiy-tasviriy vositalari va til boyliklaridan mahorat bilan foydalanib, betakror badiiy obraz yaratib, poetik tasvirda o‘ziga xos yuksaklikka erishdi. Uning «Muhabbat», «Birinchi muhabbatim», «Onajon», «Onajonim she’riyat» kabi lirik she’rlari «O‘zbekiston vatanim manim», «Jannatga yo‘l», «Hakim va ajal» dostonlari, ayrim tarjima asarlari o‘zbek mumtoz adabiyoti xazinasidan munosib o‘rin egalladi.

Ularda zamonaviy o‘zbek tilining badiiy fazilatlari namoyon bo‘ldi. Shoirning uzual va okkazional ma’nolarda qo‘llagan har bir so‘ziga, har bir ifodasiga go‘zal badiiy shakl berilishi go‘zal falsafiy tafakkur mahsuli sifatida shoirning ona tili boyliklaridan nechog‘li mahorat bilan foydalanganini ko‘rsatadi.

Abdulla Oripov badiiy ijodida so‘z qo‘llashdagi bunday yetuk mahorat G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Mirtemir, Erkin Vohidov ijodida qanchalik salmoqli bo‘lsa, Abdulla Oripov badiiy ijodida ham shunchalik salmoqlidir.

«Afsusli yillar» Shams narvoni «quyosh narvoni» birikmasi muallif tomonidan yaratilgan she’riy birikmadir. Bu birikma, avvalo, she’rning ritmi va bevosita ma’nosi bilan shoirning badiiy niyati talablariga to‘liq javob beradi.

Shoirning lirik matnlarda qo‘llagan so‘zlarini an’anaviy va noan’anaviy she’riy birliklarga ajratish mumkin. Bu o‘rinda ikki jihatga e’tibor qaratish lozim. Adabiy til uchun noan’anaviy bo‘lgan leksik birliklar badiiy adabiyotda an’anaviy bo‘lishi mumkin. Masalan, hozirgi o‘zbek adabiy tili uchun «hilol - yangi oyning poetik nomi» so‘zi arxaik birlik hisoblanadi. Garchi hozirgi o‘zbek adabiy tilida bahr «dengiz, okean», ummon «cheksiz dengiz», shams «quyosh» va boshqa so‘zlar qo‘llanish doirasi biroz cheklangan va arxaik so‘zlar hisoblansada, badiiy adabiyotda, xususan, Abdulla Oripov poetikasida bu va shunga o‘xshash birliklar faol badiiy leksika tarkibiga kiradi. Quyidagi matnlarda Abdulla Oripov she’riyatida bir qator zamonaviy passiv leksik birikmalar qay darajada qo‘llanishda ustuvorlik kasb etganini va yangi badiiy go‘zallik bilan ochilganini kuzatishimiz mumkin. Masalan, yiroq «uzoq, olis», yugurik «tez harakatlanuvchi, yuguruvchi», dardkash «azob chekuvchi, g‘amgin», ruyo «uyqu, orzular», qahkashon «Somon yo‘li» kabi so‘zlar shoir qalami bilan faollashib, leksik birlik sifatida yangi ma’no kasb etgan.

Odatga ko‘ra, «yetim» so‘zi inson yoki hayvon (yetim qo‘zi «yetim qo‘zi») odatda erta yoshda otasiz yoki onasiz qolganda qo‘llaniladi. Shoir esa bu leksik birlikni ayol kishini sevgi, muhabbat kabi muqaddas tuyg‘ulardan bevaqt mahrum qilish kabi tushunchani ifodalash maqsadida qo‘llagan.

Badiiy adabiyotda an’anaviy bo‘lgan «yorsiz» va «hijronzada» kabi sevimli birliklar okkazional yetim bilan taqqoslaganda eskirgan va rangsiz bo‘lib qoladi. Taqdir oldindan aytib bermagan insonning yolg‘izligi, turmush o‘rtoqsiz hayotini shoir qurigan daraxtga o‘xshatadi.

Shoirning inson holatini ifodalovchi bunday so‘zlarni nutqda qo‘llashi natijasida she’riy shakl badiiyati jonlanadi. Ba’zi hollarda muallif ataylab arxaiklashtirish yoki bo‘rttirish uchun foydalanadi. badiiylik eskirgan o‘g‘uz

morfologik-grammatik leksemalari. Bunda qorluq-o‘g‘uz aralash shakli - manim qo‘llanilgan. Manim so‘zining to‘liq o‘g‘uzcha shakli «moy, -ya, -yo, -i» eski turkiy tilda - banim, sof qarluqcha shakliga mos kelishi kerak - mening. Shoir manimning qorishiq shaklini qo‘llash orqali yuksak badiiylikka erishgan. Bu yerda manim shaklining qo‘llanilishi qofiyaning ritmning bir qismi sifatidagi talabi bilan belgilanadi. «Mem va mening so‘zlarida bo‘g‘inlarning miqdor va sifat belgilari (xususan, birinchi bo‘g‘inning ochiqligi, ikkinchi bo‘g‘inning yopiqligi va sonor bilan tugashi) bir xil bo‘ladi» [3]. Shoir badiiylik, ko‘tarinkilik va ta’sirchanlikni ta’minlash, yangi mazmun va mantiqiy yuk yaratish maqsadida morfologik shaklga tegishli poetik bo‘yoq beradi. Sintaktik tuzilmalarda badiiy tafakkurni mujassamlashtirishda ijodiy poetik nutqida ham uning o‘ziga xos mahoratini kuzatish mumkin.

Masalan, Abdulla Oripovning O‘zbekiston she’rida:

«Bir o‘lka bor dunyoda biroq,
Bitilmagan dostonidir bori:
Faqat ojiz qalamim manim,
O‘zbekiston, vatanim manim» [4].

Xulosa qilib aytganda, A. Oripov badiiy she’riyatning o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan tengsiz so‘z ustasi sifatida o‘zbek tilining boyligi va leksik imkoniyatlarini beqiyos darajada ochib bergan. Shu bois uning she’riyatini tarixiy-etimologik, mavzuiy, statistik va semantik jihatdan tadqiq etish o‘zbek tilining XX asr so‘nggi choragidagi holatini xolis va to‘g‘ri baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Умуркулов Б. Лексика поэтической речи. Ташкент: Фан, 1990. - 68 с.
2. Назаров Б. XX аср узбек адабиёти тарихи. Ташкент, Фан, 1999. - 481 с.
3. Ахмедов А. Использование огузских элементов и вариантов в истории узбекского литературного языка : автореф. дис. … канд. филол. наук. Самарканд, 2006. - 19 с.
4. Орипов, А. Сайланма : Шеърлар ва драматик достон. Ташкент : Шарк, 1996. - 119 б.

ABDULLA ORIPOVNING “SOHIBQIRON” DRAMASINING TIL XUSUSIYATLARI

Jo‘rayeva Go‘zal Qodirovna
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti “Tillar” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasining til xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda badiiy tasvir vositalari, frazeologik birliklar, sinonim, antonim hamda ko‘chma ma’nodagi so‘zlarning*

qo‘llanishi misollar asosida yoritiladi. Drama qahramonlari nutqini individuallashtirishda, ularning ruhiy holati va muallif munosabatini ochib berishda iboralarning uslubiy ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, asarda Amir Temur obrazi va boshqa tarixiy shaxslar tasvirida obrazlilik, metaforik ifodalar hamda poetik sintaksis vositalarining o‘rni tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: *drama, badiiy til, frazeologik birlik, metafora, sinonim, antonim, obrazlilik, uslubiy vosita, individuallashtirilgan nutq.*

Аннотация. *В данной статье анализируются языковые особенности драмы Абдуллы Арипова «Сахибкиран». На основе примеров освещается использование художественно-изобразительных средств, фразеологических единиц, синонимов, антонимов, а также слов в переносном значении. Показано стилистическое значение устойчивых выражений в индивидуализации речи персонажей драмы, раскрытии их психологического состояния и авторского отношения. Кроме того, анализируется роль образности, метафорических выражений и средств поэтического синтаксиса в создании образа Амира Темура и других исторических личностей.*

Ключевые слова: *драма, художественный язык, фразеологическая единица, метафора, синоним, антоним, образность, стилистическое средство, индивидуализированная речь.*

Abstract. *This article analyzes the linguistic features of Abdullah Oripov’s drama “Sahibqiran.” The use of artistic expressive means, phraseological units, synonyms, antonyms, and figurative meanings is explained through examples. The stylistic significance of phraseological expressions in individualizing the speech of the characters, revealing their psychological state, and expressing the author’s attitude is highlighted. Furthermore, the role of imagery, metaphorical expressions, and poetic syntactic devices in portraying the image of Amir Temur and other historical figures is examined.*

Keywords: *drama, literary language, phraseological unit, metaphor, synonym, antonym, imagery, stylistic device, individualized speech.*

Iste’dodli shoir Abdulla Oripov adabiyotimizga yangicha badiiy tafakkur yo‘sinlarini olib kirgan ijodkorlardan biri. U inson qalbidagi murakkab ziddiyatlarni, haq-nohaqliklarni, adolat va razolatni o‘ziga xos betakror kuylagan yetuk shoirdir. Shoirning “Sohibqiron” she’riy dramasi Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan yozilgan bo‘lib, asar zamonaviy o‘zbek adabiyotiga bebaho xazina bo‘lib qo‘shildi.

Dramada badiiy tasviriy vositalar, parafrazalar, shuningdek, tilning boshqa vositalari qatori frazeologik birliklar mohirlik bilan qo‘llangan.

“Sohibqiron” she’riy dramasidagi frazeologik birikmalar ko‘proq personajlar nutqini individuallashtirish, ularda muallif munosabatini ifodalash vositasi bo‘lgan.

Asarda tasvirlanishicha, yoshligidan adolat uchun kurashishni o‘ziga maqsad va maslak qilib olgan Amir Temur ezgulik yo‘lida jahonning qariyb yarmini zabt etib, Buyuk Turon saltanatini barpo etadi. Orttirgan behisob

boyliklarini faqat adolat uchun, yaxshi ishlar uchun sarflaydi, el-yurtni obod qildiradi, yangi shahar va qishloqlar, masjid-madrasalar bunyod ettiradi, yangi yo‘llar ochdirib, kanallar qazdirib, cho‘lda bog‘u rog‘lar yaratadi, yangi yo‘llar ochdirib, kanallar qazdirib, cho‘lda bog‘u rog‘lar yaratadi.

Dramada Sohibqironning orzu-o‘ylari, intilishlari, jamiyatdagi kurash, mamlakat va xalq oldidagi buyuk xizmatlari birin-ketin ochila boradi, natijada Amir Temurning buyuk va salobatli, jonli va tabiiy obrazi sahnaviy usullarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Asarda Amir Temur obrazi bilan birga Sulton Boyazid, Bibixonim, Amir Husayn, Ahmad Yassaviy kabi obrazlar ham realistik bo‘yoqlarda jonli va ishonarli qilib tasvirlangan.

Dramadagi har bir personaj xarakterining biror qirrasini bo‘rttirib ko‘rsatishda frazeologik birliklar asosiy vosita vazifasini bajargan. Masalan: Bibixonimning Amir Temurga bo‘lgan cheksiz hurmati quyidagi misralarda yorqin namoyon bo‘ladi:

Olam yukki qadar buyuk qudratingizni,
Kiprigimda ko‘targayman muhabbat bilan[11].

Keltirilgan baytda *kiprigida ko‘tarmoq* iborasi yuksak darajada izzat-hurmat qilmoq ma’nosini ifodalaydi. Amir Temurning sartarosh bilan muloqoti va unga Sohibqiron o‘zining yuragidagi istak, dardini aytmoqchi ekanligini *ko‘ngil ochmoq* iborasi orqali bayon qiladi:

Har qandayin bandaga ham kerakdir sirdosh,
Senga ko‘ngil ochsam bo‘lar…[12]

Bu iboraga sinonim sifatida dramada yuragini to‘kmoq iborasi ham ishlatilgan:

Yuragimda tomchi-tomchi gaplar yig‘ilmish,
Men ularni **to‘kay** derman Sizga, Sizlarga
Sen ularga yaqinroq kel, Mirzo Ulug‘bek.[13]

Muallif dramada *o‘lim* ma’nosini anglatuvchi umri *barham topmoq, mangu orom olmoq, kuni bitmoq, boqiy dunyoga ketmoq, qazo qilmoq, jon bermoq* kabi frazeologik sinonimlardan o‘rinli foydalangan:

Mana bugun barham topdi ikkita umr,
Ikkisi ham bir onadan tug‘ilgan edi.
Biri, singil, biri aka – izma-iz ketdi.
Agar qo‘yib yuborsalar ko‘zimni bog‘lab,
Hech adashmay shahri Keshni topib kelardim.
U joydadir ota-onamni hoki poylari,
Mangu orom olar unda o‘g‘lim Jahongir.
Allaqachon ketgan ul zot boqiy dunyoga,
Olam bo‘ylab kezib yurar ruhlar lekin.

Shuningdek, asarda hayot pardasini ko‘tarmoq, ikki o‘t orasida jizg‘anak bo‘lmoq, ajal bekinmochoq o‘ynar, og‘iz(i)ni hidlab ko‘rmoq, Azroil

[11] Абдулла Орипов. Соҳибқирон. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1996. – Б. 52.
[12] Абдулла Орипов. Соҳибқирон. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1996. – Б. 8.
[13] Абдулла Орипов. Соҳибқирон. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1996. – Б. 134.

qilichini qaynarmoq, zuvalasini pishitmoq kabi ohori to‘kilmagan iboralar qayd etilgan:

Xo‘sh, ularning halokati men tufaylimi?
Agar hayot pardasini ko‘tarib boqsang
Orasida ikki holat ko‘ringay ro‘y-rost:
Biri Rahmon qiyofasi,
Unisi-shayton.
Nega ko‘pdir nayrangbozu kazzob kimsalar?
Nega bosgan er yuzini buncha ko‘p illat?
Men zamini tozalashim kerak ulardan.
Ajal mudom bekinmachoq o‘ynar biz bilan.
Men o‘limdan qo‘rqamanmi?
Ko‘p chigal savol…
Vaqti kelib, qilichini qayrab Azroyil
Saltanatim tepasida paydo bo‘lgan chog‘,
Maqbaramni ko‘rib, ortga qaytib ketgaydir:
Allaqachon buning jonin olibman-ku, deb.

Shoir dramada iboralar bilan birga so‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash va tasviriy vositalardan ham mahorat bilan foydalangan:

Foniy dunyo Iskandarga vafo qildim?
Yoki vafo qilganmidi Chingizxonga u?
Vujudimni mudhish og‘riq tamom chulg‘adi,
Borib etidi u miyaning tubiga qadar.
G‘oyat aniq ko‘rinmoqda umrning shomi.[14]

Misradagi umrning shomi birikmasida so‘zlar ko‘chma ma’noda qo‘llanib, so‘z ma’nosini *metafora yo‘li* bilan ko‘chgan.

Asarda Amir Temur tilidan Bibixonimning aziz, mo‘’tabar, olijanobligi *ko‘chma ma’nodagi so‘zlar* bilan shunday ta’riflanadi:

Saltanatni oltin uzuk desam men agar,
Uning oliy bezagi – Siz,
Yoqut ko‘zi Siz.

Shuningdek dramada o‘xshatish:

Afsuski, men shamshir bilan do‘st
bo‘ldim ko‘proq,
Mash’alaga o‘zin urgan parvonalardek.
Kuyib ketdi qancha odam gunoh-begunoh
Inshoolloh, yuvgaydirman, dog‘larim bo‘lsa…[15]

Antonim:

Men g‘olibmen!
Ayni chog‘da mag‘lubdirmen ham.
Qulluq, Hazrat!

[14] Абдулла Орипов. Соҳибқирон. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1996. – Б. 135.
[15] Абдулла Орипов. Соҳибқирон. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1996. – Б. 105.

Menga zafar tilang, yaxshisi,
Gadolik ham qismat erur, shohlik ham qismat.
Sinonim:
Muborakbod etmoq uchun hazratimizni,
Yaqin-yiroq o‘lkalardan mehmonlar kelmish.
Olampanoh, shahri Keshdan – ota makondan
Qutlagali qarindoshlar tashrif buyurmish,-[16]
kabi uslubiy vositalarni ham shoir ustalik bilan qo‘lagan.

Drama so‘ngida Sohibqiron umr bo‘yi qilgan savob-u gunohlarini sarhisob etib, shunday deydi:

Tinsiz jangu jadal bilan o‘tdi hayotim,
Balki qancha umrlarga zomin bo‘lganman.
Oxiratda etagimdan tutmasmi ular?[17]

Xullas, drama tili sodda, aniq, qisqa va lo‘nda bo‘lib, unda chuqur mazmunli va obrazli baytlar ko‘p va ular chuqur hayotiyligi, falsafiy teranligi, jozibadorligi, shoirona fikr-mushohadalarga boyligi bilan ibratlidir[18].

Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasi maktab, litsey, kollejlarda o‘rganilmoqda. O‘qituvchi o‘quvchilarga bu asar mustaqillik davri o‘zbek adabiyotining yirik namunalaridan biri ekanligi, asarning syujeti, kompozitsiyasi haqida ma’lumot berarkan, uning til xususiyatlarini ham o‘quvchilar ongiga chuqur singdirish lozim. Shunday paytda dramada qo‘llanilgan frazeologizmlar, shakldosh, ma’nodosh, zid ma’noli so‘zlarning uslubiy xususiyatlarini dars jarayonida yuqoridagidek, asardan olingan misollar asosida ko‘rsatish o‘zbek adabiy tilining tasviriy vositalar haqida boy ma’lumotlar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Афоқова Н. Оламни англаш саодати. – Тошкент: Маънавият, 2005. – 192 б.
2. Abdulla Oripov. Соҳибқирон: шеърий драма. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1996. – 128 б.
3. Давлатова А. Абдулла Орипов шеъриятида поэтик тафаккур тадрижи: филол. фан. док-ри (DSc) дисс. – Тошкент, 2022. – 260 б.
4. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Akademnashr, 2014.- 320 б.
5. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: Тил ва адабиёт институти нашриёти, 2004. – 180 б.
6. Йўлдош Қ. Сўз ёлқин. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2018. – 256 б.
7. Jabborov N. A., Ikromova N. H. qizi. Abdulla Oripovning “Hikmat sadolari” turkum she’rlarida payg‘ambar obrazining ifodalanishi // Academic research in educational sciences. – 2021. – Vol. 2, № 2. – P. 279–283.

[16] Абдулла Орипов. Соҳибқирон. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1996. – Б. 109.
[17] Абдулла Орипов. Соҳибқирон. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1996. 125-б.
[18] Тил ва адабиёт журнали. 2002 й. 4-сон. 59-63 б.

8. Ғаниев И., Афоқова Н. Абдулла Ориф фалсафаси. – Тошкент: Tafakkur, 2021. – 208 б.

ABDULLA ORIPOV LIRIKASIDA QADIMGI TURKIY LEKSEMALARNING BADIIY TRANSFORMATSIYASI *(KO‘RAGON* O‘RNAGIDA)

Dustmurodov Ma’rufjon Mansur o‘g‘li[19]

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Abdulla Oripov lirikasi misolida qadimgi turkiy leksemalarning badiiy va tarixiy-etimologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, ko‘ragon leksemasining qadimgi turkiy tilga oid* küdägü *shakli, uning mo‘g‘ul tilidagi* güregü/kürägü *varianti bilan aloqasi hamda turkiy tillar taraqqiyotidagi fonetik va semantik o‘zgarishlari yoritiladi. Tadqiqotda mazkur birlikning dastlab qarindoshlik terminologiyasiga mansub “kuyov” ma’nosidan ijtimoiy-siyosiy unvon darajasiga ko‘tarilish jarayoni ilmiy asosda izohlanadi. Shuningdek, leksemaning temuriylar davrida rasmiy titul sifatida mustahkamlanishi va poetik matnda tarixiy-madaniy ramz sifatida qayta talqin etilishi ko‘rsatib beriladi. Natijada turkiy va mo‘g‘ul tillari o‘rtasidagi lisoniy aloqalar hamda semantik davomchilik masalalari aniqlashtiriladi.*

Kalit so‘zlar. *tarixiy turkiy leksemalar, Abdulla Oripov lirikasi, qadimiy turkiy til, ko‘ragon, o‘zbek adabiy tili.*

Abdulla Oripov lirikasi adabiyotimizda o‘zining boy tarixiy va falsafiy mushohadag egaligi bilan ajralib turadi. Uning ijodida bir tomondan, chidab bo‘lmas va fojiali hayot manzaralarini tasvirlash orqali odamlarni o‘rganib qolgan mazlum va itoatkor turmush tarzidan qaytarishni maqsad qilgan bo‘lsa, boshqa tomondan xalqning tarixi, o‘tmishi, ma’naviy buyukligi, millatning o‘z kuchiga ishonchi, o‘ziga ma’naviy zarur bo‘lgan hayot uchun kurashi, tuyg‘ularini uyg‘otishni maqsad qilgan[20]. Mutafakkir bir shoir bo‘lgan Abdulla Oripov shu bilan birga, she’riyatiga shakl haqida kiritgan yangiliklari natijasida go‘zal she’rlar va asl bedii tasvirlari yarata oldi[21].

Shoir asarlarida hozirgi o‘zbek adabiy tiliga ko‘ra faqat tarixiy-badiiy matnlarda qo‘llaniladigan bir qancha tarixiy turkiy leksemalar ko‘zga tashlanadi. Bulardan o‘zbek tilining tarixiy bosqichlarida qo‘llanilgan va tarixiy shaxs bo‘lmish Temuriy Mirzo Ulug‘bekka ishora qiluvchi *ko‘ragon* so‘zi shular jumlasidan.

[19] Dustmurodov Ma’rufjon Mansur o‘g‘li – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. TDSHU.
E-mail: maruf_dust@mail.ru
ORCID: 0009-0003-4954-9504

[20] 2. Qo‘shjonov M. ve Meli, S. Abdulla oripov. Toshkent: “Ma’naviyat”, 2000.

[21] Hobibbeyli I., Serkeshqizi Talaspayeva J., Kayirbekqizi Smagulova N., Ashlar H., Yuldashev M. & Saglam S. Turk dunyosida chorak asrlik adabiy tajriba: Milliy ruh va uning adabiyotdagi aksi. (Red. Orxan So‘ylemez & O‘mar Faruq Atesh). Anqara: Bengu nashriyoti, 2020.

Bobolardan so‘z ketsa zinhor,
Bir kalom bor gap avvalida.
Osmon ilmi tug‘ilgan ilk bor
Ko‘ragoniy jadvallarida (“O‘zbekiston”).

“Ko‘ragon” nomi Shahrisabzdagi Ko‘kgumbaz jome masjidi bitiklarida ham uchraydi. Bu ko‘proq jome masjidi qurilishi bilan bog‘liq bitiklarda keltirilgan. Masalan, masjidning o‘ng manglay devordagi ta’mirlab restavratsiya qilingan bitiklardan birida *“...Ko‘ragon Sulton ibn Sulton Ulug‘bek Ko‘ragon ko‘tartirdi. Alloh uning davlatini abadiy qilsin”* degan yozuv aniqlangan[22]. Aytish lozimki, mazkur so‘z to‘g‘ridan to‘g‘ri “kuyov” degan ma’noni anglatib, turkiy sulolalarda asosan Chingiziy xon yoki xoqonlar nasliga mansub zavjasi bo‘lgan hukmdor yoki shahzodalarga ravo ko‘rilib, xalq tilida “xonning kuyovi” ma’nosida faol bo‘lgan. Amir Temur va Temuriylar davrida bu unvon kishi ismiga qo‘shib aytilgan. Jumladan, Amir Temurning o‘zi ham bu unvonga ega bo‘lib, u 1370-yili Amir Husaynni yenggach uning haramida bo‘lgan Qozonxon ibn Yasavurning qizi Saroymulk xonimga uylanishi natijasida ushbu unvonga ega chiqadi[23].

Ushbu leksema ilk bor qadimgi turkiy tilga oid O‘tukan Uyg‘ur xoqonligi bitigtoshlarida *küdägü* shaklida uchrab, shaxsning ma’lum yoshidan (oilaviy munosabatlar shakllangandan) keyin yuzaga keladigan qarindoshlik atamalari uyasiga kirgan. Kezi kelganda qayd etib o‘tmoq kerakki, mazkur semantik uyga qadimgi turkiy tildagi *küdägü* – kuyov (Ar $_{1}$); *äči* – xotin (Tar $_{\text{Shi 5}}$); *yutuz* – xotin; zavja (XT $_{\text{XIX 1}}$); *quduz* – zavja (MCh $_{\text{Sha 3}}$) kabi leksik birliklarni kiritish mumkin. Bulardan *küdägü* – “kuyov” so‘zi Uyg‘ur xoqonligi yodnomalaridan faqat Arxanan bitigida tilga olinadi: *“täŋrikän : qunčuy : yägän : botur? : ärkin : balïq : äri bolï : turdï : yaŋï kül tarqan : küdägü kälirti : bu ... äkin qaya : täg bäk bolzun* – Muqaddas malikaning jiyani Botir Erkin shaharda askar bo‘lib turdi. Yangi Kul Tarqan kuyovni olib keldi. Bu ikkalasi tosh kabi mustahkam bo‘lsin” (Ar $_{1}$). Tadqiqotlarga ko‘ra, *küdägü* so‘zi qadimgi turkiy *küdä-* fe’lidan hosil bo‘lib, dastlab “qiz farzandining eri” ma’nosini bildirgan. Shuningdek, biz yuqorida tilga olgan *ko‘ragon* so‘zining mo‘g‘ulcha asosi bo‘lmish *güregü* shakli ham ushbu so‘z bilan aloqalantiriladi[24]. Faqat u keyinchalik fonetik o‘zgarishlarga uchragan. S.Li so‘zning uyg‘ur turk tilidan keyingi tarixiy matnlarda *küzägü, küyägü, güyägü, güyägi, giyägi, küyäwü, küyäwüw, küyäw, küyöw, güyäg, güvägi, ič güyägü*[25] shakllarida uchrashini qayd etadi. Bu fonetik farqlanishlar turkiy tillar tarixida tovush o‘zgarishlari, affiksal kengayish va lahjaviy farqlanish jarayonlari bilan izohlanadi. Jumladan, “*yåv* so‘zida bo‘lgani kabi ikkinchi bo‘g‘inlardagi *–agu* > *-av* o‘zgarishi turkiy tillar, xususan, o‘zbek tilida tez-tez uchraydi: *birägü* > *biräv* > *biråv; küdägü* > *küyäw* > *kÿyåw; kïragï* > *kïrav* > *kïrov* kabi”[26].Ushbu so‘z

[22] https://legacy.uz/uz/kokgumbaz-bitiklaridagi-koragon-kim/
[23] Йаздий, Шарафуддун Али. Зафарнома / / Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи ва нашрга тайёрловчилар: А. Аҳмад, Ҳ. Бобобеков: Масъул муҳаррир Б. Эшпўлатов. Нашрлар ва матбаачилар гуруҳи: И. Шоғуломов ва бошқалар// Т.: Шарқ, 1997. — 384 б..
[24] Clauson, G. (1972). An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. The Clarendon Press. 703.
[25] Sŏng Lı. Y. (1999). Türk Dillerinde Akrabalık Adları. Simurg yayınları. 308.
[26] Saffet Y. Eski Türk Runik Harfli Metinlerdeki ... – S. 267.

O‘TELga ko‘ra “qizining eri (ota-onaga va uning qarindoshlariga nisbatan)” mazmunida izohlanib, bu ot qadimgi turkiy tildagi qizining “eri” ma’nosini anglattan *küd/küǫ* otidan *-a* qo‘shimchasi bilan yasalgan fe’lga *-ish* oti shaklini yasovchi *-gü* qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan (ESTYA III, 45; PDP, 397; DLT III, 18; DS, 324: *küdägü, küzägü*) keyinchalik *d/z* undoshi *y* undoshiga almashgan (ESTYA III, 45), so‘ngra so‘z oxiridagi *ü* unlisi talaffuz qilinmay qo‘ygan, shuning oqibatida so‘z oxirida *g* undoshi *v* undoshiga almashgan (SSTTN II, 170), o‘zbek tilida *v* undoshi ta’siri bilan *a* unlisi *a* unlisiga almashgan, *o‘* unlisining yumshoqlik belgisi yo‘qolgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ***ko‘ragon*** leksemasi murakkab tarixiy-etimologik taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan birlikdir. Uning ildizi qadimgi turkiy tilga oid *küdägü* shakliga borib taqaladi. Mazkur so‘z dastlab qarindoshlik terminologiyasiga mansub bo‘lib, “kuyov”, ya’ni “qizning eri” ma’nosini anglatgan. Keyinchalik bu birlik fonetik o‘zgarishlar (d/z > y, -gü > -w-v) hamda lahjaviy tafovutlar natijasida *küyägü, güyägü, küyäw, küyöw* kabi shakllarda rivojlangan va o‘zbek tilida ***kuyov*** ko‘rinishini olgan. Leksemaning mo‘g‘ul tilidagi ***güregü, kürägü*** shakli esa turkiy va mo‘g‘ul tillari o‘rtasidagi qadimiy til aloqalarini aks ettiradi. Ayrim tadqiqotchilar ushbu birlikni umumoltoy davriga mansub qadimiy asos bilan bog‘laydilar, boshqalar esa uni turkiy til asosida shakllanib, mo‘g‘ul tiliga o‘tgan yoki aksincha, o‘zaro ta’sir natijasida parallel taraqqiy etgan deb izohlaydilar. Har ikkala holatda ham leksema Markaziy Osiyo hududidagi siyosiy va sulolaviy munosabatlar fonida semantik kengayishga uchragan. Xususan, Chingiziylar davridan boshlab “xonning kuyovi” ma’nosi ijtimoiy-siyosiy maqomni anglatuvchi unvonga aylangan va Amir Temur hamda temuriylar davrida ismga qo‘shib aytiladigan rasmiy titul sifatida mustahkamlangan. Shu tariqa dastlab oilaviy munosabatni bildirgan leksema tarixiy taraqqiyot jarayonida sulolaviy legitimatsiya va hokimiyat ramziga aylangan. Demak, ***ko‘ragon*** leksemasining turkiy va mo‘g‘ul tillari doirasidagi fonetik, morfologik hamda semantik rivoji til taraqqiyoti bilan ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning uzviy bog‘liqligini yaqqol namoyon etadi. Bu esa mazkur birlikni nafaqat etimologik, balki tarixiy-sotsiollingvistik jihatdan ham muhim tadqiqot obyekti sifatida baholash imkonini beradi.

Shuningdek, shoir Abdulla Oripov “Ko‘ragoniy jadvallari” birikmasi orqali tarixiy shaxs – Mirzo Ulug‘bek nomini ramziy ma’noda qo‘llab, ilm-fan, tafakkur va milliy buyuklik timsolini yaratadi. Natijada leksema o‘zining dastlabki qarindoshlik ma’nosidan yuksalib, tarixiy-madaniy va ma’naviy-ramziy qatlam kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Clauson G. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. – Oxford, 1972;
2. Clauson, G. (1972). An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. The Clarendon Press. 703.
3. DLT – Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит-турк). Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. I-III. – Т.: Фан, 1960-1963.

4. Donuk A. Eski Türk devletlerinde idari-askeri unvan ve terimler. – Istanbul, 1988. – 133 s.;
5. DTS – Древнетюркский словарь. Под ред. В. М. Наделяева, Д.М.Насилова, Э. Р. Тенишева, А. М. Щербака. – Л.: Наука, 1969. – 676 с.
6. Dusmurodov M. O‘rxun-Yenisey bitigtoshlaridagi harbiy terminlar tadqiqi. – T.: Lesson Press, 2025. – 178 b.
7. Eren H. Türk Dilinin Etimolojik Sözlüğü. 1. Baskı. – Ankara, 1999. – S. 86-87.
8. Hobibbeyli I., Serkeshqizi Talaspayeva J., Kayirbekqizi Smagulova N., Ashlar H., Yuldashev M. & Saglam S. Turk dunyosida chorak asrlik adabiy tajriba: Milliy ruh va uning adabiyotdagi aksi. (Red. Orxan So‘ylemez & O‘mar Faruq Atesh). Anqara: Bengu nashriyoti, 2020.
9. O‘TIL – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: ЎзМЭ, 2007. III. – 687 б.
10. O‘XSHL – Ўзбек халқ шевалари луғати. – Т.: Фан. 1971. – 409 б.
11. Qo‘shjonov M. ve Meli, S. Abdulla oripov. Toshkent: “Ma’naviyat”, 2000.
12. Saffet Y. Eski Türk Runik Harfli Metinlerdeki ... – S. 267.
13. Sŏng Lı. Y. (1999). Türk Dillerinde Akrabalık Adları. Simurg yayınları. 308.
14. Бобоёров. Ғ. Ғарбий Турк хоқонлиги давлат тузуми. – Т.: Янги нашр, 2018. – 381 б.;
15. Йаздий, Шарафуддун Али. Зафарнома / / Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи ва нашрга тайёрловчилар: А. Аҳмад, Ҳ. Бобобеков: Масъул муҳаррир Б. Эшпўлатов. Нашрлар ва матбаачилар гуруҳи: И. Шоғуломов ва бошқалар// Т.: Шарқ, 1997. — 384 б..
16. СИГТЯ – *Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков*. Лексика. – М., 2001.

ABDULLA ORIPOV- SAMIMIY INSON YOXUD TOK QAYCHIDAN QOLGAN XOTIRALAR

Atamurodov Saidmurod Yaxyoyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Audit” kafedrasi dotsenti v.b.,
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Tel: +99894-043-18-40
E-*mail:* s.atamurodov@tsue.uz
ORCID:0009-0002-0789-2606

Annotatsiya. *Mazkur maqola O‘zbekiston xalq shoiri, davlat madhiyasining muallifi, millat ruhining kuychisi Abdulla Oripov ijodiga bag‘ishlangan. Unda shoirning o‘zbek adabiyoti rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi, she‘rlardagi falsafiy mushohadalar va axloqiy motivlar tahlil qilinadi. Abdulla Oripovning asarlari milliy g‘urur, vatanparvarlik, halollik va insoniylik kabi qadriyatlarni yuksak darajada ifodalab, avlodlar uchun ma‘naviy meros sifatida taqdim etilgan. Shuningdek, shoir xalq hayotidagi hashar an’anasini ham ulug‘lab, uni hamjihatlik va milliy birlik ramzi sifatida tasvirlagan. Maqolada shoirning ijodiy merosi nafaqat adabiy, balki falsafiy va ma‘naviy nuqtayi nazardan ham*

baholanib, uning asarlari bugungi va kelajak avlodlar uchun ilhom manbai ekanligi ta‘kidlanadi.

Kalit so‘zlar: *O‘zbek she‘riyati, milliy adabiyot, lirika, samimiyat, ruhiy chuqurlik, muhabbat, yurtsevarlik, hayot falsafasi, ona til, vatanparvarlik, axloqiy motivlar, falsafiy qarashlar, avlodlar vorisligi, mangu hayot, qalblarda tirik*

Abdulla Oripovni O‘zbekiston madhiyasini yod olgan onlardan beri taniganman. Ammo keyinchalik uni yaqindan hamsuhbat bo‘lgan inson sifatida ham bilganman. Uyi oldidagi “Shoirlar ijodiyot uyi” hovlisida mevali daraxtlarga shakl berish, vaqtida Abdulla aka xasharga qo‘shildi. Ko‘zlarimga ishonmayman, oldindan tanishdek, salom alik oralab, *“Unday emas, bunday qilinadi, manabu joyidan kesing o‘g‘lim”* deb maslahat berishi, orada hazil-mutoyiba qilib jilmayishi - bularning bari uning samimiyligini ko‘rsatardi.

Hayotda shunday onlar ham bo‘lar ekan, avval obro‘li shaxs sifatida, ommaviy axborot vositalari orqali namoyish etilgan ko‘plab ko‘rsatuvlarda prezidentimiz oldida ko‘p ko‘rganim uchunmi bilmadim, Abdulla Oripov bilan uchrashishni tasavvur ham qilmagan edim. Yuqorida ta‘kidlaganimdek, hashar sabab uchrashish menga nasib qilgan. Ammo kutganimdan butunlay boshqacha inson ekan: juda samimiy, kattalar bilan ham, kichiklar bilan ham darhol til topib suhbatlashib ketaveradigan inson bo‘lib ko‘ringan. Eng hayratlisi shundaki, men uni ulkan obro‘li shaxs sifatida tasavvur qilgan bo‘lsam-da, u oddiy “tok qaychi” mavzusida ham hazil-mutoyiba qilib, jilmayib, suhbatni iliq ohangda davom ettirgan.

Цель настоящего исследования – определить художественные механизмы репрезентации национальной идентичности в поэзии Абдуллы Арипова и показать их философско-нравственное содержание.

Национальная тема в поэзии Абдуллы Арипова читается не как набор лозунгов, а как **внутренний разговор поэта с историей и собственной совестью**. Это принципиальная вещь, потому что лирический субъект у Арипова редко говорит от имени абстрактного коллектива. Он выбирает позицию личного свидетельства, где любовь к стране проверяется не риторикой, а мерой ответственности. В этом ряду закономерно выглядит и общественная роль поэта, автора слов государственного гимна Узбекистана, чьё имя оказалось связано с формированием символического языка независимости.

В стихотворении ***«O‘zbekiston»*** Родина предстает как адресат прямого обращения, почти как живое существо, с которым возможен этический диалог. Здесь важна **интонация обращения, приподнятая и почти молитвенная**, задающая сакральный характер образа. Показательны формулы, которые становятся смысловыми узлами, ***«замин муқаддас»*** и ***«ки йўқотмас ор-номус»*** [7]. Эти выражения работают не только как эпитеты, они конструируют представление о стране как о пространстве чести, где стыд и достоинство задают границу дозволенного. Патриотизм в такой логике оказывается не эмоцией, а нормативом поведения, а любовь к родной земле неотделима от идеи долга. Даже в тех фрагментах, где звучит восторг, он держится на нравственной вертикали, а не на описании природной красоты.

Историческая память в поэзии Арипова функционирует как способ удержания непрерывности, когда прошлое не «позади», а внутри человека. Наш пример ***«ўтмишинг излари қалбда тирик»*** [7] задаёт именно эту модель, прошлое живёт как внутренний след, который невозможно отменить политическим решением или сменой эпохи. Такой ход не случайно ведёт к теме испытаний и утрат. Память у Арипова не обязана быть комфортной, она включает драматические зоны опыта, и потому национальная идентичность понимается как процесс, где человек снова и снова отвечает себе, что именно он наследует и за что готов отвечать. Эту линию поддерживает образ исторической глубины, когда шаг лирического героя соотносится с «дальней историей», в одной из программных строк о Родине звучит ***«Олис тарих***

қадамим маним»[7]. Важно подчеркнуть, что подобная формула не доказывает «величие» прямыми оценками, она показывает связь времени и личности, где само движение человека приобретает исторический масштаб.

Отдельный слой национальной темы связан с мотивом языка, и здесь ваша формулировка работает точно, **родной язык представлен как хранитель истории и культуры**. В стихотворении ***«Она тилим»*** поэт строит образ языка как материнского дара и как внутренней опоры, что мы обозначили через пример ***«юракнинг тили»*** [7]. Это не просто метафора, а способ задать языку статус ценности, которую нельзя заменить функциональным удобством. В публичном культурном пространстве подобный жест звучит особенно остро, потому что язык становится индикатором самостоятельности традиции. Характерно и то, что в известной начальной строке ***«Она тилим»*** появляется мотив протяжённого времени, звучит ***«Ming yillarkim bulbul kalomi»*** [7], где тысячелетие превращается в аргумент устойчивости и достоинства. Внутри такого образа прячется и полемика, язык не должен быть имитацией, он должен быть голосом, а не отражением чужого голоса. На этом этапе патриотизм приобретает культурологическое измерение, защита Родины равна защите её языкового пространства, его права звучать «своим тембром» и своей мелодикой.

Дальше национальная тема у Арипова закономерно соединяется с философской рефлексией, что выражено через формулу ***«мезони виждон»*** [7], Родина как мера совести. Здесь становится видна важная особенность поэтической оптики, страна воспринимается не только как объект любви, но и как критерий самооценки личности. Лирический герой переживает ответственность внутренне, не как публичный жест, а как обязанность быть достойным прошлого и не предать духовные ценности. Он дисциплинирует патриотическое чувство, оно не превращается в эмоциональный всплеск. Оно напоминает нравственный контракт, где человек обязан соотнести себя с историей и культурой, а не только гордиться ими.

В позднем творчестве национальная идентичность приобретает более универсальное звучание, и этот переход хорошо виден на материале ***«Хаж дафтари».*** Цикл связан с религиозно этической перспективой, где национальное пространство мыслится внутри общего горизонта веры и общечеловеческих норм. В предисловных фрагментах фиксируется опыт пребывания в Мекке и обращение к духовным основаниям, что задаёт контекст, в котором национальная тема не исчезает, но перестает быть замкнутой на себя. Поэт избегает изоляционизма, его патриотизм гуманистичен, открыт миру и при этом укоренён в родной земле. В данном случае важно подчеркнуть, что «универсализация» не означает отказ от национального, она означает расширение масштаба ответственности, когда любовь к своему не требует ненависти к чужому.

Художественные средства усиливают патриотическую семантику текста через систему устойчивых символов. Работает *символика земли, солнца, воды***,** а также исторических городов, Самарканда и Бухары, как знаков культурной памяти. При этом символы у Арипова редко бывают

«картинками». Земля часто метафоризируется как мать, и это превращает Родину в фигуру заботы и долга. Солнце может звучать как образ духовного света, который освещает не только природу, но и смысл, а вода становится знаком очищения и преемственности, то есть связи поколений, а не просто пейзажной деталью. Ритмическая организация стихов и интонационная приподнятость поддерживают ощущение сопричастности традиции, где личное чувство звучит в согласии с культурной памятью народа.

Внутри этой картины национальная идентичность складывается на нескольких уровнях, и наша схема здесь уместна, исторический уровень, культурный уровень, нравственный уровень и философский уровень. Конкретные примеры в тексте показывают, как каждый уровень имеет свою языковую «опору». Исторический уровень выражается формулами памяти, ***«ўтмишнинг излари қалбда тирик»***[7]. Культурный уровень удерживается через мотив языка, ***«юракнинг тили»*** [7] и образ многовековой устойчивости речи. Нравственный уровень закрепляется через совесть и долг, ***«мезони виждон»*** [7]. Философский уровень возникает там, где судьба народа осмысляется во времени и в общечеловеческом контексте, что особенно заметно на материале ***«Хаж дафтари».***

Таким образом, важно проговорить границы применимости такого чтения. Интерпретация национальной темы через категории совести, памяти и языка продуктивна, но она требует аккуратности в цитировании и опоры на проверенные тексты, потому что поэзия Арипова существует в разных редакциях и публикациях, а отдельные формулы могут по разному передаваться в печати и в сети. Кроме того, есть риск «выпрямить» поэта до одной доминанты, патриотической, и не услышать другие регистры, интимно лирический, иронический, трагический. На этом этапе уместна осторожная критика упрощённых подходов, где патриотизм трактуется только как тематическая рубрика, без анализа поэтики обращения, ритма и символического слоя. Поэзия Арипова удерживает национальную идею именно потому, что она сделана художественно, а не декларативно, и в этом состоит её долговременная актуальность для читателя XXI века.

Список литературы

1. Успенский Б. А. История и семиотика культуры. — М.: Языки славянской культуры, 2002.
2. Лотман Ю. М. Культура и взрыв. — М.: Гнозис, 1992.
3. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. — Волгоград: Перемена, 2002.
4. Каримов Н. Абдулла Арипов: ҳаёт ва ижод. — Ташкент: Фан, 2001.
5. Норматов У. Ўзбек адабиёти тарихи. — Ташкент: Ўқитувчи, 2010.
6. Гафуров И. Миллий ўзлик ва шеърият. — Ташкент: Шарқ, 2015.
7. Абдулла Орипов (1941–2016) [Электронный ресурс] // Ziyouz.uz. — Опубликовано 20.03.2016. — URL: https://ziyouz.uz/ozbek-ziyolilari/abdulla-oripov-1941/ (дата обращения: 22.02.2026).

ABDULLA ORIPOV VA KERIM GURBANNEPESOV IJODIDA LIRIK QAHRAMON OBRAZINING TALQIN QILINIShI

Saparova Aysultan, Jumabaev Umidjan, Iskanderova Dilafruz
«TIQXMMI” MTU «Filologiya va tillarni o‘qitish (rus tili)» ta’lim yo‘nalishining 137 “a” guruhi talabalari (Turkmaniston Respublikasi)
Ilmiy rahbar: professor **Sh.A.Abdullaeva** (O‘zbekiston Respublikasi)

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek shoiri Abdulla Oripov va turkman shoiri Kerim Gurbannepesov ijodida lirik qahramon obrazining shakllanishi va rivojlanishi tahlil qilinadi. Maqolada har ikki shoirdagi lirik qahramonning badiiy-estetik xususiyatlari, ijtimoiy va ma’naviy qirralari hamda milliy ruh va tarix bilan bog‘liqligini aniqlash bo‘yicha qo‘lga kiritilgan ma’lumotlar keltirilgan. Maqola lirik qahramonning evolyusiyasi, falsafiy va ma’naviy jihatdan o‘sishi, shuningdek, Abdulla Oripov va Kerim Gurbannepesov ijodidagi xususiyatlarini yoritgan. Maqolada, shuningdek, ikki shoir ijodida lirik qahramon orqali milliy qadriyatlar, Vatanparvarlik va inson ruhiyatining namoyon bo‘lishi, hamda uslubiy va obrazli xususiyatlari ta’kidlanadi.*

Tayanch tushunchalar*: lirik qahramon, lirika, vatanparvarlik, inson taqdiri, Abdulla Oripov, Kerim Gurbannepesov, poetika, milliy ruh, ijtimoiy-farovonlik, estetika.*

Аннотация. *В статье анализируется формирование и развитие образа лирического героя в творчестве узбекского поэта Абдуллы Орипова и туркменского поэта Керима Гурбаннепесова. Приведен компаративный анализ о художественно-эстетических характеристиках лирического героя, его социаьных и духовных аспектах, а также о связи с национальным духом и историей в произведениях обоих поэтов. В статье рассматривается эволюция лирического героя в поэзиях А.Орипова и К.Гурбаннепесова, его философское и духовное становление, а также согласование его образа с жизнбю народа и социальными реалиями. Кроме того, подчеркиваются проявления националных ценностей, патриотизма и человеческого духа через лирического героя, а также его стилистические и образные особенности.*

Ключевые понятия: *лирический герой, лирика, Абдулла Орипов, Керим Гурбаннепесов, поэтика, националный дух, социальное благополучие, эстетика.*

Abstract. *The article analyzes the formation and development of the lyrical hero in the works of the Uzbek poet Abdulla Oripov and the Turkmen poet Kerim Gurbannepesov. It presents information on the artistic and aesthetic characteristics of the lyrical hero, its social and spiritual dimensions, and its connection to national spirit and history in the works of both poets. The study examines the evolution of the lyrical hero, its philosophical and spiritual development, as well as its alignment with the life of the people and social realities*

in the poetry of Oripov and Gurbannepesov. Furthermore, it highlights how national values, patriotism, and the human spirit are expressed through the lyrical hero, along with its stylistic and figurative features.

Keywords: *lyrical hero, lyric poetry, Abdulla Oripov, Kerim Gurbannepesov, poetics, national spirit, social welfare, aesthetics.*

Adabiyotshunoslikda lirika badiiy ijodning eng qadimiy va asosiy turlaridan biri hisoblanadi. “U insonning ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari, ruhiy holati va shaxsiy munosabatlarini badiiy shaklda ifoda etishga xizmat qiladi”[]. Shu ma’noda Abdulla Oripov va Kerim Gurbannepesov ijodida lirika nafaqat poetik ijodning markaziy ko‘rinishi, balki shoirlarning ma’naviy dunyosi va estetik qarashlarini namoyon qiluvchi muhim badiiy maydon hisoblanadi.

Lirika ko‘pincha shaxsiy his-tuyg‘ularga asoslansa-da, u jamiyatning muhim ijtimoiy-ma’naviy muammolarini ham aks ettiradi.

Abdulla Oripov va Kerim Gurbannepesov ijodida milliy qadriyatlar, Vatanga muhabbat, inson qadri va ma’naviy ideallar lirik poeziyaning asosiy mavzularidan biri hisoblanadi.

Abdulla Oripov ijodini zamonaviy turkman shoiri bilan taqqoslash uchun ko‘p hollarda Kerim Gurbannepesov nomini keltirishadi. U XX asrning ikkinchi yarmida Turkmanistonda mashhur bo‘lgan zamonaviy shoirlardan biri bo‘lib, milliy ruh, inson taqdiri va Vatan mavzusini keng yoritgan.

Lirik asarlarda voqyealarning keng tasviri emas, balki inson qalbida kechayotgan ruhiy holatlar, fikriy-falsafiy mulohazalar va hissiy taassurotlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham lirikada “lirik qahramon” tushunchasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u shoirning estetik ideali, dunyoqarashi va shaxsiy tajribasining badiiy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, lirik qahramon bu shoirning she’rlarida namoyon bo‘ladigan ruhiy “men”, ya’ni she’r ichidagi his-tuyg‘ular, fikrlar va dunyoqarashni ifodalovchi obrazdir. U ko‘pincha shoirning o‘ziga yaqin bo‘ladi, lekin to‘liq shoirning o‘zi emas, balki badiiy obraz sifatida namoyon bo‘ladi.Lirika bir nechta muhim vazifalarni bajaradi, ya’ni shoir shaxsini ifodalash vositasi, estetik tafakkurni shakllantirish, muallifning ichki dunyosi, hayotga munosabati, falsafiy qarashlari va ruhiy kechinmalari bevosita yoki bilvosita namoyon bo‘ladi. Shu bois lirika ko‘pincha shoirning shaxsiy va ijtimoiy pozitsiyasini anglash uchun asosiy manba vazifasini bajaradi.

Lirik poeziya insonning estetik hissiyotini rivojlantiradi, tabiat, hayot va inson munosabatlarini badiiy idrok etishga yordam beradi. Shoir lirik obrazlar, metaforalar va poetik vositalar orqali o‘quvchining estetik dunyoqarashini boyitadi. Lirik poeziya inson qalbidagi eng nozik ruhiy jarayonlarni badiiy jihatdan tadqiq etadi. Muhabbat, iztirob, umid, ishonch, vatanparvarlik kabi hissiyotlar lirik asarlarda yuqori darajada estetik umumlashmaga ega bo‘ladi.

Abdulla Oripov va Kerim Gurbannepesovning lirik ijodida tilning badiiy imkoniyatlari keng namoyon bo‘ladi. Ushbu mashhur shoirlar obrazli ifoda, ritm, qofiya va musiqiylik orqali poetik nutqning estetik ta’sirchanligini oshirishga muvaffaq bo‘lishgan. Shu jihatdan lirika milliy adabiy tilning rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan deyishimizga asos bor.

Abdulla Oripovning dastlabki she’rlarida lirik qahramon yosh va orzular bilan yashaydigan shaxs bo‘lib tasvirlangan. U samimiy va hissiyotlarga boy, hayot, muhabbat va tabiatdan ilhom oluvchi obraz sifatida gavdalanadi.

Abdulla Oripovning o‘rta davr poeziyasida lirik qaxramonning xarakteri chuqurlashadi. Bu davrdagi lirik qaxramon jamiyat muammolarini o‘ylaydigan, xalq taqdiri bilan yashaydigan, tarix va millat haqida fikr yuritadigan shaxsga aylanadi. Bu davr she’rlarida vatanparvarlik, insoniy mas’uliyat, tarixiy xotira kabi mavzular kuchayadi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgach, shoir ijodida lirik qahramon yanada yetuklashadi. Bu davrda u millat va Vatan taqdiri uchun qayg‘uradigan, erkinlik va mustaqillik g‘oyalarini ulug‘laydigan, ma’naviy-falsafiy fikrlarga boy obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Shoirning mashhur asarlaridan biri — O‘zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasi matni ham uning Vatan va xalq haqidagi chuqur tuyg‘ularini aks ettiradi.

Abdulla Oripovning ijod xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:Vatan va millat taqdiri asosiy mavzu sifatida qaraladi, inson ruhiyati va falsafiy fikrlarga katta e’tibor qaratiladi, lirik qahramon ko‘pincha shoirning ichki dunyosi va xalq dardini ifoda etadi. Uning she’rlarida milliy g‘urur, ozodlik va inson qadri g‘oyalari kuchli tarannum etilgan[].

Kerim Gurbannepesov-zamonaviy turkman adabiyotida muhim o‘rin tutgan shoir. Uning til uslubi sodda, lekin ma’no jihatdan chuqur, uslubi obrazli va hissiy. U turkman xalqi tarixi va milliy ruhini kuylaydi. Kerim Gurbannepesov insonning ma’naviy dunyosiga katta e’tibor beradi hamda ijtimoiy mavzular va xalq hayotini aks ettiradi:

Romantik bosqich – yosh shoirning hissiy va orzuga boy qahramoni;

Ijtimoiy bosqich – jamiyat va xalq muammolariga befarq bo‘lmagan qahramon.

Falsafiy bosqich – hayot, millat, inson taqdiri haqida chuqur fikr yurituvchi yetuk qahramon.

Abdulla Oripov poeziyasida lirik qahramon oddiy hissiyotlardan boshlab, asta-sekin jamiyat, Vatan va insoniyat taqdiri haqida o‘ylaydigan falsafiy va ma’naviy jihatdan yetuk obraz darajasiga ko‘tarilsa**,** Kerim Gurbannepesov poeziyasida lirik qahramon ko‘proq xalq hayoti, kundalik ijtimoiy voqealar va milliy qadriyatlar bilan bog‘liq, hissiyotlari esa sezgir va obrazli tarzda namoyon bo‘ladi.

Ikkala shoirning lirik qahramoni o‘z shaxsiy dunyosidan ko‘ra, jamiyat va xalq bilan bog‘liq masalalarni ko‘proq aks ettiradi, ya’ni hissiy kechinmalar ko‘pincha ijtimoiy kontekst va milliy ong bilan uyg‘unlashadi. Shu bois, Gurbannepesovning ham lirik qahramoni va Abdulla Oripovning lirik qaxramoni ijtimoiy va xalqparvarlik ruhiyatiga ko‘proq e’tibor qaratgan, falsafiy fikrlar esa real voqelik bilan bog‘liq holda ifodalanadi. Har ikkala lirik qahramon o‘zining milliy va badiiy an’analarini aks ettirish orqali o‘quvchida ma’naviy va estetik hissiyot uyg‘otadi (1-jadvalga qarang).

1-jadval. Abdulla Oripov va Kerim Gurbannepesov ijodining o‘xshash jihatlari

Jihat	Abdulla Oripov	Kerim Gurbannepesov
Asosiy mavzular	Vatan, xalq taqdiri, jamiyat va inson qadri bilan bog‘liq masalalarni aks ettiradi	ijtimoiy va xalqparvarlik ruhiyatiga e’tibor qaratgan,
Lirik qahramon	falsafiy fikrlar real voqelik bilan bog‘liq holda ifodalanadi	ijtimoiy voqealar va milliy qadriyatlar bilan bog‘liq masalalarni aks ettiradi
Uslub	ma’naviy va estetik hissiyot uyg‘otadi	ma’naviy hissiyot uyg‘otadi

Ikki shoir ijodining o‘xshash tomonlari haqida fikr bildirsak, ikkalasi ham o‘z xalqi va Vatani haqida ko‘p yozgan. Abdulla Oripov va Kerim Gurbannepesov she’rlardagi lirik qahramon xalq dardini his qiladi. Ikkala shoirning she’rlarida falsafiy fikrlar chuqur. Inson hayoti, taqdir va ma’naviyat haqida chuqur mulohazalar bor. Ikkala shoirning ijodida milliy qadriyatlar va an’analar aks etgan. Shu bilan birgalikda, Abdulla Oripov va Kerim Gurbannepesov ijodida farqli jihatlar ham bor (2-jadvalga qarang).

2-jadval.Abdulla Oripov va Kerim Gurbannepesov ijodining farqli jihatlari

Jihat	Abdulla Oripov	Kerim Gurbannepesov
Asosiy mavzular	Vatan, mustaqillik, inson qadri	Milliy tarix, xalq hayoti
Lirik qahramon	Ko‘proq falsafiy va ichki kechinmalarga boy	Ijtimoiy hayotga yaqin
Uslub	falsafiy, ma’nosi chuqur	obrazli va hissiy

Abdulla Oripov va Kerim Gurbannepesov ijodida lirik qahramon obrazi milliy ruh va inson taqdiri bilan bog‘liq. Lekin Abdulla Oripovda u ko‘proq falsafiy va ma’naviy, Gurbannepesovda esa ijtimoiy va xalq hayotiga yaqin tarzda namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, lirika shoirlik va ijodkorlikning markaziy va eng muhim shakllaridan biri bo‘lib, u shoirning shaxsiy dunyoqarashi, estetik ideali va ijtimoiy pozitsiyasini namoyon qilishda asosiy vosita hisoblanadi. Lirik poeziya inson ruhiyatini chuqur tadqiq etish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni badiiy ifoda etish hamda adabiy tilning estetik imkoniyatlarini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois lirika adabiyotshunoslik tadqiqotlarida shoir ijodining mazmun-mohiyatini anglashda asosiy nazariy kategoriyalardan biri sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Oripov. Sohibqiron: she’riy drama. – T.: Adabiyot va san’at, 1996. – 128 b.

2. Davlatova A. Abdulla Oripov she’riyatida poetik tafakkur tadriji: filol. fan. dok-ri (DSc) diss. – Toshkent, 2022. – 260 b.
3. Is’hoqov Yo. So‘z san’ati so‘zligi. – Toshkent: Akademnashr, 2014.- 320 b.
4.Yuldashev K. *Abdulla Oripov: hayot va ijod*. — Tashkent: Fan, 2012.-120b.
5.Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: Til va adabiyot instituti nashriyoti, 2004. – 180 b.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИЗУЧЕНИЯ ТВОРЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ АБДУЛЛЫ ОРИПОВА

Жузбаев Нурлан Урал угли
Студент факультета “Филология” Национального педагогического университета Узбекистана имени Низами

Аннотация. *В статье рассматриваются методологические и педагогические аспекты преподавания произведений Абдуллы Орипова в системе школьного и высшего образования. На основе анализа современных научных публикаций и раскрывается образовательный потенциал его поэтического наследия как инструмента формирования духовно-нравственных ценностей, национальной идентичности, эстетического сознания и читательской компетентности обучающихся. Особое внимание уделяется текстуально-аналитическому, историко-культурному, ценностно-ориентированному, междисциплинарному и личностно-развивающему подходам. В статье представлены реальные педагогические практики, кейсы и модели обучения, применяемые в образовательных учреждениях.*

Ключевые слова*: Абдулла Орипов, методика преподавания литературы, литературное образование, педагогический потенциал, национальная идентичность, духовно-нравственное воспитание, компетентностный подход, междисциплинарность.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abdulla Oripov asarlarini maktab va oliy ta’limda o‘qitishning metodologik va pedagogik jihatlari ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy ilmiy nashrlar tahlili asosida maqolada uning she’riy merosining o‘quvchilarning ma’naviy va axloqiy qadriyatlarini, milliy o‘ziga xosligini, estetik ongini va o‘qishni tushunishini rivojlantirish vositasi sifatidagi ta’limiy salohiyati o‘rganiladi. Matn-tahlil, tarixiy-madaniy, qadriyatlarga yo‘naltirilgan, fanlararo va shaxsni rivojlantirish yondashuvlariga alohida e’tibor qaratilgan. Maqolada ta’lim muassasalarida qo‘llaniladigan real hayotdagi o‘qitish amaliyotlari, amaliy tadqiqotlar va o‘qitish modellari keltirilgan.*

Kalit so‘zlar*: Abdulla Oripov, adabiyot o‘qitish metodikasi, adabiy ta’lim, pedagogik salohiyat, milliy o‘zlik, ma’naviy-axloqiy tarbiya, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, fanlararo aloqadorlik.*

Abstract. *This article examines the methodological and pedagogical aspects of teaching Abdulla Oripov’s works in school and higher education. Based on an analysis of contemporary scholarly publications, the article explores the educational potential of his poetic legacy as a tool for fostering students’ spiritual and moral values, national identity, aesthetic consciousness, and reading comprehension. Particular attention is paid to textual-analytical, historical-cultural, value-oriented, interdisciplinary, and personality-development approaches. The article presents real-life teaching practices, case studies, and teaching models used in educational institutions.*

Key words: *Abdulla Oripov, literature teaching methods, literary education, pedagogical potential, national identity, spiritual and moral education, competence-based approach, interdisciplinarity.*

Современное литературное образование ориентировано не только на формирование знаний о художественных текстах, но и на развитие личности обучающегося, его ценностных установок, культурной идентичности и духовно-нравственных ориентиров. В этой связи особое значение приобретает обращение к творчеству национальных поэтов, чьё наследие несёт в себе мощный воспитательный, культурный и мировоззренческий потенциал. Одной из ключевых фигур узбекской литературы второй половины XX – начала XXI века является Абдулла Орипов - народный поэт Узбекистана, Герой Республики Узбекистан, автор слов Государственного гимна страны.Научные исследования, посвящённые его творчеству, подчёркивают его роль как носителя национального художественного сознания и выразителя духовных ценностей узбекского народа.

Поэзия Орипова формирует устойчивую культурную парадигму, в которой соединяются национальная традиция и современное художественное мышление. Как отмечает К. Йулдашев, поэзия Орипова представляет собой «синтез национальной традиции и философского осмысления современности», формируя художественную модель национального самосознания

В педагогической науке подчёркивается, что художественный текст является не только объектом изучения, но и средством формирования личности. Исследования отмечают, что произведения Орипова обладают высоким дидактическим потенциалом, способным развивать аналитическое мышление, читательскую культуру и нравственное сознание обучающихся. Актуальность данной статьи определяется необходимостью научно-методического обоснования преподавания произведений Абдуллы Орипова в условиях компетентностной парадигмы образования и усиления воспитательной функции школы и высшей школы.

Методологической основой исследования являются концепции личностно-ориентированного образования, компетентностного подхода, культурологической педагогики и теории интерпретации художественного текста.

Современные исследования в области литературного образования указывают, что художественный текст выполняет «функции культурной трансляции, социализации и ценностного моделирования личности» [1;25-с.]. По мнению Aliyeva, “анализ языковых элементов в поэзии Орипова позволяет формировать у обучающихся способность к глубокому интерпретативному чтению, что является базовой компетенцией современного гуманитарного образования” [2;34-с.]. Следовательно, преподавание произведений Орипова должно рассматриваться как комплексный педагогический процесс, включающий когнитивный, ценностный, эмоциональный и культурный уровни.Текстуальный анализ предполагает изучение художественной структуры произведений, системы образов, символики, метафорики, ритмики и стилистических средств. Aliyeva (2025) подчёркивает, что поэзия Орипова отличается высокой плотностью языковых средств и сложной образной организацией, что делает её ценным материалом для формирования аналитического мышления учащихся.Практическая реализация. Допустим на занятиях по литературе учащиеся выполняют поэтапный анализ стихотворений: семантический, образный, стилистический, интерпретационный. Данный подход способствует развитию навыков научного анализа художественного текста.Произведения Орипова рассматриваются в контексте национальной истории, социокультурных трансформаций и культурной памяти народа. Sharipova Bakhshulloyeva (2025) указывают, что поэзия Орипова выполняет функцию сохранения исторического сознания и национальной идентичности, формируя устойчивую связь между художественным текстом и исторической памятью общества[3;11-с.]

В исследовании подчёркивается, что поэтическое наследие Орипова представляет собой форму культурной репрезентации национальной истории, где художественное слово становится инструментом исторической рефлексии и гражданского воспитания.

Интегрированные занятия «Литература + история», где поэзия Орипова анализируется параллельно с историческими событиями развития Узбекистана. Например, при изучении поэм патриотической тематики обучающиеся сопоставляют художественные образы с историческими фактами, формируя целостное представление о национальной истории как культурном процессе. Данная модель соответствует культурологическому подходу в образовании, описанному в современных исследованиях по гуманитарной педагогике.

M Xolmatov в своей статье подчёркивает, что поэзия Абдуллы Орипова формирует нравственные ориентиры личности, отражая идеалы долга, чести, ответственности и служения обществу. Образовательная реализация: Использование рефлексивных заданий, эссе, дискуссий, ценностных диалогов.Поэзия Орипова интегрируется с философией, этикой, педагогикой, культурологией, психологией, что позволяет рассматривать его творчество как междисциплинарное образовательное пространство.

Л.Алиева подчёркивает, что языковая структура поэзии Орипова создаёт основу для комплексного анализа, объединяющего лингвистику, эстетику и педагогическую интерпретацию. указывает, что интеграция литературного анализа с педагогическими и культурологическими дисциплинами способствует формированию целостного гуманитарного мышления у обучающихся.

Анализ философских категорий (смысл жизни, экзистенциальный выбор, ответственность, свобода) на материале стихотворений Орипова в рамках междисциплинарных семинаров «Литература и философия», «Литература и педагогика», что формирует у студентов целостную картину гуманитарного знания.

Поэзия Орипова формирует у обучающихся ценностные категории совести, долга, служения обществу и ответственности перед культурой.Тексты поэта выступают как механизм культурной социализации личности.А также его произведения формируют эстетическое воспитание.

В монографии М. Кучкаровой [2;44-с.] подчёркивается, что художественная система Орипова формирует у читателя ценности ответственности, совести и исторической памяти в исследовании художественной экспрессии в поэзии Орипова показывает, что его творчество способствует развитию эстетического сознания и художественного восприятия. Формы работы: исследовательские проекты презентации научные доклады литературные вечера своей статье подчёркивает, что проектная деятельность при изучении творчества Орипова способствует развитию исследовательских навыков, критического мышления и читательской культуры. Например, реализация проекта «Абдулла Орипов как феномен национальной поэзии»: студенты готовят исследовательские работы, анализируют поэзию с разных научных позиций (литературоведение, педагогика, культурология), представляют результаты в форме научных докладов и мультимедийных презентаций.

Темы: Поэт и общество, литература как нравственный ориентир, национальная культура и идентичность [24-с.]указывают, что дискуссионные формы обучения способствуют формированию гражданского самосознания и критического мышления при изучении национальной литературы. Практика: Проведение круглых столов и дебатов по проблематике гражданской ответственности поэта и социальной роли литературы.

Использование электронных библиотек, цифровых платформ, мультимедийных ресурсов отмечает, что цифровые образовательные инструменты расширяют возможности интерпретации поэтического текста и формируют современные формы читательской компетентности. Практическая реализация: Создание цифровых образовательных модулей по творчеству Орипова, включающих интерактивные презентации, видеолекции, онлайн-дискуссии и электронные библиотеки текстов.

Преподавание произведений Абдуллы Орипова в системе общего и высшего образования обладает высоким педагогическим потенциалом и представляет собой мощный инструмент формирования личности

обучающегося. Научно-методологически обоснованное использование его творчества позволяет реализовать цели современного образования: развитие мышления, формирование ценностей, воспитание национальной идентичности и духовной культуры личности.

Список научных источников:

1. Ibragimova, N. (2025). *Issues of Teaching Methods of Uzbek Literature on the Example of the Life and Work of Abdulla Oripov*. International Journal of Artificial Intelligence. https://inlibrary.uz/index.php
2. Йулдашев К. *Абдулла Орипов: ҳаёт ва ижод*. — Ташкент: Фан, 2012. — С. 45.
3. Кучкарова М. *Абдулла Орипов поэзиясининг бадиий хусусиятлари*. — Ташкент: Фан, 2018. — С. 74.

TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA ABDULLA ORIPOV IJODIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Yoqubaliyeva Dilafro‘z Payzidin qizi
Andijon davlat pedagogika instituti, Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda milliy adabiyot namunalari, xususan, Abdulla Oripov ijodining didaktik imkoniyatlari tahlil etiladi. Shoir asarlarida aks etgan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, vatanparvarlik, insonparvarlik, ijtimoiy mas’uliyat g‘oyalari tarbiyaviy jarayonda pedagogik vosita sifatida qo‘llanishining ilmiy asoslari yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, adabiy matnlar asosida tashkil etilgan tarbiya darslari o‘qituvchilarning kasbiy-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish bilan birga, o‘quvchilarning ma’naviy tafakkurini ham yuksaltirishi aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *tarbiya fani, kasbiy kompetensiya, didaktik asoslar, Abdulla Oripov ijodi, ma’naviy qadriyatlar, pedagogik texnologiya, innovatsion yondashuv, tarbiyaviy metodika.*

Аннотация. *В данной статье анализируется дидактический потенциал образцов национальной литературы, в частности, творчества Абдуллы Орипова, в развитии профессиональной компетентности будущих учителей педагогики. Выделены научные основы использования духовно-нравственных ценностей, патриотизма, гуманизма и социальной ответственности, отраженных в произведениях поэта, в качестве педагогического инструмента в образовательном процессе. По результатам исследования установлено, что учебные занятия, организованные на основе литературных текстов, наряду с развитием профессионально-методических компетенций учителей, также способствуют духовному развитию учащихся.*

Ключевые слова: *педагогика, профессиональная компетентность, дидактические основы, труды Абдуллы Орипова, духовные ценности, педагогические технологии, инновационный подход, методика преподавания.*

Abstract. *This article analyzes the didactic potential of national literature samples, in particular, the work of Abdulla Oripov, in developing the professional competence of future teachers of education. The scientific foundations of the use of spiritual and moral values, patriotism, humanity, and social responsibility reflected in the poet’s works as a pedagogical tool in the educational process are highlighted. According to the results of the study, it was found that educational lessons organized on the basis of literary texts, along with the development of teachers’ professional and methodological competencies, also improve the spiritual thinking of students.*

Keywords: *educational science, professional competence, didactic foundations, Abdulla Oripov’s work, spiritual values, pedagogical technology, innovative approach, educational methodology.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi nafaqat metodik bilimlar, balki ma’naviy-ma’rifiy salohiyat bilan ham belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, milliy adabiyot namunalaridan ta’lim jarayonida foydalanish muhim didaktik vosita sifatida e’tirof etilmoqda[2].

O‘zbek adabiyotining yetuk namoyandasi bo‘lgan Abdulla Oripov ijodi yuksak insoniy fazilatlar, vatanparvarlik, milliy g‘urur va axloqiy poklik g‘oyalarini o‘zida mujassam etgani bilan tarbiyaviy jarayon uchun katta pedagogik salohiyatga ega. Shu bois, uning asarlaridan tarbiya fanini o‘qitishda foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

Abdulla Oripov 1941-yilning 21-martida Qashqadaryo viloyati, Koson tumanidagi Neko‘z qishlog‘ida tug‘ildi. Qishloq Qo‘ng‘irtov etagida joylashgan. Otasi Orifboy Ubaydulla o‘g‘li jamoa xo‘jaligi raisi bo‘lgan. Onasi Turdixol uy bekasi bo‘lgan. Oilada to‘rt o‘g‘il, to‘rt qiz bo‘lib, Abdulla o‘g‘illarning kenjasi edi. 1958-yilda o‘rta maktabni oltin medal bilan tamomlagach, Toshkent Davlat universiteti o‘zbek filologiyasi fakultetining jurnalistika yo‘nalishiga o‘qishga kirib, oliygohni ham 1963-yilda imtiyozli diplom bilan yakunladi.

Abdulla Oripov ijodining tarbiyaviy ahamiyati juda katta boyligimiz hisoblanadi. Shoir asarlarida insoniylik, vijdon, or-nomus, Vatanga sadoqat, ota-ona hurmati kabi qadriyatlar markaziy o‘rinni egallaydi. Bunday g‘oyalar tarbiya fanining asosiy mazmuniy komponentlari bilan uyg‘unlikda bo‘lib, o‘quvchilarda ijtimoiy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi[3]. Masalan, shoirning vatanparvarlik ruhidagi she’rlari o‘quvchilarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qilsa, insoniylik va halollik haqidagi asarlari axloqiy tafakkurni rivojlantiradi.

Oripov o‘zbek she’riyatiga o‘tgan asrning 60-yillarida sobiq sovet jamiyatida esa boshlagan yangi shabadaning elchisi sifatida kirib keldi. U dastlabki

she’rlaridan boshlab milliy she’riyatda yangi poetik tafakkurning qaror topishi yo‘lida ijod qildi; turmushda paydo bo‘la boshlagan yangicha qarashlar, fikr va xatti-harakat erkinligiga bo‘lgan ehtiyoj Oripov she’rlarining g‘oyaviy mundarijasini belgilab berdi.

B.Nazarovaning tadqiqotlarida kasbiy pedagogik kompetentlikning quyidagi turlari sanab o‘tiladi[2]: maxsus yoki kasbiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish); autokompetentlik (o‘zini ijtimoiy-kasbiy rivojlantira olish); ekstremal kasbiy kompetentlik (kutilmagan vaziyatlarda ishlay olish); ijtimoiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni hamkorlikda tashkil etish, ijtimoiy mas’ullik). “Kasbiy kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga bir qator ilmiy-amaliy tadqiqotlar, ijodiy va psixologik izlanishlarning natijasi sifatida kirib kelgan. Jumladan, N.A.Muslimov, M.H.Usmonboyeva, D.M.Sayfurov, A.B.To‘rayevlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda kasbiy kompetentlikka quyidagicha ta’rif beriladi: “Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi”[5].

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda adabiy materiallarning didaktik imkoniyatlari Adabiy asarlar asosida tashkil etilgan tarbiya darslari o‘qituvchining quyidagi kompetensiyalarini rivojlantiradi: metodik tahlil qilish; tarbiyaviy vaziyatlarni modellashtirish; dialogik o‘qitishni tashkil etish; refleksiv tahlil olib borish. Bunday yondashuv o‘qituvchining pedagogik mahoratini oshirish bilan birga, uning shaxsiy qadriyatlarini ham boyitadi[1].

Abdulla Oripov ijodini tarbiya darslarida qo‘llash quyidagi zamonaviy metodlar orqali samarali amalga oshiriladi:

- Keys-stadi – asarlardagi axloqiy vaziyatlarni tahlil qilish;
- Munozara metodlari – she’r mazmuni asosida ijtimoiy fikr almashish;
- Loyiha metodi – “Vatan”, “Insoniylik”, “Halollik” mavzularida ijodiy ishlar;
- Refleksiv esse yozish – shaxsiy xulosa chiqarish. Bu metodlar o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi[4]. Bu kabi metodlar bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda Abdulla Oripov asarlarining didaktik ahamiyatini yoritishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarni har tomonlama barkamol shaxs qilib tarbiyalash dolzarb masalalardan biri ekanligi hammaga ma’lum. Olimlarning asarlarida kasbiy kompetensiyani shakllantirish hamda rivojlantirish juda muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish kerakki, bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda Abdulla Oripov ijodidan samarali foydalanish bugungi kunning o‘z oldiga qo‘ygan vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Abdulla Oripov ijodidan tarbiya fanini o‘qitishda foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim didaktik asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu yondashuv tarbiyaviy jarayonni mazmunan boyitadi, ta’lim samaradorligini oshiradi hamda o‘qituvchining metodik mahoratini yangi bosqichga olib chiqadi. Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini kasbiy-metodik

rivojlantirish orqali fanni o‘qitishga tayyorlash natijasida Abdulla Oripov asarlarining ma’naviy-axloqiy ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Abdullayeva, N. Pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy ta’lim texnologiyalari. Toshkent. 2021
2. Shodmonova, N. Pedagoglarda metodik kompetensiyani rivojlantirish. Samarqand. 2021
3. Ergasheva, M. Tarbiyaviy texnologiyalar. Toshkent. 2022
4. To‘xtayev, U. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent. 2019
5. Qodirov, B. “Pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish muammolari”. Pedagogik tadqiqotlar jurnali. 2020

MAXTUMQULI VA ABDULLA ORIPOV IJODIDA VATAN OBRAZINING TALQIN QILINIShI

Atageldiev Baymuxammet Nedirmuxammedovich
«TIQXMMI» MTU «Filologiya va tillarni o‘qitish (rus tili)» ta’lim yo‘nalishining 131 guruh talabasi (Turkmaniston Respublikasi)
Sobetova Tovus Amanovna
Filologiya va tillarni o‘qitish (rus tili) ta’lim yo‘nalishining 133 guruh talabasi (Turkmaniston Respublikasi)
Ilmiy rahbar: professor **Sh.A.Abdullaeva** (O‘zbekiston Respublikasi)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Maxtumquli Pyragy va Abdulla Oripov ijodida Vatan obrazining badiiy talqini tahlil qilinadi. Unda turkiy adabiyotning ikki buyuk namoyandasi asarlarida Vatanga bo‘lgan muhabbat, xalqning ma’naviy qadriyatlari hamda ona yurt haqidagi tasavvurlar qanday ifodalangani o‘rganiladi. Shuningdek, shoirlarning Vatan obrazini talqin etishdagi o‘xshash va farqli jihatlariga, uni ifodalashda qo‘llangan badiiy vositalarga hamda milliy o‘zlik va tarixiy-madaniy muhitning shoirlar dunyoqarashiga ta’siriga alohida e’tibor qaratiladi. Tadqiqot natijasida Maxtumquli she’riyatida Vatan xalq birligi va ma’naviy uyg‘onish timsoli sifatida namoyon bo‘lishi, Abdulla Oripov ijodida esa u milliy g‘urur, mustaqillik va ona yurtga cheksiz muhabbat orqali talqin etilishi aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Vatan obrazi, vatanparvarlik, she’riyat, turkiy adabiyot, badiiy obraz, Maxtumquli, Abdulla Oripov, milliy o‘zlik, ma’naviy qadriyatlar, adabiy tahlil.*

Abstract.*This article analyzes the artistic interpretation of the image of the Motherland in the works of Maxtumquli Pyragy and Abdulla Oripov. It examines how patriotic feelings, spiritual values of the people, and perceptions of the native land are reflected in the poetry of these two prominent representatives of Turkic literature. Special attention is given to the similarities and differences in the interpretation of the image of the Motherland, the artistic means used to express it,*

and the influence of national identity and historical-cultural context on the poets’ worldview. The study reveals that in Maxtumquli’s poetry the Motherland appears as a symbol of national unity and spiritual revival, while in Abdulla Oripov’s works it is expressed through the ideas of national pride, independence, and deep love for the homeland.

Keywords: *image of the Motherland, patriotism, poetry, Turkic literature, artistic image, Maxtumquli, Abdulla Oripov, national identity, spiritual values, literary analysis.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается художественное осмысление образа Родины в творчестве Махтумкули Пираги и Абдуллы Орипова, также анализируются идейно-художественные особенности поэтических произведений двух выдающихся представителей тюркской литературы, в которых отражаются патриотические чувства, духовные ценности народа и представления о родной земле. Особое внимание уделяется сходствам и различиям в интерпретации образа Родины, художественным средствам его выражения, а также роли национальной идентичности и историко-культурного контекста в формировании поэтического мировоззрения авторов. В результате исследования выявляется, что в поэзии Махтумкули Родина предстает как символ единства народа и духовного возрождения, тогда как в произведениях Абдуллы Орипова она раскрывается через призму национальной гордости, независимости и любви к родной земле.*

Ключевые слова: *образ Родины, патриотизм, поэзия, тюркская литература, художественный образ, Махтумкули, Абдулла Орипов, национальная идентичность, духовные ценности, литературный анализ.*

Adabiyotshunoslikda Vatan obrazi-lirik poeziyadagi asosiy motivlardan biri bo‘lib, u shoirning milliy ongi, xalq qadriyatlari va Vatanga bo‘lgan muhabbatini namoyon etadi. Vatan obrazы orqali shoir nafaqat shaxsiy his-tuyg‘ulari, balki ijtimoiy va tarixi mavzularni ham bayon etadi.

Ma’lumki, “vatan”- ijtimoiy-gumanitar fanlarda (falsafa, siyosatshunoslik, sotsiologiya, tarix, madaniyatshunoslik) shaxsning tarixiy, madaniy, hududiy va ma’naviy jihatdan mansubligini ifodalovchi murakkab ijtimoiy kategoriya hisoblanadi.

Ilmiy nuqtai nazardan, “vatan” tushunchasi bir vaqtning o‘zida bir nechta o‘lchamni qamrab oladi. Agar, geografik-hududiy o‘lcham sifatida qaraydigan bo‘lsak, u inson tug‘ilgan yoki millat tarixi shakllangan makonni bildiradi. Agar, siyosiy-huquqiy o‘lcham sifatida baholaydigan bo‘lsak, ushbu kategoriya muayyan davlat, uning suvereniteti va fuqarolik tizimini anglatadi. Tarixiy o‘lcham sifatida Vatan millatning tarixi, merosi va jamoa xotirasidir.

Adabiyotshunoslikda Vatan-madaniy va ma’naviy kategoriya sifatida baholanadi va til, urf-odat, qadriyatlar va milliy identifikatsiyani bildiradi.

Shaxsning Vatanga nisbatan muhabbati, sadoqati va mas’uliyati asixologik-emotsional o‘lchamda bilinadi.Shu sababli, Vatan tushunchasi faqat geografik

makon emas, balki ijtimoiy-tarixiy identifikatsiyaning markaziy kategoriyasi hisoblanadi.

Falsafiy qarashlarda Vatan kategoriyasi “ijtimoiy ong” bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi va inson mavjudligining ijtimoiy muhiti sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, Vatan milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimida oliy qadriyatlardan biri sifatida qaraladi.Shaxsning Vatan oldidagi burchi uni rivojlantirish, himoya qilish va madaniyatini saqlashdir.

Falsafiy nuqtai nazarda Vatan shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ma’naviy-tarixiy aloqani ta’minlovchi kategoriya hisoblanadi. Sotsiologik qarashlarda Vatan tushunchasi milliy identifikatsiyaning asosiy instituti, ijtimoiy birlikni shakllantiruvchi omil, fuqarolik jamiyatini mustahkamlovchi qadriyat sifatida baholanadi.Bu yerda “Vatan” tushunchasi millat, davlat, fuqarolik,milliy madaniyat, milliy g‘oya kabi tushunchalar bilan bog‘lanadi. Siyosiy nazariyada Vatanga sadoqat siyosiy madaniyatning muhim elementi hisoblanib, ushbu tushuncha davlat suvereniteti, milliy xavfsizlik, fuqarolik burchi bilan uzviy bog‘liq.

Madaniyatshunoslikda Vatan millatning madaniy kodi, tarixiy xotira makoni, madaniy merosni saqlash muhiti sifatida tushuniladi. Bu jihatdan Vatan milliy sivilizatsiyaning shakllanish maydoni hisoblanadi. Shularni inobatga olib, aytish mumkinki,Magtymguly Pyragy turkman klassik adabiyotida Vatan obrazini barcha she’rlarida asosiy motiv qilib qo‘ygan. Maxtumquli ijodining xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: Vatan — millat va xalq birligining ramzi. Shuningdek, lirik qahramon hissiyoti orqali xalqning ma’naviy va ma’rifatiy rivoji aks ettiriladi. U Vatan muhabbati va adolat, erkinlik ideallarini ichki his-hayajon va lirik qaxramon g‘oyalari asosida namoyon etadi.

Mahtumquli ijodida Vatan obrazi ko‘pincha tarixiy voqyealar, o‘sha davrda yashagan xalqning azoblari va uqubatlari tasvirlanadi hamda asarlarida milliy g‘urur asosiy va yetakchi rol o‘ynaydi. Maxtumquli shshe’rlarida Vatanga sadoqat, uni himoya qilish va xalq farovonligi uchun mehnat qilish g‘oyalari keng targ‘ib qilinadi. Uning ijodi Turkmanistonning milliy o‘ziga xosligi ramzi va Markaziy Osiyo madaniyatlari o‘rtasidagi ko‘prik bo‘ldi. 2024-yilda YUNESKO shoirning 300 yilligini umuminsoniy yubileylar ro‘yxatiga kiritdi.

O‘zbek xalqining sevimli va mashhur shoiri Abdulla Oripov ijodida Vatan obrazi ham lirik qahramon uchun markaziy mavzu hisoblanadi. Shoir ijodining asosiy xususiyatlari vatanparvarlik va mustaqillik g‘oyalarida namoyon bo‘ladi. Abdulla Oripov lirikasidagi qahramon Vatan taqdiri, inson huquqlari va milliy qadriyatlar haqida falsafiy mulohazalarga boy shaxs sifatida gavdalanadi.

Abdulla Oripov 1941 yilnitng 21 martida Qashqadaryo viloyatining Koson tumanida tavallud topgan va 2016 yilning 5 noyabrida vafot etgan. Abdulla Oripov- o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri, O‘zbekiston xalq shoiri va O‘zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi matni muallifi hisoblanadi. Uning ijodi XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida o‘zbek she’riyati taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan. Shoirning asarlarida vatanparvarlik, milliy g‘urur, ma’naviyat va inson qadri kabi g‘oyalar asosiy mavzulardan hisoblanadi.

Abdulla Oripov she’rlarida Vatanga muhabbat, uni himoya qilishga tayyorlik, uning taraqqiyotiga hissa qo‘shish kabi ma’naviy va fuqarolik fazilatlari ifodalanadi. Shuningdek, shoir she’rlarida milliy o‘zlikni anglash, tarixiy mansublikni tushunish, ijtimoiy mas’uliyatni his qilish zarurligi falsafiy ma’noda uqtiriladi.

Mashhur shoirning she’rlarida zamonaviy reallik va shaxsiy his-tuyg‘ular uyg‘unlashadi, shuningdek, tarixiy va madaniy merosga hurmat aks etadi. Shu bilan birga Abdulla Oripov lirikasida Vatan obrazi milliy birlik va ma’naviy taraqqiyot ramzi sifatida namoyon bo‘ladi.

Masalan,: uning “O‘zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasi” matnida Vatanga muhabbat va xalqaro miqyosda faxr hissi ko‘rsatilganligini ng guvohi bo‘lamiz.

Har ikkala shoir boshqa-boshqa davrda yashab ijod etishgan bo‘lsada, Maxtumquli va Abdulla Oripov ijodida o‘ziga xos o‘xshash jihatlar mavjud (1-jadval). Agar, Maxtumquli taxminan 1724–1807 yillarda yashab, ijod etgan hamda adabiy turkman tilining asoschisi hisoblansa, unda Abdulla Oripov o‘zbek adabiy tili va zamonaviy she’riyati rivojiga katta hissa qo‘shgan, milliy ruh va vatanparvarlik g‘oyalarini teran ifoda etgan shoir sifatida namoyon bo‘ladi.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv kuchayib, o‘quvchi va talabaning real hayotda qo‘llay oladigan bilim, ko‘nikma hamda qadriyat yo‘nalishlari markazga chiqdi. Adabiyot fanining vazifasi ham shundan kelib chiqib kengaymoqda: matnni tushunish, fikrni dalillash, emotsional-intellektual sezgirlik, muloqot madaniyati, shaxsiy pozitsiya kabi ko‘nikmalarni shakllantirish. Abdulla Oripov she’riyati esa mazkur ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun qulay material: asarlardagi hayotiy dramatizm, sof lirizm, ijtimoiy mas’uliyat va falsafiy mushohada o‘quvchini befarq qoldirmaydi. Shoir ijodini o‘qitish orqali o‘quvchi o‘z “ichki ovozi”ni tinglashga, qadriyatlar haqida mulohaza yuritishga, vatan, til, tarix va kelajak masalalariga shaxsiy munosabat bildirishga o‘rganadi.

Abdulla Oripov asarlarini o‘qitishdan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘quvchi (talaba)da badiiy matnni tushunish va tahlil qilish madaniyatini rivojlantirish, she’riy nutqning ifoda imkoniyatlarini anglatish hamda ma’naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirishdir. Ushbu maqsad quyidagi vazifalar orqali amalga oshiriladi: (1) shoir ijodining g‘oyaviy yo‘nalishlarini o‘quvchilarga yosh xususiyatidan kelib chiqib ochib berish; (2) obraz, lirika subyekti, kompozitsiya, ritm, qofiya, badiiy san’atlar kabi poetik unsurlarni amaliy misollar asosida o‘rgatish; (3) matn bilan ishlashning turli darajalarini (so‘z—misra—band—g‘oya) uyg‘un holda tashkil etish; (4) munozara, ijodiy yozuv, sahnalashtirish, loyiha ishlari kabi faol metodlar orqali o‘quvchini jarayonga jalb etish; (5) shoir asarlaridagi tarbiyaviy g‘oyalarni shaxsiy hayot tajribasi bilan bog‘lashga ko‘maklashish.

Maktab bosqichida (5–9-sinflar) Oripovning sodda, emotsional va mazmuni tez anglashiladigan she’rlari tanlanishi maqsadga muvofiq: tabiat va Vatan mavzulari, ona tiliga muhabbat, insoniy fazilatlar, do‘stlik, mehr-oqibat haqidagi asarlar. Yuqori sinflar va akademik litsey/kollejda esa ijtimoiy-falsafiy qatlam kuchli bo‘lgan she’rlar, shoirning davr va shaxs munosabatini ochuvchi asarlar, muhim obraz va ramzlar bilan ishlashni talab qiladigan matnlar kiritiladi. Oliy ta’limda esa Oripov ijodining kontekstual tahlili (adabiy jarayon, milliy uyg‘onish, poetik tafakkur), intertekstual bog‘lanishlar, poetik uslub va individual badiiy dunyo masalalari chuqurroq yoritiladi. Bu bosqichlarda talaba mustaqil tahlil, ilmiy mulohaza, referat/maqola, taqdimot kabi faoliyat turlarini bajarishi orqali o‘z fikrini tizimli ifodalashga o‘rganadi.

Abdulla Oripov asarlarini o‘qitishda quyidagi metodik prinsiplar samarali natija beradi. Birinchidan, “o‘qish–tushunish–talqin–baholash” zanjiri izchil tashkil etilishi kerak: o‘quvchi avval matnni his qiladi, keyin mazmunini anglaydi, so‘ng o‘z talqinini shakllantiradi va nihoyat g‘oya hamda badiiy yechimni baholaydi. Ikkinchidan, darsda “tayyor xulosa” berishdan ko‘ra, savol-javob, kuzatuv, dalillash orqali o‘quvchini xulosaga olib kelish ma’qul. Uchinchidan, she’riy matnning tovush va ritm tabiatini unutmaslik lozim: ifodali o‘qish, pauza, urg‘u, intonatsiya bilan ishlash — tahlilning ajralmas qismi. To‘rtinchidan, tarbiyaviy mazmun didaktik “nasihat”ga aylanib ketmasin: g‘oya o‘quvchi qalbida uyg‘ongan fikr sifatida tug‘ilishi kerak.

1) Kompetensiyaviy yondashuv. Oripov she’rlari asosida bir nechta tayanch kompetensiyalarni shakllantirish mumkin: kommunikativ (fikrni og‘zaki va yozma

ifodalash), axborot bilan ishlash (matndan dalil topish, iqtibos tanlash), ijtimoiy-faol fuqarolik (Vatan, jamiyat, mas’uliyat haqida pozitsiya), milliy va umuminsoniy qadriyatlar (vijdon, adolat, mehr, halollik), estetik (badiiy did, obraz va ramzni his qilish). Masalan, darsda o‘quvchilar “Matndan 3 ta dalil topib, shoirning asosiy g‘oyasini asoslang” kabi topshiriq orqali dalillash ko‘nikmasini mashq qiladi; “She’r sizni nimaga undaydi?” savoli orqali esa shaxsiy pozitsiya va qiymat yo‘nalishi mustahkamlanadi.

2) Interfaol va hamkorlikda o‘qitish usullari. She’riy matnni birgalikda talqin qilish o‘quvchini faollashtiradi. “Aqliy hujum” (she’rda ko‘tarilgan muammo haqida tezkor fikrlar), “Klaster” (asosiy g‘oya atrofida tushunchalar tarmog‘i), “INSERT” (bilaman–bilmoqchiman–bildim), “Fishbone” (muammo–sabablari–oqibatlari–yechim), “Debat” (qarama-qarshi pozitsiyalar), “Rol o‘ynash” (lirika subyekti, muallif, zamondosh, tanqidchi obrazida fikr bildirish) kabi metodlar Oripov ijodini “tirik matn”ga aylantiradi. Muhimi, har bir interfaol usul matnning badiiy mohiyatiga xizmat qilsin: shunchaki “qiziqarli o‘yin” bo‘lib qolmasin.

3) Integrativ yondashuv. Abdulla Oripov asarlarini tarix, ma’naviyat, ona tili, musiqa, san’at, fuqarolik ta’limi bilan integratsiyada o‘qitish samarali. Masalan, Vatan va tarix mavzusidagi she’rlar tarixiy faktlar bilan bog‘lanadi; til va nutq masalalari ona tili darslaridagi uslubiy bilimlar bilan mustahkamlanadi; ifodali o‘qish va she’r ohangi musiqa darslari bilan uyg‘unlashib, ritm va intonatsiyani chuqurroq his etishga yordam beradi. Integratsiya o‘quvchiga she’rni “faqat adabiyot” doirasida emas, hayotning turli qatlamlarida ko‘rishga imkon beradi.

4) Muammo asosida o‘qitish (problem-based learning). Oripov she’riyatida tez-tez “savol” ohangi, ichki dialog, vijdon bilan yuzlashish holatlari uchraydi. O‘qituvchi darsni shunday muammoli savol bilan boshlashi mumkin: “Vatanparvarlik — faqat shior emas, mas’uliyat bo‘la oladimi?”, “Inson o‘z vijdoni oldida qachon yutadi, qachon yutqazadi?”, “Til — shaxsning qalbiga qanday ta’sir qiladi?”. Keyin matn o‘qiladi, o‘quvchilar dalillarni izlaydi, qarashlarni solishtiradi, yakunda o‘z xulosasini ishlab chiqadi. Bunda o‘qituvchi bahsni boshqaradi, lekin xulosani “tayyor” holda bermaydi.

Quyidagi topshiriqlar Oripov asarlarining turli jihatlarini ochishga xizmat qiladi. “Iqtibos tanla”: o‘quvchi she’rdan o‘zi uchun eng ta’sirli 2 satrni tanlab, uning sababini izohlaydi. “Obraz xaritasi”: she’rda uchragan 3–4 tasvirni (masalan, osmon, yo‘l, yurak, shamol) ajratib, har biri nimani anglatishi mumkinligini yozadi. “Dalil bilan bahola”: “Shoir optimistmi yoki xavotirli?” degan savolga 3 dalil bilan javob beradi. “Bir satrli xulosa”: she’r g‘oyasini bitta, lekin mazmunli jumlada ifodalaydi. “Ijodiy davom”: she’r kayfiyatini saqlagan holda 4 misra yozadi yoki shoirga “xat” yozadi. Bu topshiriqlar o‘quvchini matn bilan yaqinlashtiradi, ijodiy fikrlashni qo‘llab-quvvatlaydi.

Badiiy tahlilni baholashda faqat “to‘g‘ri-noto‘g‘ri” yondashuvi yetarli emas. Mezonga quyidagilar kiritilishi mumkin: matndan dalil keltira olish; fikrni mantiqan bog‘lash; badiiy vositalarni aniq misol bilan ko‘rsatish; shaxsiy munosabatning asoslanganligi; nutq madaniyati va madaniyatli bahs. Baholash

jarayonida rubrika (mezonlar jadvali)dan foydalanish, o‘quvchiga oldindan kutilayotgan natijani ko‘rsatadi va adolat hissini kuchaytiradi. Shuningdek, o‘z-o‘zini baholash va juftlikda baholash elementlari (peer assessment) ham o‘quvchining mas’uliyatini oshiradi.

Abdulla Oripov ijodida Vatan mavzusi ko‘pincha baland shior emas, qalbdagi sadoqat va javobgarlik sifatida talqin etiladi. O‘quvchi she’r orqali “Vatan nima?” degan savolga o‘z javobini izlaydi: u — til, tarix, ota-ona, xotira, kelajak oldidagi burch. Darsda shoir satrlarini zamonaviy hayot bilan bog‘lash (masalan, ona tiliga hurmat, ekologik mas’uliyat, jamiyatdagi adolat, mehnat madaniyati) fuqarolik tarbiyasini real mazmunga aylantiradi. Muhimi, o‘quvchini “to‘g‘ri javob”ga majburlamasdan, mas’uliyatli fikr yuritishga undashdir.

Oripov she’riyatining kuchli tomoni — vijdon bilan suhbat. Shoir ko‘pincha insonning ichki olamini, halollik, adolat, or-nomus, shukr, sabr kabi fazilatlarni badiiy jilolarda ko‘rsatadi. Bu asarlar orqali o‘quvchi “qanday yashash kerak?” degan savolga tayyor formulani emas, fikr yuritish madaniyatini topadi. Darsda axloqiy xulosani “nasihat” shaklida aytishdan ko‘ra, situativ savollar samaraliroq: “Siz bu holatda qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?”, “Qahramonning ichki kurashi sizga tanishmi?”, “Bu satr nimani eslatadi?”. Shunda tarbiya o‘quvchining ichki tajribasiga ulanadi.

She’riyat insonning hissiy dunyosini tartibga soladigan, uni noziklashtiradigan san’at. Oripov satrlaridagi ohang, metaforalar, ramziy tasvirlar o‘quvchiga “go‘zallikni ko‘rish”ni o‘rgatadi. Estetik did rivojlangan sayin, inson qo‘pollikdan, shoshma-shosharlikdan, tajovuzkor nutqdan yiroqlashadi. Darslarda ifodali o‘qish, she’rni eshitib talqin qilish, musiqiy fon bilan (me’yorida) o‘qish, tasviriy san’at bilan uyg‘unlashtirish kabi usullar hissiy madaniyatni shakllantiradi.

Shoirning so‘z tanlovi, sintaksisi, takror va urg‘u orqali ma’no kuchaytirish usullari o‘quvchini tilning nozik imkoniyatlari bilan tanishtiradi. Bu esa nafaqat adabiyot, balki kundalik muloqotda ham nutqni sayqallashga yordam beradi. Darsda “satrni qayta aytib ko‘rish”, “bir so‘zni sinonimi bilan almashtirsak nima o‘zgaradi?”, “pauza qayerda bo‘lsa ma’no kuchayadi?” kabi mashqlar orqali o‘quvchi tilni his qiladi. Tilni his qilgan o‘quvchi uni asraydi.

Shoir asarlaridan tarbiyaviy natija kutish uchun dars muhitida ishonch va hurmat bo‘lishi shart. O‘quvchi fikrini aytganda “kulib qo‘yish” yoki “bunaqasi bo‘lmaydi” deyish — badiiy talqinni o‘ldiradi. O‘qituvchi esa yo‘naltiruvchi, savollar orqali tafakkurni ochuvchi, dalil bilan fikr bildirishga o‘rgatuvchi bo‘lishi kerak. Shuningdek, o‘qituvchi o‘zi ham she’rdan ta’sirlanishini yashirmasa, o‘quvchi badiiy matnni “bahoga ishlanadigan material” emas, insoniy kechinma deb qabul qiladi. Bu esa darsni jonlantiradi.

Xulosa. Abdulla Oripov asarlarini ta’lim muassasalarida o‘qitish — adabiyot ta’limining mazmunini chuqurlashtirish bilan birga, tarbiyaviy jarayonni tabiiy va ta’sirchan yo‘l bilan kuchaytirish imkonini beradi. Metodik yondashuvlar kompetensiyaviy, interfaol, integrativ va muammo asosida tashkil etilganda, o‘quvchi matnni shunchaki “o‘qimaydi”, balki uni anglaydi, talqin qiladi, baholaydi va o‘z hayoti bilan bog‘laydi. Natijada vatanparvarlik, vijdon, axloqiy mas’uliyat, estetik did, ona tiliga hurmat kabi sifatlar o‘quvchi shaxsida

mustahkamlanadi. Eng muhimi, Oripov she’riyati darsga insoniylik olib kiradi: u o‘quvchini fikrga, qalbni uyg‘otishga, hayotni ma’no bilan ko‘rishga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oripov, A. She’rlar va dostonlar to‘plami (maktab va o‘quvchi yoshiga mos tanlanmalar). Toshkent (turli nashrlar).
2. Oripov, A. (2001–2005). Tanlangan asarlar (Vols. 1–3). Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
3. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. (2000). O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (Vol. 1–12). Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.
4. Jalilov, T. (2015). Abdulla Oripov hayoti va ijodi. Toshkent: O‘qituvchi.

ABDULLA ORIPOV MEROSINI RAQAMLI TA’LIMDA QO‘LLASH

Shukriddinova Adolat Anorvay qizi
Toshkent viloyati Parkent tumani 8-umumta’lim maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abdulla Oripov ijodini o‘qitishda raqamli ta’lim texnolgiyalaridan foydalanishning pedagogik ahamiyati, metod va usullari yoritiladi. Shuningdek, adabiyot darslarida interaktiv platformalar, multimedia vositalari hamda loyiha metodlaridan foydalanishning samaradorligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli ta’lim, interaktiv metod, multimedia, Quizizz, Canva, Wordwall, pedagogik texnologiya*

Abstract. *This article highlights the pedagogical significance, methods, and approaches of using digital education technologies in teaching the works of Abdulla Oripov. It also substantiates the effectiveness of applying interactive platforms, multimedia tools, and project-based methods in literature classes.*

Keywords: *digital education, interactive method, multimedia, Quizizz, Canva, Wordwall, pedagogical technology.*

Аннотация *: В данной статье раскрывается педагогическое значение, методы и приёмы использования цифровых образовательных технологий при изучении творчества Абдуллы Орипова. Также обосновывается эффективность применения интерактивных платформ, мультимедийных средств и проектных методов на уроках литературы.*

Ключевые слова: *цифровое образование, интерактивный метод, мультимедиа, Quizizz, Canva, Wordwall, педагогическая технология*.

Zamonaviy ta’lim tizimi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari ta’sirida tubdan yangilanmoqda. Bugungi kunda o‘quvchi tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki mustaqil izlanadigan, tahlil qiladigan va xulosa chiqaradigan subyekt sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, adabiyot darslarida raqamli ta’lim

vositalaridan foydalanish muhim pedagogik zaruriyatga aylandi. Abdulla Oripov ijodi milliy ruh, vatanga muhabbat , insoniylik va ma’naviy poklik g‘oyalarini tarannum etish bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir asarlarini, xususan 5-sinf darsligidagi shoir ijodini zamonaviy pedagogik yondashuv asosida o‘qitish o‘quvchilarning estetik didi va ma’naviy dunyosini boyitadi,

Abdulla Oripov she’rlarini o‘rganishda audio va video materiallardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Sahnalashtirilgan lavhalar yoki shoir hayotiga oid hujjatli videolar, shoirning o‘zi o‘qigan she’rlar bilan bog‘liq videolavhalar o‘quvchilarda kuchli emotsional ta’sir uyg‘otadi. Masalan, “O‘zbekiston “ she’rini o‘rganishda Vatan manzaralari tasvirlangan videorolik va fon musiqasi qo‘llansa, matn mazmuni yanada chuqurroq anglanadi, ta’sir kuchi oshadi.

Raqamli ta’lim jarayonida Kahoot, Wordwall platformalaridan foydalanish, testlar tuzish, moslashtirish mumkin. Bu orqali o‘quvchining bilimini tezkor baholash va tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Interaktiv topshiriqlar, masalan:

She’rda qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalarini aniqlash;

Asosiy g‘oyani belgilash;

Misralar orasidagi bog‘lanishni tahlil qilish;

Shoir ijodiga oid onlayn viktorinalar tashkil etish.

Bunday usullar o‘quvchini faol ishtirok etishga undaydi va refleksiya jarayonini kuchaytiradi.

Wordwall platformasidan namuna:



Abdulla Oripov ijodini o‘rganishda loyiha asosidagi ta’lim samarali natija beradi. O‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, quyidagi mavzularda raqamli loyiha tayyorlashlari mumkin;

“Abdulla Oripov – milliy g‘urur kuychisi”;

Shoir she’rlari asosida videorolik yaratish;


Eng ta’sirli misralar bo‘yicha onlayn taqdimot.

Bu jarayonda o‘quvchilarning ijodkorlik, tahliliy fikrlash va axborot bilan ishlash kompetensiyalari shakllanadi.

Abdulla Oripov ijodida sahna asarlari ham talaygina. Sahna asarlariga ishlangan spektakl va dramalarni o‘quvchilarga multimedia vositalari orqali qo‘yilishi o‘quvchida asarni yanada yaxshiroq tushunishga omil bo‘ladi.”Sohibqiron “ dramasi, “Jannatga yo‘l” dramatik fojiasi, “Ranjkom” dramalari uchun spektakllar yaratilgan bo‘lib, mahorat bilan ijro etilgan.

Shuningdek, electron doska yoki onlayn hujjatlar orqali she’r matnini birgalikda tahlil qilish mumkin. O‘quvchilar metafora, epitet, tashbeh kabi badiiy vositalarni ranglar bilan ajratadi va izohlaydi. Hamkorlikda o‘qish jarayoni o‘quvchilarda muloqot madaniyati va jamoaviy ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi. Bundan tashqari Abdulla Oripov asarlari nomiga ishlangan “So‘z top “ o‘yinini elektron doskada qo‘llash o‘quvchida tezkorlik va ziyraklikni oshiradi, shoirning asarlari nomini yodda saqlash imkonini yaratadi.

“So‘z top “o‘yinining Canva platformasidagi namunasidan:



Abdulla Oripov ijodini o‘rganishda raqamli taa’lim texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Multimedia vositalari, interaktiv platformalar va loyiha metodlari adabiyot darslarini samarali, mazmunli va qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi.Natijadadarsning samaradorligi oshadi, o‘quvchilarda mustaqil ta’lim ko‘nikmasi shakllanadi, badiiy tafakkur va estetik did boyiydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev Qozoqboy, Qodirov Valijon, Yo‘ldoshbekov Jalolbek Adabiyot. 9-sinf uchun darslik. Abdulla Oripov she’riyati. Toshkent:. “O‘zbekiston” NMIU -2019
2. Adabiyot 5-sinf (I, II qism) darslik. Q.B.Yo‘ldoshev., O.O.Olimjonov., N.N.Yusufjonova., S.I.Qambarova., D.B.To‘xliyeva; muharrir X.A.Ibrohimov. – Toshkent:Novda Edutainment, 2024.
3. Raupova Orasta Ikrom qizi “Shoir she’rlarining o‘ziga xos xususiyatlari” maqola. Science and innovation international scientific journal - 2022
4. Sharafiddinov O. She’riyat – qalb yolqini. „Hayot bilan hamnafas“ kitobida. Toshkent.
Adabiyot va san’at nashriyoti. 1984.
5. Karimov N. va boshqalar. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. -T.: „O‘qituvchi“, 1999.
6. Qo‘shjonov M., Suvon M.. Abdulla Oripov. Toshkent: „Ma’naviyat“, 2000
7. To‘xta Boboyev. "Adabiyotshunoslikka kirish asoslari", 41-bet.

ABDULLA ORIPOVNING O‘ZBEK ADABIYOTI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI: FALSAFIY VA AXLOQIY MOTIVLAR

Abdullayeva Surayyo Hasanboy qizi
Farg‘ona davlat universiteti Filologiya fakulteti filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘lishi talabasi
surayyo.abdullayeva.007.@gmail.com
+998911146160

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Abdulla Oripov ijodining o‘zbek adabiyoti rivojidagi o‘rni tahlil qilinadi. Unda shoir asarlaridagi falsafiy va axloqiy motivlarning badiiy talqini yoritilgan. Shuningdek, uning she’riyatida inson, hayot, vatan va ma’naviyat masalalarining ifodalanishi ochib beriladi. Maqola Abdulla Oripov ijodining tarbiyaviy va estetik ahamiyatini asoslashga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar:*Abdulla Oripov, o‘zbek adabiyoti, she’riyat, falsafiy motivlar, axloqiy g‘oyalar, vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy qadriyatlar, ma’naviyat*

Аннотация. *В данной статье анализируется вклад Абдулла Орипов в развитие узбекской литературы. Рассматриваются философские и нравственные мотивы в его творчестве и их художественное выражение. Также раскрывается отражение тем человека, жизни, Родины и духовности в поэзии поэта. Статья направлена на обоснование воспитательного и эстетического значения его произведений.*

Ключевые слова*: Абдулла Орипов, узбекская литература, поэзия, философские мотивы, нравственные идеи, патриотизм, гуманизм, национальные ценности, духовность*

Annotation.*This article analyzes the contribution of Abdulla Oripov to the development of Uzbek literature. It examines the philosophical and moral motifs in his works and their artistic interpretation. The study also reveals the representation of themes such as human life, homeland, and spirituality in his poetry. The article aims to highlight the educational and aesthetic significance of his творчество.*

Keywords*: Abdulla Oripov, Uzbek literature, poetry, philosophical motifs, moral values, patriotism, humanism, national values, spirituality*

O‘zbek adabiyoti taraqqiyotida XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida ijod qilgan ijodkorlar orasida Abdulla Oripov alohida o‘rin egallaydi. U nafaqat iste’dodli shoir, balki millat ruhiyatini, insoniy qadriyatlarni va zamon muammolarini chuqur anglab, ularni badiiy talqin etgan yirik adibdir.

Abdulla Oripov 1941-yilning 21-martida, ya’ni Yilboshi bayrami kuni Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi Neko‘z qishlog‘ida tug‘ildi. Qishloq Qo‘ng‘irtov etagiga o‘rnashgan bo‘lib, oqar suv taqchil bo‘lsa-da, seryomg‘ir kelgan yillarda ko‘kat-u maysalarga ko‘milib qoladigan kengish joy edi. Bu haqda shoirning o‘zi: “Ayniqsa, bahor paytlarida bu yerlarga yog‘in ko‘p tushar, Qo‘ng‘irtov etaklari ming xil o‘t-o‘lan, chuchmoma-yu qizg‘aldoqlar bilan,

quyonto‘pig‘-u ismaloq bilan, karrag-u hazorisfand bilan, qo‘zigullar bilan qoplanar, atrof-tevarak jannatiy bir manzara kasb etardi. Sel suvlari to‘planib qolgan kichik-kichik ko‘llarni “qoq” deyishardi. Uning toza suvini odamlar tashib ichishar, bola-baqra chuchmomay-u ismaloq, zamburug‘ terib, Qo‘ng‘irtov etaklarida kunlarini kech qilar edi”, — deb yozadi.

O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov o‘zbek she’riyatiga falsafiy teranlik, yuksak badiiy tafakkur va milliy ruhni olib kirib, adabiyotni yangi bosqichga olib chiqdi.

Abdulla Oripov she’riyati o‘ziga xos badiiy-estetik qarashlar bilan ajralib turadi. U ijodda oddiylik va chuqurlikni uyg‘unlashtira olgan shoirlardan biridir. Uning asarlarida milliy ruh va xalqona ohang, inson qalbining ichki kechinmalari, hayotning falsafiy talqini, axloqiy poklik va halollik g‘oyalari kabi jihatlar muhim o‘rin tutadi.

Abdulla Oripovning ijodi "Mitti yulduz", "Yurtim shamoli", "Hayrat" kabi to‘plamlar, "Sohibqiron" dramasi hamda O‘zbekiston madhiyasi matni orqali vatanparvarlik va inson qalbini yuksak pardalarda tarannum etdi.Shoirning ko‘plab she’rlarida Vatan tuyg‘usi, ona yurtga muhabbat, milliy tarix va madaniy merosga hurmat baland ovozda yangraydi. “O‘zbekiston”, “Ona yurt”, “Turkiston”, “Men nechun sevaman O‘zbekistonni” kabi she’rlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi. U o‘zbek xalqining boy tarixi, uning mashhur siymolari bilan faxrlanadi va bu tuyg‘ularni o‘quvchi qalbiga singdirishga intiladi. Shoir va jamoat arbobi O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning “Tilla baliqcha”, “Men nechun sevaman O‘zbekistonni” singari dastlabki she’rlari talabalik yillarida yozilgan va o‘zbek she’riyatiga yangi, iste’dodli, o‘ziga xos ovozga ega shirning kirib kelayotganidan darak bergan. Ko‘p o‘tmay, “Mitti yulduz” (1965) ilk she’rlar to‘plamining nashr etilishi she’riyat muxlislarida paydo bo‘lgan shu dastlabki tasavvurning to‘g‘ri ekanligini tasdiqlagan. Shundan keyin shoirning “Ko‘zlarim yo‘lingda” (1966), “Onajon” (1969), “Ruhim”, “O‘zbekiston” (1971), “Xotirot”, “Yurtim shamoli’ (1974), “Yuzma-yuz”, “Hayrat” (1979), “Najot qal’asi” (1981), “Yillar Armoni” (1983), “Haj daftari”, “Munojot” (1992), “Saylanma” (1996), “Dunyo” (1999), “Shoir yuragi” (2003) singari she’riy kitoblari nashr etilgan.[1]

Abdulla Oripov she’riyatining eng muhim jihatlaridan biri — uning falsafiy teranligidir. Shoir inson, hayot, vaqt, o‘lim va abadiyat kabi muhim tushunchalarni chuqur badiiy mushohada orqali yoritadi. Shoir asarlarida vaqt o‘tkinchiligi va hayotning qadriga yetish g‘oyasi ko‘p uchraydi. U insonni umrning har lahzasini qadrlashga, behuda yashamaslikka undaydi. Masalan, uning she’rlarida hayot qisqaligi va insonning bu dunyodagi vazifasi haqida chuqur o‘ylar ifodalanadi. Shoir nazarida hayot — bu sinov, inson esa shu sinovda o‘zini namoyon etuvchi mavjudotdir.

Abdulla Oripov insonni tabiatning ajralmas bir qismi sifatida tasvirlaydi. U inson va borliq o‘rtasidagi uyg‘unlik buzilgan hollarda jamiyatda muammolar yuzaga kelishini ko‘rsatadi. Shoirning falsafiy qarashlarida inson o‘zligini anglash orqali komillikka erishadi. Bu esa tasavvufiy qarashlar bilan hamohangdir. Shoirning ayrim she’rlarida insonning ichki yolg‘izligi, ruhiy iztiroblari tasvirlanadi. Bu motivlar inson ruhiyatining murakkabligini ochib beradi. U

yolg‘izlikni faqat qayg‘u emas, balki o‘zini anglash vositasi sifatida ham talqin qiladi.

Abdulla Oripov ijodida axloqiy masalalar markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Shoir insonni halollik, adolat, vatanparvarlik va mehr-oqibat ruhida tarbiyalashga intiladi. Shoir asarlarida halollik eng oliy insoniy fazilat sifatida ulug‘lanadi. U yolg‘on, ikkiyuzlamachilik va manfaatparastlikni keskin tanqid qiladi. Abdulla Oripov nazarida haqiqiy inson — bu vijdoni pok, qalbi toza va so‘zi rost insondir.

“Abdulla Oripov she’rlaridagi beadad samimiyat, tuyg‘ular chinligi kishini beixtiyor o‘ziga asir qiladi. Shoir she’rlari kayfiyat va hissiyotning yaxlit obrazlaridir. U inson tuyg‘ularini, hissiyotini shu qadar chuqur bilgani va ifoda eta olganidan butun she’r emas, balki ayrim misralarning o‘zidayoq she’rxonda muayyan kayfiyat hosil qiladi”.[2]

Shoir oddiy, xalqona tilda chuqur falsafiy fikrlarni ifodalash orqali yangi badiiy uslub yaratdi. Bu esa she’riyatni keng kitobxonlar ommasiga yaqinlashtirdi.

Abdulla Oripov ijodining eng muhim jihati — falsafiy va axloqiy motivlarning uyg‘unligidir. Falsafiy fikrlar orqali hayot mazmuni ochiladi, axloqiy g‘oyalar orqali inson qanday yashashi kerakligi ko‘rsatiladi. Bu uyg‘unlik shoir ijodiga chuqurlik va ta’sirchanlik bag‘ishlaydi. Natijada uning asarlari nafaqat badiiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo‘ladi.

Abdulla Oripovning badiiy mahoratini o‘rganishda she’riyatining an’anaviy shakllarini zamonaviy ruh bilan uyg‘unlashtirishda katta mahorat ko‘rsatgan. Uning poetik uslubi, til boyligi va obrazlilik san’ati o‘rganishga arziydi.[3] “Abdulla Oripov she’riyatidagi xalq qalbiga yaqinlik, xalq dilidagi quvonch va shodlik, armon va dardlarni topib so‘ylash, insonning rangin tuyg‘ularini rassomona ko‘z bilan ilg‘ab, musiqiy misraalrda ifodalash, uning she’riyatidagi badiiy haqqoniyat uyg‘unligi – shoir she’rlarining takrorlanmas, o‘ziga xos xususiyatlaridandir”.[4]

Abdulla Oripov ijodida avlodlar vorisligi masalasi alohida ahamiyatga ega. U o‘tmish, bugun va kelajakni bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda tasvirlaydi. Shoir ajdodlar merosini ulug‘laydi va uni kelajak avlodga yetkazish zarurligini ta’kidlaydi. Shior fikricha, har bir avlod o‘zidan oldingi avlod merosiga tayanib yashaydi. Bu bog‘liqlik uzilsa, jamiyat taraqqiyoti ham izdan chiqadi. Abdulla Oripov insonni kelajak avlodga oldidagi mas’uliyatini anglashga chaqiradi. U har bir inson o‘zidan keyingi avlodga munosib meros qoldirishi kerakligini ta’kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripov o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri sifatida milliy she’riyat rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. Uning ijodida falsafiy mushohada va axloqiy g‘oyalar uyg‘unlashib, inson ruhiyatining chuqur qatlamlari ochib beriladi. Shoir asarlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, ular yosh avlodni komil inson bo‘lib yetishishga undaydi. Abdulla Oripov ijodi — bu nafaqat she’riyat, balki hayot maktabidir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev Qozoqboy, Qodirov Valijon, Yo‘ldoshbekov Jalolbek. Adabiyot.9-sinf uchun darslik.Abdulla Oripov she’riyati.Toshkent. “O‘zbekiston” NMIU-2019. – B.210.
2. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik.
3. To‘xtamurodova Nafisa Salim qizi. “Abdulla Oripovning ijodiy merosini o‘rganish” maqola.
4. Ruapova Orasta Ikrom qizi. “Shoir she’rlarining o‘ziga xos xususiyatlari” maqola. Science and innovation international scientific journal-2022.

ABDULLA ORIPOV “MAKTABI” VA ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE’RIYATI: TAFAKKUR VA VORISLIK

Asilbekov Izzatilla

Fan va texnologiyalar universiteti Kompyuter injinering yo‘nalishi 1-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: **Nigora Erkinova,** *Fan va texnologiyalar universiteti Pedagogika kafedrasi f. f. f.d.(PhD)dots.v.b*

.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov she’riyatining bugungi yoshlar ijodiga qanchalik ta’sir qilayotgani haqida fikr yuritamiz. Biz shoir asarlarini tahlil qilar ekanmiz, uning she’rlarida faqatgina his-tuyg‘ular emas, balki hayotning murakkab va teran falsafasi borligini yana bir bor his qildik. Abdulla Oripov o‘zbek adabiyotida boshlab bergan “fikrlaydigan she’r” an’anasi bugungi yosh ijodkorlar qalbida qanday aks sado berayotganini o‘z qarashlarimiz orqali yoritishga intildik. Bu izlanishimiz orqali buyuk shoirimizning an’analari yangi avlod ijodida yangicha ranglar bilan davom etayotganini ko‘rsatib berishni maqsad qildik.*

Kalit so‘zlar: *Abdulla Oripov, zamonaviy she’riyat, falsafiy mushohada, fikrlaydigan she’r, yosh ijodkorlar, adabiy an’ana, yangi avlod.*

Аннотация. *В данной статье мы размышляем о том, насколько сильно поэзия Героя Узбекистана Абдуллы Орипова влияет на творчество современной молодежи. Анализируя произведения поэта, мы вновь почувствовали, что в его стихах кроются не только чувства, но и глубокая, сложная жизненная философия. Мы постарались через призму собственных взглядов осветить то, как традиция «мыслящей поэзии», заложенная Абдуллой Ориповым в узбекской литературе, отзывается в сердцах молодых творцов XXI века. Цель нашего исследования показать, что традиции великого поэта продолжают жить и обретают новые краски в творчестве нового поколения.*

Ключевые слова: *Абдулла Орипов, современная поэзия, философское размышление, мыслящая поэзия, молодые творцы, литературная традиция, новое поколение.*

Abstract. *In this article, we reflect on the profound influence of the poetry of Abdulla Oripov, Hero of Uzbekistan, on the work of today’s youth. While analyzing the poet’s works, we once again realized that his poems encompass not just emotions, but a complex and deep philosophy of life. Through our own perspective, we aimed to highlight how the tradition of "intellectual poetry" established by Abdulla Oripov in Uzbek literature resonates in the hearts of young creators in the 21st century. The goal of our research is to demonstrate that the traditions of our great poet continue to thrive and take on new vibrant forms in the work of the new generation.*

Keywords: *Abdulla Oripov, modern poetry, philosophical reflection, intellectual poetry, young creators, literary tradition, new generation.*

XX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek she’riyatida Abdulla Oripov shaxsi va ijodi nafaqat yangi uslub, balki yangi milliy tafakkur algoritmi sifatida namoyon bo‘ldi. Shoir she’riyati o‘zbek xalqining dardini individual kechinmadan umumbashariy falsafa darajasiga ko‘tardi. Abdulla Oripov she’riyatidagi axloqiy mezonlar va inson qadri mavzusi bugun davlatimiz siyosatining ham diqqat markazidadir. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Abdulla Oripov o‘zining betakror ijodi, vatanparvarlik va insonparvarlik tamoyillari bilan o‘zbek adabiyotini yangi bosqichga ko‘targan buyuk shaxsdir. Uning har bir she’ri milliy g‘ururimizni yuksaltirishga xizmat qiladi”[27]. Ushbu fikrlar Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markazining rasmiy manbalarida ham o‘z aksini topgan. Bugun Abdulla Oripov merosini o‘rganish shunchaki xotira tadbiri emas, balki zamonaviy she’riyatning estetik ildizlarini taftish qilishdir. Abdulla Oripov o‘zbek she’riyatiga “o‘ylaydigan she’r” tushunchasini olib kirdi. Bu haqda olimlarimiz ta’kidlaganidek, shoir ijodi o‘zbek ilmi uchun yangi bir estetik mezon bo‘lib xizmat qildi. Zero Abdulla Oripov she’riyatidagi har bir so‘z yuksak mantiqiy silsilaga asoslangan va u o‘quvchini nafaqat hayratga soladi, balki uni chuqur mushohada qilishga majbur etadi[28]. Bu esa biz yangi avlod ijodkorlari uchun haqiqiy tafakkur maktabidir. Darhaqiqat, shoirning lirik qahramoni his qiluvchi emas, balki voqelikning mohiyatini anglashga intiluvchi shaxsdir.

Abdulla Oripovning “Ehtiyoj farzandi” degan asarida bir gap bor, u kishi she’riyatni shunchaki yurakdagi hislarni to‘kib solish emas, balki ruhning intellektual ehtiyoji deb hisoblaydi. Biz bu gap haqida ko‘p o‘yladik. Nazarimizda, hozirgi XXI asr yoshlari ijodida aynan shu narsa yaqqol ko‘rinmoqda. Chunki bugungi yosh shoirlar dardini aytib yig‘lashdan yiroq. Ular ko‘proq o‘sha dardning sababi nima, uning ildizi qayerda degan savollarga mantiqiy javob izlashga harakat qilishyapti.

[27] Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

[28] Abdulla Oripov ijodi va hozirgi adabiy jarayon // Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent: TDO‘TAU, 2021. – [Elektron resurs]. URL: https://tsuull.uz/sites/default/files/abdulla_oripov_konferens_4.pdf

Masalan, shoirning “Munojot” yoki “Ranjkom” kabi asarlarini o‘qisangiz, u yerda faqat bitta odamning kechinmalari emas, balki butun millatning vijdoni bilan bog‘liq katta savollar borligini ko‘rasiz.

Qani ayt, maqsading nimadir sening,
Nega tilkalaysan bag‘rimni, ohang,
Nechun kerak bo‘ldi senga ko‘z yoshim,
Nechun kerak, rubob, senga shuncha g‘am! (A.Oripov. “Munojot”)

Quvonarlisi shundaki, bugungi zamonaviy she’riyatda ham mana shu yo‘l, ya’ni dunyodagi voqealarga shaxsiy javobgarlik bilan qarash hissi yo‘qolmagan. Buni biz yosh shoirlarimizning murakkab ramzlar va qiziqarli falsafiy savollar ustiga qurilgan yangi she’rlarida ko‘rib turibmiz.

Maqola ustida ishlash jarayonida biz adabiy tahlil bilan mantiqiy izchillikni birlashtirishga harakat qildik. Tadqiqotimizda asosan quyidagi metodlarga tayandik.

Avvalo, Abdulla Oripovning mashhur “Tilla baliqcha” she’rini sinchiklab o‘rganib, ulardagi asosiy g‘oyaviy tizimni ajratib oldik. Shuningdek, qiyosiy-tahlil usulidan foydalanib, bu an’analarning hozirgi yosh shoirlar ijodidagi aksini o‘rgandik.

Tuxumdan chiqdi-yu, keltirib uni
Shu loyqa hovuzga tomon otdilar.
Tashlandiq ushoq yeb o‘tadi kuni,
Xoru xas, xazonlar ustin yoptilar.

Dunyoda ko‘rgani shu tor hovuzcha
Va mudroq tollarning achchiq xazoni.
Menga alam qilar, tilla baliqcha
Bir ko‘lmak hovuz deb bilar dunyoni… (A.Oripov.”Tilla baliqcha”)

Mazkur she’rda biz she’rni zamonaviy tafakkur prizmasi orqali tahlil qildik. She’rda shoir ramziy obraz orqali inson fojiasini ko‘rsatib beradi. *Tuxumdan chiqiboq loyqa hovuzga otilgan baliqcha* uchun dunyo faqatgina shu ko‘lmakdan iborat. Bizningcha, shoir bu yerda intellektual cheklanganlik va muhit qurboniga aylangan inson obrazini mahorat bilan chizgan. Zamonaviy yosh ijodkorlar ham aynan mana shu ramziylik an’anasini davom ettirib, insonning o‘z “hovuzi”dan chiqishi, kengroq fikrlashi va dunyoni bor bo‘yicha anglashi lozimligini kuylashmoqda. Abdulla Oripov she’riyatidagi axloqiy mezonlar shunchaki nazariya emas, balki inson huquqlari va qadr-qimmatini ulug‘lovchi yuksak tushunchalardir. Shu o‘rinda Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markazining rasmiy manbalarida ta’kidlanganidek: “Shoir o‘z ijodida inson huquqlarini, uning sha’ni va g‘ururini hamma narsadan baland qo‘ydi. Uning she’rlari insonni o‘z huquqlarini anglashga va o‘zligini tanishga chorlovchi ma’naviy darslikdir”[29].

[29] Inson huquqlari kuychisi // O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markazi rasmiy sayti. – [Elektron resurs]. URL: http://nhrc.uz/oz/news/m7518

Bizningcha, aynan mana shu “huquqiy va ma’naviy uyg‘oqlik” bugungi XXI asr intellektual she’riyatining bosh maqsadiga aylangan.

Taniqli shoir Eshqobil Shukur Abdulla Oripov ijodining ma’naviy ildizlari haqida shunday yozadi: “Abdulla aka o‘z she’rlari bilan xalqning ko‘ngliga kirib bordi. Uning ijodi millatning o‘zligini anglashi va ruhan poklanishi uchun xizmat qiladigan tirik bir olamdir”[30]. Darhaqiqat, aynan shu ruhiy poklanish va mantiqiy uyg‘oqlik bugungi yosh ijodkorlar uchun eng asosiy ijodiy maktab vazifasini o‘tamoqda.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripov yaratgan adabiy olam biz uchun hayotning murakkab sinovlarida yo‘l ko‘rsatuvchi ma’naviy kompasdir. Men, kompyuter texnologiyalari sohasida tahsil olayotgan talaba sifatida, shoir ijodida gajakdor so‘zlarni emas, balki xuddi aniq fanlardagi kabi mustahkam mantiq va inson qadrini ulug‘lovchi yuksak algoritmni ko‘rdim. Shoirning “Tilla baliqcha”sidan tortib, inson huquqlari tarannum etilgan asarlarigacha bo‘lgan ijodiy yo‘li biz kabi yoshlar uchun o‘z qobig‘imizni yorib chiqish va keng dunyoga teran nigoh bilan boqish darsidir. Men uchun bu maqolani yozish shunchaki ilmiy izlanish emas, balki buyuk shoirimiz boshlab bergan “fikrlaydigan she’r” an’anasi yangi avlodning, xususan, biz kabi texnika sohasidagi yoshlarning ham qalbi va tafakkurida yashayotganini isbotlash edi. Zero Abdulla Oripov maktabi mantiq va hayratning, jasorat va imonning mangu birligidir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Abdulla Oripov ijodi va hozirgi adabiy jarayon // Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent: TDO‘TAU, 2021. – URL:
3. Inson huquqlari kuychisi // O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markazi rasmiy sayti. – URL:
4. Shukur E. Qaldirg‘ochning ko‘z yoshlari. “Xurshid Davron kutubxonasi” elektron portali. – URL:
5. Oripov A. Tanlangan asarlar. 4-jildlik. – Toshkent: Sharq, 2012.

ABDULLA ORIPOV IJODIDA RAMZ VA TIMSOLLAR

Xo‘jamberdiyeva Shahnoza Ko‘paysinovna
Namangan davlat pedagogika instituti professori, p.f.d., (DSc)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yirik vakili Abdulla Oripov ijodida ramz va timsollarning badiiy-falsafiy mohiyati tahlil qilingan bo‘lib, shoir she’riyatida Vatan, Ona, Iymon, Yo‘l, Nur, Zulmat, Qalb kabi ramziy obrazlarning g‘oyaviy yuklamasi ochib berilgan. Tadqiqot natijasida Abdulla*

[30] Shukur E. Qaldirg‘ochning ko‘z yoshlari (Shoir haqida yam-yashil qushlar). "Xurshid Davron kutubxonasi" elektron portali. – [Elektron resurs]. URL: https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/eshqobil-shukur-qaldirgochning-koz-yoshlari-shoir-haqida-yam-yashil-qushlar.html

Oripov lirikasida ramz poetik tafakkurning asosiy unsuri ekanligi ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *ramz, timsol, poetika, falsafiy lirika, ma’naviyat, obraz, allegoriya.*

Аннотация. *В данной статье анализируется художественно-философская сущность символов и образов в творчестве Абдуллы Орипова, видного представителя узбекской литературы, и раскрывается идеологическое значение таких символических образов, как Родина, Мать, Вера, Путь, Свет, Тьма и Сердце, в поэзии поэта. В результате исследования научно доказано, что символ является главным элементом поэтической мысли в лирическом творчестве Абдуллы Орипова.*

Ключевые слова: *символ, образность, поэтика, философская лирика, духовность, образ, аллегория.*

Abstract. *This article analyzes the artistic and philosophical essence of symbols and imagery in the work of Abdulla Oripov, a prominent representative of Uzbek literature, and reveals the ideological significance of such symbolic images as Homeland, Mother, Faith, Path, Light, Darkness, and Heart in the poet’s poetry. As a result of the research, it is scientifically proven that the symbol is the main element of poetic thought in the lyrics of Abdulla Oripov.*

Keywords: *symbol, imagery, poetics, philosophical lyrics, spirituality, image, allegory.*

Ramz va timsollar badiiy adabiyotning eng muhim tasvir vositalaridan biridir. Ular orqali ijodkor hayot haqiqatini umumlashtiradi, g‘oyani chuqurlashtiradi va obrazni ko‘p qatlamli ma’noga ega qiladi.

Abdulla Oripov she’riyati o‘zining falsafiy teranligi, ruhiy izlanishlari va ramziy ifodasi bilan ajralib turadi. Shoir ochiq bayon qilish qiyin bo‘lgan ijtimoiy, ma’naviy va diniy masalalarni ko‘pincha ramz orqali ifodalaydi. Ayniqsa, sovet davri mafkuraviy sharoitida ramz badiiy himoya vositasiga aylangan.

Ramz (simvol) – ko‘p ma’noli obraz bo‘lib, konkret tasvir orqali mavhum tushunchani anglatadi. Timsol esa muayyan g‘oyaning badiiy mujassamidir.

Abdulla Oripov poetikasida ramzlar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- falsafiy mazmun tashiydi;
- milliy mentalitet bilan bog‘liq;
- diniy-ma’naviy asosga ega;
- ijtimoiy tanqid vositasi sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, shoirning ramziy tafakkuri sharqona tasavvufiy an’analarga ham yaqin turadi.

Abdulla Oripov ijodida Vatan oddiy geografik hudud emas, balki muqaddas qadriyatdir. U ko‘pincha Ona siymosida tasvirlanadi.

“Sen borsan — men borman, ey ona yurtim”.

Bu misralarda Vatan – mavjudlik timsoli sifatida ifodalangan bo‘lib, shoir uchun Vatan yo‘q bo‘lsa, shaxs ham yo‘q.

Shu o‘rinda shoir she’rlarida Vatan ramzi erkinlik timsoli, tarixiy xotira ifodasi, milliy o‘zlik belgisidir. Mustaqillik yillarida bu timsol yanada yuksak pafos bilan yangraydi.

Abdulla Oripov she’riyatida Ona obrazi ikki ma’noda keladi:

1. Haqiqiy ona;
2. Ramziy Ona – Vatan.

Shoir Ona timsoli orqali shoir mehr, sadoqat, fidoyilik g‘oyalarini ifodalaydi. Shuningdek, Ona obrazi ko‘pincha poklik va ilohiylik bilan uyg‘unlashgan holda ifodalanadi.

Abdulla Oripov ijodining markaziy tushunchalaridan biri – iymon. She’rlaridan birida “Iymonim bor – demak, men tirikman” deydi shoir. Bu satrda iymon biologik hayot emas, balki ma’naviy tiriklik mezoni sifatida talqin qilinadi.

Shoir she’rlaridagi Iymon ramzi ruhiy tayanch, axloqiy mezon, najot yo‘lidir.

Shoir qalbni insonning ichki olami sifatida tasvirlaydi. Qalb – kurash maydoni. Unda ezgulik va yovuzlik to‘qnashadi. Qalb ramzi orqali shoir ichki dramani ochib beradi.

Yo‘l – Abdulla Oripov she’riyatida tez-tez uchraydigan ramz.

Yo‘l timsoli hayot yo‘li, haqiqat sari intilish, ma’naviy kamolot bosqichi hisoblanadi.

Shoir uchun inson doimo izlanishda. Safar – ruhiy o‘sish jarayoni. Bu jihat jihatidan Abdulla Oripov she’riyati jahon falsafiy lirikasiga yaqin turadi.

Nur va zulmat qarama-qarshiligi shoir poetikasida muhim o‘rin tutadi.

Nur haqiqat, iymon, ilohiy rahmat timsolidir.

Zulmat esa jaholat, adolatsizlik, ma’naviy inqiroz timsolidir. Shoir zulmatni tanqid qiladi, lekin nurga ishonchini yo‘qotmaydi.

“Bir kun kelib zulmat chekinar, nur qolur.”

Bu misralarda optimistik ruh ustun.

Abdulla Oripov tabiat obrazlarini ham ramziy ma’noda qo‘llaydi:

- Daraxt – sabr va bardavomlik;
- Shamol – o‘zgarish;
- Tog‘ – mustahkamlik;
- Qush – erkinlik.

Tabiat orqali shoir inson ruhiyatini ochadi.

Ramz Abdulla Oripov ijodida mafkuraviy bosimdan himoya vositasi, ijtimoiy tanqid shakli, ruhiy mushohada maydoni, estetik go‘zallik omili hisoblanadi.

Shoir ochiq aytish mumkin bo‘lmagan fikrlarni ramz orqali yetkazadi.

Abdulla Oripov ijodida ramz va timsollar poetik tafakkurning asosiy unsuri hisoblanadi. Vatan, Ona, Iymon, Qalb, Yo‘l, Nur va Zulmat kabi obrazlar ko‘p qatlamli ma’noga ega bo‘lib, shoirning falsafiy qarashlarini ifodalaydi.

Ramzlar orqali shoir insonni ma’naviy uyg‘onishga chorlaydi, milliy qadriyatlarni ulug‘laydi hamda adolat va haqiqatni himoya qiladi.

Shunday qilib, Oripov she’riyati ramziy-falsafiy lirikaning yetuk namunasi sifatida o‘zbek adabiyotida alohida o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar**.** – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000.
2. Abdulla Oripov. Saylanma**.** – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2011.
3. Abdulla Oripov. Haj daftari. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1992.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Akademnashr, 2001.
5. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.
6. Yo‘ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
7. Rasulov A. Badiiylik va obraz. – Toshkent: Fan, 1987.
8. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati**.** – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.

ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA ERKINLIK, VATANPARVARLIK VA INSONIYLIK G‘OYALARI: TAHLIL VA QIYOSIY TALQIN

Sattarova Sitora Alibek qizi
Chilonzor tuman 2-son ona tili va adabiyot o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Abdulla Oripov she’riyatining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari uchta muhim asar “Qo‘riqxona” va “Onajon” she’rlari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda mazkur she’rlarning asosiy g‘oyasi, ularning o‘zaro umumiy va farqli jihatlari, shuningdek, bugungi kundagi ijtimoiy hamda tarbiyaviy ahamiyati yoritiladi. Shoir ijodining ramziy tafakkur, vatanparvarlik ruhi va insoniy qadriyatlarga sodiqlik tamoyillari asosida shakllangani ilmiy asosda izohlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Abdulla Oripov, ramziylik, vatanparvarlik, erkinlik, ma’naviyat, tarbiyaviy ahamiyat, qiyosiy tahlil.*

Annotation. *This article analyzes the ideological and artistic features of Abdulla Oripov’s poetry using the example of three important works: "Qu’riqkhona" and "Onajon". The study highlights the main idea of these poems, their common and different aspects, as well as their social and educational significance today. It is scientifically explained that the poet’s work was formed on the basis of symbolic thinking, patriotic spirit and principles of loyalty to human values.*

Keywords: *Abdulla Oripov, symbolism, patriotism, freedom, spirituality, educational significance, comparative analysis.*

Аннотация. *В данной статье анализируются идеологические и художественные особенности поэзии Абдуллы Орипова на примере трех важных произведений: “Курикхона” и “Онажон”. В исследовании освещается основная идея этих стихотворений, их общие и различные аспекты, а также их социальное и воспитательное значение сегодня.*

Научно доказано, что творчество поэта формировалось на основе символического мышления, патриотического духа и принципов верности человеческим ценностям.

Ключевые слова: *Абдулла Орипов, символизм, патриотизм, свобода, духовность, воспитательное значение, сравнительный анализ.*

Abdulla Oripov o‘zbek adabiyotida milliy uyg‘onish ruhini, insoniylik va ma’naviy mustaqillik g‘oyalarini yuksak poetik darajada ifodalagan ijodkorlardan biridir. U 1960–70-yillardan boshlab adabiy jarayonda faol ishtirok etib, she’riyatga yangi ruh, yangi ohang olib kirgan shoir sifatida tanildi. Oripov ijodida milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va inson qadr-qimmatini ulug‘lash markaziy o‘rin egallaydi. Shoirning poetik uslubi sodda va ravon bo‘lishiga qaramay, mazmun jihatidan nihoyatda chuqurdir. U murakkab falsafiy masalalarni balandparvoz iboralar orqali emas, balki xalqona, hayotiy ifoda vositalari bilan yetkazadi. Shu bois uning she’rlari keng kitobxon qatlamiga tushunarli, ammo har bir o‘qishda yangi ma’no qatlamini ochadigan asarlar sirasiga kiradi. Oripov badiiy obraz yaratishda ramziylik va ichki dramatizmga tayanadi. U ko‘pincha oddiy tushunchalarni keng ijtimoiy-falsafiy mazmunga ko‘taradi. Shoir she’rlarida jamiyatning ichki dardi, ma’naviy iztirob, shaxs va davr o‘rtasidagi ziddiyat, insonning o‘zligini izlash jarayoni aks etadi. Biroq bu iztirob umidsizlikka emas, aksincha, ruhiy uyg‘onish va ishonchga olib keladi. Shoir ijodi ayniqsa mustaqillik arafasi va undan keyingi davrda yangicha ma’no kasb etdi. Uning she’rlari milliy g‘urur va istiqlol ruhini mustahkamlashga xizmat qildi. Shu bilan birga, Oripov ijodi bir zamon yoki siyosiy davr bilan cheklanmaydi u insoniyat uchun umumiy bo‘lgan qadriyatlar haqida so‘z yuritadi. Bugungi kunda ham uning she’rlari o‘z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Global madaniy oqimlar kuchaygan, qadriyatlar tizimi o‘zgarayotgan bir davrda Oripov ijodi yosh avlod uchun ma’naviy tayanch vazifasini bajaradi. U insonni o‘z ildizlariga, o‘zligiga va qalb pokligiga qaytishga undaydi. Shu jihatdan Abdulla Oripov she’riyati nafaqat badiiy meros, balki ma’naviy maktab sifatida ham qadrlanadi.

Abdulla Oripovning “Qo‘riqxona” she’rida asosiy poetik markaz “qo‘riqxona” obrazi hisoblanadi. Tashqi ma’noda qo‘riqxona noyob jonivor va o‘simliklar saqlanadigan, ularni xavfdan himoya qiladigan hududdir. Ammo shoir bu tushunchani oddiy tabiiy makon sifatida emas, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy ramz sifatida talqin qiladi. She’rda qo‘riqxona cheklangan makon timsoli. Bu makonda yashovchilar “asraladi”, ular tashqi tahdidlardan himoyalangan. Biroq ayni paytda ular erkin harakat, mustaqil tanlov va tabiiy rivojlanish imkoniyatidan mahrum. Shoir aynan mana shu paradoksni ochib beradi: himoya nomi bilan insonning tabiiy huquqlari cheklanmoqda. Asarning markaziy g‘oyasi xavfsizlik va erkinlik o‘rtasidagi murakkab nisbatni ko‘rsatishdir. Inson xavfsizlikni tanlab, erkinlikdan voz kechsa, u haqiqiy yashash mazmunini yo‘qotishi mumkin. Shoir she’r orqali bevosita savol qo‘ymaydi, ammo butun poetik tuzilma o‘quvchini shunday mushohadaga olib keladi. Inson uchun muhimroq narsa nima tinch, ammo chegaralangan hayotmi yoki xavf-xatarli bo‘lsa-da, erkin hayotmi? Ramziy tafakkur nuqtai nazaridan qaraganda, qo‘riqxona jamiyatning yopiq tizimi ham

bo‘lishi mumkin. Bunday tizimda fikrlar saralanadi, g‘oyalar filtrlab o‘tkaziladi, “zararsiz” shaklga keltiriladi. Natijada inson tashqi tomondan osoyishta muhitda yashayotgandek ko‘rinsa-da, ichki mustaqillikdan uzoqlashadi. Shoir aynan shu ichki cheklanishni badiiy yo‘l bilan fosh qiladi. She’rning yana bir muhim jihati shundaki, qo‘riqxona tashqi kuch tomonidan yaratilgan makon sifatida tasvirlansa-da, u ba’zan insonning o‘zi tomonidan ham quriladi. Inson qo‘rquv, shubha yoki ijtimoiy bosim sababli o‘ziga ichki “devor” o‘rnatadi. Bu ruhiy qo‘riqxona ko‘rinmas bo‘lsa-da, uning ta’siri kuchli. Bugungi kunda “Qo‘riqxona” she’rini yanada kengroq kontekstda o‘qish mumkin. Axborot asrida inson cheksiz ma’lumot oqimi ichida yashaydi. Ammo bu erkinlik ham nisbiydir. Ijtimoiy tarmoqlar algoritmlari inson ko‘radigan, o‘qiydigan va eshitadigan axborotni saralaydi. Natijada odam faqat o‘z qarashlariga mos fikrlarni qabul qiladi. Bu zamonaviy “axborot qo‘riqxonasi”. Shuningdek, ijtimoiy stereotiplar ham shaxsiy erkinlikni cheklaydi. Masalan, yoshlar ba’zan o‘z qiziqishlari yoki kasb tanlovini jamiyat kutgan “obro‘li” yo‘nalishlar bilan almashtiradi. Ular xavfsiz va ma’qullangan yo‘lni tanlaydi, ammo ichki istagini chetga suradi. Bu ham “himoyalangan”, biroq cheklangan hayot shaklidir. Ruhiy jihatdan ham inson ko‘pincha o‘zini “qo‘riqxona”ga joylashtiradi: tanqid qilinishdan qo‘rqadi, muvaffaqiyatsizlikdan xavotirlanadi, yangi fikr bildirishdan tortinadi. Shoir tasvirlagan ramz bugungi kunda shunday psixologik holatlar bilan uyg‘unlashadi. “Qo‘riqxona” she’rining tarbiyaviy qiymati aynan shu falsafiy qatlamida namoyon bo‘ladi. Asar o‘quvchini tayyor xulosaga emas, mustaqil fikrga chorlaydi. U quyidagi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi:

- ✓ ichki erkinlikni qadrlash;
- ✓ mustaqil qaror qabul qilish;
- ✓ ijtimoiy bosimga tanqidiy yondashish;
- ✓ xavfsizlik va erkinlik o‘rtasidagi muvozanatni anglash.

She’r yosh avlodga shuni anglatadiki, haqiqiy taraqqiyot erkin tafakkurdan boshlanadi. Himoya zarur, ammo u insonning tabiiy rivojlanishini to‘xtatmasligi kerak.

“Onajon” she’ri shoir lirikasining eng samimiy, ichki kechinmalarga boy namunalaridan biridir. Agar uning ayrim asarlarida ijtimoiy-falsafiy mushohada, tarixiy xotira yoki milliy g‘urur ustuvor bo‘lsa, “Onajon”da inson qalbining eng nozik, eng pok tuyg‘ulari markazga chiqadi. Bu she’rda shoir ona siymosi orqali insoniylikning asl mezonini ko‘rsatadi. She’rning asosiy g‘oyasi — ona timsoli orqali ma’naviy poklik, sabr va fidoyilikni ulug‘lashdir. Oripov onani shunchaki mehribon inson sifatida emas, balki hayotiy kuch manbai sifatida tasvirlaydi. Ona farzandning ilk maktabi, uning qalbiga ezgulik urug‘ini qadovchi zot.

Shoirning poetik talqinida ona siymosi quyidagi ma’nolarni mujassam etadi:

- **Sabr va matonat timsoli** - ona har qanday og‘irlikni sukut bilan ko‘taradi;
- **Mehr va kechirim manbai** - u farzandining xatolarini ham muhabbat bilan qabul qiladi;
- **Ma’naviy tayanch** - inson qanchalik ulg‘aymasin, ona duosi uning ruhiy suyanchidir.

Bu yerda shoir onani faqat oilaviy qadriyat darajasida emas, balki milliy ruh darajasida ko‘rsatadi. Chunki o‘zbek mentalitetida ona tushunchasi Vatan, tuproq va muqaddaslik bilan uyg‘unlashadi. Shu bois “Onajon” she’rida shaxsiy tuyg‘u umumxalq qadriyatiga aylanadi.

“Qo‘riqxona”da ramziy ogohlantirish, “Onajon” she’rida lirizm kuchli. Bu asarda ohang sokin, samimiy va ichki iztirobga boy. Shoir onaning qadrini anglash jarayonini ichki monolog tarzida ifodalaydi.

Ko‘pincha inson onaning mehnati va mehrini vaqt o‘tgach chuqurroq anglaydi. She’rda ham shu kechikkan anglash, minnatdorlik va sog‘inch ohangi seziladi. Bu esa asarga yanada hayotiylik bag‘ishlaydi. Agar uch asarni qiyosiy ko‘rsak, ular shoir tafakkurining uch asosiy qirrasini namoyon qiladi:

Erkinlik uchun iztirob “Qo‘riqxona”da insonning ijtimoiy va ruhiy cheklanishi;

Ona uchun muhabbat “Onajon”da shaxsiy va ma’naviy sadoqat.

Bu uchlik bir-birini to‘ldiradi. Chunki erkinlikni anglash uchun inson ma’naviy tayanchga ega bo‘lishi kerak; Vatan muhabbati esa oilaviy qadriyatlardan boshlanadi. Ona siymosi shoir dunyoqarashining markaziy nuqtalaridan biridir. Bugungi kunda individualizm, shaxsiy manfaat va tezkor hayot tarzi ustuvor bo‘lib bormoqda. Ko‘plab yoshlar ta’lim yoki ish sababli oiladan uzoqda yashaydi. Virtual muloqot real yaqinlik o‘rnini egallay boshlagan bir paytda “Onajon” she’ri insonni ildizlariga qaytaradi. Masalan:

Ish yoki martaba ortidan quvib, ota-onaga vaqt ajratmaslik;

Keksaygan ota-onaning yolg‘izlik muammosi;

Oilaviy qadriyatlarning zaiflashuvi.

Shunday sharoitda she’r farzandlik burchini eslatadi. U shunchaki hissiy asar emas, balki ma’naviy ogohlantirishdir: inson kim bo‘lishidan qat’i nazar, onaga nisbatan mas’uliyatini unutmasligi kerak. “Onajon” she’ri ta’lim va tarbiya jarayonida katta pedagogik imkoniyatlarga ega. U:

farzandlik burchini anglatadi;

mehr-oqibat va sadoqat tuyg‘ularini shakllantiradi;

insoniylikni eng oliy qadriyat sifatida ko‘rsatadi;

yosh avlodda minnatdorlik hissini uyg‘otadi.

Ayniqsa, maktab va oliy ta’lim muassasalarida mazkur she’rni tahlil qilish orqali o‘quvchilarda nafaqat adabiy tafakkur, balki ma’naviy sezgirlik ham rivojlanadi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinadiki, Abdulla Oripov she’riyati o‘zbek adabiyotida erkinlik, insoniylik va ma’naviy poklik g‘oyalarini bir butun tizim sifatida ifoda etadi. “Qo‘riqxona” va “Onajon” she’rlari misolida shoir tafakkurining ikki muhim qirrasi ijtimoiy-falsafiy mushohada va samimiy lirizm uyg‘unligi yaqqol namoyon bo‘ladi. “Qo‘riqxona” she’rida inson erkinligi, ichki mustaqillik va jamiyatdagi cheklov mexanizmlari ramziy obraz orqali ochib beriladi. Shoir xavfsizlik va erkinlik o‘rtasidagi murakkab nisbatni ko‘rsatib, o‘quvchini mustaqil fikrlashga undaydi. Asar bugungi axborot asrida ham o‘z dolzarbligini saqlab, shaxsiy erkinlik, ijtimoiy bosim va ruhiy izolyatsiya muammolarini anglashga yordam beradi. “Onajon” she’rida esa ona siymosi orqali

insoniylik, mehr, sadoqat va ma’naviy tayanch g‘oyalari yuksak badiiy darajada talqin qilinadi. Shoir onani nafaqat oilaviy qadriyat, balki milliy ruh va hayotiy kuch manbai sifatida ko‘rsatadi. Asar yosh avlodda farzandlik burchi, minnatdorlik va mehr-oqibat tuyg‘ularini shakllantirishda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Har ikki she’r qiyosiy tahlilda shuni ko‘rsatadiki, Oripov ijodida erkinlik va ma’naviyat bir-biridan ajralmas tushunchalardir. Inson ichki erkinlikka ega bo‘lmasa, ma’naviy kamolotga erisha olmaydi; ma’naviy tayanchsiz esa erkinlik mazmunini anglay olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oripov A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, turli yillar.
2. Oripov A. Saylanma. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2001.
3. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
5. Yo‘ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
6. Mamajonov S. Hozirgi o‘zbek adabiy jarayoni. – Toshkent: Fan, 2012.

ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA FALSAFIY TAFAKKUR VA HAYOT MAZMUNI

Imomaliyeva Musharrafxon,
Qo‘qon universiteti filologiya kafedrasi dotsenti (PhD)
G‘aniyeva Madinaxon
Qo‘qon universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Abdulla Oripovning o‘zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o‘rni va ijodiy merosining ahamiyati keng yoritiladi. Unda shoir she’riyatida aks etgan Vatan tuyg‘usi, milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy poklik, inson qadr-qimmati hamda istiqlol g‘oyalarining badiiy talqini tahlil qilinadi. Shoirning sodda, ravon va xalqona uslubda yozilgan, chuqur mazmun va falsafiy mushohadalarga boy asarlari o‘zbek she’riyatining rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatgani asoslab beriladi. Shuningdek, uning tarjimonlik faoliyati va jamoatchilikdagi xizmatlari ham alohida e’tirof etilib, uning ijodi milliy adabiyotimizni boyitgan muhim omil sifatida baholanadi.*

Kalit so‘zlar: *Abdulla Oripov, vatan, she’riyat, shoir, adabiy meros, vatanparvarlik, milliy g‘oya, tarjimonlik faoliyati, xalqona uslub, adabiy taraqqiyot, ijodiy an`ana.*

Abstract. *In this article, the role of Abdulla Oripov in the development of Uzbek literature and the importance of his creative heritage are widely covered. It analyzes the feeling of the Motherland, national identity, spiritual purity, human dignity, and the artistic interpretation of independence ideas reflected in the poet’s*

poetry. It is justified that Abdulla Oripov’s works, written in a simple, fluent and popular style, rich in deep content and philosophical observations, had a strong influence on the development of Uzbek poetry. Also, his work as a translator and services to the public are specially recognized, and his work is considered as an important factor that enriched our national literature.

Keywords: *Abdulla Oripov, homeland, poetry, poet, literary heritage, patriotism, national idea, translation activities, folk style, literary development, creative tradition.*

Ulug‘vor bir qudrat bilan
Chayqaladi cho‘ng dengiz.
Qancha og‘ir xarsangtoshlar
Tubda unga cho‘kkan tiz.
Ammo mo‘jaz, nozik giyoh
O‘sha tubsiz o‘lkada.
Ko‘kka o‘sar, ha, dengizni
Ko‘targancha yelkada![31]

Buyuk ijodkor Abdulla Oripovning ushbu “Giyoh” she’ri chuqur falsafiy mazmuni va ramziy tasvirlari bilan ajralib turadi. Shoir tabiat manzaralari orqali inson ruhiyati, sabr-toqati va ichki qudratini mahurat bilan ifodalaydi. Ulkan va shiddatli dengiz fonida mayin, nozik giyoh obrazining tasvirlanishi hayot haqiqatini teran ochib beradi.

Abdulla Oripov 1941-yil 21-martda Qashqadaryo viloyati Koson tumani Neko‘z qishlog‘ida tavallud topgan. 1958-yilda o‘rta maktabni oltin medal bilan tamomlagan Oripov Toshkent Milliy universitetining jurnalistika fakultetiga o‘qishga kirib, uni ham 1963-yilda imtiyozli diplom bilan yakunlaydi. Ma`lumki, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning «Tilla baliqcha», «Men nechun sevaman O‘zbekistonni» singari dastlabki she’rlari talabalik yillarida yozilgan va o‘zbek she’riyatiga yangi, iste’dodli, o‘ziga xos ovozga ega shoirning kirib kelayotganidan darak bergan. Ko‘p o‘tmay, «Mitti yulduz» (1965) ilk she’rlar to‘plamining nashr etilishi she’riyat muxlislarida paydo bo‘lgan shu dastlabki tasavvurning to‘g‘ri ekanligini tasdiqlagan. Shundan keyin shoirning «Ko‘zlarim yo‘lingda» (1966), «Onajon» (1969), «Ruhim», «O‘zbekiston» (1971), «Xotirot», «Yurtim shamoli» (1974), «Yuzma-yuz», «Hayrat» (1979), «Najot qal’asi» (1981), «Yillar armoni» (1983), «haj daftari», «Munojot» (1992), «Saylanma» (1996), «Dunyo» (1999), «Shoir yuragi» (2003) singari she’riy kitoblari nashr etilgan. Shoir ijodidagi ko‘plab she`rlar vatanga muhabbat mavzusida yozilgan. Abdulla Oripov o‘zbek she’riyatiga o‘tgan asrning 60-yillarida sobiq sovet jamiyatida esa boshlagan yangi shabadaning elchisi sifatida kirib keldi. U dastlabki she’rlaridan boshlab milliy she’riyatda yangi poetik tafakkurning qaror topishi yo‘lida ijod qildi, turmushda paydo bo‘la boshlagan yangicha qarashlar, kishilarning ruhiy olamidagi evrilishlar, fikr va xatti-harakat erkinligiga bo‘lgan ehtiyoj Oripov she’rlarining g‘oyaviy mundarijasini belgilab berdi.

[31] Abdulla Oripov. O‘zbekiston vatanim manim she`riy to‘plami. Toshkent, 2024-yil – B, 28

Abdulla Oripov jahon adabiyoti durdona asarlarini o‘zbek kitobxonlariga yetkazishda ham samarali mehnat qildi. U Dante «Ilohiy komediya»sining «Do‘zax» qismini, A. S. Pushkin, N. A.Nekrasov, T. G. Shevchenko, L. Ukrainka, R. Hamzatov, Q. Quliyev va M. Bayjiyev asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qildi. O‘z navbatida, uning asarlari ham rus, ingliz, bolgar, turk, ukrain, turkman, ozarbay-jon kabi ko‘plab xorijiy tillarga tarjima qilingan. 1990-yilda O‘zbekiston Oliy Kengashi, 1995-yilda O‘zbekiston Oliy Majlisi deputatligiga saylandi. Abdulla Oripov Kaliforniya (AQSh) Fan, ta’lim, sanoat va san’at xalkaro akademiyasining haqiqiy a’zosi. Soka universiteti (Yaponiya) professori. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Bosh tahrir hay’ati a’zosi, Hamza nomidagi hamda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofotlari laureati edi.[32]

Abdulla Oripov she’riyatining o‘ziga xos tomonlari haqida so‘z yuritilar ekan, uning she’rlarini xalqqa manzur qilgan xususiyatlaridan biri uning xalqchiligida, ya`ni she`rlarining xalq tilida yozilganligidadir. Shoir o‘z qalbini xalq qalbiga tarjima qiladi, tarjima uchun esa albatta so‘z kerak. Bu so‘z esa xalqning o‘z so‘zi bo‘lmog‘i zarur. Darhaqiqat, hamma shoir ham o‘z ona tilida she’r yozadi. Ammo ayrim yo‘nalishdagi ijodkorlar borki, she’rlari o‘zbek tilida bo‘lsa ham boshqalarning tushunishi qiyin bo‘ladi.[33]

Abdulla Oripovning ilk ijodidan tortib, to umrining oxirigacha yaratgan she’rlarini kuzatsak, ularda shoir shaxsi, ma’naviy-ma’rifiy takomili yilma yil mukammallik kasb etib borganligini ko‘ramiz. Shoirning butun ijodi doimo adabiyotshunoslar, she’rxonlar nigohida bo‘lib keldi. Hali yigitlik yoshidanoq o‘zining shoh asarlarini bitgan. Abdulla Oripovning ijodiy shiddati zarracha bo‘lsa ham pasaymadi. Abdulla Oripovning butun ijodi inson zakosi, uning mo‘jizalarga to‘la iqlimi, ruhiyati, qalbi, yuksakligi va tubanligi qarshisida lol qotgan hayrat talqinlaridir. “Osmondan tushgan har bir meteorit bizga olis va notanish dunyolar haqida xabar va ma`lumot bergani singari ijodkorning har bir asari – xoh u nazm, xoh nasr bo‘lsin – muallifning aql-u tafakkuri, qalb va sezgisi, idroki, orzu-armonlari to‘g‘risida bizni ogoh etadi. U nainki ijodkorning o‘zi, balki u yashab turgan davr haqida ham ma`lumot beradi, taassurotlar uyg‘otadi”, deydi shoirning o‘zi”[34]. Agar shoirning ilk lirikasi namunalarida sevgi, vatan, ona, tabiat, insoniy fazilatlar va qusurlar yonib, jo‘shqin ifodalangan bo‘lsa, she’rdan she’rga, yildan yilga uning donishmandlik sari yuz tutganligini, tafakkuri yanada teranlashganligi ko‘rish mumkin.

Abdulla Oripovning ijodida mehr-oqibat tushunchasi o‘z ijodidagi yetakchi mavzular sirasiga kiradi. Ular haqidagi kechinmalarini o‘quvchiga yetkazish uchun shoir xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tashnalik bilan zo‘r ilhom oladi. Shoirning maqsadi el orasida borgan sari yo‘qolib ketayotgan mehr-oqibatni saqlab qolishga

[32] https://kun.uz/news/2016/11/05/marum-soir-abdulla-oripov-aeti-va-izodi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2016%2F11%2F05%2Fmarum-soir-abdulla-oripov-aeti-va-izodi&ysclid=mmbyp8b2lb335887252

[33] Maqsuda Ergasheva. Abdulla Oripov she’riyatning o‘ziga xos xususiyatlari | Xurshid Davron kutubxonasi (kh-davron.uz)

[34] Turkiy adabiyot durdonalari. Abdulla Oripov. “O‘zbekiston” Toshkent – 2022

dav`at, ezgu intilishdir. Ana shu badiiy-estetik qimmatiga ko‘ra “samoviy mehmon, besh donishmand va farrosh kampir qissasi” ni so‘z san`atining nodir namunalari qatorida sanash mumkin.

Abdulla Oripovning “Tanlangan asarlar” nomli to‘plamiga nazar tashlasak, unda shoirning ta`siri kuchli bo‘lgan she`rlari to‘plangan. Bunda ijodkor farzandlariga va nabiralariga bag‘ishlov tarzda she`rlar yozgan, bundan tashqari vatan, hayot yo‘llari, sog‘inch, ijtimoiy predmetlar kabi mavzulardagi she`rlarni ham ko‘rib o‘tishimiz mumkin. Abdulla Oripov hozirgi paytga mos bo‘lgan, yoshlarga aytilishi kerak bo‘lgan gaplarni o‘z qalamida tartibga solgan she`riga nazar tashlasak:

Nabiram Oybekjonga

Olamning bori shu. Zulmat bilan nur,
Hamda barchasini bunyod etgan Zot.
Qancha haq bo‘lmasin ong-u tafakkur,
Mutloq boshqa ekan yashash va hayot.

Abdulla Oripovning “Yangi avlod” she`rining birinchi to‘rtligida ko‘rinib turibdiki, ijodkor o‘z nabirasiga nimadir demoqchi, nimanidir aytmoqchi. Nafaqat o‘z nabirasiga, balki yangi XXI asr avlodiga qarata aytgan ushbu she`rida aql qanchalik haq bo‘lmasin, hayotni hayot qilish qiyin, ya`ni, inson aqli kuchli bo‘lsa ham, hayotning o‘zi undan murakkabroq demoqchi. Endi ikkinchi to‘rtlik bilan tanishsak:

Boyonni ko‘rganda emaklab har on
Kunini o‘tkazgan qanchalar odam.
Bu qavm do‘st bo‘lmas also, hech qachon,
Ayt-chi, zarurmikan ular senga ham?

Bu yerda shoir maqsadsiz, faqat pul topish kerak deb yashaydigan insonlarni tanqid ostiga oladi. “emaklab” so‘zi bu yerda orqada qolish, rivojlanishdan to‘xtash degani. “Bunaqa insonlar do‘st bo‘lmaydi, ulardan do‘st chiqmaydi, senga shundaylar kerakmi?”- demoqchi shoir o‘quvchiga.

Dovullar umringni sovurdi butun,
Yetmadi bardoshing, sabr-u toqating.
Endi bari birdir kunduz bilan tun,
Endi ortiqchadir qo‘lda soating.

Bu to‘rtlikda vaqt haqida firk yuritilgan. Bunda shoir shunday demoqchi: “Agar inson sabr-toqatli bo‘lmasa, umri tez o‘tib ketaveradi, oxir-oqibat kuni ham tuni ham bir xil bo‘lib, qo‘lidagi soatining ham keragi bo‘lmay qoladi, chunki u vaqtning qadrini yo‘qotib bo‘lgan”.

Qofiya axtarish balki nodarkor,
She`rdan azizroqdir aqcha jarangi.
Lekin tug‘ruqxona degan bir yurt bor,
Uning fuqarosi tamoman yangi.

Bunda shoir aynan yangi avlodga murojaat qiladi. She`rdan qofiya axtarmoqni keragi yo‘q, axir bu tashqi bezak. Tashqi ko‘rinishga qarab emas, ichki olamiga, mazmuniga boq har narsaning degan mazmun hosil bo‘lyapti.

U hali bilmaydi ushbu dunyoni,

Bilmaydi savob ne, nimadir gunoh.
Yumuq ko‘zlarida asrar ziyoni,
Uning istiqbolin qo‘riqlar Iloh.

Bu bandda esa yangi tug‘ilgan chaqaloq nazarda tutilgan. U hali savobni ham, gunohni ham bilmaydi, u beg‘ubor. Hali ochilmagan ko‘zlari poklikka to‘la, uning kelajagini Alloh asrayapti deyilgan.

Shoir, tushkunlikka tushmagin also,
Tirik yurganingga shukur qil, albat.
Eng go‘zal, eng noyob she`ringni ammo
O‘sha, yangi avlod nomiga jo‘nat![35]

Tugallanma qismiga keladigan bo‘lsak, shoir o‘ziga xitob qilyapti va yashayotganingga, senga ruh, jon ato etilganiga shukur qil, noshukurlik qilma hamda bu she`ringni yangi avlodga yetkazgin, ular o‘qishsin, ko‘zlarini ochishsin demoqchi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripovning “Yangi avlod” she’ri chuqur falsafiy mazmunga ega bo‘lgan, hayot, vaqt, inson mas’uliyati va kelajak avlod taqdiri haqida mushohada yurituvchi asardir. Shoir she’r boshidayoq olamning mohiyatini zulmat va nur qarama-qarshiligi orqali ochib beradi. Bu tasvir hayotda yaxshilik va yomonlik, quvonch va tashvish, sinov va muvaffaqiyat doimo yonma-yon yurishini anglatadi. Demak, inson hayotni faqat orzu-havas bilan emas, balki sabr, matonat va ongli tafakkur bilan yengib o‘tishi lozim. Asarda maqsadsiz, faqat kun o‘tkazib yashaydigan kishilar tanqid qilinadi. Shoir bunday hayotni “emaklab yashash”ga qiyoslaydi. Bu o‘xshatish orqali u insonni doimo oldinga intilishga, o‘z ustida ishlashga, jamiyatga foydali bo‘lishga undaydi. Chunki orzusiz va g‘oyasiz umr behuda o‘tadi. Vaqt esa inson qo‘lidagi eng katta boylikdir. Agar u qadrlanmasa, bir lahzada shamoldek uchib ketadi. She’rda umrning dovulga o‘xshatilishi ham hayotning tez o‘tishini, sinovlar esa insonni chiniqtirishini bildiradi. Shoir ijodkorlik masalasiga ham alohida to‘xtaladi. U qofiya, shon-shuhrat yoki moddiy manfaat ortidan quvishni ikkinchi darajali deb hisoblaydi. Asl maqsad – insoniyatga, ayniqsa, kelajak avlodga xizmat qilishdir. Tug‘uruqxona obrazi orqali hayotning davomiyligi, yangi umidlar va yangi orzular timsoli ko‘rsatiladi. Yangi tug‘ilgan bola hali gunoh-savobni bilmaydigan, qalbi pok va beg‘ubor mavjudot sifatida tasvirlanadi. Bu esa kelajakning musaffoligi va umidbaxshligini anglatadi. She’rning yakuniy qismida shoir o‘ziga va barcha ijodkorlarga murojaat qilib, tushkunlikka tushmaslikka, yashayotganiga shukr qilishga va eng go‘zal asarlarni yangi avlodga bag‘ishlashga chaqiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. Toshkent, 2019-yil – B, 139
2. https://kun.uz/news/2016/11/05/marum-soir-abdulla-oripov-aeti-va-izodi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2016%2F11%2F05%2Fmarum-soir-abdulla-oripov-aeti-va-izodi&ysclid=mmbyp8b2lb335887252

[35] Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. Toshkent, 2019-yil – B, 139

3. Maqsuda Ergasheva. Abdulla Oripov she’riyatning o‘ziga xos xususiyatlari | Xurshid Davron kutubxonasi (kh-davron.uz)
4. Turkiy adabiyot durdonalari. Abdulla Oripov. “O‘zbekiston” Toshkent – 2022.
5. Abdulla Oripov. O‘zbekiston vatanim manim she`riy to‘plami. Toshkent, 2024-yil – B, 28.

ABDULLA ORIPOV IJODIDA BADIIY TASVIR VOSITALARI VA FALSAFIY TALQIN

Asqarov Dilmurod Mo‘sajon o‘g‘li
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Tillar kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
***E-mail**: asqarov.dm.94@gmail.com*

Annotatsiya. *Maqolada Abdulla Oripov she’riyatining badiiy-estetik xususiyatlari, xususan, shoir ijodida xalq og‘zaki ijodi an’analari, poetik obrazlar va badiiy tasvir vositalarining qo‘llanishi tahlil qilinadi. Shoir lirikasida milliy ruh, inson va jamiyat munosabatlari, shuningdek, falsafiy umumlashmalar qanday ifodalangani yoritiladi. Xalq og‘zaki ijodining shoir poetik tafakkuriga ko‘rsatgan ta’siri, an’anaviy motivlar va obrazlarning zamonaviy talqini misollar asosida izohlanadi. Shuningdek, ayrim she’rlar tahlili orqali shoirning badiiy uslubi, til boyligi hamda obrazlilik xususiyatlari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *she’riyat, folklor, badiiy tasvir vositalari, poetika, milliy ruh, obrazlilik.*

Аннотация. *В статье анализируются художественно-эстетические особенности поэзии Abdulla Oripov, в частности использование фольклорных традиций, поэтических образов и средств художественной выразительности. Рассматривается отражение национального духа, философских обобщений, а также взаимоотношений человека и общества в лирике поэта. Особое внимание уделяется влиянию устного народного творчества на поэтическое мышление автора и своеобразию его художественного стиля. На основе анализа отдельных стихотворений раскрываются особенности образности и богатства языка поэта.*

Ключевые слова: *поэзия, фольклор, художественные средства, поэтика, национальный дух, образность.*

Abstract. *The article analyzes the artistic and aesthetic features of the poetry of Abdulla Oripov, focusing on the role of folklore traditions, poetic imagery, and expressive literary devices in his works. The study highlights how national spirit, philosophical reflections, and the relationship between human beings and society are reflected in the poet’s lyrics. Particular attention is paid to the influence of oral folk creativity on the poet’s artistic thinking and the*

originality of his poetic style. Through the analysis of selected poems, the richness of language and imagery in his works is revealed.

Keywords: *Abdulla Oripov, poetry, folklore, artistic devices, poetics, national spirit, imagery.*

Ma’lumki, Abdulla Oripov qadim an’analarimizni yaxshi o‘rgangan, ulardan puxta oziqlangan san’atkor. Abdulla Oripovga ma’naviy-ruhiy madad va ilhom bag‘ishlagan manbalar faqat Yassaviy, Navoiy, Bobur yoki Mashrab kabi buyuk daholarning meroslari bilan cheklanmaydi.

“Xalq og‘zaki ijodiga bepisandlik adabiyotdan yiroqlikdir”. [1.74] Bu Abdulla Oripovning qat’iy xulosasi. Chunki, u, birinchidan katta adabiyot dargohiga tomon odim tashlamasdan avval xalq og‘zaki ijodiyotiga nisbatan so‘nmas mehr va zavq paydo qilgan. Ikkinchidan, eng go‘zal va ta’sirli obrazli tasvirlarni bo‘lajak shoir dastlab xalq og‘zaki she’riyatini namunalarida uchratgan. “Onam tabiatan g‘oyat ta’sirchan ayol edi”, - deya xotirlaydi. A.Oripov – o‘choq boshidami, tandir yonidami ish bilan mashg‘ul chog‘larida qadimiy mag‘zun baytlarni takrorlashlari hanuzgacha esimdan chiqmaydi:

Gulira’noning tagida yuvma sochingni, yuvma sochingni,
Shahlo ko‘zingdan to‘kma yoshingni, to‘kma yoshingni
Shahlo ko‘zingdan to‘ksang yoshingni, to‘ksang yoshingni,
Olarman-da ketarman yolg‘iz boshimni, yolg‘iz boshimni. [1.140]

Shoir boshqa bir o‘rinda esa xalq she’riyatiga xos tabiiylik quymalik va obrazlilik xususida so‘zlaydi. [1.231] Folklor asarlarining Abdulla Oripov ijodiyotiga ko‘rsatgan ta’siri va bu ta’sirning shakllarini yoritish maxsus o‘rganishni talab qiladigan mavzu. Biz bu o‘rinda mazkur mavzu uchun material bo‘ladigan “Qasam dara” she’riga to‘xtatish bilan kifoyalanmoqchimiz.

“Qasam dara” sof o‘zbek xarakterini ko‘rsatib berishi bilan ajralib turadi. Undagi har bir misra, har bir fikr, har bir tasvir o‘zbekona. Yanada aniqrog‘i, Abdulla Oripovga bo‘lgan uslubiy o‘ziga xoslikni o‘zida to‘la mujassamlashtirgan. She’rda an’anaviy obraz va tasvir bir qarashda ko‘zga yalt etib tashlanmaydigan. I.Haqqul “Qasam dara” haqida mulohaza yuritarkan, “Balki Abdulla Oripov ham ishq nimaligini, u odam ruhida qanday imkonlar ochishini dastlab xalq og‘zaki ijodiyoti yoki Mahkam momodan eshitgan ertaklaridan anglab olgan” - deb yozadi. [2.134] “Qasam dara” to‘g‘risida so‘zlagan boshqa olimlarning fikrlari ham yuqoridagidek qayd xarakteridadir.

Abdulla Oripov she’riyatining muhim xususiyatlaridan biri – uning **milliy badiiy tafakkur bilan uzviy bog‘liqligidir**. Shoir ijodida xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyot an’analari va zamonaviy poetik qarashlar o‘zaro uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Bu holat ayniqsa obrazlar tizimi, ramziy ifodalar va she’riy intonatsiya orqali yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shoir folklor an’analaridan foydalanishda oddiy takrorlash yo‘lini tanlamaydi, balki ularni yangi badiiy kontekstda talqin qilib, zamonaviy estetik mazmun bilan boyitadi.

Shuningdek, shoir ijodida **inson va koinot, inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar** falsafiy mushohada darajasida yoritiladi. Bunda shoir ko‘pincha insonni olam markazi sifatida talqin qiladi. Inson tabiatidagi ezgulik va yovuzlik,

shafqat va qabohat o‘rtasidagi ziddiyatlar poetik obrazlar orqali ochib beriladi. Bu jihatdan shoirning poetik tafakkuri Sharq mumtoz adabiyoti an’analari bilan hamohang bo‘lib, unda inson ruhiy olamini tahlil qilish muhim o‘rin egallaydi. Shu jihatdan shoir ijodiy qarashlari ma’lum ma’noda Alisher Navoiy va Ahmad Yassaviy singari mutafakkir shoirlarning inson va komillik haqidagi qarashlari bilan ma’naviy uyg‘unlik kasb etadi.

Poetik til va tasvir vositalari ham shoir ijodining muhim ilmiy-tahliliy jihatlaridan biridir. Abdulla Oripov she’riyatida **sifatlash, o‘xshatish, metafora va ramz** kabi badiiy vositalar obrazning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Shoir ko‘pincha tabiat manzaralari orqali inson ruhiy kechinmalarini ifodalaydi. Bu esa poetik nutqda tabiat va inson ruhiyati o‘rtasidagi ichki uyg‘unlikni yuzaga keltiradi. Natijada she’rda tasvirlangan manzara faqat tashqi voqelik emas, balki lirik qahramonning ichki kechinmalarini ham ifodalovchi badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, shoir poetikasida **intonatsion ohang va ritmik tuzilma** ham muhim ahamiyatga ega. Uning she’rlarida xalq qo‘shiqlariga xos ohangdorlik, sodda va tabiiy ritm kuzatiladi. Bu holat shoirning folklor an’analariga tayangan holda zamonaviy she’riy shaklni boyitganligini ko‘rsatadi. Ayniqsa to‘rtliklar, ruboiy va qisqa lirik shakllarda chuqur falsafiy mazmunni mujassamlashtira olishi shoirning poetik mahoratini namoyon etadi.

Ilmiy nuqtai nazardan qaralganda, Abdulla Oripov ijodi **XX asr oxiri – XXI asr boshlaridagi o‘zbek she’riy tafakkurining muhim bosqichlaridan biri** sifatida baholanadi. Shoir milliy adabiy tafakkurda erkinlik g‘oyasi, inson qadr-qimmati va ma’naviy poklik kabi tushunchalarni yangi badiiy talqinda ifodalab, o‘zbek she’riyatining estetik imkoniyatlarini yanada kengaytirgan.

Abdulla Oripov she’riyatining muhim xususiyatlaridan biri uning xalqona ruh, falsafiy mushohada va chuqur badiiy tafakkur uyg‘unligida namoyon bo‘lishidir. Shoir ijodida inson, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar poetik umumlashmalar orqali ifodalanadi. Bu jihat ayniqsa shoirning quyidagi misralarida yaqqol ko‘zga tashlanadi:

Koinot gultoji insondir azal,
Undadir eng oliy tafakkur, amal.
Hatto u tubanlik ichra ham tanho,
Yo falak, ijoding muncha mukammal.

Ushbu misralarda insonning koinotdagi o‘rni yuksak badiiy umumlashma orqali talqin qilingan. Shoir insonni “koinot gultoji” deb atar ekan, uning tafakkuri va faoliyatini mavjudotlar ichida eng oliy darajaga ko‘taradi. Shu bilan birga, inson tabiatidagi qarama-qarshi holatlar — ezgulik va tubanlik, ma’naviyat va zaiflik kabi jihatlar ham nazardan chetda qolmaydi. Bu esa shoir poetikasida inson tabiatining murakkab va ko‘p qirrali ekanini ko‘rsatadi.

Shoir ijodida tabiat tasvirlari ham muhim poetik vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan, quyidagi satrlarda tabiat manzarasi orqali muhitning ruhiy holati tasvirlanadi:

Saraton chog‘i bu zarra shamol yo‘q,

Tutlar kavagida mudrar g‘urraklar.
Nogahon falakka urgan kabi do‘q,
Isiz qotib turar bo‘ychan teraklar.

Bu misralarda tasvirlangan yozning jazirama manzarasi oddiy tasvir emas, balki poetik obraz darajasiga ko‘tarilgan. “Zarra shamol yo‘q” ifodasi muhitdagi sukunat va turg‘unlikni kuchaytirsa, “falakka urgan kabi do‘q” o‘xshatishi orqali daraxtlarning tik va salobatli holati jonli tarzda gavdalanadi. Bunda shoir tabiat manzarasi orqali hayotiy muhitning ruhiy holatini ifodalashga erishadi.

Abdulla Oripov she’riyatida badiiy o‘xshatishlar ham alohida poetik kuchga ega. Masalan, quyidagi misralarda shoir insonning turmush tarzini obrazli qiyos orqali ochib beradi:

Sino aytgan ekan:
Chang bo‘lmasa gar,
Mingga kirardi deb inson bolasi.
Doriga o‘rgangan qovunday qaysar,
Changga ham ko‘nikib qoldik chamasi.

Bu satrlarda shoir hayotiy muammoni kulgili, ammo chuqur ma’noli o‘xshatish orqali ifodalaydi. “Doriga o‘rgangan qovun” obrazi insonning muhitga tez moslashib ketishini obrazli tarzda ko‘rsatadi. Shu orqali shoir insoniyatning turli sharoitlarga ko‘nikib yashash xususiyatini badiiy talqin qiladi.

Yana bir jihat shundaki, shoir lirikasida insoniy tuyg‘ular, ayniqsa ona timsoli alohida samimiyat bilan tasvirlanadi. Masalan:

Iliq tomchilagan yomg‘ir ham hatto
Tuyular onamning ko‘z yoshi bo‘lib.
Onam turganday tepamda go‘yo
Bahorning mehribon quyoshi bo‘lib.

Ushbu misralarda ona timsoli tabiat obrazlari bilan uyg‘unlashtirilgan. Yomg‘ir tomchilari onaning ko‘z yoshiga, bahor quyoshi esa uning mehriga qiyoslanadi. Bunday badiiy qiyoslar shoir lirikasining samimiyligini kuchaytiradi hamda insoniy tuyg‘ularni chuqurroq ifodalashga xizmat qiladi.

Shu tariqa, Abdulla Oripov she’riyatida keltirilgan poetik misollar shoirning badiiy tafakkuri naqadar boy va rang-barang ekanini ko‘rsatadi. Folklor an’analari, obrazli ifoda, falsafiy umumlashmalar va inson ruhiy olamiga chuqur nazar tashlash uning ijodining asosiy estetik mezonlarini tashkil etadi. Natijada shoir she’riyati nafaqat badiiy jozibasi, balki chuqur ma’naviy-falsafiy mazmuni bilan ham o‘zbek adabiyotida alohida o‘rin egallaydi.

Xulosa. Abdulla Oripov o‘zbek she’riyatida milliy ruh, xalqona tafakkur va chuqur falsafiy qarashlarni uyg‘unlashtirgan yirik ijodkorlardan biridir. Uning ijodida xalq og‘zaki ijodi an’analari, qadimiy poetik qarashlar hamda milliy badiiy tafakkur unsurlari o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Shoir folklor manbalaridan nafaqat mazmun, balki obrazlilik, tabiiylik va ifoda kuchi jihatidan ham samarali foydalanib, o‘ziga xos poetik uslubni shakllantirgan.

Shoir she’rlarida inson, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar chuqur falsafiy mazmunda talqin qilinadi. Bunda badiiy tasvir vositalari, ayniqsa o‘xshatish, sifatlash va obrazli ifodalar muhim ahamiyat kasb etib, lirik qahramonning ruhiy holatini hamda hayotiy qarashlarini yorqin ochib berishga xizmat qiladi. Shoir tilining shiradorligi, so‘z tanlashdagi nozik did va obrazlilik uning ijodiga o‘ziga xos badiiy joziba bag‘ishlaydi.

Shuningdek, Abdulla Oripov she’riyati o‘zbek adabiyotida yangi badiiy ohang va estetik qarashlarning shakllanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Uning asarlarida milliy qadriyatlar, insoniy fazilatlar hamda ma’naviy poklik g‘oyalari badiiy umumlashma darajasiga ko‘tarilgan. Shu jihatdan shoir ijodi o‘zbek she’riyatining rivojida muhim o‘rin egallab, milliy badiiy tafakkurning boyishiga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулла Орипов. Танланган асарлар. 1 том. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2000. – 384 б.
2. Иброҳим Ҳаққул. Бадиий сўз шукуҳи. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1987. – 134-б.

АБДУЛЛА АРИПОВ: МОЙ ОПЫТ ПРОЧТЕНИЯ

Ахмедов Исмаил Ризаевич
Доктор педагогических наук, профессор кафедры “Языков”
“Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства” Национальный исследовательский университет

Аннотация. *Поэзия Абдуллы Арипова создала новую философско - поэтическую трансформацию, где искренность, исповедальность, открытость, смелость, раскованность - важнейшие атрибуты поэтического сознания. При этом его поэзия развивалась в двух литературных направлениях: реалистическом и романтическом, часто переплетающихся друг с другом.*

Ключевые слова: *гражданская лирика, патриотическое стихотворение, судьбы выдающихся представителей узбекской интеллигенции, «безмолвная толпа», трагические судьбы, сюжет и обрамление портретов героев, слова об узбекской душе.*

Annotatsiya. *Abdulla Aripov she’riyati yangi falsafiy-she’riy transformatsiyani yaratdi, unda samimiylik, e’tiqod, ochiqlik, jasorat, qulaylik - she’riy ongning eng muhim atributlaridir. Shu bilan birga, uning she’riyati ikki adabiy yo‘nalishda rivojlandi: realistik va romantik, ko‘pincha bir-biri bilan bog‘liq.*

Kalit so‘zlar: *fuqarolik lirikasi, vatanparvarlik she’ri, o‘zbek ziyolilari taqdiri, «jim olomon», fojiali taqdirlar, qahramonlarning syujeti va portretlari, o‘zbek ruhi haqidagi so‘zlar.*

Abstract. *The poetry of Abdullah Aripov created a new philosophical and poetic transformation, where sincerity, confession, openness, courage, looseness are the most important attributes of poetic consciousness. At the same time, his poetry developed in two literary directions: realistic and romantic, often intertwined with each other.*

Key words: *civic lyrics, patriotic poem, fates of prominent representatives of the Uzbek intelligentsia, "silent crowd," tragic fates, plot and framing of portraits of heroes, words about the Uzbek soul.*

Поэзия Абдуллы Арипова создала новую философско - поэтическую трансформацию, где искренность, исповедальность, открытость, смелость, раскованность - важнейшие атрибуты поэтического сознания. При этом его поэзия развивалась в двух литературных направлениях: реалистическом и романтическом, часто переплетающихся друг с другом.

Личность и творчество узбекского поэта Абдуллы Арипова, бесспорно, можно считать феноменальным явлением переплетающегося ментального многообразия. Поэт не вписываются в полной мере в рамки ни одного литературного течения на рубеже двух веков. Однако его поэзия прочно и навсегда вошла в сознание благодарных читателей как лирика «души и сердца».

Чем можно измерить талант настоящего поэта, великого лирика? Необычайностью поэтического мышления, силой художественного обобщения, умением адекватно отражать жизнь или особенным строем слова? Эти эпитеты вобрал в себя своим творчеством Абдулла Арипов. Будучи еще молодым поэтом, он поражал читателей необычным содержанием своих стихов и замечательной поэтической новизной. Его творчество можно было сравнить с творчеством Данте, один взорвал средневековую схоластику и открыл путь к эпохе Возрождения, ворвался в замкнутое пространство узбекской советской схоластической поэзии, где до его стихов не было примеров нового мышления, кроме стихотворения Эркина Вахидова «Узбегим».

Поэт Кайсын Кулиев писал: «Серьезная мысль и эмоциональность, раскованность и новизна образов, отсутствие докучливого красноречия и пышной лексики — вот что я обнаружил в стихах Арипова. Поэт безошибочно чувствует новизну слова, первозданную свежесть мира». В своем творчестве Абдулла Арипов довольно часто использует простые, «обычное», «бедные» слова, которые раскрывают свои многокрасочные оттенки на фоне более возвышенной и редкой лексики. От этого поэзия становится более глубокой, чувственной и близкой читателю. Она становится мудрой, проникновенной и смелой. Именно о такой поэзии писал А. Т. Твардовский: «Это — благородный лаконизм, немногословная

емкость речи, когда за скупыми строчками стихотворения живет возможность многих тонких подробностей и оттенков».

Поражаешься умению поэта соединить между собой самые простые слова, внедряя в них свежую струю жизни, отчего получается преображающее чудо великой поэзии». Поэт говорит о простых вещах и говорит так, что заставляет читателя задумываться, подмечать необычное в повседневности, не скрывать своих чувств. При чтении поэзии читатель и слушатель сталкиваются с различными ассоциациями. Восприятие читателя настроено на поэтическую волну автора, у читающего возникают те же образы, связи и настроение, что и у поэта. Но люди неодинаковы, а восприятие стихотворения индивидуально и вызывает сугубо личностные ассоциации. Сочетание общего понимания в основе мысли и индивидуального ответвления в частностях составляет важную особенность лирики, проникновенной и значимой. Любое поэтическое произведение Абдуллы Арипова — это всегда обращение как к одному читателю, так и ко всем поколениям. Для поэта важно попытаться передать свое индивидуальное отношение к миру и свое необычное восприятие происходящего. Это роднит его с Исааком Бабелем.

В стихах Абдуллы Арипова поражает его фантазия, пластика образов, необычайность тропов, метафоричность сравнений и суждений. Примеров, подтверждающих это, можно привести много: практически в каждом стихотворении А. Арипова мы наблюдаем это и не перестаем удивляться. В гражданской лирике Абдуллы Арипова особое место занимает небольшое патриотическое стихотворение, связанное с судьбами выдающихся представителей узбекской интеллигенции и отношением к ним узбекского народа, как «безмолвной толпы, толпы, которая безмолвствует»:

Когда повешен был Машраб, скажи, где ты была?
Когда расстрелян был Чулпан, ты сладко ли спала?
Спросила ль ты, когда пропал однажды Кадыри?
Была ль щитом, когда беда пришла в края твои?
Вершил палач неправый суд, но именем твоим.
Он именем твоим свою историю творил.
Ты что? Ты кто? Откуда сил полны твои кнуты?
И зрелищ смутных колдовство зачем так любишь ты?
С бездонной горечью в душе смотрю, как ты слепа.
Когда ж народом станешь ты, безликая толпа?

Сама тональность стихотворения, умение видеть, передать и дать почувствовать нечто необычное, побуждает читателя глубоко переживать и размышлять над судьбами родины.

А вот другая, философская лирическая мысль Арипова:

Не устаю порою повторять
В пословицах народный ум. Он гибок,

Их слушать — значит мудрость постигать.
Им следовать — не совершать ошибок.
Да гибок он...
Вот с пеною у рта
Галдит мужик о верности собачей...
Когда твоя собака — может так,
А ежели чужая - то иначе!

Абдуллу Арипова я считаю автором «громкой лирики тихими словами». В его творчестве посредством «тихих» слов свое выражение находят «громкие» мотивы гражданственности и нравственного возвышения личности над невзгодами бытия, устроенного чиновническим классом. Но воплощены они путем гениального в своей углубленности и сосредоточенности лиризма, характерного только для его творчества.

Абдулла Арипов всегда стремился отражать насущные проблемы своего времени. Обратившись к индивидуальности, конкретной личности, поэт своем отдельном опыте пытался найти свое место, роль и значение в окружающем его мире, найти свою гармонию жизни, чтобы выйти к всеобщим основам природы, родины, семьи. Лирика Арипова продолжила искания всемирной поэзии в области гражданственности и народности. Поэтому творчество А. Арипова является феноменальным, хоть и подготовлено целым поколением литераторов предшествующего периода. Его творчество не замкнулось в рамках какого-то одного направления литературного процесса — оно представляет собой новый тип мировоззрения, который зависит не от законов высокой лирики («искусство для искусства»), а от новых способов воспитания личности, как религиозного преображения от взгляда внутрь себя.

Расцвет его творчества наступил тогда, когда художник стал ориентироваться на развитие традиций национального самосознания, на разработку основ нового мышления, отхода от совкового образа жизни. Ведь советская власть ликвидировала безграмотность узбеков, но не дала свободного мышления, запретила свободу мыслить. Обращение к традициям классики, далекой и близкой, благотворно сказалось в целом на их творчестве. Особенно ярко проявляется это в тех стихах поэта, где он трогательно и, вместе с тем, просто пишет о Родине.

В одном из лучших стихотворений Абдуллы Арипова «Узбекистан» есть строка, проходящая рефреном через все его творчество: «Узбекистан мой, Родина моя». При этом чувство Родины у поэта развито ярко и размашисто.

Мой край родной, я о тебе пою,
Ты для меня — навеки несравненный!
Поэты славят родину свою,
И голос их звучит во всей вселенной.
Летят их песни в дальние края

На серебристых крыльях неустанно,
А мой прекрасный край — земля моя
Она, как быль неспетого дастана!
Но немощно перо мое, друзья,
Узбекистан мой, Родина моя!

Но, размышляя о «прекрасном крае», Абдулла Арипов смело переступает границы малой родины, где родился, где живет. Родиной для него является вся планета. Она разная: богатая и бедная, добрая и злая, любящая и ненавидящая. Ее такой делают люди, устремленные к собственному счастью и благополучию, но видящие свои поиски и труды в разном свете.

Вся поэзия Абдуллы Арипова пронизана жизнеутверждающим оптимизмом. Причем поэт умеет видеть и чувствовать жизнь во всем её многообразии и неоднозначности. Он понимает всю сложность жизни, её противоречия и оттого поэзия его живет, постоянно обновляется, как жизнь природы. Но самой важной остается его любовь к матери - Родине.

Бывает в жизни радость и беда,
О них я тоже в полный голос пел.
Но лишь с тобою сердцем был всегда,
И лишь тебе соврать я не посмел.
Тебя обнять хотел я, но не смог,
Ты, словно небо, как былинка я...
Моя святыня, мой родной чертог,
Отчизна-мать, ты — Родина моя!

Для поэта тема Родины не просто является ведущей, она пронизывает всё его творчество. Проявляется это во всем его сознании, и мы понимаем глубокий философский смысл его стихов, выстраданные и напряженные чувства не только любви, но и несогласия. Они проникают в самые далекие уголки человеческой души и озаряют их ярким светом.

Именно в таких стихах физически ощущается та громкая поэтическая тишина, которую слышишь сердцем. При этом природа для поэта есть близкое и живое чувство. Он сам часть ее, так себя ощущает. А дисгармония жизни обострила ощущение единства человека и природы. Гуманизм лирического героя распространяется на всю природу.

Гуманность сохраните — это дар,
Нам предками оставлен, как наследство.
Храните дружбу лебединых пар
И чистоту души с босого детства...
Когда в лесу пожар, то враз горят
И юный клен, и дуб, что жил два века...
Людские души, как природа-мать
Нуждаются в защите человека!

Восприятие природы оттого оказывается предельно острым, что творчеству поэта присуща восточная страсть. В его поэзии нет абстрактных понятий, и даже отдаленное воспринимаются им сущее чувство.

Большое влияние оказала на творчество Абдуллы Арипова поэзия Гафура Гуляма и Миртемира. Но в его творчестве нет случайных строк, нет заимствований, нет явных влияний.

Творчество Абдуллы Арипова явление уникальное в узбекской литературе. Он – гений лирического слова, где содержание его стихов привлекает яркостью и свежестью поэтического слова, подмеченными жизненными деталями, оригинальным образным толкованием как обыденных явлений, так и содержания народных легенд, песен, пословиц и поговорок. Отсюда и народность его лирики, она основана на мировосприятии поэта, особой тональности его произведений, на всем том, что делает неповторимым и своеобразным его лирику. Поэт часто используют в своем творчестве фольклорные мотивы, образы, которые трактуются им не в привычном традиционном понимании, а парадоксально (ведь ипостась поэта – удивить, поразить). Вот как обыгрывает А. Арипов известную узбекскую пословицу:

Собака лает — караван идет,
Об этом знает издавна народ!
Но ты завидной долей не считай
Всю жизнь идти — и слышать злобный лай.

О теме родины в творчестве Абдуллы Арипова можно говорить долго, отрывками из его произведений, которые так характерны для его творчества:
По жизненному морю мы плывем,
Но каждый, с ветром споря, на корабле своем.
В дни радости и горя к себе стремимся в дом.

Эти гражданские и философские его стихи духовно выстраданы. В них сила и жизнестойкость поэта, его любовь к Отчизне. Что же должно быть характерным для поэтической символики, чтобы всегда быть востребованным и даже необходимым в жизни? Как ответить на этот вопрос и существует ли вообще объективная субстанция, позволяющая не анализировать, а лишь восхищаться? Абдулла Арипов - поэт, чье творчество с годами не только не тускнеет, но и приобретает нечто новое, сверкает иными, более яркими красками. Потому что его творчество сугубо индивидуально, и когда в его лирической мысли проявляется нечто особенное, оно оформлено своеобразно инеожиданно. Наша задача - определить возможные, безусловно, субъективные, предпосылки для столь высокой оценки творчества этого великого поэта. Всё дело в том, что в его творческой судьбе есть внутренняя драма, долгий мучительный поиск, годы проб и неудач. Для А. Арипова творческий и жизненный путь не был усеян лишь розами и всевозможными

регалиями. Однако колоссальное авторское обаяние идет еще от первых стихов. Миртемир, впервые услышав начинающего поэта, был потрясен пластикой его стихов или, их необычной метафоричностью. Миртемир благословил молодого поэта, и вот тогда внутренняя сила и мощное поэтическое обаяние способствовали расцвету его творческого дарования. При кажущейся простоте, произведения поэта можно охарактеризовать как чрезвычайно сильный посыл для перерождения мира.

За кажущейся простотой — искренний образ его самого, многозначительный образ, передающий сильные и глубокие чувства:

У нас нет крыльев, наша ли вина?
И все же мы не чувствуем бессилья.
Что птица?
Совершенней ли она?
Способность мыслить птице не дана.
Не потому ли ей нужнее крылья?

Поэзия Абдуллы Арипова имеет ярко выраженную философскую направленность. Порой поражаешься его умению так емко и глубоко взглянуть в дебри бытия, своеобразно и предельно просто выразить суть изображаемого. При этом поэт, являясь гражданином своей страны, достаточно смело, но не безрассудно, тонко и артистично умеет выразить то, о чем думают и с чем сталкиваются люди в повседневной своей жизни. Приведем еще раз, теперь уже отрывок из стихотворения «Толпе», являющегося, на наш взгляд, одним из наиболее ярких в творчестве поэта:

Тобой творят истории позор,
И пред тобой читают приговор.
И именем твоим вершат дела,
Что могут бренный мир спалить дотла!
Ты почему безмолвна и слепа?
Когда народом станешь ты — толпа?

А вот небольшое стихотворение «Золотая рыбка», наиболее точно выражающее мировоззрение поэта в его творчестве:

Когда икринкой быть чуть-чуть осталось,
Её забросили в наш пруд заросший.
Отбросами кормилась и плескалась
Она в воде несвежей, нехорошей.
Что видела она на глади зыбкой?
Траву и листья, дно с прогнившим илом...
Обидно мне, что золотая рыбка

Прогнивший мир считает целым миром.

В этом, как и во многих других стихах А. Арипова ярко наблюдаема его мироощущение, идущее от народной духовности. Она точна во всем: в ритмике, лексике, осмыслении выдвинутой проблемы, ее отточенности для того, чтобы читатель изумился: «Я тоже так думаю и чувствую, а он преподнес мне мою мысль в прекрасных стихах!». В этом мы видим насущную необходимость для поэта достигнуть своей лирикой сознания тех людей, кто чувствует сердцем. Ими поэт более всего дорожит, любовь к ним ведет и его самого по правильному жизненному пути.

В таких стихах сгусток боли и страданий, гордости и счастья. Простота и в то же время неожиданность мысли, народность философской позиции, глубокое и яркое облечение этой мысли в рифме— это три главные цели для поэтического мира Абдуллы Арипова. Простота слова в его поэзии во всем: в конкретных примерах, в описании природы, в переживаниях лирического героя. Это организует его поэзию, а она уже создает своеобразный, неповторимый поэтический мир.

Abdulla Oripov zamonaviy o‘zbek adabiyotiga yangicha ruh olib kirdi. Inson qalbidagi murakkab ziddiyatlarni o‘ziga xos betakror tasvirlay bildi. Shoirning yodi o‘zining boshqalarga o‘xshamaydigan, ammo jahoniy Navoiy, Cho‘lpon kabi buyuk ajdodlarimiz an’analarining uzviy davomi sifatida shakllandi. Bu bilan o‘zbek she’riyatini yangi bosqichga ko‘tardi. Uning merosi faqatgina yangi kiriyotganlardan iborat emas, balki u yashagan davrning murakkab ziddiyatlari va inson qalbidagi hech kimga ayta olmaydigan iztirob alomatlarini ko‘rsatuvchi bir ko‘zgudir. Shunday ijod namunalarini o‘nlab keltirish mumkin. Avvalo, ilk she’riy to‘plami "Mitti yulduz" nomi bilan chop etildi. Shundan keyin “Ko‘zlarim yo‘lingda” (1966), “Onajon” (1969), “Ruhim” (1971), “O‘zbekiston” (1972), “Hayrat” (1974), “Yurtim shamoli” (1976), “Yuzma-yuz” (1978), “Najot qal’asi” (1980), “Jannatga yo‘l” (1980), “Surat va siyrat” (1981), “Yillar armoni” (1983), “Oltmish yoshli vatanning olti yoshli o‘g‘loni” (1983), “Ehtiyoj farzandi” (1989), “Sen bahorni sog‘inmadingmi”, “Bobo va nabira”, “Qush tili” (1991), “Munojot”, “Muborak haj yo‘llarida”, “Haj daftari, Hikmat sadolari” (1992), “Hikmat sadolari” (1993), “Dunyo” (1995), “Ibodat”, “Sohibqiron”, “Saylanma” (1996), “Savob” (1997), “Bedorlik” (1999), “Mustaqillik qo‘shig‘i” (2000), “Bir qarasam…” (2001), “Shoir yuragi” (2003), “Mehr” (2004), “Ko‘z tumor” (2005), “Men nechun sevaman O‘zbekistonni”, “Birinchi muhabbatim” (2006), “Talosh pallasi”, “Saylanma” (2007), “Ona yanglig‘ yagona”, “Menga xushxabar ayt” (2009), “Istiqlol manzaralari”, “Saylanma” (2011), “Ezgulik”, “Ranglar va ohanglar” (2012), “Tutash dunyolar”, “Yangi she’rlar”, “Sohibqiron” (2015) kabi

oltmishga yaqin to‘plamlari chop etildi. 2000–2013 yillarda “Tanlangan asarlar”ning yetti jildligi bosilib chiqdi. U dostonnavis va dramaturg sifatda ham ma’lum va mashhurdir. Xususan, “Sohibqiron” (1996) she’riy dramasi va “Istiqlol manzaralari” (2011) dostoni shoirning yana bir yangi qirrasini ochishga ko‘rik vazifasini o‘tadi.

Abdulla Oripov ijodiy merosi o‘zbek adabiyotshunosligining eng ko‘p o‘rganilgan mavzularidan biri bo‘lsa-da, uning falsafiy-axloqiy g‘oyalari har bir davr uchun yangicha ma’no kashf etaveradi. Endi esa shoirning ijodini o‘rganib ,izlanishlar olib borgan shaxslarning qarashlarini, zamondosh adiblarning ta’riflarini hamda shoir hayoti bilan bog‘liq fikrlarni tahlil qilamiz: Adabiyotshunos olim Ibrohim G‘afurov Abdulla Oripov she’riyatini tahlil qilar ekan, uning ijodini "milliy ruhning uyg‘onishi" deb baholaydi. Olimning "Hayo — xaloskor" asari shoir lirikasidagi axloqiy me’zonlarni o‘rganishda poydevor vazifasini o‘taydi. Ibrohim G‘afurov shoirning "Munojot" kabi falsafiy asarlarini insonning koinot bilan sirlashishi deb ataydi va shoir she’iyatida "men" tushunchasi faqat bir kishi emas , balki umumbashariyatga tegishli ekanini ta’kidlaydi. Shuningdek, akademik Naim Karimov shoirning hayot yo‘li va ijodini o‘rganishda biografik metodni qo‘llab, shoir shaxsiyatining shakllanishida uning bolalik yillari, tug‘ilib o‘sgan Neko‘z qishlog‘idagi muhitning o‘rnini alohida tilga oladi. Bu fikrga yana bir isbot tariqasida keltirish mumkinki, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov ham shoir tafakkuridagi cheksizlik manbayini aynan u o‘sib-ulg‘aygan kengliklarga bog‘laydi. Odil Yoqubov shoir tug‘ilgan yurtda bo‘lib, kengliklar shovuridan nafas olar ekan, shunday yozadi:“Har gal uning she’rlarini mutolaa qilar ekanman, tafakkuriga o‘sha cheksizliklar cheksizlik bergandek, satrlari sahro quyoshidan nur emgandek va shu satrlar orasidan anvoyi chechaklar hidi ufurib turgandek, kelib mening dimog‘imga urilayotgandek bo‘ladi”. Bu so‘zlar Abdulla Oripov she’riyatidagi falsafiylik shunchaki kitobiy bilimlar emas, balki bepoyon qir-adirlar, quyoshdan va ona tabiatdan olingan quvvat natijasi ekanligini ko‘rsatadi. Shoirni shoir qiladigan asosiy manba uning tug‘ilib o‘sgan yurtiga , o‘sha tuproqdagi milliy va falsafiy ruhga borib taqaladi. Professor Qozoqboy Yo‘ldoshev shoirning badiiy olamini "so‘z sehri" tushunchasi orqali tahlil qiladi. Uning fikricha, Abdulla Oripov she’riyatidagi falsafiylik quruq pand-nasihatdan iborat emas, balki kutilmagan voqealar , tasvirlar orqali kitobxon ongiga singdiriladi. Yo‘ldoshev shoirning "Tilla baliqcha" she’ridagi ko‘lmak va dengiz konfliktini insoniyatning turg‘unlik va taraqqiyot o‘rtasidagi kurashi sifatida talqin etadi. Va bu estetik tafakkur belgisidir. Adabiyotshunos Shuhrat Quronov esa shoir ijodini "obraz va ma’no" munosabatlari nuqtayi nazaridan o‘rganib, Oripov she’riyatida lirik qahramonning ruhiy holati hamisha ijtimoiy muhit bilan ziddiyatda ekanligini ta’kidlaydi. Bu esa shoir asarlaridagi "axloqiy isyon" motivini tushunishimizga yordam beradi. Shoirning tarjimayi holi bilan bog‘liq fikrlar: bu yo‘nalishda Jahongir Boymurodovning ilmiy-publitsistik ma’lumotlari katta ahamiyatga ega. Shoir ilk saboqlarni olgan Koson tumanidagi 44-umumiy o‘rta ta’lim maktabida tashkil etilgan muzey shoirning bolalik davrlari, haqiqiy shoir bo‘lib yetishish muhitini o‘rganishda boy manba bo‘lib xizmat qiladi. Maktab direktor o‘rinbosari Yulduz Hayitovaning ta’kidlashicha, Abdulla Oripov

1948–1956-yillarda aynan ushbu ta’lim maskanida o‘qigan. Muzeyda saqlanayotgan va 1980-yillardan beri yozilib kelinayotgan “Shoir Abdulla Oripov haqida esdaliklar daftari” juda bebaho bo‘lib, unda 1991-yil 4-aprelda atoqli adabiyotshunoslar Ozod Sharafiddinov va Ibrohim G‘afurovlar tomonidan yozib qoldirilgan yozuvlar shoirning naqadar yuksak qadrlanganini ko‘rsatadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, shoir hayoti va ijodi bilan bog‘liq eksponatlarni yig‘ish o‘tgan asrning 80-yillaridayoq boshlangan. Ushbu muzey eksponatlari, ayniqsa, Mahliyo Bobomurodova kabi o‘qituvchilar tomonidan to‘planayotgan suratlar va xotira esdaliklari shoir asarlaridagi falsafiy qarashlar uning bolalik yillaridanoq shakllanib kelganini asoslab beradi.Bundan tashqari, Qarshi shahridagi Abdulla Oripov nomli ijod maktabining tashkil etilishi bilan shoir merosiga yana bir karra e’tirof etildi. Bu ixtisoslashtirilgan maktab-internat shoirning ona yurti markazida tashkil etilgan bo‘lib, bu maktabda yosh avlodning tahsil olishi vorislik an’analarini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Vorislik — bu shunchaki o‘tmishni o‘qish emas, balki Abdulla Oripovdek buyuk siymolarning millatga bo‘lgan sadoqatini o‘z hayot yo‘lida namuna sifatida bilishdir. Shoir o‘zbek she’riyatini yangi bosqichga ko‘tarish bilan birga, kelajak adiblar uchun yuksak estetik va axloqiy me’zonlarni belgilab berdi. Uning asarlaridagi “Tilla baliqcha" she’ridagi ko‘lmakdan ummonga intilish holati bugungi globallashuv davrida yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda eng kuchli ma’naviy quroldir. Koson tumanidagi shoir tahsil olgan maktab hamda Qarshi shahridagi ijod maktabi kabi ilm maskanlari Abdulla Oripov ruhining yoshlar qalbida mangu yashashini ta’minlaydi.

Metodologiya. Muzey materiallaridan foydalanish: Shoir o‘qigan maktabda tashkil etilgan "Abdulla Oripov muzeyi"dagi eksponatlar, ayniqsa, 1987-yildan buyon yuritilayotgan "Esdaliklar daftari"dagi qaydlarni ko‘zdan kechirdim. Suhbat va intervyular: Muzey xodimlari Yulduz Hayitova va Mahliyo Bobomurodovalarning shoir haqidagi fikrlari va muzeyga kelayotgan o‘quvchilarning taassurotlari o‘rganildi.

Tahlil qilish: To‘plangan ma’lumotlar va asarlarni o‘zaro solishtirib, Abdulla Oripov ijodi bugungi yoshlar uchun qanday axloqiy o‘rnak bo‘lishi haqida o‘z fikrlarimni umumiylashtirdim.

Abdulla Oripov ijodi — inson qalbining murakkab ziddiyatlarini o‘zida aks ettirgan ulkan bir ma’naviy xazinadir. Shoirning 1965-yilda nashr etilgan "Mitti yulduz" to‘plamidan boshlab, 2015-yildagi "Sohibqiron" dramasi va so‘nggi she’rlarigacha bo‘lgan 60 ga yaqin to‘plamlari o‘zbek she’riyatining rivojlanish bosqichlarini ko‘rsatib beradi. Shoirning “Ko‘zlarim yo‘lingda” (1966) va “Onajon” (1969) to‘plamlaridagi axloqiy motivlar ,asosan, sadoqat va minnatdorchilik tuyg‘ulari bilan bog‘liq. "Onajon" she’rida shoir insonning dunyoga kelishi va kamol topishida ona siymosini eng oliy axloqiy me’zon sifatida ko‘rsatadi. Bu yerda vorislik tamoyili ham ko‘zga tashlanadi: farzandning onaga bo‘lgan munosabati uning insoniylik darajasini belgilaydi:

Dilda neki jur’atim bor,
Dilda neki hayajon,
Bari, bari senga bo‘lsin,

Senga bo‘lsin, onajon.
Senga bo‘lsin bor hayotim,
Nomim, shonim bir yo‘la.
Xotirangga ushbu she’rni
Yozdi o‘g‘ling Abdulla.

“Najot qal’asi” (1980) va “Surat va siyrat” (1981) asarlarida esa shoir insonning tashqi ko‘rinishi (surati) va uning ichki dunyosi (siyrati) o‘rtasidagi farqni tahlil qiladi. Shoir uchun eng katta fojia — insonning o‘zligidan kechishi, ma’naviy qashshoqlashuvidir. Shoir yoshlarni "siyrat"ni pok saqlashga, ya’ni ichki dunyoni go‘zal qilishga undaydi. Bu g‘oyalar uning “Yillar armoni” (1983) to‘plamida yanada teranlashib, o‘tgan vaqt ichida yo‘l qo‘yilgan axloqiy xatolar uchun pushaymonlik tuyg‘usi orqali ifodalanadi:

Yillar armoni Kimgadir yaxshi gap aytdik, birodar,
Kimdir bir umrga ranjib ham ketdi.
Kun kecha yosh dwerdik o‘zni bir qadar,
Kimdir bir umrga ranjib ham ketdi.
Bugun-chi balog‘at yoshi ham yetdi.
Inson o‘z umrini o‘ylasa ko‘p vaqt,
Qiynaydi o‘zidan o‘tgan qusurlar.
Kimgadir aytilmay qolgan bir rahmat,
Kimdandir so‘ralmay qolgan uzrlar.
Mukammal ko‘rmoqchi bo‘ldik dunyoni,
Yetuk bo‘lolmadik o‘zimiz biroq.

“Jannatga yo‘l” (1980) dostonida vorislik va axloq masalasi falsafiy darajaga ko‘tarilgan. Dostondagi qahramonning jannat ostonasida turib, o‘zining vijdoni oldida hisob berishi — har bir inson uchun darsdir. Bu asar orqali Abdulla Oripov jannatga amallar bilan emas, balki pokiza niyat va xiyonatsiz yashalgan umr bilan kirish mumkinligini isbotlaydi. Tarixiy vorislik masalasi shoirning “Sohibqiron” (1996) dramasi orqali ochib beriladi. Amir Temur obrazi orqali shoir millatning g‘ururi, adolat va imon kabi tushunchalarni yosh avlod ongiga singdiradi. Bu asar shunchaki tarixiy bayon emas, balki ajdodlarimizning yuksak axloqiy mezonlarini bugungi kunda ham davom ettirish kerakligini uqtiruvchi chorlovdir. Odil Yoqubov e’tirof etganidek, Abdulla Oripov tafakkuri u tug‘ilib o‘sgan Neko‘z qishlog‘ining kengliklaridan kuch olgan. “O‘zbekiston” (1972) va “Hayrat” (1974) to‘plamlarida tabiatga bo‘lgan munosabat axloqiy burch darajasiga ko‘tariladi. Shoir uchun vatanni sevish — bu shunchaki quruq gap emas, balki uning har bir giyohini, sahrosidagi quyoshini his qilishdir. Koson tumanidagi 44-maktabda tashkil etilgan muzey eksponatlari, xususan, 1987-yildan buyon yuritilayotgan “Esdaliklar daftari” shoirning xalqchilligini tasdiqlaydi. Muzeyda saqlanayotgan xatlar va suratlar shoirning o‘z ustozlariga bo‘lgan sadoqatini ko‘rsatadi. 1991-yilda Ozod Sharafiddinov va Ibrohim G‘afurov kabi ulug‘ adabiyotshunoslarning ushbu maktabga kelishi ham Abdulla Oripov shaxsiyatidagi o‘sha samimiylik va vorislik ruhini o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan. Shoirning so‘nggi yillarda yozilgan “Munojot”, “Dunyo” (1995) va “Tutash dunyolar” (2015) kabi to‘plamlarida insonning koinot bilan bog‘liqligi, Yaratuvchi

oldidagi mas’uliyati haqidagi falsafiy o‘ylar ustuvorlik qiladi. Abdulla Oripov insonni hamisha ogohlikka, vijdoni bilan yuzma-yuz turishga chaqiradi. 2000–2013-yillarda nashr etilgan yetti jildlik "Tanlangan asarlar" bu ulkan axloqiy va falsafiy yo‘lning natijasidir. Abdulla Oripovning oltmishga yaqin asarlari bir-biri bilan mantiqiy bog‘langan yagona zanjirdir. Bu zanjirning boshi Neko‘z qishlog‘idagi oddiy maktabdan boshlanib, jahon adabiyoti darajasiga ko‘tarilgan. Uning asarlaridagi axloqiy motivlar bugun biz talaba-yoshlar uchun nafaqat adabiyot darsi, balki hayot darsi bo‘lib xizmat qiladi.

Natija.Abdulla Oripovning adabiy merosini tadqiq etish shuni ko‘rsatadiki, uning ijodi nafaqat milliy she’riyatning ko‘lamini kengaytirdi, balki millatning ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda poydevor vazifasini o‘tadi. Shoir she’riyatidagi "Munojot", "Ranjkom", "Hikmatlar" kabi turkumlar inson borlig‘ining mohiyati, hayot va mamot, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi azaliy kurashni falsafiy mushohada darajasiga ko‘tardi. U o‘zbek she’riyatiga intellektualizmni olib kirdi. Oripov asarlari shunchaki his-tuyg‘ular bayoni emas, balki shaxs ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi axloqiy qoidadir. Uning she’rlarida vijdon pokligi, sadoqat va adolat tamoyillari milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan holda taqdim etiladi. Shoir Alisher Navoiy va Bobur an’analarini zamonaviy she’riyat bilan bog‘lovchi ko‘prik vazifasini o‘tadi. Uning ijodida o‘tmish xotirasi va kelajak mas’uliyati birgalikda ustuvorlik qiladi. Bu vorislik yosh avlod uchun milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlik namunasiga aylandi.

Xulosa. Abdulla Oripov ijodining falsafiy-axloqiy asoslari hamda avlodlar vorisligi masalalarini o‘rganish jarayonida olingan xulosalar shu bo‘ldiki , shoir nafaqat XX asrning ikkinchi yarmi, balki yangi davr o‘zbek adabiyotining ajoyib ijodkoridir. Shoir she’riyati "shunchaki tasvirlash" uslubidan "mohiyatni anglash" uslubiga olib o‘tdi. Uning asarlarida koinot va inson, ruh va jism, vaqt va makon, axloq va falsafa munosabatlari tahlil qilinadi. Shoir insonni koinotning kichik bir bo‘lagi emas, balki butun borliqni o‘zida jamlagan murakkab olam sifatida talqin etadi. Bu esa o‘zbek adabiyotida falsafiy lirika janrini yangi bosqichga ko‘tardi. Abdulla Oripov ijodi o‘zining axloqiy g‘oyalari bilan millatni ma’naviat sari yetaklamoqda. Shoirning axloqiy qarashlari negizida vijdon erkinligi, xiyonatga nafrat va insoniy g‘urur yotadi. Ayniqsa, uning dramatik dostonlarida axloq masalasi keskin qo‘yiladi. Bu esa yosh avlodda insoniy sifatlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Shoir ijodida vorislik shunchaki an’anaga ergashish emas, balki tarixiy mas’uliyatni his etishdir. U Navoiy, Bobur, Cho‘lpon kabi siymolar an’analarini bugungi kunning ijtimoiy talablari bilan uyg‘unlashtirdi. Oripov she’riyati orqali o‘tmishning ulug‘vorligi va bugungi kunning muammolari o‘rtasida yoritilgan. Bu kelajak avlod uchun o‘zligini yo‘qotmaslikning vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Abdulla Oripovning o‘zbek adabiyoti rivojiga qo‘shgan eng katta hissasi — bir shaxsga tegishli bo‘lgan tushunchalarni umuminsoniy miqyosga olib chiqqanidir. Uning "O‘zbekiston" qasidasi yoki "Jannatga yo‘l" dostoni kabi asarlarida millat qiyofasi orqali butun insoniyatning orzu-intilishlari aks etgan. Bu esa o‘zbek adabiyotining jahon madaniy makoniga kirib borishini ta’minladi. Maqolada ilgari surilgan natijalar va xulosalar filologiya fakultetlari talabalari uchun "Adabiyotshunoslik", "Milliy g‘oya" fanlarini o‘qitishda nazariy

asos bo‘lishi mumkin. Shoirning falsafiy merosi bugungi globallashuv davrida yoshlar ma’naviyatini yod g‘oyalardan himoya qilishda kuchli qurol vazifasini o‘taydi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Abdulla Oripov ijodiyoti — bu millatning o‘z-o‘zini anglash jarayonidir. Uning ijodi o‘zbek xalqining ma’naviy xazinasi bo‘lib, kelgusi asrlarda ham insoniyatni ezgulikka, tafakkurga va yuksak axloqqa chorlayveradi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boymurodov J. Neko‘z qishlog‘idagi "Abdulla Oripov muzeyi" / “Xalq so‘zi” gazetasi, 2023-yil 21-mart soni.
2. Mahliyo Bobomurodova esdalik suratlari
3. Hayitova Y. Koson tumanidagi 44-maktab "Abdulla Oripov muzeyi" arxiv hujjatlari va "Esdaliklar daftari" qaydlari (1987-1991 yillar).
4. Naim Karimov va boshqalar. 20-asr o‘zbek adabiyoti tarixi: " O‘qituvchi”. 1999
5. Oripov A.Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild.– Toshkent:Adabiyot va san’at. 2000
6. Qozoqboy Yo‘ldoshev. "Yoniq so‘z". Toshkent, 2006-yil.
7. Quronov Sh. Abdulla Oripov lirikasi: obraz va ma’no munosabatlari. Filol. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent: O‘zMU, 2004.
8. Qo‘shjonov M. , Suvini M. Abdulla Oripov. Toshkent. " Ma’naviyat”. 2000
9. Yoqubov O. Ma’naviy boylik sari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1981
10. G‘afurov I. Hayo — xaloskor (Adabiy-tanqidiy maqolalar). – Toshkent: Yosh gvardiya, 1980.
11. [https://sputniknews.uz/20180321/abdulla-oripov-hayoti-va-ijodi-22276444.html]
12. [https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abdulla-oripov-onajon.html]
13. [https://corp.uzairways.com/uz/abdulla-oripov-1941-2016]

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHDAGI BOLALARGA ABDULLA ORIPOV IJODI BILAN TANISHTIRISH ORQALI VATANGA BO‘LGAN MUHABBATNI UYG‘OTISH

Ermatova Mehriniso Bekmuradovna
Navoiy innovatsiyalar universiteti (Surxondaryo kampusi) o‘qituvchisi,
Normamatova Anora Xayrullayevna
Navoiy innovatsiyalar universiteti Surxondaryo kampusi 1-kurs maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni Abdulla Oripov ijodi bilan tanishtirish orqali ularda Vatanga bo‘lgan muhabbat, milliy g‘urur va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish masalalari yoritilgan. Unda shoirning bolalar ruhiyatiga yaqin, sodda va ta’sirchan she’rlari orqali kichik yoshdagi tarbiyalanuvchilarda ona yurtga sadoqat, tabiatga mehr va milliy o‘zlikni anglash tuyg‘ularini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim jarayonida badiiy adabiyotdan samarali foydalanish usullari, innovatsion yondashuvlar hamda tarbiyaviy mashg‘ulotlar namunalariga alohida e’tibor qaratiladi. Maqolada Abdulla Oripov ijodining bolalar ma’naviy kamolotidagi o‘rni ilmiy-pedagogik jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, Abdulla Oripov ijodi, vatanparvarlik, ma’naviy tarbiya, milliy qadriyatlar, badiiy adabiyot, bolalar tarbiyasi.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы формирования любви к Родине, национальной гордости и духовно-нравственных ценностей у детей дошкольного возраста посредством ознакомления с творчеством Abdulla Oripov. Анализируются педагогические возможности использования произведений поэта, близких и понятных детскому восприятию, в развитии у воспитанников чувства патриотизма, уважения к родной земле и национальной идентичности. Особое внимание уделяется эффективным методам применения художественной литературы в системе дошкольного образования, инновационным подходам и примерам воспитательных занятий. В статье научно-педагогически обосновывается значение творчества Абдуллы Орипова в духовном развитии детей.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, творчество Абдуллы Орипова, патриотическое воспитание, духовно-нравственное развитие, национальные ценности, художественная литература.*

Annotation.*This article explores the formation of love for the Motherland, national pride, and moral-spiritual values in preschool children through introducing them to the works of Abdulla Oripov. The pedagogical potential of the poet’s simple and expressive poems, which are accessible to young children, is analyzed in fostering patriotism, respect for the native land, and awareness of*

national identity. Special attention is given to effective methods of using literary works in preschool education, innovative approaches, and examples of educational activities. The article scientifically and pedagogically substantiates the importance of Abdulla Oripov’s творчество in the spiritual development of children.

Keywords: *preschool education, творчество Abdulla Oripov, patriotic education, moral development, national values, literature in early childhood education*.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda Vatanga muhabbat, sadoqat va milliy g‘urur tuyg‘ularini shakllantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda dastlabki ma’naviy-axloqiy tushunchalar shakllanadigan davrda ularning ongiga vatanparvarlik g‘oyalarini singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu bosqichda bola shaxsining asoslari, uning dunyoqarashi va qadriyatlarga munosabati shakllana boshlaydi.

Maktabgacha ta’lim tizimida badiiy adabiyot bolalar qalbiga yo‘l topishning eng samarali vositalaridan biridir. She’r va hikoyalar orqali bolalarda ezgulik, mehr-oqibat, tabiatga muhabbat, ona yurtga sadoqat kabi tuyg‘ular uyg‘otiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov ijodi o‘zining chuqur mazmuni, milliy ruh va vatanparvarlik g‘oyalari bilan alohida ahamiyatga ega. Shoir asarlarida Vatan timsoli ulug‘ va muqaddas tushuncha sifatida talqin etilib, inson qalbida ona zaminga mehr va sadoqat tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Abdulla Oripovning bolalar ruhiyatiga yaqin, sodda va ta’sirchan satrlari maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilar ongiga mos ravishda tushuntirilganda, ularda milliy o‘zlikni anglash, yurtga daxldorlik hissi va faxr tuyg‘usi shakllanadi. Shuningdek, shoir ijodi orqali bolalar nutqi boyiydi, estetik didi rivojlanadi hamda ma’naviy kamolot sari ilk qadamlar qo‘yiladi.

Asosiy qism. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishida ma’naviy-axloqiy tarbiya ustuvor ahamiyatga ega. Bu davrda bolalarda atrof-muhitga, ota-onaga, tabiatga va eng muhimi, Vatanga nisbatan dastlabki munosabatlar paydo bo‘ladi. Vatan tushunchasi dastlab bola ongida oila, bog‘cha, mahalla, ona tiliga muhabbat orqali shakllanadi. Shu sababli tarbiyaviy jarayonda badiiy adabiyotdan, xususan, milliy ruh bilan sug‘orilgan she’riy asarlardan foydalanish muhim metodik vosita hisoblanadi.

O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov ijodi vatanparvarlik, milliy g‘urur, ona tiliga hurmat, tabiatga mehr kabi g‘oyalar bilan boydir. Uning she’rlarida Vatan timsoli ulug‘ va muqaddas qadriyat sifatida talqin qilinadi. Shoirning mashhur asari – O‘zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasi matni ham aynan Abdulla Oripov qalamiga mansub bo‘lib, unda yurt sha’ni, ajdodlar merosi va kelajak avlod mas’uliyati ulug‘lanadi. Madhiyaning mazmunini yosh bolalar ongiga mos tarzda tushuntirish orqali ularda milliy iftixor va yurtga daxldorlik tuyg‘ularini shakllantirish mumkin.

Shoir she’rlarida insonparvarlik, ezgulik va sadoqat yetakchi o‘rinni egallaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun murakkab falsafiy tushunchalarni sodda, obrazli ifodalar orqali yetkazish mumkin. Masalan, Vatan haqidagi

she’rlarni ifodali o‘qish, rasmlar bilan boyitish, sahnalashtirish usullari orqali bolalar qalbida yurtga muhabbat uyg‘otiladi.

Bundan tashqari, she’rlarni yod olish jarayoni bolalarning nutqini rivojlantiradi, xotirasini mustahkamlaydi hamda estetik didini shakllantiradi. Ifodali o‘qish va suhbat metodi orqali tarbiyachi bolalarda mustaqil fikrlash va his-tuyg‘ularni anglash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Maktabgacha ta’lim jarayonida Abdulla Oripov ijodidan foydalanishda quyidagi metodlardan samarali foydalanish mumkin:

Ifodali o‘qish metodi – she’r mazmunini his etish va obrazlarni tasavvur qilishga yordam beradi.

Suhbat va savol-javob metodi – bolalarda mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi.

Rasm chizish va ijodiy faoliyat – she’r mazmunini tasvir orqali mustahkamlash imkonini beradi.

Sahnalashtirish – bolalarda ijtimoiy faollik va jamoada ishlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Shuningdek, mavzuga oid ko‘rgazmali qurollar, milliy ramzlar tasviri, tabiat manzaralaridan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradi. Vatan haqidagi tushunchalarni konkret misollar orqali – bayroq, gerb, madhiyaning mazmuni orqali izohlash bolalar ongiga yaqin va tushunarli bo‘ladi.

Abdulla Oripov ijodini maktabgacha ta’lim jarayoniga integratsiya qilish natijasida bolalarda quyidagi sifatlar shakllanadi:

Vatanga muhabbat va sadoqat;

Milliy qadriyatlarga hurmat;

Ona tiliga mehr;

Estetik did va badiiy tafakkur;

Ijtimoiy faollik va jamoaviylik.

Demak, Abdulla Oripov ijodi maktabgacha ta’lim tizimida nafaqat adabiy-estetik tarbiya vositasi, balki bolalarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantiruvchi muhim ma’naviy manba sifatida xizmat qiladi. Uni maqsadli va tizimli ravishda qo‘llash yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda samarali natijalar beradi.

Xulosa. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda Vatanga muhabbat, milliy g‘urur va ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayonining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bu jarayonda badiiy adabiyot, xususan, Abdulla Oripov ijodi muhim tarbiyaviy vosita sifatida xizmat qiladi. Shoir asarlarida ilgari surilgan vatanparvarlik, ezgulik, sadoqat va milliy qadriyatlarga hurmat g‘oyalari maktabgacha yoshdagi bolalar ongiga sodda va ta’sirchan shaklda yetkazilishi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Abdulla Oripov ijodidan maqsadli va tizimli foydalanish bolalarda Vatan tushunchasini kengroq anglash, ona yurtga daxldorlik hissini shakllantirish hamda milliy o‘zlikni his etish jarayonini samarali qo‘llab-quvvatlaydi. She’rlarni ifodali o‘qish, sahnalashtirish, ijodiy faoliyat va suhbat metodlari orqali bolalarning nutqi rivojlanadi, estetik didi yuksaladi va ma’naviy kamoloti mustahkamlanadi.

Shunday qilib, maktabgacha ta’lim tizimida Abdulla Oripov ijodini keng qo‘llash yosh avlodni milliy ruhda, Vatanga sadoqatli va ma’naviy yetuk shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda metodik qo‘llanmalar yaratish va amaliy tajribalarni boyitish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Oripov. **Tanlangan asarlar**. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2019.
2. Abdulla Oripov. **Haj daftari**. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1992.
3. O‘zbekiston Respublikasi. **Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari**. – Toshkent, 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. **“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi**. – Toshkent, 2018.
5. Karimov I.A. **Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch**. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
6. Musurmonova O. **Ma’naviy tarbiya asoslari**. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
7. Hasanboyeva O. va boshqalar. **Maktabgacha pedagogika**. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

ABDULLA ORIPOV TARJIMONLIK FAOLIYATIDA POETIK TRANSFORMATSIYA VA BADIIY TARJIMA MUAMMOLARI

Artiqova Donoxon
O‘zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar Universiteti Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti talabasi
Ilmiy rahbar: Iriskulova Charos
O‘zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar Universiteti Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti Xorijiy tillar kafedrasi Ingliz tili o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Abdulla Oripovning tarjimonlik faoliyati poetik transformatsiya nazariyasi asosida tahlil qilinadi. Tarjima oddiy matn ko‘chirish emas, balki badiiy ong, estetik tafakkur va milliy mentalitetni uyg‘unlashtirgan parallel ijod jarayoni sifatida talqin qilinadi. Tadqiqot doirasida Dante Alighierining “Ilohiy komediya” asari misol qilib olingan bo‘lib, mazmun, shakl, ritm va ramziy qatlamlarning milliy tafakkur orqali qayta yaratilishi ko‘rib chiqilgan.*

Maqolada tarjimonning ijodiy yondashuvi, ritm va qofiya moslashuvi, diniy terminologiyani milliy kontekstga moslashtirish hamda ramziy qatlamlarni talqin qilishdagi strategiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, Oripovning shaxsiy ijodi va matn bilan dialogi tarjimaning mustaqil badiiy asar darajasiga ko‘tarilganini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Oripov tarjimalari faol poetik transformatsiya, milliy ruhni saqlash va zamonaviy tarjimashunoslik konsepsiyalariga mos keladigan badiiy tarjima namunasidir. Ushbu maqola tarjimonlik maktabi va she’riy tarjima nazariyasini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Abstract

This article analyzes the translation activity of Abdulla Oripov through the lens of poetic transformation theory. Translation is interpreted not as a mere text transfer, but as a parallel creative process integrating artistic consciousness, aesthetic thinking, and national mentality. Within the study, Dante Alighieri’s “Divine Comedy” is taken as a case study, examining how content, form, rhythm, and symbolic layers are recreated through the prism of national consciousness.

The article explores the translator’s creative approach, including rhythm and rhyme adaptation, the cultural contextualization of religious terminology, and the interpretive strategies applied to symbolic layers. It also highlights Oripov’s personal artistic presence and his dialogue with the text, demonstrating how his translations achieve the level of independent literary works.

The analysis shows that Oripov’s translations exemplify active poetic transformation, preserve national spirit, and align with contemporary translation theory. This study contributes to a deeper understanding of the Uzbek translation school and the theoretical frameworks of poetic translation.

Kalit so‘zlar: *poetik transformatsiya, ekvivalentlik, badiiy tafakkur, milliy mentalitet, she’riy tarjima.*

Keywords: *poetic transformation, equivalence, artistic thinking, national mentality, poetic translation.*

Ключевые слова: *поэтическая трансформация, эквивалентность, художественное мышление, национальный менталитет, поэтический перевод.*

Tarjima azaldan madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida baholanadi. Zamonaviy tarjimashunoslikda tarjima jarayoni madaniyatlararo kommunikatsiya shakli sifatida talqin qilinadi (Venuti, 1995). Ammo badiiy tarjima oddiy lingvistik jarayon emas - u estetik va falsafiy hodisadir. Ayniqsa she’riy tarjimada so‘zning tashqi shakli bilan ichki musiqasi o‘rtasidagi uyg‘unlikni saqlash eng murakkab vazifa hisoblanadi (Nida, 1964).

O‘zbek adabiyotida tarjimonlik maktabi shakllanishida ko‘plab ijodkorlar xizmat qilgan. Ammo Abdulla Oripov faoliyatini alohida fenomen sifatida o‘rganish zarur. Chunki u tarjimani ikkilamchi ijod emas, balki mustaqil badiiy jarayon darajasiga olib chiqqan ijodkorlardan biridir.

Adabiyotshunoslikda uzoq vaqt tarjima “kelajakka xizmat qiluvchi matn” sifatida talqin qilinib kelgan. Biroq zamonaviy nazariyalarda tarjima mustaqil estetik hodisa sifatida qaraladi (Venuti, 1995). Oripov tarjimalari ham bu qarashni tasdiqlaydi.

Misol uchun:

Nel mezzo del cammin di nostra vita

mi ritrovai per una selva oscura,

ché la diritta via era smarrita (Alighieri, 1320, Inferno I).

Bu yerda Dante o‘zini “qorong‘i o‘rmon” ichida topadi. O‘rta asr katolik tafakkurida bu gunoh, ma’naviy adashish va najot izlash ramzi hisoblanadi.

Abdulla Oripov tarjimasida mazmun shunday ifodalanadi:

Hayot yo‘limning yarmiga yetganda,

O‘zimni topdim qorong‘i bir dashtda,

To‘g‘ri yo‘l go‘yo mendan yiroqlashgandi (Alighieri, 2008).

“Selva oscura” (qorong‘i o‘rmon) – katolik ramziyatida ruhiy zulmat. Oripov “o‘rmon”ni ba’zan “dasht” yoki umumiy “zulmat makoni” tarzida beradi.

Bu yerda tarjimon katolik mifologiyasini aynan ko‘chirmaydi, balki o‘zbek o‘quvchisiga begona bo‘lmagan metaforik tushuncha orqali yetkazadi.

Shu bilan diniy begonalik yumshatiladi, lekin ramziy qatlam saqlanadi. Bu jarayon dinamik ekvivalentlik va poetik transformatsiya tamoyiliga mos keladi (Nida, 1964).

Poetik transformatsiya deganda, asliyatdagi obraz va ritmning milliy tafakkur orqali qayta tug‘ilishi tushuniladi. G‘arb dunyoqarashida yozilgan asarni tarjima qilish davomida Sharqona ruhga o‘gira olish jarayoni aynan ijodiy ko‘chirish tamoyiliga tayanadi. Roman Jakobson fikricha, she’riy matnni so‘zma-so‘z tarjima qilish imkonsiz bo‘lib, faqat ijodiy transpozitsiya (grammatik strukturalarni o‘zgartirish) orqali qayta yaratish mumkin (Jakobson, 1959). Shu ma’noda tarjimon passiv vositachi emas, balki faol ijodkorga aylanadi.

Hermenevtik yondashuvga ko‘ra, tarjima ikki madaniy “ufq”ning qo‘shilish jarayonidir (Gadamer, 1975). Shu sababli tarjimon asliyatni shunchaki ko‘chirmaydi, balki uni o‘z madaniy tafakkuri bilan uyg‘unlashtiradi. Bu jarayon poetik transformatsiyaning nazariy asosini tashkil etadi.

Ilohiy komediya jahon adabiyotining eng murakkab poetik tizimiga ega asarlaridan biridir. Uning terzina shakli, qat’iy qofiya tizimi va ramziy qatlamlari tarjimondan yuksak mahorat talab qiladi.

Oripov tarjimasida shakliy to‘liqlikdan ko‘ra ruhiy aniqlik ustuvor turadi. Ya’ni u ba’zi hollarda qofiya yoki sintaktik tuzilmani o‘zgartirgan bo‘lsa-da, asarning umumiy poetik ohangini saqlab qolishga erishgan.

Bu yerda uchta asosiy muammo kuzatiladi:

Ritm va vazn muammosi - italyan tilidagi musiqiylikni o‘zbek tilida qayta yaratish.

Diniy terminologiya muammosi - o‘rta asr katolik tasavvurlarini musulmon mentalitetiga begonalashtirmasdan yetkazish.

Ramziy qatlamni talqin qilish muammosi - obrazlarning ko‘p ma’noliligini saqlash.

Oripov bu muammolarni so‘zma-so‘z tarjima orqali emas, balki dinamik ekvivalentlik tamoyiliga tayangan holda hal etadi. Dinamik ekvivalentlik – o‘quvchining madaniy qarashiga mos, semantik jihatdan tushunarli va emotsional jihatdan ta`sirchan variantni yarata olishdir (Nida, 1964).

Tarjimashunoslikda “tarjimonning ko‘rinmasligi” prinsipi mavjud (Venuti, 1995). Ammo Oripov tarjimalarida tarjimon shaxsiyati seziladi. Bu esa kamchilik emas, balki badiiy boylikdir.

Uning she’riy tafakkuri asliyat matni bilan dialogga kirishadi. Natijada ikki ong - Dante va Oripov tafakkuri - yagona poetik makonda uchrashadi. Shu jihatdan qaraganda, Oripov tarjimasi oddiy ko‘chirish emas, balki madaniy sintez mahsulidir.

Tarjimada eng murakkab masalalardan biri - milliy ruhni saqlash. Agar tarjima haddan tashqari milliylashtirilsa, asliyat yo‘qoladi; agar mutlaqo begona shaklda qoldirilsa, o‘quvchi uni qabul qilmaydi.

Zamonaviy tarjima nazariyalarida bu jarayon domestikatsiya va foreignizatsiya strategiyalari orqali izohlanadi (Venuti, 1995). Oripov mazkur ikki strategiya o‘rtasida muvozanatni saqlay olgan tarjimondir.

Bugungi tarjimashunoslik nazariyasida, tarjima - bu madaniyatlararo rekonstruksiya jarayoni sifatida talqin qilinadi (Nida, 1964; Venuti, 1995). Shu ma’noda Oripov faoliyati zamonaviy konsepsiyalarga mos keladi.

U tarjimani mexanik emas, estetik jarayon sifatida ko‘radi. Tarjimon bu yerda muallifga sodiq qolgan holda, o‘z milliy estetik mezonlarini ham ishga soladi.

Abdulla Oripov tarjimon sifatida o‘zbek adabiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Uning Ilohiy komediya tarjimasi poetik transformatsiya namunasidir.

Poetik transformatsiya konsepsiyasi orqali qaralganda, Oripov tarjimalari - bu asliyatning nusxasi emas, balki uning milliy tafakkurdagi qayta tug‘ilishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alighieri, D. (1320). Divina Commedia.
2. Alighieri, D. (2008). Ilohiy komediya (A. Oripov, Trans.). Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
3. Gadamer, H.-G. (1975). Truth and method. Seabury Press.
4. Jakobson, R. (1959). On linguistic aspects of translation. In R. A. Brower (Ed.), On translation (pp. 232–239). Harvard University Press.
5. Nida, E. A. (1964). Toward a science of translating. Brill.
6. Venuti, L. (1995). The translator’s invisibility: A history of translation. Routledge.

ABDULLA ORIPOV IJODIDA "MUNOJAT" VA RUHIYAT TASVIRI: INSONIY DARDNING FALSAFIY TADQIQI

Sabina Xushmurodova
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti Filologiya va tillarni o‘qitish ingliz tili yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar : Lobar Usmonova

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov she’riyatidagi inson ruhiyati tasviri va "Munojat" ohanglarining badiiy funksiyasi tahlil qilinadi. Shoir ijodidagi lirik qahramonning ichki kechinmalari, milliy va umuminsoniy dardning ifodalanishi hamda ilohiy muloqot elementlari adabiy nuqtayi nazardan yoritilgan.*

Kalit so‘zlar*: Abdulla Oripov, Munojat, ruhiyat tasviri, falsafiy lirika, milliy ruh, badiiy mahorat, lirik qahramon, dardi hol.*

Аннотация. *В данной статье анализируется художественное изображение человеческой души и поэтическая функция мотивов «Муножат» (Мольба) в творчестве Героя Узбекистана Абдуллы Орипова. С литературоведческой точки зрения освещаются внутренние переживания лирического героя, выражение национальных и общечеловеческих страданий в поэзии автора, а также элементы божественного диалога.*

Ключевые слова: *Абдулла Орипов, Муножат, изображение психологии, философская лирика, национальный дух, художественное мастерство, лирический герой, исповедь души.*

Abstract *This article analyzes the artistic representation of the human psyche and the poetic function of "Munojat" (Supplication) motifs in the works of the Hero of Uzbekistan, Abdulla Oripov. From a literary perspective, it explores the inner experiences of the lyrical hero, the expression of national and universal grief in the author’s poetry, and the elements of divine dialogue.*

Keywords*: Abdulla Oripov, Munojat, psychological representation, philosophical lyricism, national* spirit, artistic mastery, lyrical hero, spiritual confession.

Kirish. Har bir xalqning milliy o‘zligini anglatuvchi, uning quvonchi va iztiroblarini bor bo‘y-basti bilan ko‘rsatib beruvchi ijodkorlari bo‘ladi. O‘zbek adabiyotida Abdulla Oripov ana shunday ulkan qiyofadir. Uning she’riyati shunchaki so‘z o‘yini emas, balki XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshidagi o‘zbek xalqi ruhiy hayotining yilnomasidir. Ayniqsa, shoir ijodida inson ruhiyatini tasvirlash, uning ilohiy ildizlarini izlash masalasi "Munojat" tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Asosiy qism. Abdulla Oripovning "Munojatni tinglab" she’ri uning ijodidagi burilish nuqtalaridan biri hisoblanadi. Bu she’rda shoir mumtoz kuy — "Munojat" orqali insonning ichki dunyosiga nazar tashlaydi. Lirik qahramon bu kuyni shunchaki musiqa emas, balki "ajdodlar nidosi", "o‘tgan kunlar armonlari" sifatida qabul qiladi.

"Kim qandayin tinglar navoni, Kimgadir u shunchaki bir sas. Kimdir tushunmagay ma’noni, Kimdir olar undan bir nafas."

Bu satrlarda shoir inson ruhiyatini tabaqalarga ajratadi: yuzaki yashayotganlar va ruhning tubiga tushishga qodir bo‘lganlar. Ruhiyat tasviri bu yerda milliy ohang bilan sintezlashib ketadi. 2. Dard – Inson Ruhiyatining Mezoni Sifatida

Abdulla Oripov uchun ruhiyat tasviri faqat quvonch yoki shodlikdan iborat emas. Aksincha, u "dard"ni insonni inson qiluvchi asosiy omil deb biladi. Uning lirik qahramoni doimo iztirobda, lekin bu iztirob tushkunlik emas, balki ma’naviy uyg‘oqlik belgisidir. Shoirning "Inson qalbini o‘rganish"ga bo‘lgan urinishlari uning falsafiy lirikasi mag‘zini tashkil etadi. U ruhni jismdan ustun qo‘yadi va ruhning erkinligi uchun kurashadi.

3. Ilohiy va Dunyoviy Muloqot (Munojat ohanglari)

Shoirning keyingi yillarda yozilgan turkumlari, jumladan, "Hikmatlar" va "Ibodat" mavzusidagi she’rlari klassik munojat an’analariga yaqinlashadi. Bu yerda ruhiyat tasviri yangi bosqichga ko‘tariladi. Shoir o‘zining gunohlari, kamchiliklari va hayotda ko‘rgan-kechirganlari haqida Yaratgan bilan yuzma-yuz turib so‘zlashadi. Bu — "Ruhiy dardi hol" uslubidir. Uning she’rlarida ruhiyatning eng murakkab holatlari — qo‘rquv, umid, tavba va shukronalik bir-biri bilan to‘qnashadi. Abdulla Oripov inson qalbini koinotga qiyoslaydi; undagi har bir o‘zgarish — dunyodagi o‘zgarishlarga teng deb hisoblaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripov ijodida "Munojat" tushunchasi ham aniq bir musiqiy-she’riy asar, ham umumiy falsafiy yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir inson ruhiyatini tasvirlar ekan, uni ijtimoiy qoliplardan chiqarib, sof insoniy va ilohiy haqiqatlarga yaqinlashtiradi. Uning she’riyati bugungi talaba-yoshlar uchun nafaqat adabiy namuna, balki o‘z ichki dunyosini anglash uchun ma’naviy qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Karimov N. va boshqalar. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999. 2.Oripov A. Tanlangan asarlar. 1-jild. She’rlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. 3.Oripov A. Yillar armoni: She’rlar. – Toshkent: Sharq, 2015. 4.Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2016. 5.Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004. 6.Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.

ABDULLA ORIPOVNING DAVLAT MADHIYASI MATNI VA UNDAGI MILLIY-FALSAFIY G‘OYA

Sharipova Mohizarbegim Elmurod qizi
TDSHU talabasi
sharipovamohizarbegim@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Abdulla Oripov tomonidan yaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi matnining badiiy-estetik va falsafiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida madhiyadagi milliy ruh, ramziy birlik, vatanparvarlik konsepsiyasi hamda axloqiy-ma’naviy g‘oyalar lingvopoetik va mazmuniy tahlil usullari asosida o‘rganildi. Muallif tomonidan madhiyaning*

nafaqat tantanavor qo‘shiq, balki milliy o‘zlik va tarixiy xotirani mujassamlashtirgan mafkuraviy matn ekani asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *davlat madhiyasi, milliy g‘oya, vatanparvarlik, ramz, milliy o‘zlik, falsafiy talqin, ma’naviyat, epitetlar.*

Abstract. This article analyzes the artistic-aesthetic and philosophical features of the text of the National Anthem of the Republic of Uzbekistan created by Abdulla Oripov. The research examines the national spirit, symbolic unity, the concept of patriotism, as well as moral and spiritual ideas reflected in the anthem through linguopoetic and semantic analysis methods. The author substantiates that the anthem is not only a ceremonial song but also an ideological text embodying national identity and historical memory.

Keywords*: national anthem, national idea, patriotism, symbol, national identity, philosophical interpretation, spirituality, epithets.*

Аннотация. *В данной статье анализируются художественно-эстетические и философские особенности текста Государственного гимна Республики Узбекистан, созданного Abdulla Oripov. В ходе исследования на основе лингвопоэтического и содержательного анализа рассматриваются национальный дух, символическое единство, концепция патриотизма, а также нравственно-духовные идеи, отражённые в гимне. Автор обосновывает, что гимн является не только торжественной песней, но и идеологическим текстом, воплощающим национальную идентичность и историческую память.*

Ключевые слова*: государственный гимн, национальная идея, патриотизм, символ, национальная идентичность, философская интерпретация, духовность, эпитеты.*

Davlat madhiyasi har bir mustaqil mamlakatning ramziy timsoli bo‘lib, u xalqning orzu-intilishlari, tarixiy xotirasi va kelajak umidlarini mujassam etadi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi matni atoqli shoir Abdulla Oripov tomonidan yaratilgan bo‘lib, u milliy ruh va yuksak ma’naviyatni ifoda etuvchi badiiy-falsafiy asar sifatida alohida ahamiyatga ega. Mazkur maqolada madhiyaning milliy-falsafiy mazmuni, undagi ramziy birlik va vatanparvarlik konsepsiyasi ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida lingvopoetik tahlil, semantik tahlil hamda qiyosiy-mantiqiy metodlardan foydalanildi. Madhiyaning matni g‘oyaviy qatlamlar asosida o‘rganilib, undagi asosiy tushunchalar – Vatan, xalq, erk, nur, istiqbol kabi timsollar tahlil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining matni va musiqasi O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 10-dekabrdagi 768-XII-sonli «O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida»gi Qonuni bilan tasdiqlangan. O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat suverenitetining ramzidir. O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasiga zo‘r ehtirom bilan qarash O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining vatanparvarlik burchidir.[36]

[36] https://www.fti.uz/uz/glavnaya/gimn.php saytining maqolasi

Madhiyaning dastlabki misralaridayoq Vatan muqaddas zamin sifatida talqin qilinadi. Unda xalqning asrlar davomida shakllangan qadriyatlari, erkinlik uchun kurashi va mustaqillik g‘oyasi mujassamdir. “Serquyosh hur o‘lkam” ifodasi nafaqat geografik, balki ma’naviy nur timsoli sifatida ham talqin qilinadi. Quyosh obrazi Sharq tafakkurida haqiqat, ezgulik va hayot manbai ramzi bo‘lib kelgan. Shu bois madhiyadagi quyosh timsoli millatning yorug‘ kelajakka ishonchini ifodalaydi. Madhiyada xalq birligi va hamjihatligi markaziy g‘oya sifatida ilgari suriladi. “Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni” kabi ifodalar millatning ruhiy qudratini ko‘rsatadi. Bu yerda iymon tushunchasi diniy emas, balki ma’naviy-axloqiy qatlamda talqin qilinadi.

Shoir xalqni yagona maqsad yo‘lida birlashgan kuch sifatida tasvirlaydi. Ramziy birlik g‘oyasi mustaqillik mafkurasining asosiy ustunlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Madhiyada vatanparvarlik shunchaki hissiy ko‘tarinkilik emas, balki mas’uliyat va fidoyilik sifatida talqin etiladi. Unda kelajak avlod oldidagi burch, ona yurt sha’nini ulug‘lash g‘oyasi ilgari suriladi. Shoir madhiyani yozishda balandparvoz shiorlardan ko‘ra, ma’naviy chuqurlikka urg‘u beradi. Shu jihatdan madhiyaning matni milliy o‘zlikni anglash va uni asrashga da’vat etuvchi falsafiy bayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Abdulla Oripov Davlat madhiyasi matnini yaratishda yuksak poetik mahorat namoyon etadi. Matnda epitet, metafora, ramz va takror kabi badiiy vositalar faol qo‘llanilgan. Masalan, “serquyosh”, “hur o‘lkam”, “bag‘ri keng” kabi epitetlar Vatanning ulug‘vor obrazini yaratadi. Bu sifatlashlar nafaqat tasviriy vazifa bajaradi, balki milliy iftixor tuyg‘usini kuchaytiradi. Takror san’ati madhiyaning tantanavor ruhini mustahkamlaydi. Ohangdorlik va maromlilik esa madhiyani ommaviy ijro uchun qulay va ta’sirchan qiladi. Shu jihatdan matn poetik va musiqiy uyg‘unlikka ega yaxlit tizimni tashkil etadi.

Davlat madhiyasi 1991-yilda qo‘lga kiritilgan mustaqillik ruhining badiiy ifodasidir. Unda erk va ozodlik tushunchalari bevosita va bilvosita shaklda aks etadi. “Hur o‘lkam” iborasi siyosiy mustaqillik bilan birga ma’naviy erkinlikni ham anglatadi. Mustaqillik madhiyada shunchaki tarixiy voqea sifatida emas, balki xalqning asriy orzusi sifatida talqin qilinadi. Bu esa madhiyani tarixiy-falsafiy hujjat darajasiga olib chiqadi. Vorislik g‘oyasi milliy qadriyatlarning uzluksizligi bilan bog‘liq. Madhiyada o‘tmish shon-shuhrati va kelajak umidi o‘zaro uyg‘un holda tasvirlanadi. Shu orqali tarix – bugun – kelajak zanjiri mustahkamlanadi.

Davlat madhiyasi jamiyatda birlashtiruvchi va ruhlantiruvchi vazifani bajaradi. U davlat marosimlarida, ta’lim muassasalarida, rasmiy tadbirlarda ijro etilishi orqali fuqarolarda vatanparvarlik hissini mustahkamlaydi. Shu nuqtai nazardan, Abdulla Oripov yaratgan madhiyaning matni nafaqat badiiy asar, balki ijtimoiy-ma’naviy institut sifatida ham ahamiyatlidir.

Tahlil natijasida quyidagilar aniqlandi:

1. Madhiyada milliy o‘zlik va tarixiy xotira konsepsiyasi ustuvor o‘rin egallaydi.
2. Ramziy obrazlar orqali xalq birdamligi va ma’naviy qudrat g‘oyasi ifodalangan.
3. Vatanparvarlik hissi axloqiy mas’uliyat bilan uyg‘un holda talqin etilgan.

4. Madhiyaning matni mafkuraviy-badiiy jihatdan mukammal tizimni tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripov tomonidan yaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi matni milliy-falsafiy tafakkurning yuksak namunasi hisoblanadi. Unda Vatan, erk, birlik va ma’naviyat g‘oyalari badiiy vositalar orqali chuqur ifodalangan. Madhiyaning matni nafaqat davlat ramzi, balki milliy o‘zlikni anglash, avlodlar vorisligini ta’minlash va ma’naviy uyg‘onishni mustahkamlovchi mafkuraviy matn sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Madhiya matni fti.uz saytidan olindi https://www.fti.uz/uz/glavnaya/gimn.php
2. Tafakkur.net sayti https://tafakkur.net/abdulla-oripov.haqida
3. Tuit.uz sayti maqolasi https://tuit.uz/post/bugun-ozbekiston-respublikasi-davlat-madhiyasi-qabul-qilingan-kun
4. Wikipedia.uz sayti maqolasi https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Oripov

ABDULLA ORIPOV IJODIDA FALSAFIY TAFAKKUR VA AXLOQIY QADRIYATLAR: MUZEY EKSPOZITSIYASI TALQINIDA AVLODLAR VORISLIGI

Bahromov Umidjon Bahrom o‘g‘li
Shahrisabz davlat Muzey qo‘riqxonasi ilmiy xodimi
Nazarov Kamol Hasanovich
Shahrisabz davlat Muzey qo‘riqxonasi bo‘lim boshlig‘i

XX asr o‘zbek she’riyati taraqqiyotida Abdulla Oripov ijodi alohida bosqichni tashkil etadi. Shoir o‘z asaralarida insonnig ichki dunyosi, vijdoni, e’tiqodi va hayot ma’nosi haqida teran falsafiy mushohodalar yuritib, ma’naviy komillik masalasini markaziy mavzuga aylantirdi. Uning she’riyati nafaqat badiiy

go‘zallik, balki axloqiy poklik va ruhiy yetuklikka da’vat etuvchi kuchli ma’naviy manbadir. Oripov nazarida komil inson – bu o‘zligini anglagan, ajdodlar merosiga sadoqatli va jamiyat oldidagi mas’uliyatini chuqur his etgan shaxsdir.

Shoir ijodida avlodlar vorisligi g‘oyasi ham muhim o‘rin egallaydi. U milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va ma’naviy merosini asrab – avaylashni har bir avlodnig burchi sifatida talqin qiladi. Abdulla Oripov she’rlari orqali yoshlarni ajdodlar an’anasini davom ettirishga, ma’naviy ildizlardan kuch olishga va zamon bilan hamnafas bo‘lishga undaydi. Shu bois uning ijodi o‘zbek adabiyotida ma’naviy komillik va vorislik g‘oyalarining badiiy ifodasi sifatida muhim ilmiy va estetik ahamiyat kasb etadi.

O‘zining otashin she’riyati bilan o‘zbek adabiyotiga yangicha nafas, yangicha ruh olib kirgan Abdulla Oripov bugungi kunda ijodning kamolot cho‘qqisida. Uning she’rlaridagi teran falsafiylik, sharqona donishmandlik, Vatanning shonli o‘tmishi va bugungi taqdiri, xaql qismati va kelajagi uchun bir komil fuqarolarcha kuyunchakligi, hayotdagi salbiy ko‘rinishlarga murosasiz istexzosi ko‘p yillardan buyon she’riyat muxlislari diqqatini o‘ziga ohangrabodek tortib kelmoqda. Shuning shoirning to‘rt jildlik “Tanlangan asarlar” to‘plami kitobxonlarga shoir ijodi bilan yanda yaqindan tanishish imkonini beradi. [1]

Hayot saboqlari

Qanday soz, avlodlar o‘ynasa, kulsa,
Sen ham tabrik aytsang qutlab basma – bas.

Shoir ushbu jumlada avvalo quvonch manzarasini tasvirlaydi. Avlodlarning o‘ynashi, kulishi — hayot davomiyligi, tinchlik va barqarorlik ramzi. Ammo “basma-bas tabrik aytish” iborasi orqali yuzaki, rasmiy quvonch tanqid qilinadi. Ya’ni shoir tashqi tantana emas, balki ichki samimiyatni qadrlashini aytadi.

Agar chin yurakdan kuylagan bo‘lsa,
Hamid Olimjonga qilgumdur havas.

Bu misralarda chin yurakdan kuylash — haqiqiy ijod va samimiyat mezoni sifatida beriladi. Hamid Olimjon esa o‘zbek she’riyatida hayotiylik, jo‘shqinlik va xalqchillik timsolidir. Shoir shuni ta’kidlaydiki agar quvonch yoki madh chin qalbdan bo‘lsa, u haqiqiy san’at darajasiga ko‘tariladi. Aks holda u shunchaki rasmiyat bo‘lib qoladi.

Kimnidir qitiqlab kuldirish oson,
Lekin buyruq bilan ochilmaydi tab.

Ushu jumlada esa chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmun bor. Sun’iy kulgi bilan haqiqiy quvonch o‘rtasidagi farq ko‘rsatiladi. “Buyruq bilan ochilmaydi tab” degan fikr — ruhiy erkinlik g‘oyasini ifodalaydi. Inson qalbidagi samimiyatni majburlab bo‘lmaydi. Bu misralar sovet davridagi majburiy shodlik, rasmiy tantanalar tashqi ruhiga ham ishora sifatida talqin qilinadi.

Nahot, ustozlarim yurmishlar shodon,
Bobolarning munglig‘ qabriga qarab.

She’rning eng ta’sirli qqismi aynan shu misralardir. Shoir tarixiy xotirani unutish xavfidan ogohlantiradi. “Bobolarning munglig‘ qabri” o‘tmishdagi iztirob, qurbonlik va tarixiy dard timsoli. Agar bugungi avlod o‘tmish fojialarini unutib, faqat yuzaki quvonch bilan yashasa, bu ma’naviy beparvolik hisoblanadi.

Bir sayyoh o‘zbekcha salom bersa gar,
Xazina topgandek yayrab ketganlar.
Qarang, qilmadi deb bizlardan hazar.
Minib yurgan otni sovg‘a etganlar.
Paxta – yu, gazni – ku, qaroqchi har kas
O‘marib ketganda to‘ylar qilganmiz,
O‘lsak hokimizga Makkani emas
Kreml devorni shon deb bilganmiz.

Shoir yana bir she’rida shunday jumlalarni ifoda etadi:

Hayot hadislari
Sen buncha nasihat o‘qima, shoir,
Havoiy so‘z aytib, berma tasalli.
Bir lahza fikr qil hayotga doir,
His et boshqalarni bir zum aqalli.

Ushbu she’rda Abdulla Oripov o‘quvchini shunchaki nasihat yoki havoiy so‘z bilan tasalli berishga emas,balki haqiqiy hayotiy tajriba va tafakkur bilan qarashga chaqiradi. “Sen buncha nasihat o‘qima, shoir” degan misra o‘quvchiga **so‘zlar** emas, amaliy fikr va his-tuyg‘ular muhim ekanini anglatadi.

Axloqiy jihatdan, she’r insonni mas’uliyatli bo‘lish, bilan har lahza o‘zini va boshqalarni tushunishga harakat qilishga undaydi. “Bir lahza fikr qil hayotga doir, His et boshqalarni bir zum” satrlari esa hayotiy qarorlarni ongli ravishda qabul qilish zarurligini ta’kidlaydi.

Falsafiy nuqtai nazardan, she’r inson hayotning murakkabligi va inson ongining ahamiyatini ko‘rsatadi: haqiqatni anglash va tafakkur qilish insonni kamolotga yetaklaydi. Shu bilan, she’r ma’naviy komillik va hayotiy mas’uliyat g‘oyasini qisqa, ammo aniq shaklda o‘quvchiga yetkazadi.[3]

Kitobxonlar va tanqidchilar, xususan Mo‘min Hoshimovning “Milliy uyg‘onish va Abdulla Oripov she’riyati” nomli monografiyasida, Oripovning ijodini milliy uyg‘onish ruhida yoritadi. U shoirning ma’naviy qadriyatlari, tarixiy ong va milliy o‘zlikni mustahkamlashga qaratilgan she’riyati xalq tarbiyasida chuqur iz qoldirganini ta’kidlaydi.Bu asar Oripovning avlodlar vorisligi g‘oyasini badiiy tahlil bilan bog‘laydi va uning ijodini milliy – estetik muhit bilan mustahkamlashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.[4]

Xulosa. Yuqorida tahlillardan ko‘rinadiki, Abdulla Oripov o‘zbek adabiyotida ma’naviy komillik va avlodlar vorisligi g‘oyalarini yuksak badiiy darajada ifoda etgan yetuk ijodkordir. Uning she’riyati insonning ichki dunyosi, vijdoni va e’tiqodi bilan bog‘liq masalalarni chuqur falsafiy talqinda yoritadi. Shoir asarlarida komil inson timsoli halolik, tarixiy xotira va milliy qadriyatlarga sadoqat mezonlari orqali gavdalanadi. Adabiyotshunoslik tadqiqotlari va nashr qilgan asarlar shuni tasdiqlaydiki, Oripov ijodi milliy uyg‘onish ruhini mustahkamlashda muhim o‘rin tutgan. Uning “ Jannatga yo‘l” kabi asarlari insonning ruhiy poklanishi va axoloqiy tanlovlari haqida teran mushohada yuritadi. Shoirning klassik an’analarga, xususan, Alisher N avoiy merosiga tayanishi esa adabiy vorislikning uzviyligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, Abdulla Oripov she’riyati o‘zbek adabiyotining ma’naviy – estetik taraqqiyotida muhim bosqich bo‘lib, u orqali milliy o‘zlik, tarixiy ong va komillik g‘oyalari yangi avlod qalbiga singdirildi. Uning merosi bugungi kunda ham ilmiy va badiiy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Абдулла Орипов. Танланган асарлар. 1-жилд: Шеърлар ва достонлар. — Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000.
2. Abdulla Oripov Tanlangan asarlar. She’rlar. A.Oripov – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2019. – 324 b.-6 – 7 bet.
3. Abdulla Oripov Tanlangan asarlar. She’rlar. A.Oripov – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2019. – (324 b) -4 - bet..
4. Hoshimxonov, M. *Milliy uyg‘onish va Abdulla Oripov she’riyati*. Tashkent: Kitobxon, 2010.
5. https://kitobxon.com/oz/kitob/milliy_uy%D2%93onish_va_abdulla_oripov_sherati

ABDULLA ORIPOV SHE’RLARIDA MILLIY G‘URUR VA ISTIQLOL RUHI

Imomaliyeva Musharrafxon,
Qo‘qon universiteti filologiya kafedrasi dotsenti (PhD)
Akbaraliyeva Zeboxon Islomjon qizi
Qo‘qon universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish
(o‘zbek tili) yo‘nalishi talabasi
Zeboxonakbaraliyeva570@gmail.com

Annotatsiya. *Abdulla Oripov o‘zbek adabiyoti tarixida milliy ruh, vatanparvarlik va istiqlol g‘oyalarini badiiy yuksaklikda ifodalagan buyuk shoirlardan biridir. Ushbu maqolada shoir she’riyatida milliy g‘urur, Vatan muhabbati hamda istiqlol ruhining badiiy ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Shoir asarlarida xalqning tarixiy xotirasi, ma’naviy qadriyatlari va milliy o‘zligini anglash g‘oyalari poetik obrazlar, ramziy timsollar hamda falsafiy mushohadalar orqali yoritib beriladi. Tadqiqot davomida Oripov she’rlarida Vatan timsoli, ona tiliga hurmat, xalq ruhiyati va milliy iftixor tuyg‘ularining badiiy talqini misollar asosida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, shoir ijodida klassik adabiy an’analar davomiyligi hamda zamonaviy milliy tafakkur uyg‘unligi ochib beriladi. Maqola natijalariga ko‘ra, Abdulla Oripov she’riyati o‘zbek xalqining milliy g‘ururi va istiqlol ruhini shakllantirishda muhim ma’naviy manba bo‘lib xizmat qilishi asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *Abdulla Oripov, milliy g‘urur, istiqlol ruhi, Vatan muhabbati, o‘zbek she’riyati, milliy qadriyatlar, poetik obraz, vatanparvarlik, ma’naviyat, badiiy tafakkur.*

Annotation. *Abdulla Oripov is one of the outstanding representatives of Uzbek literature who vividly expressed the ideas of national pride, patriotism, and*

independence in his poetry. This article analyzes the artistic expression of national pride and the spirit of independence in the poet’s works. In Oripov’s poetry, the historical memory of the people, spiritual values, and the idea of national identity are revealed through poetic images, symbolic representations, and philosophical reflections. The study examines the artistic interpretation of the image of the Motherland, respect for the native language, and the spiritual world of the Uzbek people based on selected examples from the poet’s works. In addition, the continuity of classical literary traditions and their harmony with modern national thinking in Abdulla Oripov’s poetry are highlighted. The results of the research show that Oripov’s poetic heritage serves as an important spiritual source in shaping national pride, patriotism, and the spirit of independence among readers.

Keywords: *Abdulla Oripov, national pride, spirit of independence, patriotism, Uzbek poetry, national values, poetic image, spirituality, artistic thinking.*

Аннотация. *Абдулла Орипов занимает важное место в истории узбекской литературы как поэт, глубоко отразивший идеи национальной гордости, патриотизма и независимости. В данной статье анализируются художественные особенности выражения национальной гордости и духа независимости в поэзии поэта. В его произведениях историческая память народа, духовные ценности и национальная идентичность раскрываются через поэтические образы, символические средства и философские размышления. В исследовании на основе конкретных примеров рассматривается художественная интерпретация образа Родины, уважения к родному языку и духовного мира узбекского народа. Также освещается преемственность классических литературных традиций и их гармония с современным национальным мышлением в творчестве поэта. В результате исследования обосновывается, что поэзия Абдулла Орипова является важным духовным источником формирования национальной гордости, патриотизма и духа независимости.*

Ключевые слова: *Абдулла Орипов, национальная гордость, дух независимости, патриотизм, узбекская поэзия, национальные ценности, поэтический образ, духовность, художественное мышление.*

O‘zbekiston adabiyoti va madaniyati tarixida Abdulla Oripov ijodi muhim o‘rin egallaydi. U nafaqat o‘zbek she’riyatining yorqin vakili, balki milliy ruh, istiqlol g‘oyasi va vatanparvarlik tuyg‘ularini barcha davrlarga yetkazgan buyuk shoirdir. Oripovning she’rlari milliy qadriyatlarni chuqur anglab, xalqning tarixiy merosi, ona tili va ma’naviy o‘zligini badiiy shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Shoir ijodida milliy g‘urur tuyg‘usi ko‘pincha Vatan va uning erkinligi bilan bog‘liq bo‘lib, u o‘quvchida millatning boy qadriyatlari va o‘ziga xos madaniyati bilan iftixor tuyg‘usini uyg‘otadi. She’rlarda milliy o‘zlik nafaqat tarixiy-madaniy kontekstda, balki inson qalbida chuqur hissiy pardoz orqali tasvirlanadi. Mustaqillik yillarida yozilgan asarlarida Oripov milliy istiqlol ruhini yanada mustahkam ifoda etadi. Uning satrlarida erkin yashash, mustaqil fikr va irodaga urg‘u berilib, bu tuyg‘ular badiiy misollar orqali hayotga tatbiq etiladi. Shoirning

bu yondashuvi adabiyotda milliy g‘urur va istiqlolni ifodalashda yangi falsafiy-patriotik yo‘nalishni belgilaydi. Shu boisdan Abdulla Oripov she’rlarida milliy g‘urur va istiqlol ruhi mohirona poetik vositalar bilan ifodalanib, o‘quvchida millatning o‘ziga xosligi, ruhiy boyligi va tarixiy irodasini anglashga xizmat qiladi.

Abdulla Oripov ijodida milliy g‘urur va istiqlol ruhining o‘rni uning she’riyatida markaziy mavzular sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir o‘zbek xalqining tarixiy merosi, madaniyati va ma’naviy qadriyatlarini chuqur anglab, ularni she’riy tasvirlar orqali o‘quvchiga yetkazadi. Ma’lum bir davr davomida XX asr o‘zbek adabiyotida ham shunga o‘xshash munosabat kuzatilgan. O‘zbek tilining qadri past baholangan, bu til juda qo‘pol, unda yirik badiiy asarlar yaratish mumkin emas, degan fikrlar mavjud bo‘lgan. Abdulla Oripov ana shunday qarashlarga qarshi chiqib, o‘z so‘zini aytishga mas’uliyat bilan kirishgan shoir bo‘ldi. Abdulla Oripov chinakam vatanparvar shoir edi. Biroq uning ijodini faqat “vatanparvarlik” so‘zi bilan ifodalash yetarli emas. Chunki ko‘pchilik bu so‘zning asl ma’nosini to‘liq anglamaydi. Ba’zilar vatanparvarlikni faqat harbiy tushuncha deb biladi yoki sport musobaqalarida mamlakat sha’nini himoya qilish deb o‘ylaydi. Bu ham to‘g‘ri, ammo vatanparvarlikning boshqa ko‘rinishlari ham bor.Masalan, oddiy talabaning vatanparvarligi qanday bo‘ladi? Shoir shunday yozadi:Dunyo bo‘ylab mashhur bo‘lish uchun osmonga qanot qoqib uchish yoki jon fido qilish shart emas. Har bir inson “Vatan” deb atalgan zaminning bir parchasida yashaydi va mehnat qiladi. Agar u yerga ishlov bersa, mehnati samara bersa, yaxshi ishlar qilsa – bu ham yurt taraqqiyotiga qo‘shilgan hissa hisoblanadi.Talabaning vazifasi esa o‘z vaqtini bilim olishga, yaxshi o‘qishga, kasb egallashga bag‘ishlashdir. Bu ham vatanparvarlikdir. Shoir zamondoshlarini befarq bo‘lmaslikka, faol bo‘lishga chaqiradi.[1]

Tashqi ko‘rinishda ham o‘ziga xos ramziy haqiqat mavjud. Bu holat inson o‘z dardini kuylash zaruratini his qilganida ham namoyon bo‘ladi: u go‘yo qamishdan nay yasab, yurakni tilka-pora qiluvchi iztiroblarni shu nay orqali ifoda etadi. Haqiqat va badiiy tasavvurning kuchi ana shunday namoyon bo‘ladi. Bu holat Abdulla Oripov she’riyatining ham muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, uning she’rlari xalq qalbiga yaqin va sevimlidir.

Abdulla Oripov ijodida o‘zbek she’riyatining eng olijanob an’analari izchil davom ettirilgan. Uning she’rlarida Alisher Navoiy o‘z asarlarida kuylagan insoniylik, mehr-muhabbat, ezgulik, yaxshilik, qo‘rquvsiz haqiqatni aytish kabi g‘oyalar yangi ruhda talqin qilinadi. Navoiy:

“Odamiy ersang demagil odami,
Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami”,

— deb, xalq dardi bilan yashamagan insonni haqiqiy odam deb bo‘lmasligini aytgan bo‘lsa, Abdulla Oripov bunday insonlarni “temir odam” deb tasvirlaydi:

“Ustoz, qalbi yo‘qdir uning ham, hayhot,
Na nafrat, na ishqni tanlamas u ham,
Uning ham ko‘zida chaqnmas hayot,
Munis boqishlarni anglamas u ham.”

Klassik shoirlar ijodida olam go‘zalligi ko‘pincha inson husniga qiyos qilib tasvirlangan. Alisher Navoiy, Lutfiy, Fuzuliy kabi shoirlar she’rlarida gullar,

novdalar, yaproqlar, tol shoxlari, quyoshning ipak nurlari kabi obrazlar yor go‘zalligini tasvirlash uchun ishlatiladi. Bu orqali yor go‘zalligi bilan birga butun yorug‘ dunyoga, insonga bo‘lgan muhabbat ham ifodalanadi.

Abdulla Oripov ham o‘z she’rlarida gul barglari, kuzning sarg‘aygan yaproqlari, yomg‘irning mungli shiviri kabi tabiat manzaralarini tasvirlaydi. Ammo bu tasvirlar ko‘proq inson qalbining turli holatlarini, ruhiy kechinmalar rangini ifodalashga xizmat qiladi.

Masalan, shoir yozadi:

“Do‘stim, tingla… yaproqchalarning
Shivirlashi eshitilmoqda…
…Yuragim ham daraxtzor kabi
Nimanidir olqishlamoqda.”

Bu misralarda tabiat manzarasi orqali inson ruhiyatidagi nozik kechinmalar ifoda etilgan.

Hamid Olimjon va G‘afur G‘ulom kabi shoirlar singari Abdulla Oripov ham Vatanini chuqur va iztirobli muhabbat bilan sevadi. U tariximizdagi og‘ir voqealarni — Ulug‘bekning qatl etilishi, Boburning sarson-sargardon hayoti, Chingizxon zulmidan to‘kilgan qonlarni eslaydi, ammo xalqimizning hech qachon bosh egmaganini ta’kidlaydi.

Shoir o‘z she’rlarida xalq donishmandligi mahsuli bo‘lgan maqol va matallardan ham juda mohirona foydalanadi. Natijada, xalq maqollari shoir she’riyatida yana yangi badiiy hayot kasb etadi.[2]

“Sen yetim emassan, Vatanim”
Sen yetim emassan, Vatanim,
Ko‘zingda quvonch bor, nido bor.
Sen yetim emassan, Vatanim,
Ko‘ksingda or-nomus, g‘urur bor.

Ushbu she’rda shoir Vatanni ona siymosida, mehr va sadoqat bilan tasvirlaydi. Vatanining yetim emasligi — uning mustaqilligi, or-nomusli farzandlarga ega ekani, g‘ururli va baxtli hayot kechirayotganligidan darak beradi. Shoir o‘zining chuqur ma’naviy tuyg‘ulari orqali xalqni birlikka, Vatanni asrabavaylashga, g‘urur bilan yashashga da’vat etadi. She’rda ishlatilgan obrazlar, timsollar va ohangda ifoda etilgan vatanparvarlik, inson qalbini larzaga soladigan badiiy kuchga ega. Bu she’r nafaqat adabiy, balki tarbiyaviy jihatdan ham yuksak qiymatga ega bo‘lib, har bir yurtdosh qalbida iftixor tuyg‘ularini uyg‘otad[3]

Vujudning sog‘ligi shartdir odamga,
Unutmang, ammo ruh tarbiyasini.
To‘rt nafar turk qizi kelib xonamga
Ijro etdi O‘zbek madhiyasini.
Dengizlardan osha, tog‘lardan osha
Yurtim ko‘z o‘ngimda bo‘ldi namoyon.
Go‘yo diyorimni qildim tomosha,
Jannat xaritasin ko‘rganimsimon.
Yuksak va shiddatli, latif ham mayin
Ohang taralardi Marmara bo‘ylab.

Yurtim qo‘shig‘in shu lahza, tayin,
Osiyo, Yevropa turardi kuylab.
Misli ufurardi menga nafasin
Oltin vodiylarim, kumush tog‘larim.
Ilg‘adim Do‘rmondan bulbullar sasin,
Ko‘rindi shovullab turgan bog‘larim.
Madad qo‘llarini cho‘zardi shu dam
Yiroq-yiroqlardan mardona bir ruh.
Dengiz tumanidek tarqab ketdi g‘am,
Tog‘lar qori kabi eridi anduh.

She’r boshida shoir inson ruhiy va jismoniy salomatligi bilan bir qatorda Vatan ruhini tarbiyalash muhimligini ta’kidlaydi:

“Vujudning sog‘ligi shartdir odamga,
Unutmang, ammo ruh tarbiyasini.”

Bu satrlar shoirda milliy ong va Vatan sevgisi borligini ko‘rsatadi. Shuningdek, u O‘zbekistonni jannat misolida tasavvur qiladi, bu milliy g‘urur va muhabbatni ochib beradi.She’rda shoir tabiat va manzaralar orqali ruhiy holatni tasvirlashga ustalik bilan murojaat qiladi:

“Dengizlardan osha, tog‘lardan osha / Yurtim ko‘z o‘ngimda bo‘ldi namoyon.” – shoir geografik tasvirlar orqali Vatanni ko‘z oldiga keltiradi.

“Jannat xaritasin ko‘rganimsimon” – Vatanni ilohiy go‘zallik bilan taqqoslaydi. Bu metaforik va obrazli ifoda shoirning tasavvur qobiliyatining yuqoriligini ko‘rsatadi. She’r davomida shoirning ichki hissiyotlari, ruhiy kechinmalari ochiladi:

G‘am dengiz tumaniga o‘xshatiladi, tog‘lar qori kabi eriydi – rivojlangan metafora orqali hissiy holat ifodalanadi.

“Madad qo‘llarini cho‘zardi shu dam / Yiroq-yiroqlardan mardona bir ruh.” – shoir milliy ruhni va insoniy jasoratni madh etadi.

Bu shoirning chuqur hissiyotli va ruhiy kechinmalarni tasvirlash qobiliyatini ochib beradi.

She’rda ohang, latiflik va shiddat seziladi:

“Yuksak va shiddatli, latif ham mayin / Ohang taralardi Marmara bo‘ylab.”

Bu satrlar shoirning musikal she’riy uslubga ega ekanligini ko‘rsatadi, ya’ni u so‘zlarni nafaqat ma’no, balki ohang orqali ham his qildiradi.

She’rdagi *“To‘rt nafar turk qizi kelib xonamga / Ijro etdi O‘zbek madhiyasini.”* qismi shoirning shaxsiy tajribasini milliy meros bilan uyg‘unlashtirishini bildiradi. U shaxsiy his-tuyg‘ularini butun xalqning madhiysi bilan bog‘laydi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripov ijodida milliy g‘urur va istiqlol ruhi markaziy mavzu sifatida o‘z ifodasini topadi. Shoirning she’rlari orqali o‘zbek xalqining tarixiy merosi, madaniyati va ma’naviy qadriyatlari chuqur poetik tafakkur bilan tasvirlanadi. Milliy g‘urur tuyg‘usi uning asarlarida ona tiliga, Vatan sevgisiga va xalqning tarixiy tajribalariga bog‘liq holda namoyon bo‘lib, o‘quvchida millatning boy madaniyati va o‘ziga xosligini anglashga xizmat qiladi. Istiqlol ruhi esa Oripov ijodida yangi tarixiy davrning ruhiy poydevori sifatida aks

etadi. Shoirning satrlarida erkinlik, mustaqil fikr va irodaga urg‘u berilib, bu tuyg‘ular milliy ong va ma’naviyatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Abdulla Oripovning she’rlari milliy qadriyatlarni zamonaviy dunyoqarash bilan uyg‘unlashtirib, o‘quvchida vatanparvarlik va o‘zlikni anglash hissini uyg‘otadi. Shu bilan birga, Oripov ijodi o‘zbek adabiyoti va madaniyati tarixida milliy g‘urur va istiqlol ruhini badiiy shaklda aks ettirish bo‘yicha nodir o‘rin egallaydi. Uning asarlari nafaqat adabiy tahlil uchun, balki yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va milliy ongni rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Davronova Davronkulovna, M., & Yuldosheva, E. (2021). *Eternal and perpetual poetry (In memory of the National Poet of Uzbekistan Abdulla Oripov). Scientise-2021 Conference Proceedings*.
2. Shomurodova, L. B. (2025). *Art and poetics of Abdulla Oripov’s poetry*. *Modern Science and Research, 2*(3).
3. Xayrullaxonov X. ABDULLA ORIPOV – MILLIY G‘URURIMIZ, BUYUK SHOIR https://doi.org/10.5281/zenodo.15421204
4. Oripov Abdulla, Tanlangan asarlar. (2019)

ABDULLA ORIPOVNING O‘ZBEK ADABIYOTI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI

Abduraupova Muhlisa Abdunabi qizi
Jizzax davlat Pedagogika Unversiteti, Psixologiya yo‘nalishi magistranti

Annatatsiya:*Mazkur maqolada Abdulla Oripovning o‘zbek adabiyoti rivojiga qo‘shgan beqiyos hissasi, xususan, uning she’riyatidagi falsafiy va axloqiy motivlar hamda avlodlar vorisligi masalasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shoir ijodida inson va jamiyat munosabatlari, hayot va umr mohiyati, vijdon va mas’uliyat, milliy o‘zlikni anglash kabi dolzarb mavzular badiiy talqin etilganligi asoslab beriladi. Shuningdek, Abdulla Oripovning milliy adabiyotda an’ana va yangilik uyg‘unligini ta’minlagan ijodkor sifatidagi o‘rni ochib beriladi.*

Maqolada shoir she’riyatining ma’naviy-axloqiy qirralari, undagi vatanparvarlik, insonparvarlik, haqiqat va adolat g‘oyalari chuqur tahlil qilinadi. Ayniqsa, uning asarlarida yosh avlod tarbiyasi, ajdodlar merosiga hurmat, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash masalalariga alohida e’tibor qaratilganligi ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqot natijasida Abdulla Oripov ijodi o‘zbek adabiyotida falsafiy tafakkur va ma’naviy yetuklik namunasi sifatida muhim ahamiyat kasb etishi xulosa qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Abdulla Oripov, o‘zbek adabiyoti, she’riyat, falsafiy motivlar, axloqiy motivlar, ma’naviyat, vijdon, vatanparvarlik, milliy o‘zlik, avlodlar vorisligi, an’ana va yangilik, badiiy tafakkur, ma’naviy meros, insonparvarlik, adolat g‘oyasi.*

Kirish. O‘zbek adabiyoti ko‘p asrlik taraqqiyot jarayonida millatning ma’naviy qiyofasi, tarixiy xotirasi va ruhiy olamini aks ettirib kelgan bebaho xazinadir. Har bir davr o‘zining yuksak iste’dod sohiblari orqali adabiy tafakkurga yangi yo‘nalish, yangi ruh va yangi mazmun olib kirgan. XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida o‘zbek she’riyatida yuz bergan tub burilishlar, ayniqsa, milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va inson ruhiyatini chuqur falsafiy mushohada qilish jarayonlari bilan xarakterlanadi. Ana shu murakkab va mas’uliyatli davrda o‘zining mustahkam badiiy pozitsiyasi, teran tafakkuri va yuksak ma’naviy qarashlari bilan ajralib turgan ijodkorlardan biri — Abdulla Oripovdir.

Abdulla Oripov o‘zbek she’riyatiga yangicha ohang, chuqur falsafiy mazmun va kuchli ichki dramatizm olib kirgan shoir sifatida e’tirof etiladi. Uning ijodi nafaqat badiiy go‘zallik namunasi, balki millat ruhiyatining o‘ziga xos ko‘zgusi hamdir. Shoir asarlarida inson va jamiyat, shaxs va tarix, vijdon va mas’uliyat, hayot va abadiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlar teran badiiy talqin etiladi. U she’rni oddiy his-tuyg‘ular ifodasi darajasidan yuksaltirib, uni fikr va tafakkur maydoniga aylantira oldi.

Abdulla Oripov ijodining dolzarbligi shundaki, u o‘z davrining og‘riqli savollariga befarq bo‘lmadi. Shoir millat taqdiri, xalqning ruhiy holati, ma’naviy qadriyatlar yemirilishi kabi masalalarni dadil ko‘tardi. Ayniqsa, mustaqillik arafasida va istiqlol yillarida uning she’riyati milliy uyg‘onish jarayonining badiiy ifodasiga aylandi. Vatan, erkinlik, tarixiy xotira va milliy g‘urur kabi tushunchalar shoir ijodida markaziy o‘rin egalladi.

Shoirning poetik olamida falsafiylik va axloqiylik o‘zaro uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Uning she’rlarida hayotning o‘tkinchiligi, inson umrining mazmuni, vijdon oldidagi javobgarlik, haqiqat va adolat uchun kurash kabi masalalar chuqur mushohada etiladi. Bu jihatlar Abdulla Oripov ijodini nafaqat estetik, balki tarbiyaviy va ma’rifiy ahamiyatga ega hodisaga aylantiradi. Shoir insonni komillikka, ma’naviy poklikka, o‘zligini anglashga chorlaydi.

Shuningdek, Abdulla Oripov ijodida avlodlar vorisligi masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. U o‘zini buyuk mumtoz adabiyot an’analarining davomchisi sifatida anglagan va bu an’analarni zamonaviy ruh bilan boyitgan. Ajdodlar merosiga hurmat, milliy qadriyatlarni asrash va yosh avlodni ma’naviy barkamollik ruhida tarbiyalash g‘oyasi uning asarlarida izchil davom etadi. Shu bois uning ijodi o‘zbek adabiyotida an’ana va yangilik uyg‘unligining yorqin namunasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur maqolada Abdulla Oripovning o‘zbek adabiyoti rivojiga qo‘shgan hissasi, xususan, uning she’riyatidagi falsafiy va axloqiy motivlar hamda avlodlar vorisligi masalasi keng qamrovda tahlil qilinadi. Shoirning badiiy merosi milliy tafakkur taraqqiyotida tutgan o‘rni, uning ma’naviy-axloqiy qarashlari va yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati ilmiy asosda yoritib beriladi. Zero, Abdulla Oripov ijodi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, balki zamonaviy jamiyat ma’naviy hayotida muhim o‘rin egallab kelmoqda. Abdulla Oripov adabiyotga inson qalbining ichki dramatizmini olib kirdi. U shaxsiy kechinmalarni umumxalq dardiga aylantira oldi. Shoirning she’rlarida ko‘tarilgan muammolar tor doiradagi

hissiyotlar emas, balki jamiyat ruhiyati, davr iztiroblari va tarixiy jarayonlarning badiiy aksidir. Shu jihatdan uning ijodi individual lirika doirasidan chiqib, ijtimoiy-falsafiy mazmun kasb etadi.

Shoirning badiiy tafakkuri uch asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

Falsafiy mushohada kengligi – u hayot hodisalariga yuzaki emas, balki mohiyat nuqtai nazaridan yondashadi. Inson umrining ma’nosi, vaqtning o‘tkinchiligi, ruh va jism o‘rtasidagi ziddiyat kabi masalalar shoir she’riyatida chuqur talqin qilinadi.

Axloqiy qat’iyat – uning lirik qahramoni doimo vijdon oldida javobgar shaxs sifatida gavdalanadi. Halollik, adolat, sadoqat kabi tushunchalar shoir ijodining asosiy mezoniga aylanadi.

Milliy ruh va tarixiy xotira – Abdulla Oripov she’rlarida xalqning o‘tmishi, ma’naviy ildizlari va kelajakka ishonchi uzviy bog‘liq holda tasvirlanadi.

Bundan tashqari, shoir ijodi o‘zbek adabiyotida badiiy til imkoniyatlarini kengaytirdi. Uning she’riy uslubi sodda, ravon va xalqona ohangga ega bo‘lsa-da, mazmun jihatidan nihoyatda teran va qatlamlidir. U so‘zning ichki qudratini ochib bera olgan ijodkor sifatida e’tirof etiladi. Abdulla Oripovning adabiy merosi yosh avlodni tarbiyalashda ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Uning she’rlarida ma’naviy poklik, insoniylik va Vatanga muhabbat g‘oyalari ustuvor. Bu esa shoir ijodining nafaqat estetik, balki pedagogik ahamiyatga ham ega ekanligini ko‘rsatadi.

Yana bir muhim jihat shundaki, Abdulla Oripov ijodi avlodlar vorisligini ta’minlovchi ko‘prik vazifasini bajaradi. U mumtoz adabiyot an’analarini zamonaviy ruh bilan uyg‘unlashtirib, milliy she’riyatning uzviy davomiyligini ta’minladi. Shu bois uning asarlari bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, zamonaviy adabiy jarayon bilan hamohang tarzda o‘qilmoqda va talqin qilinmoqda. Abdulla Oripov ijodining yana bir muhim jihati — **ruhiy poklanish va ma’naviy komillik g‘oyasi**dir. Shoir insonni o‘z nafsini yengishga, pok niyat bilan yashashga va hayotning asl qadriyatlarini anglashga chorlaydi. Uning she’riyatida inson qalbi go‘yo ichki sinovlardan o‘tuvchi maydon sifatida tasvirlanadi. Bu jihat shoir asarlarining falsafiy chuqurligini yanada kuchaytiradi. Shoir ijodida tabiat tasviri ham muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. U tabiat manzaralari orqali inson ruhiyati va ichki kechinmalarini ifodalashga erishadi. Masalan, tog‘, osmon, shamol, daraxt kabi obrazlar shoirning she’rlarida ko‘pincha ramziy ma’noga ega bo‘lib, insonning ruhiy holati yoki hayotiy falsafasini aks ettiradi. Bu esa Abdulla Oripov poetikasida ramziy obrazlar tizimi mavjudligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Abdulla Oripov ijodi o‘zbek she’riyatining janr va mavzu doirasini kengaytirgan. U lirik she’rlar bilan bir qatorda falsafiy, ijtimoiy va publitsistik ruhdagi asarlar ham yaratdi. Bu esa uning ijodini rang-barang va ko‘p qirrali qiladi. Shoir o‘z asarlarida ba’zan tarixiy voqealarga murojaat qilib, xalqning o‘tmishi va buguni o‘rtasidagi bog‘liqlikni badiiy talqin etadi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripov ijodi nafaqat o‘z davrining badiiy ifodasi, balki o‘zbek xalqining ma’naviy dunyosini aks ettiruvchi boy adabiy merosdir. Uning she’riyati milliy tafakkur, falsafiy mushohada va axloqiy qadriyatlar uyg‘unligi bilan ajralib turadi hamda o‘zbek adabiyoti rivojida muhim o‘rin egallaydi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulla Oripov. (2001). *Tanlangan asarlar*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot.
2. Abdulla Oripov. (1992). *Haj daftari*. Toshkent: Sharq nashriyoti.
3. Abdulla Oripov. (2016). *Saylanma*. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
4. Ozod Sharafiddinov. (2004). *Ijodni anglash baxti*. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.
5. Ibrohim G‘afurov. (2005). *Adabiyot nazariyasi asoslari*. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
6. Naim Karimov. (2008). *XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi*. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
7. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. (2010). *O‘zbek adabiyoti tarixi (XX asr)*. Toshkent: Fan nashriyoti.
8. Adabiyotshunoslik asoslari. (2012). Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
9. O‘zbek adabiy tanqidi tarixi. (2015). Toshkent: Fan nashriyoti.
10. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti. (2018). Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.

MILLAT VA KOINOT KUYCHISI: ABDULLA ORIPOV IJODINING FALSAFIY-MA’NAVIY KO‘LAMI

Nurali Abdurashid o‘g‘li Boqiyev
Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti o‘qituvchisi
MDWCT@mail.ru

Annotatsiya. *Maqolada Abdulla Oripov ijodining falsafiy ko‘lami, inson ruhiyati va milliy o‘zlik masalalari tahlil qilinadi. Shoir asarlarining jamiyatdagi axloqiy-tarbiyaviy ahamiyati yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Abdulla Oripov, falsafiy lirika, milliy o‘zlik, inson ruhiyati, koinot, istiqlol, badiiy obraz, axloqiy qadriyatlar.*

Abstract. *The article analyzes the philosophical scope of A. Oripov’s work, issues of human psychology and national identity. The ethical and educational significance of the poet’s works is highlighted.*

Keywords: *Abdulla Oripov, philosophical lyrics, national identity, human psyche, universe, independence, artistic image, moral values.*

Аннотация. *В статье анализируются философские масштабы творчества А. Орипова, вопросы психологии человека и национальной идентичности. Освещается этико-воспитательное значение произведений поэта.*

Ключевые слова: *Абдулла Орипов, философская лирика, национальная идентичность, человеческая психика, вселенная, независимость, художественный образ, моральные ценности.*

O‘zbek adabiyoti tarixida shunday siymolar borki, ularning ijodi shunchaki so‘z san’ati emas, balki butun bir millatning ruhiy qiyofasi, o‘tmishi va kelajagiga qo‘yilgan haykaldir. O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov ana shunday ulug‘ ijodkorlar sirasiga kiradi. Uning she’riyati XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshidagi o‘zbek ma’naviyatining eng yuksak cho‘qqilaridan biri bo‘lib, o‘zbek she’riyatiga yangi falsafiy mushohada, intellektual teranlik va milliy istiqlol g‘oyalarini olib kirdi.

Abdulla Oripov zamonaviy o‘zbek adabiyotining poydevorini mustahkamlagan, she’riyatda “shaxs” tushunchasini ijtimoiy-axloqiy darajaga ko‘targan shoirdir. Uning ijodi orqali o‘zbek kitobxoni o‘z qalbining tub-tubiga nazar tashlashni, dunyo va koinot sirlari haqida o‘ylashni o‘rgandi.

Abdulla Oripov lirikasining bosh xususiyati — hayotga falsafiy nigoh bilan boqish, voqea-hodisalarning mohiyatini inson taqdiri prizmasi orqali yoritishdir. Shoir she’rlarida vaqt va zamon, o‘lim va hayot, ezgulik va yovuzlikning abadiy kurashi shunchaki mavzu emas, balki yashashning mazmuni sifatida talqin qilinadi.

Shoirning ilk to‘plamlaridan boshlaboq undagi falsafiy yo‘nalish yaqqol ko‘zga tashlanadi. U insonni borliqning gultoji sifatida tasvirlar ekan, uning zimmasidagi ma’naviy mas’uliyatni doimo eslatib turadi. Oripov falsafasi — bu “uyg‘oq qalb” falsafasidir. U o‘quvchini loqaydlikdan qutqarishga, atrofga teranroq boqishga chorlaydi. Shoir uchun tabiatdagi har bir giyoh, osmondagi har bir yulduz inson taqdiri bilan chambarchas bog‘liq.

“Sen qaydan bilasan”: inson ruhiyati va koinot sirlari

Shoirning “Sen qaydan bilasan” she’ri uning falsafiy lirikasining eng go‘zal namunalaridan biridir. Bu asarda shaxsning ichki dunyosi va uning koinot bilan ma’naviy muloqoti markaziy o‘rin egallaydi.

Asarda takrorlanib keladigan “Sen qaydan bilasan” ritorik so‘rog‘i inson qalbining o‘zgalar uchun doimo yopiq, sirli va anglab bo‘lmas jumboq ekanligiga ishoradir. Shoir lirik qahramonning ruhiy holatini shunchaki bayon qilmaydi, balki uni koinot hodisalari bilan parallel qo‘yadi:

“Sen qaydan bilasan, balki yulduzlar
Menga sirlarini so‘ylayotgandir.”

Ushbu misralarda inson tafakkuri va borliq o‘rtasidagi ko‘rinmas ko‘priklar aks etgan. Shoir inson ruhiyatini cheksiz samoga tenglashtirib, shaxsning ma’naviy imkoniyatlari chegara bilmasligini ko‘rsatadi. She’rdagi “unsiz qo‘shiq” obrazi esa insonning tilda ifodalab bo‘lmaydigan, faqat qalb bilan tuyuladigan ichki og‘riqlari va orzularining ramzidir.

She’rning falsafiy cho‘qqisi sifatida quyidagi satrlarni keltirish mumkin:

“Sen qaydan bilasan, balki keng olam
Shu mo‘jaz qalbimga bo‘ylayotgandir.”

Bu yerda mikromakon (inson) va makromakon (koinot) birlashadi. Shoir insonni jismonan kichik bo‘lsa-da, ma’nan butun borliqni o‘ziga sig‘dira oladigan buyuk qudrat egasi deb biladi. Bu esa Abdulla Oripov she’riyatidagi gumanistik (insonparvarlik) g‘oyalarning yorqin isbotidir.

Abdulla Oripov lirikasida shaxs jamiyatdan uzilgan holda emas, balki uning ajralmas va mas’uliyatli bo‘lagi sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir uchun insonning qiymati uning ijtimoiy mavqeyi bilan emas, balki vijdoni va axloqiy butunligi bilan o‘lchanadi.

Uning she’rlarida halollik, mehr-oqibat va adolat kabi tushunchalar yuksak pardalarda kuylanadi. Shoir insonning ma’naviy kamolotini jamiyat ravnaqining asosiy sharti deb biladi. Agar shaxs o‘z ichki olamini isloh qilmas ekan, jamiyatda adolat va farovonlik qaror topishi qiyin degan g‘oyani ilgari suradi. Ayniqsa, global o‘zgarishlar va “ommaviy madaniyat” xavfi kuchaygan hozirgi davrda, Oripovning ma’naviy-axloqiy o‘gitlari yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Uning asarlari yosh avlod uchun o‘zlikni saqlab qolish va milliy qadriyatlarga sodiq qolishda ma’naviy tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Abdulla Oripov nafaqat falsafiy shoir, balki millatning dardi va g‘ururini kuylagan haqiqiy vatanparvar ijodkordir. Uning “O‘zbekman” she’ri milliy g‘urur va mustaqillik mafkurasining badiiy in’ikosi, millatning “ma’naviy pasporti”ga aylangan asardir.

She’rning ilk satrlaridayoq shoir xalqning tarixiy xotirasi va milliy o‘zligini ramziy obrazlar orqali ifodalaydi:

“Mana, men – O‘zbekman, qo‘limda tug‘im
Va barcha a’molim bitilgan kitob.”

Bu yerda “tug‘” — milliy davlat va ozodlik ramzi, “a’mol bitilgan kitob” — xalqimizning asrlar davomida to‘plagan boy ma’naviy merosi va bosib o‘tgan mashaqqatli yo‘lidir. Shoir o‘zbek xalqini boshqa millatlar bilan teng, iymoni butun va insoniy fazilatlari bilan ajralib turuvchi ulug‘ xalq sifatida tasvirlaydi.

Shoir millat xarakteridagi eng nozik qirralarni — qudrat va mehrni uyg‘unlashtiradi:

“Dunyoni olsam-da jahongir bo‘lib,
Go‘dak yig‘isiga yo‘qdir toqatim.”

Bu misralar o‘zbek xalqining tabiatidagi eng oliyjanob xislatni ko‘rsatadi: xalqimiz kuchi yetarli bo‘lsa-da, doimo zulmga qarshi turgan, ojizlarga muruvvat ko‘rsatgan. She’rning yakunidagi “Istiqlol, ketma yurt peshonasidan” degan xitobi — bu butun bir millatning orzu-niyati va shoirning vatan taqdiri uchun chekkan iztiroblarining yakuniy xulosasidir.

Shoir ijodi o‘zbek adabiyotida butun bir maktabni yaratdi. U o‘zbek she’riyatiga fikrni badiiy ifodalashning yangi usullarini olib kirdi. Uning tili sodda, ammo mazmuni nihoyatda qatlamli. U xalq og‘zaki ijodi an’analari bilan jahon adabiyoti yutuqlarini (masalan, Dantening “Ilohiy komediya”sini tarjima qilish orqali) mahorat bilan birlashtirdi.

Oripovning she’riyati o‘quvchini faqat his qilishga emas, balki fikrlashga majbur qiladi. Uning she’rlaridagi mantiqiy izchillik va obrazlar tizimi o‘zbek she’riyatining intellektual salohiyatini bir necha barobar oshirdi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripov ijodi — bu inson qalbining koinot qadar kengligi, milliy g‘ururning yuksakligi va iymonning butunligi haqidagi bitmas-tuganmas darslikdir. Shoir asarlari orqali biz o‘zligimizni angladik,

mustaqillikning naqadar buyuk ne’mat ekanini his qildik va inson bo‘lib yashashning mas’uliyatini anglab yetdik.

Abdulla Oripov qoldirgan boy adabiy meros hech qachon o‘z qiymatini yo‘qotmaydi. U doimo millat ma’naviyatining mayoqi bo‘lib, kelgusi avlodlarni ezgulik, vatanparvarlik va yuksak insoniylik ruhida tarbiyalashda xizmat qiladi. Shoir aytganidek, uning sirlarini koinot so‘ylasa-da, uning dardi ham, quvonchi ham doimo o‘z xalqi bilan birgadir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. To‘xtamurodova, N. . (2025). ABDULLA ORIPOVNING IJODIY MEROSINI O‘RGANISH. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 4(20), 16–18.

2. Sharafiddinov, O. (2004). Ijodni anglash baxti. Toshkent: Sharq nashriyoti.

3. Karimov, N. (2015). XX asr o‘zbek adabiyoti manzaralari. Toshkent: O‘zbekiston.

4. https://tafakkur.net/sen-qaydan-bilasan/abdulla-oripov.uz

5. https://tafakkur.net/ozbekman/abdulla-oripov.uz

PERSONAJLI SHE’RDA LIRIK QAHRAMONNING SHAKLLANISHI (ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATI MISOLIDA)

Suhrob ZIYODOV
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori insituti doktoranti
ziyodovsuhrob@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada she’rning subyektiv tashkillanishiga ko‘ra avtopsixologik, ijroviy va personajli lirika turlari tasnifi, lirik qahramon tushunchasining ma’no ko‘lamiga ko‘ra tor va keng qamrovli lirik qahramon kabi turlarga bo‘lishi, tor qamrovli lirik qahramon sturktural jihatdan sodda va murakkab lirik qahramonga ajratilishi haqida so‘z boradi. Abdulla Oripovning “Odamlar” she’ri personajli she’rdagi sodda lirik qahramon formulasi orqali tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *lirik qahramon, keng qamrovli lirik qahramon, tor qamrovli lirik qahramon, sodda lirik qahramon, murakkab lirik qahramon, personajli she’rda sodda lirik qahramon, Abdulla Oripov.*

Abstract.*The article discusses the classification of lyric types—autopsychological, performative, and character lyric—according to the subjective organization of the poem. It also examines the division of the concept of the lyrical hero according to the scope of meaning into a narrow-scope lyrical hero and a broad-scope lyrical hero, while the narrow-scope lyrical hero is structurally divided into a simple and a complex lyrical hero. The poem “Odamlar” by Abdulla*

Oripov is analyzed through the formula of the simple lyrical hero in character lyric poetry.

Keywords: *lyrical hero, broad-scope lyrical hero, narrow-scope lyrical hero, simple lyrical hero, complex lyrical hero, simple lyrical hero in character lyric poetry, Abdulla Oripov.*

Аннотация. *В статье рассматривается классификация видов лирики — автопсихологической, исполнительской и персонажной — в соответствии с субъективной организацией стихотворения. Также говорится о разделении понятия лирического героя по объёму значения на узкоохватного и широкоохватного лирического героя, а узкоохватный лирический герой в структурном отношении делится на простой и сложный лирический герой. Стихотворение Abdulla Oripov «Odamlar» анализируется через формулу простого лирического героя в персонажной лирике.*

Ключевые слова: *лирический герой, широкоохватный лирический герой, узкоохватный лирический герой, простой лирический герой, сложный лирический герой, простой лирический герой в персонажной лирике, Abdulla Oripov.*

She’r-so‘z san’atining oliy ko‘rinishi. Uning paydo bo‘lishi, rivojanishi insoniyatning o‘z qalbini anglash jarayoni bilan bir sathda kechgan. Rivoyatlarga ko‘ra, insoniyat tomonidan yaratilgan ilk she’r Odam Atoga tegishli va u o‘g‘lining vafotiga bag‘ishlangan marsiya edi. Aristotel san’atkorlar uch xil shaxsiyatni tasvirlashini aytadi: yaxshi, yomon va “xuddi biz kabi” shaxsiyatlarni. She’riy asar bosh qahramoni yaxshi yoki yomon bo‘lmaydi, lirik asarning qahramoni faylasuf ta’kidlagan “xuddi biz kabi” shaxsiyat sifatida bo‘y ko‘rsatadi, uning subyektivligi ham ana shunda. Lirik qahramon Yuriy Tinyanov tomonidan atamasi sifatida qo‘llangandan beri unga turli ta’riflar berilgan. Akademik I.Sulton lirik qahramonga quyidagicha ta’rif beradi: *“Lirik qahramon – lirik asarda kechinmalari tasvirlanayotgan kishi, shoirning umumjamiyat uchun qimmatli his va fikrlarini tashuvchi shaxsdir. U shoir shaxsi bilan estetik idealning omixtasidir”.* Bu ta’rif shoirning butun ijodi doirasida emas, aniq bir asar doirasida berilgan. Ayrim asardagi lirik subyekt ham, shoirning butun ijodidagi lirik obraz ham lirik qahramon deyilsa, bu atamaning ma’no qamroviga aniqlik kiritishga ehtiyoj paydo bo‘ladi. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da lirik qahramon atamasi aniqroq qiyofada ko‘rinadi: “Lirik qahramon — *lirikadagi subyekt ko‘rinishlaridan biri, muallifning qalb kechinmalarini, o‘y-tuyg‘ularini ifodalash shakli... Lirik qahramon va muallif munosabati masalasi hanuz bahsliligicha qolmoqda. Bu masalada ko‘pchilik e’tirof etgan qarash shuki, shoir va lirik qahramon orasiga tenglik alomati qo‘yib bo‘lmaydi, ayni chog‘da, lirik qahramonni shoirdan mutlaqo boshqa hodisa hisoblash ham to‘g‘ri emas: u shoir shaxsi bilan bog‘liqlikda idrok etiladi...”.*

Lirik qahramon tushunchasining maxrajida obraz tushunchasi yotadi. Ma’lumki, obraz qamroviga ko‘ra, keng va tor ma’noda qo‘llaniladi. Nasriy asardagi personajlar kabi lirik qahramon ham muallifning badiiy niyatini ifoda etish vositasi bo‘lib keladi. Lirik asarda odatda bitta personaj bo‘ladi: lirik

qahramon. She’rda uning ishtiroki bir aktyor teatrini yodga soladi. Shoir bir inson obrazi orqali borliqni badiiy idrok etadi. She’riyatda personajlar obyektiv va subyektiv doiraga mansub. Abdulla Oripovning “Ayol”, Rauf Parfining “Turk ayoli iborati” she’rlaridagi ayol obrazi obyektiv qahramon bo‘lsa, ana shu she’rlardagi shoirning obrazi subyektiv qahramon hisoblanadi. Shunday holatlar borki, undagi lirik qahramon shaxsiyat sifatida emas, predmet sifatida namoyon bo‘lishi ham mumkin. Bu holda u bevosita emas, bilvosita shoir “men”iga borib ulanadi. Oddiy bir misol, agar shoir “bir bargdek to‘kildim” deb yozadigan bo‘lsa, unda barg detal sifatida keladi. “Daraxt menga vafo qilmadi, to‘kildim” degan ifodada esa lirik subyekt detal bilan birlashib ketadi. Talqinda u shoir shaxsiga borib ulansa ham, she’rda u barg qiyofasida namoyon bo‘ladi. Bundan kelib chiqadiki, lirik qahramonni har doim ham inson obrazi sifatida taqdim qilib bo‘lmaydi. Bunda bilvosita bo‘lsa ham lirik subyekt shoirga borib tutashadi.

Adabiyotshunos olim D.Quronov lirik qahramon va lirik subyekt o‘rtasidagi farqni izohlar ekan, “lirik subyekt umumiy tushuncha bo‘lsa, lirik “men”, ijroviy lirika qahramoni, lirik personaj uning xususiy ko‘rinishlaridir”, deydi. Olim lirik qahramonni bu guruhga kiritmaydi. Bu atama ayrim asardagi lirik subyektga emas, bir shoirning butun lirik ijodi (yoki she’riy turkumi) doirasidagi subyektga nisbatan qo‘llanilishini ta’kidlaydi. Olimning quyidagi fikrlari esa alohida yondashuv talab qiladi: “Shunga qaramay qulayligi yo quloqqa yaqinligi sabablimi, lirik qahramon istilohini umuman lirik subyekt ma’nosida qo‘llash hozirda ko‘proq ommalashdi”. Bizningcha, ilmiy muomaladagi talqinni inkor etmay, uni tizimlashtirib olish maqsadga muvofiq. Lirik asarda muallifning subyektiv ishtiroki borligi aniq ekan, uni muomalada lirik subyekt deyiladimi, lirik qahramon deyiladimi, mohiyat o‘zgarmaydi. Shoirning butun ijodidagi lirik subyektlar jamlanmasi lirik qahramon istilohi ostida birlashishini ham inkor etib bo‘lmaydi. Biz quyidagicha talqinni taklif qilamiz: lirik qahramon atamasi qamroviga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: tor va keng ma’nodagi lirik qahramon.

Tor ma’nodagi lirik qahramon bir asardagi lirik subyektni ifodalab keladi. Demak, ilmiy tahlillarda bir asar doirasida “lirik qahramon” ifodasi qo‘llanganga, tor ma’nodagi lirik qahramon, ya’ni bir she’riy asardagi lirik subyekt nazarda tutilayotgan bo‘ladi. Keng ma’nodagi lirik qahramon shoirning butun ijodiga doir bo‘ladi va uning barcha asarlaridagi lirik subyektlar – tematik lirik qahramonlar umumlashmasidan yuzaga keladi. Ilmiy muomalada “shoirning lirik qahramoni” ifodasi mohiyatida aynan shu keng ma’nodagi lirik qahramon yotadi. D.Quronov she’rning subyektiv tashkillanishini ikki toifaga ajratib ko‘rsatgan: *lirik kechinma egasiga ko‘ra; lirik obyektga ko‘ra.* Lirik kechinma egasiga ko‘ra she’riy asar uch turga bo‘linadi: *avtopsixologik lirika, ijroviy lirika, personajli lirika.* Barcha nazariy asoslarni inkor etmagan holda aytamizki, bu bo‘linish she’rdagi lirik qahramon ko‘rinishlarini yetarli darajada tavsiflay olmaydi. Avvalo, bizningcha, she’rda lirik qahramon shakliga ko‘ra, **sodda** va **murakkab** ko‘rinishlarda bo‘linishini belgilab olish zarur. Sodda lirik qahramonning she’rdagi subyektiv o‘rni mustahkam va pozitsiyasi aniq bo‘ladi. Abdulla Oripovning “Xotirot” she’ri bunga misol:

Uydan ketganganimga ko‘p yil bo‘libdi,

Ko‘p yil qishlog‘imdan ketibman uzoq.
Men yurgan yo‘llarda o‘tlar unibdi,
Ko‘milib bo‘libdi men yurgan so‘qmoq…

Bu avtopsixologik she’rdagi lirik “men” aniq. U lirik obyekt – xotirot haqida so‘zlayapti. Bunda lirik qahramonning birinchi shaxsda so‘zlashi, she’rdagi yagona subyekt ekani va boshqa obyektiv birliklar bilan munosabati ochiqligi uchun uni **sodda lirik qahramon** deymiz. Agar shoir asarda faqat subyekt sifatida emas, obyekt sifatida ham ishtirok etsa, yoki o‘z “men”iga 3-shaxsda murojaat qilsa, yoxud boshqa qahramon haqida so‘zlay turib o‘z shaxsini “nishonga” olsa, u holda bunday asar subyekti **murakkab lirik qahramon** bo‘ladi.

Lirik qahramonning shakllanish formulasida bir necha komponentlar ishtirok etadi. Har bir tushuncha she’rning mazmuniy tuzilishishida muhim o‘ringa ega. Bular: voqelik, shoir, lirik kechinma, poetik tafakkur, lirik obyekt, lirik subyekt, badiiy obraz, muallif nutqi egasi (roviy), lirik “men”, lirik qahramon va hokazo. Bu birliklar mazmunga doir bo‘lib, ular shakliy komponentlar bilan birlashib she’riy asarni yuzaga keltiradi. Mazmuniy birliklarning ma’lum bir algoritm asosidagi harakatini tahlil qilish bizga lirik qahramonning sturktural shakllanish formulasini izohlashga yordam beradi.

Avvalo, ta’kidlangan tushunchalarning tavsifiga to‘xtalsak.

Voqelik – asar yozilishiga sabab bo‘lgan voqea, mavzu, shoirdan tashqarida bo‘lgan jamiki obyektiv borliq. Voqelik shoirdan tashqarida bo‘ladi. She’r esa shoirning o‘zi qalbidagi hodisalar haqida ham bo‘lishi mumkin. Dunyo shoirning o‘zini ham qamrab oladi. She’riyatning subyektivlik xususiyatidan kelib chiqilsa, shoirdan tashqarida bo‘lgan voqelikni dunyo deb atashda mantiq bor.

Shoir – muallif ijod jarayonida o‘z tuyg‘u va fikrlarini she’rda ifoda qiladi. U she’r mazmunida ishtirok etar ekan, endi moddiy individ sifatida emas, she’r tarkibiy tuzilmasining bir qismi sifatida talqin qilinishi kerak. Muallif konsepsiyasiga ko‘ra, asar tashqarisidagi muallif va asar ichidagi muallif farqlangan. Muallif she’r kontekstida muallif nutqi egasi (roviy), lirik qahramon (lirik subyekt, lirik “men”), she’rning asosi bo‘lgan badiiy obrazlarni ifodalovchi figura bo‘lib keladi. Shoir she’rdan “tashqarida”, ya’ni she’r yozilgunga qadar bo‘lgan jarayonda she’rning egasi bo‘lgan bo‘lsa, she’r “ichiga” kirganda uning bir bo‘lagiga aylanadi.

Lirik kechinma voqelik va shoir o‘rtasidagi munosabat natijasida paydo bo‘ladi. Adabiyotshunos J.Turdimov lirik kechinma tabiati borasidagi tadqiqotida unga shunday ta’rif beradi: “voqelikning shoir qalbiga ma’lum ta’siri natijasida tug‘ilgan poetik tuyg‘u lirik kechinmadir”. Shoirning voqelikka badiiy munosabati lirik kechinmani yuzaga keltirar ekan, uni ham she’rdan tashqaridagi – asar yozilgungacha bo‘lgan jarayonga doir tushuncha ekani ayon bo‘ladi. Rauf Parfi:

“Ro‘baro kelgandek go‘yo o‘t va suv
Ro‘baro‘ keladi shoir va zamon”, — deb yozganida voqelik (zamon, makon, dunyo) va shoir doim qarama-qarshi tomonda turishiga ishora qilgan edi. Lirik kechinma ana shu qarama-qarshilikning she’rga ko‘chishida vosita vazifasini bajaradi.

Lirik kechinma she’rga aylanishi uchun **poetik tafakkur** bilan yo‘g‘rilgan bo‘lishi zarur. Poetik tafakkur shoirning badiiy mahorati, she’rning tasviriy vositalari va individual uslub kabi tushunchalarni o‘zida jamlab keladi. Poetik tafakkur shoirning iste’dodini belgilovchi asosiy omildir. Lirik kechinma – ilhom natijasida paydo bo‘ladi, deb olsak, poetik tafakkur shu ilhomni she’rda aks ettiruvchi mahorat va iste’dodning birlashuvidan yuzaga keladi.

Quyida Abdulla Oripovning personajli lirikaga mansub “Odamlar” she’rini sodda lirik qahramon formulasi asosida tahlil qilib ko‘ramiz. Personajli lirikada ijroviy lirikadan farqli ravishda muallifdan boshqa inson obrazlari ham ishtirok etadi, biroq u(lar) subyektiv xususiyatga ega bo‘lmaydi. Unda muallif faqat roviy maqomida qoladi va voqealarga munosabat bildirmaydi. Bunday voqeband lirik asarlarda personajlar liniyasi subyektiv o‘zanda bo‘lmasa-da, voqelikning o‘zi shoirning subyektiv maqsadiga xizmat qildirilgan bo‘ladi. Faqat dialogik nutqdan tashkil topgan asarlar ham shu toifaga kiradi. Persoanajli lirikada sodda lirik qahramon ana shunday hosil bo‘ladi. Dialogik she’rlarda esa lirik personaj ikkita bo‘ladi. Bunday asarlardagi “men”ni lirik “men” bilan adashtirmaslik kerak. Ularda birinchi shaxs olmoshlari va egalik qo‘shimchalari personajlar nutqining elementlari xolos. Ular she’rning subyektivizmida ishtirok etmaydi.

Personajli she’rda lirik qahramon:

5. Sodda lirik qahramon:

$$\left.\begin{matrix}\text{voqelik}\\ \hline \text{shoir}\end{matrix}\right\} \text{lk} + \text{pt} = \sqrt{\frac{\text{lirik obyekt}}{\text{lirik subyekt}}} = \frac{\text{obraz} + \text{personaj (+ personaj)}}{\text{roviy}} = \text{sodda lirik qahramon}$$

Yuqoridagi formulada buning aksini ko‘rish mumkin. Bu formulaga mos she’rlar mumtoz adabiyotdan bugungi yoshlar she’riyatigacha ko‘plab uchraydi. Formulaning mohiyatini tushuntirish uchun eng taniqli va ommaviy asarlarga murojaat qilyapmiz. A.Oripovning “Odamlar” she’ri shunday asarlardan. Ushbu she’rda ikki odamning o‘zaro munosabatini shoir roviy tilidan hikoya qilib beradi va bu odamlar asarda personaj darajasida ishtirok etadi. Formula asosida tahlil qilsak quyidagicha ko‘rinish hosil bo‘ladi:

1. **Voqelik.** Shoir ikki notanish odamning bir-biriga beg‘araz yaxshiligi haqida o‘ylaydi. Buning ifodasi sifatida qishloq ovulida kulbada yolg‘iz tunayotgan odam va u kulba yonidan o‘tib ketayotgan yo‘lovchinining suhbatini ko‘radi.
2. **Shoir.** Abdulla Oripov she’riyatida dasht ruhiyati yetakchi o‘rinni egallaydi. Ovul ana shu ruhiyatni yaqqol ifoda qiladi. Shu bilan birga dasht odamlarining dag‘al, lekin samimiy nutqini ham she’rda adabiy til me’yorlarida ifoda etadi. Bu odamlar shoirga begona emas, ularni ko‘rgan, so‘zlashgan va ularning qiyofasini xotirasiga muhrlab olgan.
3. **Lirik kechinma.** Ikki yot insonning bir-biriga bo‘lgan samimiy xayrixohligini tasvirlashda o‘sha odamlar haqidagi xotira ishga tushgan.

Shoir tasvir o‘rniga shahar yo‘llaridagi, mehmonxonalaridagi notanish odamlar muloqotin tanlashi mumkinmidi? Yo‘q. U o‘zining bisotidagi badiiy sayqallangan original tipajlarni ishga soladi. Bu she’rda lirik kechinma – shoirning odamlar o‘rtasidagi samimiyatning o‘sha chekka ovullarda qolib ketganidan iztirobidir. Shu sababdan ham voqealar ovul xronotopi tanlanadi.

4. **Poetik tafakkur.** “Odamlar” so‘zi sarlavhadan tashqari she’rning biror joyida qo‘llanmaydi. Ya’ni, odamlik insonning insonga munosabatida ko‘rinishiga ishora qiladi muallif. Shuningdek, badiiy mahorati ikki personaj leksikasini ifodalashda, mavhum tavsilotlarni mavhum qoldirgan holatda batafsil bayon qila olishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ba’zan badiiylik badiiy ifodalarsiz, tashbeh va metaforalarsiz ham yaratilishi mumkinligi, voqelikning o‘zi badiiylik hosil qila olishiga ushbu she’r misol bo‘ladi. Bunda shoirning badiiy rakursi hammasini hal qiladi.
5. **Lirik obyekt (lirik personajlar).** She’r mezbon nutqi bilan boshlanadi:

“Kel, yo‘lovchi, bo‘laqol qo‘noq,
Uyda borin ko‘ramiz baham.
Tag‘in o‘zing bilasan, biroq
Qosh qoraydi, yiroqdir yo‘l ham”.

1-personaj – mezbon notanish kimsani uyiga taklif qilyapti. Uyida yegulik qorin to‘ydirar darajada. Ehtimol, podasini qo‘raga qamab chaylada yonboshlab yotgan cho‘pondir u. Uning bisotida bir-ikki bo‘lak non, bir qumg‘on, unda qaynagan suvni damlash uchun bir choynak bordir, balki. Muhimi bu emas. Muhimi, uyot yo‘lovchi bilan o‘sha bisotini bo‘lishmoqchi.

2-personaj – yo‘lovchining nutqi yana ham qisqa. U she’r oxirida ketayotganini aytadi, xolos. U uzoq manzilga yo‘lga tushgani aniq. Chunki qosh qorayguncha yo‘lda yuribdi va, chamasi, yaqin atrofda boshqa manzil yo‘q . Odatda qadriyatlarga ko‘ra, shomdan keyin yo‘lga chiqilmaydi. Demak, u ancha oldin yo‘lga otlangan. Xullas, unga tunni o‘tkazishga joy kerak. Shu sabab ham ortiqcha mulozamat kutmaydi. Mezbon ham manziratga moyil odam emas.

Yo‘lchi qolar ovulda, mezbon
Keltiradi topgan-tutganni.
Otamlashar shu kech ikkovlon,
Yodga olib o‘tgan-ketganni…

Uzoq yo‘l yurgan mehmon, charchoqning mezbonning oldida oyoq uzatib yotaveradi. Bu ham mulozamatsizlikda mezbondan o‘tib tushgan:

Shunda yo‘lchi mudrar ichib choy,
Cho‘ziladi mezbon ham asta.
Tongda yo‘lchi tovush qilar: “Hoy,
“Men ketdim. Qol. Rahmat”. Shu bas-da.

Anglanganidek, yo‘lovchi qorinni to‘qlab, choyni ichib, uyquni olib, tongda mezbonga bir-ikki so‘z aytib yo‘lga chiqib ketaveradi. Bu munosabatni bayon qilishdan maqsad odamlikning mohiyati shirinso‘zlik, mulozamatlilikda emas, odam qo‘rs bo‘lsa ham niyati ezgu bo‘lsin, demoqchidek shoir.

6. **Roviy.** Shoir voqealar jarayoniga aralashmaydi. Unga munosabat bildirmaydi. Faqat uni bayon qilib turadi xolos.
7. **Sodda lirik qahramon.** Roviy, 1-personaj va 2-personajda lirik qahramon parchalari sochilgan. Shoir ikki suhbatdoshdan biri bo‘lishi ham mumkin. Biroq bu yashirin qolgan. Bu obyektlarning birlashuvidan hosil bo‘lgan lirik qahramon she’r yakunida shunday xulosa qiladi:

Xayrlashmas ular, hattoki
Ismlarin so‘rashmaslar ham.
Ular qayta uchrashar balki,
Balki, qayta uchrashmaslar ham.

Muallif ikki insonning bir-biriga bo‘lgan takallufsizligini yanada bo‘rttiradi: ular hatto xayrlashmaydi ham, ismini ham so‘ramaydi. So‘nggi ikki misra esa, mohiyatga yana ham yaqinlashtiradi: odam yaxshilikni qayta ko‘rishishi gumon bo‘lgan insonga qila olsagina, u haqiqiy odam bo‘ladi. Sodda lirik qahramon she’r so‘ngidagi ana shu ikk misrada subyektiv faollik ko‘rsatadi. She’rda roviylik maqomidan biroz ko‘tariladi va baholovchi funksiyasini ham bajaradi. Ana shu baho she’rdagi soda lirik qahramonga oid. Dialogik she’rlarda ikki so‘zlovchining fikrlaridan umumlashgan xulosa lirik qahramonga tegishli bo‘ladi. Bu ba’zan roviy yoki lirik “men” tomonidan aytiladi, ba’zan xulosa o‘quvchiga qoldiriladi. Har ikki holatda ham personajli she’rda soda lirik qahramon formulasi asosli hisoblanadi. Faqat roviy birida yashirin, birida oshkor ishtirok etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Aristotel., Poetika. — T.: G‘afur G‘ulom, 1980.
2. Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. — T.: Akademnashr, 2010.
3. Quronov D., Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. — T.: Navoiy universiteti, 2018.
4. Turdimov J., Lirik kechinma tabiati. — T.: Firdavs-Shoh. 2024.
5. Oripov A., Saylanma. — T.: Sharq, 1996.
6. Cho‘lpon. She’rlar. — T.: Akademnashr, 2021.
7. Parfi R. Saylanma. — T.: Akademnashr, 2013.

ABDULLA ORIPOVNING O‘ZBEK ADABIYOTIGA QO‘SHGAN HISSASI VA IJODINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Toshmuxammadova Sevinch Xayrulla qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Xalqaro jurnalistika fakulteti Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar yo‘nalishi Axiz-2501 guruhi talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Abdulla Oripovning o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan hissasi va uning ijodining bugungi kundagi ahamiyati kabi mavzularga to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek shoirning asarlaridagi mazmun-mohiyati ham ochib*

berilgan. O‘zbek shoir va yozuvchilaridan o‘zining asarlaridagi xilma-xillik bilan ajralib turadigan Abdulla Oripovni har bir o‘quvchi o‘qigan va yod olgan. Shoirning she’rlari orqali insoniylik, vatanparvarlik kabi fazilatlar yaqqol ko‘rinib turadi. Bu esa inson ongida qolishida va singishida muhim vosita hisoblanadi. Bundan tashqari mazkur maqolada shoirning asarlaridagi falsafiy jihatlar, axloqiy motivlar va avlodlar vorisligi kabi jumlalarga ham urg‘u qaratilib o‘tiladi. Maqola maqsadi o‘quvchi yoshlarda Abdulla Oripov ijodini yanada keng targ‘ib qilish va uni ommaga yetkazib bera olishdir.

Kalit so‘zlar:*Abdulla Oripov, o‘zbek adabiyoti, falsafiy motivlar, axloqiy qadriyatlar, vatanparvarlik, avlodlar vorisligi,ijodkorlik.*

Kirish. O‘zbek adabiyotida shunday insonlar borki, ular takrorlanmas va beqiyos o‘ringa ega. Shunday insonlardan biri Abdulla Oripovdir. Shoir o‘zbek adabiyotida eng muhim insonlardan biridir. Uning ijodini 7 yoshdan 70 yoshgacha insonlar yod olgan va hali hamon uning nomi bilan tilga oladilar. O‘zbek adabiyotini yuksalishida, ma’naviy ozuqa sifatida uning ijodini misol sifatida ko‘rsata olamiz. U o‘zining mazmunli she’rlari, falsafiy fikrlari va yuksak axloqiy qarashlari bilan o‘zbek adabiyotini yangi bosqichga olib chiqdi. Uning ijodini o‘rgangan har bir yosh avlod borki, vatanparvarlik ruhida ulg‘ayadi, ma’naviyati yuksak bo‘ladi. Ha, aynan Abdulla Oripov avlodlar uchun boy meros yarata oldi. Shoir ijodida inson ruhiyati, vatan taqdiri, milliy qadriyatlar va insoniy fazilatlar asosiy mavzulardan biri hisoblanadi. Uning asarlari yosh avlodni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism. O‘zbek she’riyatining yorqin namoyondalaridan biri Abdulla Oripov 1941-yili 21-mart kuni Qashqadaryo viloyati, Koson tumani, Neko‘z qishlog‘ida tavallud topgan. XX asr o‘zbek adabiyoti va she’riyatining taniqli vakili hamda O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi matni muallifi hisoblanadi.

Shunday shoirlar borki ular umrining oxiriga qadar ijod bilan yashaydi. Adabiyot ichida o‘z dunyosini yaratadi. Xalqi uchun xizmat qiladi va so‘ngida o‘zidan yaxshi nom qoldiradi. Insonlar uni yaxshilik bilan eslashadi. Yaxshi amallarini yodga oladi. Ana shunday yirik namoyondalardan biri Abdulla Oripovdir. U xalq uchun, millat uchun yashadi. Bolalik yillaridanoq ijodga mehr qo‘ydi. U shunchaki yozmadi, shunchaki ijod qilmadi, u butun umri davomida adabiyot bilan hamnafas bo‘ldi. Vatan ruhini his qilib, uni tarannum etuvchi, madh etuvchi kuyni chala oldi. Shoir she’riyatida yana bir muhim jihat shuki, unda axloqiy fazilatlar keng yoritilgan. Bu esa har bir o‘quvchi uchun yaxshi ta’ssurot qoldiradi. Ma’naviy dunyo qarashini kengaytiradi. Insonni ezgulikka chorlaydi. Abdulla Oripov ijodi yosh avlod tarbiyasida ham muhim rol o‘ynaydi. Uning asarlarida milliy g‘urur, tarixiy xotira va ajdodlar merosiga hurmat g‘oyalari keng yoritilgan.

Shoir yoshlarni ajdodlar an’analarini davom ettirishga, milliy madaniyatni asrab-avaylashga chaqiradi. Shu jihatdan uning ijodi avlodlar vorisligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ham Abdulla Oripov asarlari yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Abdulla Oripov o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri hisoblanadi. Uning ijodi falsafiy teranligi, axloqiy g‘oyalari va milliy ruh bilan ajralib turadi. Shoir asarlari o‘zbek adabiyotining rivojiga katta hissa qo‘shgan bo‘lib, yosh avlodni ma’naviy jihatdan tarbiyalashda ham muhim ahamiyatga ega. Quyida uning mana shu kabi fazilatlarni jamlagan misralariga guvoh bo‘lamiz.

Xatolaring kerak ularga

Shundaylar bor,senga lutf aylab,
Dostman, deya senga qo‘lin tutarlar.
Lekin har zum qadaming poylab,
Xato qilishingni kutarlar.

Xato qilsang, ularga bayram,
Yoqsa, zahru zaqqum yutarlar.
Mayli, jindek, zarra bo‘lsa ham,
Xato qilishingni kutarlar.

Xatolaring kerak ularga,
Shox navdangn darhol butarlar
Tag‘in kunni ulab tunlarga,
Xato qilishingni kutarlar.

Axtarurlar hamisha illat,
Etti pushting go‘rin titarlar.
Faqat unma, ulg‘ayma faqat,
Xato qilishingni kutarlar.

Ular senga bir umr yo‘ldosh,
Sodiq hamroh kabi o‘tarlar.
Qabring uzra egsalar ham bosh,
Xato qilishingni kutarlar.

She’rning asosiy mavzusi — inson hayotida uchraydigan ikkiyuzlama odamlar va boshqalarning muvaffaqiyatsizligini kutib yashaydigan kishilar haqida. Shoir bunday insonlarning asl niyatini ochib beradi.

Asarning asosiy g‘oyasi — inson o‘z yo‘lida davom etishi, boshqalarning hasadi yoki tanqididan qo‘rqmasligi kerakligini ko‘rsatishdir. Shoir odamlar orasida do‘stdek ko‘rinib, aslida esa insonning xatosini kutib yashaydiganlar borligini ta’kidlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripov o‘zbek adabiyotining eng yirik va sermahsul namoyandalaridan biri hisoblanadi. Uning ijodi milliy adabiyotimiz rivojida muhim o‘rin egallab, badiiy tafakkur va ma’naviy qadriyatlarning boyishiga katta hissa qo‘shgan. Shoirning she’rlari nafaqat badiiy

jihatdan mukammal, balki falsafiy mazmunining chuqurligi, axloqiy g‘oyalarning yuksakligi bilan ham ajralib turadi.

Abdulla Oripov ijodida inson ruhiyati, hayotning mazmuni, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash, insonning jamiyatdagi o‘rni kabi muhim masalalar keng yoritilgan. Shoir o‘z asarlarida insonni doimo halollikka, poklikka, vijdonli bo‘lishga chorlaydi. Uning she’rlari orqali insoniy fazilatlar ulug‘lanadi, ma’naviy kamolot sari intilish g‘oyasi targ‘ib qilinadi. Ayniqsa, shoir ijodida vatanparvarlik, milliy g‘urur va xalq taqdiriga befarq bo‘lmaslik kabi tushunchalar muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://mum-toz.narod.ru
2. https://kh-davron.uz
3. Arboblar.uz https://arboblar.uz
4. Ziyo istagan qalblar uchun https://n.ziyo.com
5. Tafakkur.net https://tafakkur.net
6. Kun.uz https://kun.uz

ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA MILLIY O‘ZLIK VA VATANPARVARLIK G‘OYALARI

Rustamova Aziza
O ‘z JOKU, bakalavr talabasi
Ilmiy rahbar: **Zakirova Z.Z**. ,O‘z JOKU, katta o‘qituvchi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov she’riyatida Vatan timsoli, milliy o‘zlikni anglash va tarixiy xotira masalalari tahlil qilinadi. Shoir ijodida Vatanga muhabbat, xalq ruhiyati hamda ajdodlar merosiga hurmat kabi g‘oyalar badiiy obrazlar orqali yoritiladi. Shuningdek, uning asarlarida o‘zbek xalqining ma’naviy qadriyatlari, milliy g‘urur va mustaqillik ruhining ifodalanishi alohida ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *Vatan obrazi, milliy o‘zlik, tarixiy xotira, she’riyat, vatanparvarlik, qadriyatlar, ajdodlar merosi, mustaqillik g‘oyasi, o‘zbek adabiyoti.*

Abstract. *This article analyzes the image of the Motherland, the awareness of national identity, and issues of historical memory in the poetry of Uzbekistan’s national poet and Hero of Uzbekistan, Abdulla Oripov. In the poet’s works, ideas such as love for the Motherland, the spirit of the people, and respect for the heritage of ancestors are expressed through artistic images. Furthermore, special attention is given to the reflection of the Uzbek people’s spiritual values, national pride, and the spirit of independence in his writings.*

Keywords: *image of the Motherland, national identity, historical memory, poetry, patriotism, values, ancestral heritage, the idea of independence, Uzbek literature.*

Har bir millatning o‘zligini anglatuvchi, uning dard-u quvonchini she’riyat tili bilan dunyoga ko‘rsatuvchi buyuk siymolari bo‘ladi. O‘zbek adabiyotida bunday sharafli vazifani O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov o‘z zimmasiga oldi. Abdulla Oripovning vatan tushunchasini madh etib yozgan she’ri bu O‘zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasidir. Shoir yaratgan madhiyada O‘zbekiston yurtining go‘zalligi, xalqining buyuk tarixi ulug‘lanadi. She’rning xar bir satrlari katta ma’no va mohiyatga ega.

“Serquyosh hur o‘lkam, elga baxt, najot”

Bu misrada Vatanning tabiat tasviri bilan birga uning xalq uchun qanday muhim ekanligi umumiy falsafiy ohangda ifodalanadi. “Serquyosh hur o‘lkam” atamasi yurtimizning ozod, mustaqil, yorug‘ bo‘lganligini ma’nosini beradi, ya’ni bunda Vatan o‘zbek xalqiga baxt va najot manbai sifatida tasvirlanadi. Bu satr orqali shoir vatanni inson hayoti uchun eng muqaddas joy sifatida qadrlaydi.

“Olamni mahliyo aylagan diyor!”

Bu misra she’riy matnning eng baland nuqtalaridan biri bo‘lib, Vatan obrazini nafaqat o‘z xalqiga, balki butun dunyoga go‘zalligi, boy tarixi va ma’naviy qudrati bilan ta’sir o‘tkazadigan maskan sifatida tasvirlaydi. Bu yerda so‘z “diyor” orqali Vatan – O‘zbekiston – buyuk, o‘ziga xos go‘zallik va jozibaga ega joy sifatida madh etiladi.

Abdulla Oripov - noyob iste’dod egasi. Chuqur falsafiylik, milliy ruh, diniy-axloqiy mezonlarga sadoqat shoir she’riyati asoslarini tashkil etadi. O‘zbek xalqining milliy tiklanishi va mustaqillik uchun kurashida Abdulla Oripov she’riyati katta o‘rin tutadi.Abdulla Oripov ijodida Vatanga muhabbat, tarixiy xotira, milliy g‘urur va insoniy qadriyatlar markaziy g‘oya sifatida namoyon bo‘ladi. Uning she’riyati nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki o‘quvchini o‘z tarixiga, ildizlariga va milliy o‘zligiga qayta nazar tashlashga undaydi. Shu nuqtai nazardan, shoirning alohida o‘rin tutgan asarlaridan biri — “O‘zbekiston” qasidasi, o‘zining yuksak g‘oyaviy va badiiy qimmati bilan ajralib turadi. Bu qasida orqali Oripov xalqning milliy ruhini, Vatan sevgisini va ma’naviy boyligini yorqin tasvirlaydi.

“Zabtga olib keng Osiyoni,
Bir zot chiqdi mag‘rur, davongir,
Ikki asr yarim dunyoni
Zir qaqshatdi Buyuk jahongir.”

Bu misrada shoir O‘zbekiston tarixidan buyuk shaxs — Amir Temur timsolini yodga oladi. U Osiyo va Yevropaga kuchi bilan ta’sir qilgan buyuk sarkarda sifatida tasvirlanadi. Bu yerda: “Zabtga olib keng Osiyoni” — Amir Temurning keng hududlarni qo‘lga kiritib, kuchli davlat barpo etgani haqida so‘z boradi. “Bir zot chiqdi mag‘rur, davongir” — bu shaxsning mag‘rurligi, jasorati va maqsad sari intilishi bilan tarixda o‘chmas iz qoldirgani ta’kidlanadi.

Abdulla Oripovning tarixiy merosi – bu o‘zbek xalqining buyuk shaxslarini, tarixiy voqealarni va milliy qadriyatlarni she’riy obrazlarda saqlash orqali milliy g‘urur, Vatan sevgisi va ma’naviy boylikni uyg‘otishga xizmat qiladigan ijodidir. Abdulla Oripov ijodida o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma’naviy an’analari

ona tili, Vatan sevgisi, tarixiy meros va insoniy fazilatlar orqali ifodalanadi, uning she’rlari esa o‘quvchini milliy o‘zlik va ma’naviy boylikni qadrlashga undaydi.

Abdulla Oripov she’riyati o‘zbek xalqining milliy o‘zligi, tarixiy xotirasi va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini yuksak badiiy darajada ifodalagan bebaho adabiy merosdir. Shoir asarlarida Vatan timsoli nafaqat muqaddas maskan, balki xalqning ruhiy kuchi, tarixiy ildizlari va ma’naviy qadriyatlarining ramzi sifatida talqin etiladi. Uning she’rlarida ajdodlar merosiga hurmat, milliy g‘urur va mustaqillik g‘oyasi chuqur falsafiy mazmun bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Abdulla Oripov ijodi o‘quvchini o‘z milliy qadriyatlarini anglashga, tarixiy merosni asrab-avaylashga va Vatan ravnaqi yo‘lida mas’uliyat bilan yashashga undaydi. Shu bois shoir she’riyati o‘zbek adabiyotida nafaqat badiiy-estetik ahamiyatga, balki katta ma’naviy-ma’rifiy qiymatga ham ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergasheva, M. (2023). "Abdulla Oripov she’riyatining o‘ziga xos xususiyatlari". Khorezm Davlat Universiteti, Kutubxona, 15(2), 34-42.
2. Karimov, N. (2021). "Abdulla Oripov she’riyatida bahor timsoli". Inson huquqlari va jamiyat, 9(3), 58-65.
3. Toshmatov, S. (2024). "Abdulla Oripovning milliy g‘urur va vatanparvarlik obrazlari". Zamonaviy adabiyot, 12(1), 77-85.
4. Raximova, D. (2022). "Abdulla Oripov she’riyatida falsafiy mavzular". O‘zbekiston adabiyoti, 8(4), 23-30.

ABDULLA ORIPOVNING “O‘ZBEKISTON” SHE’RIDA VATANPARVARLIK G‘OYASI

Abdurahmonova Zubaydaxon
O‘zJOKU, bakalavr talabasi,
Ilmiy raxbar: **Zakirova Z.Z**.,O‘zJOKU, katta katta o‘qituvchi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abdulla Oripovning “O‘zbekiston” she’ri tahlil qilinadi. She’rda shoirning vatanga bo‘lgan chuqur muhabbati, xalqning boy tarixi, buyuk va qudratli ajdodlar siymolari va ular bilan faxrlanish tuyg‘ulari keng talqin qilinadi. Shu bilan birga, ushbu she’rda xalqning sabr-matonati, milliy g‘urur masalalari yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Vatan, O‘zbekiston, Vatan muhabbati, vatan madhi, milliy g‘urur, xalq, vatanparvarlik.*

Abstract.*This article analyzes the poem “Uzbekistan” by Abdulla Oripov. The poem widely expresses the poet’s deep love for his homeland, the rich history of the nation, and the images of great and powerful ancestors, along with the feelings of pride associated with them. At the same time, the poem highlights the people’s patience, resilience, and a strong sense of national pride.*

Keywords: *Homeland, Uzbekistan, Love for the homeland, praise of the homeland, national pride, people, patriotism.*

O‘zbek adabiyotida Vatan mavzusini yuksak ruhda madh etuvchi, kuylovchi shoirlardan biri Abdulla Oripov hisoblanadi. Abdulla Oripov (1941-yil, 21-mart - 2016-yil 5-noyabr) O‘zbekiston xalq shoiri, “O‘zbekiston Qahramoni”(1998), “O‘zbekiston xalq shoiri” (1983)”Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti (1994) Singari unvon va mukofotlar sohibi, o‘zbek shoiri tarjimon va jamoat arbobi, Vatan kuychisi hisoblanadi. Shoirning she’rlarida milliy g‘urur, millatimiz tarixi, boy va o‘ziga hos madaniyatimiz yaqqol namoyon bo‘ladi. Qolaversa, u xalqimizning o‘tmishini, bugunini va kelajagini o‘z she’rlarida ulug‘lab tasvirlaydi va baralla kuylaydi. “O‘zbekiston” she’ri ham shoir ijodidagi muhim asarlardan biri bo‘lib, unda shoir vatanni madh etadi, va xalqimizning buyuk tarixiy merosi haqida so‘z olib boradi.

Asosiy qism, “O‘zbekiston” she’rida shoir o‘z yurti bilan faxrlanish tuyg‘usuni chuqur ifodalaydi shu bilan birga o‘quvchiga ham ushbu fikrni singdiradi. Hattoki, shoir she’rning boshlanishiga ham alohida e’tibor beradi;

Yurtim, senga she’r bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim aslo.

Ya’ni, shoir yurrtiga atab qalam o‘tkirlayotganligini hamda, uning yagonaligini, unga o‘xshashi yo‘qligini ifoda etmoqda. She’rning davomini o‘qir ekanmiz, shoir uchun O‘zbekiston – bu nafaqat tug‘ilin o‘sgan yurt, balki buyuk tarix va madaniyat maskanidir.

She`r davomida shoir xaqimizning boy tarixini eslab o‘tadi. U tarix sahifalarida muhim iz qoldirgan bobolarimizni tilga oladi. Xususan,osmon ilmi buyuk bobokalonimiz Mirzo Ulug‘bek tomonidan o‘rganilganligini ushbu go‘zal satrlar bilan bayon qiladi.

Osmon ilmi tug‘ilgan ilk bor, Ko‘ragoniy jadvallarida.
****
Do‘star, ko‘kda yulduzlar emas, u, Ulug‘bek ko‘zidagi yosh.

Shoir uning ilmiy merosini yulduzlar bilan qiyoslab, xalqimiz ilm-fan sohasida ham buyuk yutuqlarga erishkanini ko‘rsatadi.

Shuningdek, shoir o‘z she’ri davomida buyuk mutafakkir Mir Alisher Navoiyni ham esga oladi. Shoir uning ijodini buyuk kuchga qiyoslaydi va o‘z qalami bilan butun dunyoni zabt etkanini ta’kidlaydi. Bu orqali shoir o‘zbek adabiyotining qanchalar boy va qudratli elanini bayon qiladi. Qo‘shimchasiga shoir o‘z she’rida Abu Rayxon Beruniyni ham alohida qalamdan o‘tkazadi;

Amerika – sehrli diyor ,
Uxlar edi Kolumb ham hali,
Dengiz ortin yoritgan ilk bor
Beruniyning aql mash’ali

Bu misralar orqali shoir, bizning bobolarimiz o‘tkir zehni va falsafiy qarashlari orqali yangi yerlarni kashf qilganlarini faxr bilan fayon qilgan.

She`rda xalqimiz boshidan kechirgan o‘ir sinovlar ham tasvirlanadi. Turli bosqinlar, urishlar halqimiz hayotiga o‘z ta’sirini o‘tqarishiga qaramasdan, xalq o‘zligini yo‘qotmay, o‘z vatani va qadryatlarini saqlab qolganligi aytiladi.Shoir, bu bilan xalqning matonati va sabr – toqatini ifodalagan.

Sen o‘zingsan, eng so‘ngi nonin
O‘zi yemay o‘g‘liga tutgan.

Yuqoridagi misra orali shoir vatanni mehribon onaga qiyoslamoqda va manashu o‘xshatish orqali millatimizdagi onalar siymosini farzandlari uchunm hatto, jonini ham qurbon qilishka tayyor shaxslar sifatida shakillantirgan.

Shoir yana xalqning buyuk fazilatlarini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, xalq – Vatanning eng katta boyligi. O‘zbek xalqi mehribon, sabrli va mard xalq sifatida tasvirlanadi. She’r orqali shoir xalqiga chuqur hurmat, milliy g‘urur va Vatanparvarlik qissini ifoda etadi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripovning “ O‘zbekiston “ she’ri Vatan madhiga bag‘ishlangan chuqur mazmunli asardir. Ushbu she’rni har bir o‘quvchi oddiy she`r sifatida o‘qimasligi zarur, uni butun vujudi bilan his etishi va milliy g‘urur, vatanparvarlik kabi buyuk tushunchalarni anglab yetishlari kerak. Negaki, bu she’rda vatanga bo‘lgan kuchli muhabbat, uning tarixi va betakror madaniyati aks etkan. Biz uni shunchaki she`r tarzida emas, balki san’at asari yanglig‘ qabul qilishimiz va organishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. – Toshkent;
2. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: Fan nashryoti;
3. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent;

TA’LIM MUASSASALARIDA ABDULLA ORIPOV ASARLARINI O‘QITISHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Egamberdiyeva Xulkaroy Bekzod qizi
O‘zJOKU, 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Zakirova Z.Z.

Annotatsiya. *Maqolada Abdulla Oripovning adabiy merosini ta`lim muassasalarida o‘rgatishdagi turli metodikalar tahlil qilingan. Bundan tashqari, maktab va maktabgacha ta`lim muassasalarida hamda oliy ta`lim dargohlarida A.Oripovning asarlarini o‘qitish va uning yosh avlod tarbiyasiga ta`siri – yoshlarimizda she`r vositasi orqali sevgi, sadoqat, vatanga muhabbat kabi tuyg‘ularni uyg‘otishi haqida yoritiladi. Qolaversa, adib xotirasini yanada ulug‘lashga doir qaror va farmonlar keltirib o‘tiladi. Adibning vafotidan so‘ng davlatimiz rahbari tomonidan Qarshi shahridagi Abdulla Oripov nomidagi ijod*

maktabiga asos solindi. Bundan tashqari Abdulla Oripovning o‘zbek tilidagi ikki jildlik “Tanlangan asarlar”ini, qoraqalpoq, rus, ingliz va boshqa tillarga tarjima qilingan she’riy to‘plamlarini, ***“Abdulla Oripov zamondoshlari xotirasida”*** *kitobini chop etish to‘g‘risida prezident farmoni e`lon qilindi.*

Kalit so‘zlar : *adib, maktab, maktabgacha ta`lim muassasalari, vatan, o‘rganish, yodlash, anglash.*

Abstract. *The article analyzes various methods of teaching the literary heritage of Abdulla Oripov in educational institutions. In addition, the study of A. Oripov’s works in schools, preschool institutions and higher education institutions and its impact on the upbringing of the younger generation is highlighted - the awakening of feelings such as love, loyalty, and love for the homeland in our youth through poetry. In addition, resolutions and decrees are cited to further glorify the memory of the writer. After the death of the writer, the head of our state founded the Abdulla Oripov Creative School in the city of Karshi. In addition, a presidential decree was issued on the publication of Abdulla Oripov’s two-volume "Selected Works" in Uzbek, poetry collections translated into Karakalpak, Russian, English and other languages, and the book "In Memory of Abdulla Oripov’s Contempor.*

Keywords: *writer, school, preschool educational institutions, homeland, learning, memorization, understanding.*

Abdulla Oripov bu nafaqat shoir balki, millatining dardini, kamchiliklarini ko‘ra olgan, vatan sevgisini qalbida jo qila olgan va mana shu sevgi bilan barchamiz sevib tinglovchi va faxr bilan aytuvchi O‘zbekiston respublikasi madhiyasini yozgan yetuk mutaffakirlardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning asarlari davr kamchiliklari, vatan muhabbatini keng yoritgan bo‘lib, serma`no va xalqchinligi bilan yaqqol ajralib turadi. Shoirning asarlari yoshlarga maktabgacha ta`lim muassasalaridanoq o‘rgatilishi, maktab davrida esa, deyarli har bir sinf darsiliga keltirib o‘tilgani yuqoridagi gapimizga yetarlicha isboti bo‘la oladi.

Dono xalqimiz o‘qish bilan uqishning farqi bor deganlaridek asarlarni o‘rganish va o‘rgatish sifatidada ham ba`zi kamchiliklarni uchratishimiz mumkin. Maktab bitiruvchilarining deyarli har biri A.Oripovning she`rlardan bir nechasini yoddan biladi. Negaki, maktab darsliklarida she`rlarni yodlash topshiriqlari berilgan ammo o‘quvchilarda she`rlarni yuzaki yodlash bilan cheklanish holatlariga duch kelish mumkin. Holbuki, she`rlar faqatgina yodlanish uchun emas balki, o‘quvchiga nimanidur o‘rgatish uchun bitiladi. Misol uchun tilla balqicha she`rini olsak :

Tuxumdan chiqdiyu keltirib uni
Shu loyqa hovuzga tomon otdilar.
Tashlandiq ushoq yeb o‘tadi kuni,
Xor-u xas, xazonlar ustin yoptilar.

Dunyoda ko‘rgani shu tor hovuzcha

Va mudroq tollarnimg achchiq xazoni.
Menga alam qilar, tilla baliqcha
Bir ko‘lmak hovuz deb bilar dunyoni…

Adib bu asari bilan har qanday inson xoh u “tilla” bo‘lsin dunyo kezmasa, “tor hovuzchadan” boshqa joyni ko‘rmasa butun dunyoni shu “tor hovuz” dan iborat deb o‘ylashini, yeyotganini esa bir tashlandiq ushoq ekanini bilmay dunyodan o‘tib ketishi mumkinligi haqida chiroyli misralar bilan yozgan. Biroq, buni tushunmay yodlagan yuzlab o‘quvchilar bor. Shuni tan olish kerakki, hozirgi kunda maktab darsliklarida har bir asardan so‘ng ularning mazmum mohiyati haqida qisqacha keltirib o‘tiladi. Ammo, bu asarni to‘liq tushishga yetarli bo‘lmasligi mumkin.

Shu sababli dars davomida o‘qituvchi asarning asl mohiyatini batafsil tushuntirib berishi so‘ng, yodlash topshirig‘ini berishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, asibning quyidagi misralarida Vatanga bo‘lgan muhabbatni matnnning pragmaitik jihatidan tahlil qilib, tushunish mumkin:

Yurtim senga she`r bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim also.
Shoirlar bor, o‘z yurtin butun-
Olam aro atagay tanho.
Ular she`ri uchdi ko‘p yiroq
Qanotida kumush diyori
Bir o‘lka bor dunyoda,biroq
Bitilmagan dostondur bori:
Faqat ojiz qalamim manim,
O‘zbekiston, vatanim manim.

Lekin,bugungi kunda atrofimizga e`tibor bilan nazar tashlasak ayrim yoshlar nafaqat yorga bo‘lgan sevgiga balki, vatanga bo‘lgan muhabbatga ham yengil qarashyotganining yoki bu tuyg‘ular haqida sayoz fikrovchi yoshlar ko‘payib borayotganini ko‘rishimiz mumkin. Demak she`rlar va maktab darsliklaridagi asarlar haqida qisqacha ma`lumotlar yozuvchi yoki shoir aytmoqchi bo‘lgan gapni to‘laqonli yetkazib berish uchun va o‘quvchi qalbida iliq hissiyot uyg‘otish uchun yetarli bo‘lmasligi mumkin.

Demak, o‘qituvchi avvalo Abdulla Oripov she`rlarining mag‘zini – asl mohiyatini tushuntirib berishi hamda faqatgina o‘rganuvchining qay darajada yodlaganini emas, adibimiz asarlarini ne chog‘lik tushunganini tekshirishi, agar xatoliklar, kamchiliklar bo‘lsa tuzatishi va to‘ldirishi maqsadga muvofiq.

Yuqorida adibimizning faqat ikki - hammaga tanish bo‘lgan asarlarini keltirib o‘tdik, ammo uning shunday she`rlari borki ularni mohirona foydalanib yoshlarning dunyoqarashi, taffakurini oshirish uchun eng kuchli qurol sifatida ishlatsak bo‘ldi.

Odam bolalari turfa naqadar,
Biri mo‘min bo‘lsa, boshqasi asov,
Biriga quyuqroq salom bersang gar,
Xushomadgo‘y deydi nomingni darrov.

Mayliga birorkun ataylab sen ham
Qad kerib sipoyu o‘ychan bo‘lib yur.
Malomat yog‘ilar boshinga shu dam,
Seni aytadilar darhol takabbur.

Yaxshisi dilingda bo‘lsin muhabbat,
Oshkor etaverma uni jo‘rtaga.
Avliyo misoli jim yurgin faqat,
Ko‘zlardan yiroq bo‘l, chiqma o‘rtaga.

Ushbu she`r inson bolasi yillar davomida yashab o‘rganishi mumkin bo‘lgan mulohazani shoirona ifoda etgan. Abdulla Oripov shunchaki shoir emas, u ustoz – o‘quvchiga har bir asari bilan nimanidur tushuntirmoqchi bo‘lgan muallim. She`riyat osmonidan charqalab chiqgan ammo bir necha bor so‘ndirilishga harakat qilingan bir yulduz edi. Maqolada adibning bir necha she`rlari keltirib o‘tilgan bo‘lsada uning bir qancha – o‘quvchilarga ibrat bo‘la oladigan asarlari jumladan: “O‘zbek paxtasi”, “O‘zbegim toji bilan”, “bog‘bon”, “eski quduq” kabi purma`no she`rlari talaygina. Bunday buyuk asarlar yaratilgan ekan o‘qituvchilarning gardaniga she`rlarning har bir satri ortida qanday ma`no yotganini tahlil bilan o‘quvchiga tushuntirishi, bu tushunchalarni mustahkamlash uchun qiziqarli topshiriqlar berishi yuklatilgan.

Xulosa qilib aytganda, shoir asarlariga yuzaki qaramay, aksincha chuqur tahlil asosida o‘rgatish va shu orqali yoshlarimiz dunyoqarashini rivojlantirish kelajagimiz bunyotkorlari uchun eng manfaatli yo‘l bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kun.uz https://youtu.be/hkSlYlOBfqA?si=kg1uNiRloPAIAlZO
2. https://tafakkur.net/abdulla-oripov.haqida
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Oripov
4. https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-qahramoni-va-xalq-shoiri-abdulla-oripov-tavalludining-80-yilligini-keng-nishonlash-togrisida
5. https://uza.uz/oz/posts/abdulla-oripov-haqida-muqova-ostidagi-hikmat-va-bahor-ostonasidagi-yangi-yodnoma_246430

ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA MILLIY O‘ZLIK VA VATANPARVARLIK G‘OYALARI

Rustamova Aziza
O ‘z JOKU, bakalavr talabasi
Ilmiy rahbar: **Zakirova Z.Z.**
O‘z JOKU, katta o‘qituvchi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov she’riyatida Vatan timsoli, milliy o‘zlikni anglash va tarixiy xotira*

masalalari tahlil qilinadi. Shoir ijodida Vatanga muhabbat, xalq ruhiyati hamda ajdodlar merosiga hurmat kabi g‘oyalar badiiy obrazlar orqali yoritiladi. Shuningdek, uning asarlarida o‘zbek xalqining ma’naviy qadriyatlari, milliy g‘urur va mustaqillik ruhining ifodalanishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *Vatan obrazi, milliy o‘zlik, tarixiy xotira, she’riyat, vatanparvarlik, qadriyatlar, ajdodlar merosi, mustaqillik g‘oyasi, o‘zbek adabiyoti.*

Abstract. *This article analyzes the image of the Motherland, the awareness of national identity, and issues of historical memory in the poetry of Uzbekistan’s national poet and Hero of Uzbekistan, Abdulla Oripov. In the poet’s works, ideas such as love for the Motherland, the spirit of the people, and respect for the heritage of ancestors are expressed through artistic images. Furthermore, special attention is given to the reflection of the Uzbek people’s spiritual values, national pride, and the spirit of independence in his writings.*

Keywords: *image of the Motherland, national identity, historical memory, poetry, patriotism, values, ancestral heritage, the idea of independence, Uzbek literature.*

Har bir millatning o‘zligini anglatuvchi, uning dard-u quvonchini she’riyat tili bilan dunyoga ko‘rsatuvchi buyuk siymolari bo‘ladi. O‘zbek adabiyotida bunday sharafli vazifani O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov o‘z zimmasiga oldi. Abdulla Oripovning vatan tushunchasini madh etib yozgan she’ri bu O‘zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasidir. Shoir yaratgan madhiyada O‘zbekiston yurtining go‘zalligi, xalqining buyuk tarixi ulug‘lanadi. She’rning xar bir satrlari katta ma’no va mohiyatga ega.

“Serquyosh hur o‘lkam, elga baxt, najot”

Bu misrada Vatanning tabiat tasviri bilan birga uning xalq uchun qanday muhim ekanligi umumiy falsafiy ohangda ifodalanadi. “Serquyosh hur o‘lkam” atamasi yurtimizning ozod, mustaqil, yorug‘ bo‘lganligini ma’nosini beradi, ya’ni bunda Vatan o‘zbek xalqiga baxt va najot manbai sifatida tasvirlanadi. Bu satr orqali shoir vatanni inson hayoti uchun eng muqaddas joy sifatida qadrlaydi.

“Olamni mahliyo aylagan diyor!”

Bu misra she’riy matnning eng baland nuqtalaridan biri bo‘lib, Vatan obrazini nafaqat o‘z xalqiga, balki butun dunyoga go‘zalligi, boy tarixi va ma’naviy qudrati bilan ta’sir o‘tkazadigan maskan sifatida tasvirlaydi. Bu yerda so‘z “diyor” orqali Vatan – O‘zbekiston – buyuk, o‘ziga xos go‘zallik va jozibaga ega joy sifatida madh etiladi.

Abdulla Oripov - noyob iste’dod egasi. Chuqur falsafiylik, milliy ruh, diniy-axloqiy mezonlarga sadoqat shoir she’riyati asoslarini tashkil etadi. O‘zbek xalqining milliy tiklanishi va mustaqillik uchun kurashida Abdulla Oripov she’riyati katta o‘rin tutadi.Abdulla Oripov ijodida Vatanga muhabbat, tarixiy xotira, milliy g‘urur va insoniy qadriyatlar markaziy g‘oya sifatida namoyon bo‘ladi. Uning she’riyati nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki o‘quvchini o‘z tarixiga, ildizlariga va milliy o‘zligiga qayta nazar tashlashga undaydi. Shu nuqtai nazardan, shoirning alohida o‘rin tutgan asarlaridan biri — “O‘zbekiston” qasidasi,

o‘zining yuksak g‘oyaviy va badiiy qimmati bilan ajralib turadi. Bu qasida orqali Oripov xalqning milliy ruhini, Vatan sevgisini va ma’naviy boyligini yorqin tasvirlaydi.

“Zabtga olib keng Osiyoni,
Bir zot chiqdi mag‘rur, davongir,
Ikki asr yarim dunyoni
Zir qaqshatdi Buyuk jahongir.”

Bu misrada shoir O‘zbekiston tarixidan buyuk shaxs — Amir Temur timsolini yodga oladi. U Osiyo va Yevropaga kuchi bilan ta’sir qilgan buyuk sarkarda sifatida tasvirlanadi. Bu yerda: “Zabtga olib keng Osiyoni” — Amir Temurning keng hududlarni qo‘lga kiritib, kuchli davlat barpo etgani haqida so‘z boradi. “Bir zot chiqdi mag‘rur, davongir” — bu shaxsning mag‘rurligi, jasorati va maqsad sari intilishi bilan tarixda o‘chmas iz qoldirgani ta’kidlanadi.

Abdulla Oripovning tarixiy merosi – bu o‘zbek xalqining buyuk shaxslarini, tarixiy voqealarni va milliy qadriyatlarni she’riy obrazlarda saqlash orqali milliy g‘urur, Vatan sevgisi va ma’naviy boylikni uyg‘otishga xizmat qiladigan ijodidir. Abdulla Oripov ijodida o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma’naviy an’analari ona tili, Vatan sevgisi, tarixiy meros va insoniy fazilatlar orqali ifodalanadi, uning she’rlari esa o‘quvchini milliy o‘zlik va ma’naviy boylikni qadrlashga undaydi.

Abdulla Oripov she’riyati o‘zbek xalqining milliy o‘zligi, tarixiy xotirasi va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini yuksak badiiy darajada ifodalagan bebaho adabiy merosdir. Shoir asarlarida Vatan timsoli nafaqat muqaddas maskan, balki xalqning ruhiy kuchi, tarixiy ildizlari va ma’naviy qadriyatlarining ramzi sifatida talqin etiladi. Uning she’rlarida ajdodlar merosiga hurmat, milliy g‘urur va mustaqillik g‘oyasi chuqur falsafiy mazmun bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Abdulla Oripov ijodi o‘quvchini o‘z milliy qadriyatlarini anglashga, tarixiy merosni asrab-avaylashga va Vatan ravnaqi yo‘lida mas’uliyat bilan yashashga undaydi. Shu bois shoir she’riyati o‘zbek adabiyotida nafaqat badiiy-estetik ahamiyatga, balki katta ma’naviy-ma’rifiy qiymatga ham ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergasheva, M. (2023). "Abdulla Oripov she’riyatining o‘ziga xos xususiyatlari". Khorezm Davlat Universiteti, Kutubxona, 15(2), 34-42.
2. Karimov, N. (2021). "Abdulla Oripov she’riyatida bahor timsoli". Inson huquqlari va jamiyat, 9(3), 58-65.
3. Toshmatov, S. (2024). "Abdulla Oripovning milliy g‘urur va vatanparvarlik obrazlari". Zamonaviy adabiyot, 12(1), 77-85.
4. Raximova, D. (2022). "Abdulla Oripov she’riyatida falsafiy mavzular". O‘zbekiston adabiyoti, 8(4), 23-30.

ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTIGA ABDULLA ORIPOVNING FALSAFIY VA MA’NAVIY TA’SIRI

Xusenova Nigina Sherali qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Turizm fakulteti xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Xusenov Shoxrux Sherali o‘g‘li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Dasturiy Injiniring fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqola zamonaviy o‘zbek adabiyotida Abdulla Oripovning falsafiy va axloqiy ta’sirini tahlil qiladi. Shoirning ijodi nafaqat badiiy uslub, balki axloqiy va falsafiy g‘oyalar orqali o‘zbek she’riyatiga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Maqolada Oripov ijodining zamonaviy adabiyotdagi o‘rni, yosh avlod yozuvchilari va she’riyat shakllariga ta’siri hamda uning axloqiy va falsafiy g‘oyalari qanday davom ettirilayotgani ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Abdulla Oripov, zamonaviy o‘zbek adabiyoti, falsafiy ta’sir, axloqiy motivlar, she’riyat, milliy qadriyatlar, yosh avlod adabiyoti.*

Abstract. *This article analyzes Abdulla Oripov’s philosophical and moral influence in contemporary Uzbek literature. The poet’s work has had a profound impact on Uzbek poetry not only through artistic style but also through moral and philosophical ideas. The article examines Oripov’s role in contemporary literature, his influence on young writers and poetic forms, as well as how his moral and philosophical ideas continue to be carried forward.*

Keywords: *Abdulla Oripov, contemporary Uzbek literature, philosophical influence, moral motifs, poetry, national values, young generation literature.*

Kirish. Abdulla Oripov o‘zbek adabiyotining so‘nggi asrlaridagi eng muhim shoir va publitsistlardan biri bo‘lib, uning ijodi zamonaviy o‘zbek adabiyotiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Shoirning falsafiy va axloqiy g‘oyalari nafaqat uning she’riyatida, balki o‘zbek tilining zamonaviy badiiy shakllarida ham aks etgan.

Oripovning ijodiy merosi yosh avlod adabiyatchilari uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi. Uning asarlaridagi falsafiy tafakkur va axloqiy qadriyatlar zamonaviy she’riyatda davom ettiriladi va o‘zbek madaniyati hamda milliy ma’naviyat rivojiga hissa qo‘shadi. Ushbu maqolada shoirning zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi ta’siri batafsil tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Abdulla Oripovning ijodida falsafiy g‘oyalar muhim o‘rin tutadi. Shoir hayotning ma’nosi, insoniy axloq, ijtimoiy mas’uliyat va milliy qadriyatlarni she’riyat orqali o‘quvchiga yetkazadi. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida Oripovning falsafiy qarashlari ko‘plab yosh adabiyatchilar tomonidan davom ettirilmoqda.

Uning she’riy asarlaridagi falsafiy tafakkur inson ruhining o‘zligini anglash, hayotiy tajriba va ijtimoiy mas’uliyatni chuqur tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Shu

bilan birga, Oripovning falsafiy g‘oyalari zamonaviy she’riyatning badiiy uslublari bilan uyg‘unlashadi, bu esa o‘zbek adabiyotining yangi shakllarini yaratishda namuna bo‘ladi.

Oripov she’riyatida axloqiy qadriyatlar markaziy o‘rinda turadi. Shoir do‘stlik, halollik, vatanparvarlik, mehr-muhabbat kabi insoniy fazilatlarni targ‘ib qiladi. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida bu qadriyatlar Oripov ijodidan ilhomlangan holda davom ettirilmoqda.

Shoirning axloqiy motivlari yosh avlod yozuvchilari uchun ma’naviy yo‘l-yo‘riq sifatida xizmat qiladi. Uning asarlarida milliy qadriyatlar va umumbashariy axloqiy me’yorlar uyg‘unlashgan. Shu tariqa, Oripovning axloqiy ta’siri nafaqat she’riyat shaklida, balki zamonaviy badiiy tafakkur va ijodiy yondashuvda ham seziladi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida yosh avlod yozuvchilari Oripovning falsafiy va axloqiy g‘oyalarini o‘z asarlarida davom ettirmoqdalar. Shoirning ijodiy merosi ularning badiiy uslubini, mavzu tanlashini va tilga yondashuvini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Yosh adabiyatchilar Oripovning falsafiy tafakkurini va axloqiy qadriyatlarini she’riy tilda davom ettirish orqali o‘zbek adabiyotining zamonaviy rivojlanishiga hissa qo‘shmoqdalar. Bu jarayonda milliy madaniyat, tarixiy voqealar va insoniy fazilatlar birlashtiriladi.

Oripov she’riyatida badiiy uslub va axloqiy-falsafiy g‘oyalar uyg‘unlashadi. Shoir metafora, ramz, allegoriya va aforizm orqali murakkab falsafiy masalalarni o‘quvchiga yetkazadi. Shu tariqa, uning ijodiy yondashuvi zamonaviy o‘zbek adabiyotida o‘rnak bo‘lib xizmat qiladi.

Axloqiy va falsafiy uyg‘unlik yosh adabiyatchilar ijodida yangi she’riy shakllar va mavzularni yaratishga turtki bo‘ladi. Bu esa o‘zbek adabiyoti va milliy til rivojida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Abdulla Oripovning falsafiy va axloqiy g‘oyalari zamonaviy o‘zbek adabiyotida davom etmoqda. Shoirning ijodi yosh avlod adabiyatchilari uchun ilhom manbai bo‘lib, milliy qadriyatlar, axloqiy prinsiplar va falsafiy tafakkur she’riyat shaklida davom ettiriladi.

Uning badiiy uslubi va falsafiy qarashlari zamonaviy o‘zbek adabiyotining rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Shu tariqa, Abdulla Oripov ijodi o‘zbek she’riyatida axloqiy va falsafiy merosni saqlash va rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar^

1. Oripov, A. *Tanlangan asarlar*. Toshkent: Adabiyot va San’at, 2010.
2. Rasulov, M. *O‘zbek adabiyotida zamonaviy tafakkur*. Toshkent: Sharq, 2015.
3. Karimov, S. *She’riyat va axloqiy qadriyatlar*. Toshkent: Fan, 2018.
4. Ergashev, T. *Milliy qadriyatlar va zamonaviy adabiyot*. Toshkent: Yoshlar, 2019.
5. Abdulla Oripov haqida ilmiy maqolalar to‘plami. *O‘zbek adabiyoti jurnali*, 2016, №3–4.

ABDULLA ORIPOV IJODIDA FALSAFIY TAFAKKUR VA AXLOQIY MOTIVLARNING BADIIY TALQINI

Temirova S.T
O‘zJOKU, Filologiya tillarni o‘qitish: ingliz-tili yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: **Djurakulova Gulnoza,** O‘zJOKU, dotsent, Filologiya fanlar falsafa doktori (PHD)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov she’riyatining falsafiy asoslari, inson ma’naviy olami bilan bog‘liq axloqiy izlanishlari va ushbu mavzularning badiiy mahorat bilan yoritilishi tahlil qilinadi. Shoir asarlaridagi hayot va mamot, yaxshilik va yomonlik, vatanparvarlik va vijdon erkinligi kabi tushunchalar misollar yordamida ko‘rsatib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *Abdulla Oripov, she’riyat, falsafiy tafakkur, axloqiy xulosalar, badiiy talqin*

Abdulla Oripov o‘zbek she’riyatiga yangi tafakkur uslubini olib kirgan ulkan san’atkordir. Uning ijodida insonning ichki olami, hayot ma’nosi, vijdon, e’tiqod va xalq qadriyatlari kabi mavzular badiiy obrazlar, ramz va lirik ohanglarda talqin etiladi. Bu jihatlar Oripov she’riyatini nafaqat milliy, balki umumjahon adabiyotiga jiddiy ulanishiga olib keladi. Oripov ijodida falsafiy tafakkur ko‘pincha hayot, vaqt va mavjudlikning mohiyati haqida chuqur tasvirlar orqali ochiladi. Masalan, Abdulla Oripovning “Jannatga yo‘l” dostoni falsafiy-axloqiy mazmuni bilan ajralib turadi. Asarda insonning hayot mazmuni, savob-gunoh, vijdon va oxirat haqidagi qarashlari badiiy timsollar orqali ochiladi. Shoirning dostondan ko ‘zlagan maqsadi oxirgi misralarda ifodalanadi:

Bir rivoyat bahonayu, doston so‘yladim,
Turli-tuman taqdirlarni aylab mujassam,
Odamlarga ibrat bo‘lsin, deya o‘yladim.

Inson va uning hayoti haqidagi falsafiy o‘ylariga hamda ularning yangicha talqiniga boyligi sababli “Jannatga yo‘l” dostoni va umuman, mazkur asar kiritilgan “Najot qal’asi” kitobi Abdulla Oripov ijodining gumanistik mohiyati chuqurlashganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga mazkur kitob shoir ijodiy yo‘lining etuklik bosqichi boshlanganligini bildiruvchi jiddiy adabiyot hodisasi sifatida maydonga kelgan edi va respublikaning “Hamza” nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan edi. Shoir o‘zi aytganidek, haqiqiy insoniylik, ilm va zakovat, mehr-muhabbat insonni doimo yaxshilik va ezgulikka undaydi.

Oripov she’riyatida axloq an’anaviy tushunchalar asosida tasvirlanadi: vijdon, vatanparvarlik, mehr-oqibat, insoniylik. Shoirning “O‘zbekiston” she’rida millatga bo‘lgan muhabbatni falsafiy va axloqiy darajada birlashtiradi, bu she’r milliy g‘urur bilan insonning ichki mas’uliyati orasidagi bog‘liqlikni ochib beradi.

Men nechun sevaman O‘zbekistonni?
Tuprog‘in ko‘zimga aylab to‘tiyo.

Bu misralarda shoirning vatan haqidagi falsafiy va axloqiy qarashi mujassam. “Tuproqni ko‘zga to‘tiyo qilish” — bu oddiy muhabbat emas, balki e’tiqod darajasidagi sadoqat ramzidir. Falsafiy jihatdan bu yerda inson va makon birligi masalasi ko‘tariladi. Inson o‘zligini Vatandan ayri tasavvur eta olmaydi. Vatanparvarlik va sadoqat yo‘g‘rilgan bu she’rda shoir muhabbatni shunchaki hissiy emas, balki ma’naviy mas’uliyat sifatida talqin qiladi. Bu badiiy talqinda ramziy obraz (to‘tiyo) orqali berilgan.

Mualliflarning ta’kidlashicha, Oripov axloqiy masalalarni shunchaki pedagogik saboq sifatida emas, balki inson qalbining ichki teran qatlamlariga kirib boruvchi poetik obrazlar orqali ifodalaydi. Masalan, u insonni o‘z vijdoni bilan yuzma-yuz qoldiruvchi ruhiy kechinmalarni she’riyatning lirik go‘zalligi va ramziy yondashuv orqali yetkazadi

Oripov ijodining markazida falsafiy tafakkur ko‘pincha axloqiy xulosalar bilan yakunlanadi, bu esa she’riy obrazlarning badiiy talqinida yanada teran uyg‘unlik hosil qiladi. Misol tariqasida shoirning “Onajon” she’rini olsak:

Garchi fano har kimsaga
Azaliy bir qismatdir.
Lekin, ona, tiriklik ham
Bilsang, yarim hikmatdir.

“Fano” va “azaliy qismat” tushunchalari — bu ontologik, ya’ni mavjudlik falsafasiga oid masalalar. Shoir inson umrining o‘tkinchiligi, o‘limning muqarrarligi haqida mushohada yuritadi. Lekin keyingi misrada kutilmagan burilish bor: “tiriklik ham yarim hikmatdir”. Bu yerda shoir shunchaki o‘lim haqida o‘ylab qolmaydi, balki hayotning o‘zini qadrlash zarurligini uqtiradi. Ya’ni falsafiy mushohada axloqiy xulosaga olib keladi: tirik ekanmiz — mas’ulmiz, ongli yashashimiz kerak.

Badiiy talqin — bu falsafiy yoki axloqiy g‘oyani obrazlar tizimi, ramzlar, metafora, analogiya orqali estetik tarzda ifodalashdir. Masalan, u hayotning ma’nosi, insonning mohiyati, vatan va xalq qadriyatlari to‘g‘risidagi fikrlarni nafaqat gap bilan, balki badiiy obrazlar tili orqali o‘quvchining ruhiyatiga yetkazadi. Shu bois, Oripovning falsafiy tafakkur va axloqiy motivlari she’riyatning badiiy qatlamida uyg‘unlashadi — o‘quvchi nafaqat g‘oyani anglaydi, balki uni his qiladi.

Abdulla Oripov she’riyati o‘zbek adabiyotida falsafiy tafakkur va axloqiy motivlar badiiy talqinining muhim namunasi bo‘lib xizmat qiladi. Uning asarlarida falsafa va axloq, insonning ichki dunyosi va milliy qadriyatlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik tasvirlanadi. Bu, bir tomondan, adabiy jarayonning chuqurligini oshiradi, ikkinchi tomondan, o‘quvchida ma’naviy va estetik kechinmalar uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zaribova M. Abdulla Oripov ijodida axloqiy – falsafiy motivlar: “Jannatga yo‘l” misolida. Scientific-jl jurnali, 78/1. 08.2025 - bet 114
2. Shukurova G. Abdulla Oripov she’riyatida umr tasviri. Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi 2025 – bet 41

3. Sharipova L. Nomon Rakhimjonov tadqiqotlarida Abdulla Oripov ijodining o‘rganilishi. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies, hosted online from Paris 01.2024 –bet 236

TA’LIM MUASSASALARIDA ABDULLA ORIPOV ASARLARINI O‘QITISHNING O‘ZIGA HOS JIHATLARI

Dolixonova Muxlisa
O‘zJoKU, 1 kurs talabasi
Ilmiy rahbar: **Zakirova Zulhumor Zoirjonova**
O‘zJoKU, katta o‘qituvchi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abdulla Oripov ijodining o‘zbek adabiyotidagi o‘rni, uning asarlarining tarbiyaviy va ma’naviy ahamiyati hamda ta’lim muassasalarida o‘qitishning metodik yondashuvlari tahlil qilinadi. Shoir she’riyatining falsafiy mazmuni, milliy ruh va vatanparvarlik g‘oyalari yosh avlodni ma’naviy barkamollik ruhida tarbiyalashdagi o‘rni bilan izohlanadi. Maqolada Abdulla Oripov asarlarini o‘qitishda interfaol metodlar, guruhli ishlash, savol-javob va badiiy tahlil kabi pedagogik usullarning samaradorligi ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, shoir ijodining yoshlar ongida Vatanga muhabbat, milliy g‘urur hamda insoniy fazilatlarni shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek adabiyoti, she’riyat, vatanparvarlik, milliy g‘urur, ma’naviy tarbiya, pedagogik metodlar, interfaol metodlar, badiiy tahlil, ta’lim jarayoni.*

Abstract. *This article analyzes the role of Abdulla Oripov in Uzbek literature, the educational and spiritual significance of his works, and methodological approaches to teaching them in educational institutions. The philosophical content of the poet’s poetry, its national spirit, and patriotic ideas are explained through their role in educating the younger generation in the spirit of moral maturity. The article also demonstrates the effectiveness of pedagogical methods such as interactive methods, group work, question-and-answer activities, and literary analysis in teaching Abdulla Oripov’s works. In addition, the study highlights the importance of the poet’s work in shaping love for the Motherland, national pride, and human virtues in the minds of young people.*

Key words: *Uzbek poetry, patriotism, national pride, moral (spiritual) upbringing, pedagogical methods, interactive methods, literary analysis, educational process*

Abdulla Oripov o‘zbek adabiyotining zabardast namoyandalaridan biri bo‘lib, uning she’riyati chuqur falsafiy mazmuni, milliy ruh va vatanparvarlik g‘oyalari bilan ajralib turadi [1]. Shoir asarlari yosh avlodni ma’naviy barkamollik, Vatanga muhabbat va insoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ta’lim muassasalarida Abdulla Oripov asarlarini

samarali o‘qitish hamda zamonaviy metodik yondashuvlardan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Abdulla Oripov ijodining markazida inson va millatning ma’naviy o‘sishi, milliy o‘zligini anglash muammolari yotadi[1]. Shoir asarlarida millatning tarixiy yo‘li, xalqning azaliy orzu-intilishlari, mustaqillik va ozodlik uchun kurash mavzulari chuqur yoritilgan. Uning she’rlari milliy istiqlol g‘oyalariga sadoqat, vatanparvarlik ruhini ifodalovchi falsafiy-etik qarashlar bilan boydir. Bunday asarlar o‘quvchini o‘z Vatani, ona yeri haqida chuqur o‘ylashga, milliy qadriyatlar ustida fikr yuritishga undaydi. Shoir milliy iftixor, millatga sodiqlik hamda Vatan uchun fidoyilik kabi ezgu tuyg‘ularni o‘z asarlarida badiiy mahorat bilan ifodalaydi [2].

Shoirning badiiy uslubi ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning she’riyati teran ma’no va falsafiy mushohadalarga boy bo‘lib, o‘quvchini fikrlashga, his-tuyg‘ularini anglashga chorlaydi. Abdulla Oripov ijodida insonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari, orzu-intilishlari hamda hayotiy qarorlarining murakkabligi badiiy obrazlar orqali ifodalanadi. Shoir o‘z she’rlarida insonning ma’naviy kamoloti, uning ruhiy yuksalishi haqida so‘z yuritib, o‘quvchini hayot sinovlarini matonat bilan yengib o‘tishga ruhlantiradi. Vatan mavzusi o‘zbek she’riyatida doimo muhim o‘rin egallab kelgan. Abdulla Oripov o‘zbek xalqining dardi, orzu-umidlari va milliy ruhini o‘z ijodida aks ettirgan ijodkorlardan biridir. Uning she’riyatida Vatan muqaddas tushuncha sifatida tasvirlanadi. Shoir uchun Vatan oddiy geografik hudud emas, balki inson qalbida yashaydigan muqaddas tuyg‘udir. U Vatanni hayot mazmuni, inson sha’ni va g‘ururining muhim mezoni sifatida talqin etadi. Bu holat shoirning mashhur “O‘zbekiston” she’rida yaqqol ifoda etilgan:

Asrlarning silsilasida
Boqiy turgay koshonang sening.
Ulug‘ bashar oilasida
Mangu yorug‘ peshonang sening.
Mangu yorug‘ maskanim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Shoir yana bir she’rida o‘zbek millatining g‘ururi va iftixorini ulug‘laydi:

Sen borsan – bor yurakda or, O‘zbegim,
Sen yo‘qsan – yo‘q yurakda zor, O‘zbegim.
Sen bilan topganim faxr-u iftixor,
Sen bilan bor mening nomim, O‘zbegim.

Ushbu misralar shoir yaratgan lirik qahramonning Vatan bilan bog‘liq tuyg‘ularini, milliy g‘ururini va ona yurtdan ajralmaslik istagini ifodalaydi. Shoir Vatanni xalq, til, tarix va madaniyat bilan uzviy bog‘liq holda tasvirlaydi. Shu tariqa vatanparvarlik tuyg‘usi insonning ruhiy kuch manbai sifatida talqin etiladi.[3]

Abdulla Oripov asarlarini ta’lim jarayonida samarali o‘qitish uchun zamonaviy pedagogik metod va yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunday metodlar o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi, ularning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda badiiy asar

mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradi. Ayniqsa, interfaol metodlar, savol-javob, guruhli ishlash va badiiy tahlil kabi usullar o‘quvchilarning adabiyotga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Avvalo, interfaol metodlardan foydalanish samarali natija beradi. Masalan, “klaster” usuli yordamida o‘quvchilar she’rning asosiy g‘oyalarini aniqlashlari mumkin. O‘qituvchi doskaga she’r nomini yozib, o‘quvchilarga asarda uchraydigan asosiy tushunchalarni klaster shaklida joylashtirishni taklif etadi. Bu usul asar mazmunini tizimli ravishda tushunishga yordam beradi. Shuningdek, “aqliy hujum” (brainstorming) metodi orqali o‘quvchilar she’r mazmuni yuzasidan o‘z fikrlarini erkin bayon etadilar.

Guruh bilan ishlash metodi ham dars samaradorligini oshiradi. Bu usulda o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadi va har bir guruhga alohida topshiriq beriladi. Masalan, bir guruh she’rning asosiy g‘oyasini aniqlasa, ikkinchi guruh undagi badiiy tasvir vositalarini tahlil qiladi, uchinchi guruh esa asarning tarbiyaviy ahamiyatini izohlaydi. Keyinchalik guruhlar o‘z natijalarini taqdim etadilar. Bu jarayon o‘quvchilarning hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, ijodiy topshiriqlardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, o‘quvchilarga she’r asosida kichik insho yozish, sahna ko‘rinishi tayyorlash yoki she’r mazmuniga mos rasm chizish kabi vazifalar berilishi mumkin. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi hamda darsni yanada qiziqarli qiladi. [4]

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripov ijodi o‘zbek adabiyotining muhim qismi bo‘lib, uning asarlari yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Shoir she’riyati chuqur falsafiy mazmuni, milliy ruh va vatanparvarlik g‘oyalari bilan ajralib turadi. Shu sababli ta’lim muassasalarida uning asarlarini o‘rganish o‘quvchilarning nafaqat adabiy bilimlarini boyitadi, balki ularning ma’naviy dunyosini ham kengaytiradi.

Maqolada ko‘rib chiqilganidek, Abdulla Oripov asarlarini o‘qitishda zamonaviy metodik yondashuvlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Interfaol metodlar, guruhli muhokama, savol-javob va badiiy tahlil kabi usullar o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi hamda asar mazmunini chuqurroq anglashlariga yordam beradi. Bunday metodlar orqali o‘quvchilar mustaqil fikrlashga, o‘z qarashlarini erkin bayon etishga va badiiy asarni kengroq tahlil qilishga o‘rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati^

1.O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
2.Dilnavoz, Shapoatova. "ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATI." ACTIVIST SCIENCE 1.1 (2025).
3.Marhabo O., Fayzullayeva O. ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA VATAN MAVZUSI IFODASI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2026. – Т. 4. – №. 41. – С. 367-369.
4.Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent.

ХУДОЖЕСТВЕННО-ИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫЕ СРЕДСТВА В ПОЭЗИИ АБДУЛЛЫ ОРИПОВА

Абдухакимова Дурдона Абдулхамид қизи
Национально- исследовательский университет “ТИИИМСХ”, преподаватель кафедры «Языков»

Аннотация. *В данной статье рассматриваются художественно-изобразительные средства в поэзии Абдуллы Орипова. Особое внимание уделяется анализу пейзажа как важного поэтического элемента, выполняющего символическую, философскую и психологическую функции. Исследуется роль метафоры и сравнения в создании образности, раскрытии внутреннего мира лирического героя и выражении национальной идеи Родины. На основе анализа поэтических примеров показано, что метафора и сравнение являются не только стилистическими приёмами, но и важными элементами художественного мышления поэта. Их использование способствует усилению эмоционального воздействия стихотворений, конкретизации абстрактных понятий и формированию философской глубины поэзии. Делается вывод о том, что мастерство Абдуллы Орипова в использовании художественных средств определяет высокую эстетическую ценность его поэзии и её значительное место в современной узбекской литературе.*

Ключевые понятия*: поэзия, Абдулла Орипов, художественные средства, метафора, сравнение, пейзаж, образность, национальная идея, лирический герой.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abdulla Oripov she’riyatida qo‘llanilgan badiiy-tasviriy vositalar tahlil qilinadi. Tadqiqotda ayniqsa peyzaj obrazining badiiy va falsafiy funksiyalari, uning lirik qahramon ichki dunyosini ochib berishdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, metafora va taqqoslashning poetik obraz yaratish, milliy g‘oya hamda Vatan tushunchasini ifodalashdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. She’riy misollar asosida metafora va taqqoslash shoirning badiiy tafakkurining muhim unsurlaridan biri ekanligi ko‘rsatiladi. Ushbu badiiy vositalar orqali abstrakt tushunchalar jonli obrazlar orqali ifodalanadi, she’rlarning emotsional ta’siri kuchayadi va falsafiy mazmun chuqurlashadi. Tadqiqot natijasida Abdulla Oripov she’riyatida badiiy vositalarning mohirona qo‘llanilishi uning asarlariga milliy ruh, falsafiy teranlik va yuqori estetik ta’sir bag‘ishlashi aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Abdulla Oripov, she’riyat, badiiy tasvir vositalari, metafora, taqqoslash, peyzaj, obrazlilik, milliy g‘oya, lirik qahramon.*

Abstract. *This article analyzes figurative and expressive means in the poetry of Abdulla Oripov. Particular attention is given to the role of landscape imagery as an important poetic element that performs symbolic, philosophical, and psychological functions. The study examines the significance of metaphor and*

simile in creating imagery, revealing the inner world of the lyrical hero, and expressing the national idea of the Motherland. Based on the analysis of poetic examples, it is demonstrated that metaphor and simile function not only as stylistic devices but also as essential elements of the poet’s artistic thinking. Their use intensifies the emotional impact of poems, concretizes abstract concepts, and deepens the philosophical meaning of poetic texts. The article concludes that Abdulla Oripov’s mastery in using figurative language determines the high aesthetic value of his poetry and its important place in modern Uzbek literature.

Keywords: *poetry, Abdulla Oripov, figurative language, metaphor, simile, landscape imagery, symbolism, lyrical hero, national idea.*

Одним из крупнейших представителей узбекской литературы является Абдулла Орипов, чьё творчество составляет особый этап в развитии национальной поэзии. В его поэтическом наследии темы Родины, человека, истории, веры, любви и природы интерпретируются в неразрывном единстве. Особенно пейзаж — изображение природы — в поэтике поэта выступает не просто фоном, а важным художественным элементом, несущим идейно-эстетическую нагрузку.

В поэзии Абдуллы Орипова картины природы нередко сливаются с внутренними переживаниями лирического героя. Изображение природы выступает не как внешняя реальность, а как художественная проекция человеческой души. Так, через осенний пейзаж передаются философия жизни, мотивы быстротечности, разлуки и раздумья, тогда как весенние образы воплощают идеи обновления, надежды и духовного очищения. Оживляя природу, создавая антропоморфные образы, поэт связывает её с судьбой человека. Такие детали пейзажа, как ветер, дождь, ночь, степь, небо, приобретают не только реалистическое, но и духовно-символическое значение. Это усиливает психологическую функцию пейзажа в поэтике поэта.

В поэзии Абдуллы Орипова пейзаж насыщен национальным колоритом. Образы узбекской земли, степей, гор, просторов воплощают образ Родины. Через описание природы выражаются национальная идентичность, историческая память и судьба народа.

Особенно образ родной земли в стихах поэта возводится на уровень священного понятия. Земля, почва, степь — это не просто географические реалии, а духовная опора нации. В этом смысле пейзаж становится средством художественного выражения национальной идеи.

В поэзии Абдуллы Орипова картины природы часто сочетаются с философским осмыслением бытия. Противопоставление неба и земли, смена дня и ночи, круговорот времён года символизируют вечное движение жизни и сложность человеческой судьбы.

Через образы природы поэт передаёт категорию времени. Так, закат солнца осмысливается как символ жизненного вечера, а рассвет — как знак новых надежд. Это усиливает символическую функцию пейзажа: он превращается из реальной картины в символико-философское пространство.

В поэзии Абдуллы Орипова картины природы нередко сочетаются с философским осмыслением бытия. Противопоставление неба и земли, смена ночи и дня, круговорот времён года выражают вечное движение жизни и сложность человеческой судьбы.

Через образы природы поэт передаёт категорию времени. Так, закат солнца интерпретируется как вечер человеческой жизни, а рассвет — как символ новых надежд. Это усиливает символическую функцию пейзажа: он превращается из реальной картины в символико-философское пространство.

В творчестве поэта отдельные образы природы окрашены драматическим духом. Такие мотивы, как буря, ветер, тёмная ночь, отражают внутренние противоречия, душевные страдания и состояние социальной нестабильности. В подобных случаях пейзаж выполняет функцию композиционного средства, усиливающего духовную драму лирического героя.

Особенно через взаимоотношение человека и природы поэт затрагивает социально-нравственные проблемы. Тревожное состояние природы соотносится с кризисом человеческой духовности.

В поэтике Абдуллы Орипова пейзаж выступает как многогранная художественная категория. Он выполняет следующие функции:

-средство раскрытия внутреннего мира лирического героя;

-форма выражения национального духа и идеи Родины;

-символическое пространство философского осмысления;

-композиционный элемент, усиливающий драматическое воздействие.

Поэт поднимает изображение природы с уровня внешнего фона до центрального поэтического элемента, несущего духовно-эстетическое содержание. В этом смысле пейзаж в творчестве Абдуллы Орипова оценивается как важная художественная система, объединяющая идеи человека, Родины и вечности.

Как известно, метафора — это средство переносного значения, основанное на выражении одного предмета или явления через другой без участия признаков сравнения (таких как «как», «будто», «словно»). В поэзии Абдулла Орипов метафора выступает не просто художественным украшением, а считается одной из основных форм поэтического мышления.

Поэт часто выражает абстрактные понятия через конкретные, живые образы. Например, такие понятия, как время, совесть, судьба, сердце, Родина, посредством метафорических образов приобретают духовно-психологическое содержание.

В творчестве Абдулла Орипов Родина изображается через систему многогранных метафор. Родина представляется как мать, священная земля, сердце, душа, символ святых мест. Здесь метафора превращается в средство усиления национальной идеи. Например, встречаются случаи, когда сердце не просто сравнивается с Родиной, а напрямую изображается как сама Родина. Таким образом поэт показывает неразрывную духовную связь между человеком и Родиной. Через метафору Родина трактуется не как географическая территория, а как духовное пространство.

В поэзии Абдуллы Орипова человеческие переживания часто метафоризируются через образы природы или предметов. Например:

печаль — тёмная ночь,

надежда — рассвет,

совесть — живой свидетель,

слово — огонь,

сердце — пламя.

Через такие метафоры внутренние состояния конкретизируются, а эмоциональное воздействие на читателя усиливается. Абдулла Орипов основывает метафору не только на внешнем сходстве, но и на внутренней духовной гармонии.

В поэзии Абдулла Орипов метафора нередко приобретает философское содержание. Через такие метафорические модели, как «жизнь — испытание», «человек — путник», «мир — сцена» »[1;21-с.], поэт размышляет о судьбе человечества.

Подобные метафоры придают стихотворению общечеловеческий смысл и расширяют его идейный масштаб.

Как известно, сравнение — это сопоставление двух предметов или явлений на основе определённого признака сходства с помощью слов «как», «словно», «будто», «подобно» и т.п. В творчестве Абдулла Орипов сравнение служит средством усиления образности, уточнения душевного состояния и повышения эстетического воздействия.

Поэт часто сравнивает человека с явлениями природы. Например:

-человеческая жизнь — свеча или звезда,

-сердце — буря или река,

-мечта — птица.

Через такие сравнения человек интерпретируется как часть природы. Одновременно через природные образы ярче проявляются изменения в человеческой душе.

Абдулла Орипов использует искусство сравнения и для создания национального колорита. Например, стойкость человека сравнивается с горами, терпение — с пустыней, чистота — с родниковой водой. Это создаёт гармонию между национальной природой и национальным характером. Иногда поэт использует резкие сравнения, создавая драматический эффект. Например, сравнение человеческой ценности с песчинкой или, наоборот, песчинки со Вселенной усиливает духовное противоречие. Такие сопоставления служат философскому обобщению.

В поэзии Абдуллы Орипова метафора и сравнение часто дополняют друг друга. Сначала создаётся сходство через сравнение, а затем оно превращается в метафору и начинает существовать как самостоятельный художественный образ. Например, сначала сердце «как свеча» — это сравнение, а затем его прямо называют «свечой» — это уже метафора. Такой процесс показывает поэтапный способ образного мышления поэта.

В творчестве Абдуллы Орипова метафора и сравнение усиливают эмоциональное воздействие стихотворения, конкретизируют абстрактные

понятия, выражают национальные и общечеловеческие идеи в образной форме. В его стихах глубоко раскрывается внутренний мир лирического героя.

Мастерство поэта заключается в том, что он использует метафору и сравнение не как искусственное украшение, а как естественную потребность мысли и чувства.

В творчестве Абдуллы Орипова метафора и сравнение являются одними из основных опор поэтического мышления. С помощью метафоры поэт глубоко и символически выражает свои философские взгляды на жизнь, Родину, человека и время. Сравнение же помогает уточнить образы, усилить выразительность и проявить национальный дух.

Поэтому в поэтике Абдулла Орипов метафора и сравнение выступают не только стилистическими средствами, но и неотъемлемой частью идейно-художественной системы. Их гармоничное сочетание повышает образность поэзии поэта и придаёт ей особое место в современной узбекской литературе.

В творчестве Абдулла Орипова метафора и сравнение проявляются не только теоретически, но и через конкретные поэтические примеры. Например, в стихотворении «Узбекистан»: «Ты — самое сокровенное место моего сердца, Родина» »[1;46-с.].

В этой строке Родина представлена как «глубина сердца». Здесь отсутствуют слова «как» или «будто», поэтому это полноценная метафора. Поэт превращает Родину в самое священное место человеческого сердца. В лирике А.Орипова Родина — не географическая территория, а духовное пространство. Через метафору Родина и человек становятся единым целым. Образ усиливает эмоциональное воздействие.

В стихотворении «Саджда» человек представлен как «частица», а мир или Вселенная — как «океан». «Человек — частица в океане» Здесь подчёркивается уязвимость человеческой жизни. Но при этом частица остаётся частью океана, что придаёт философский смысл.

Из стихотворения «Мунаджат»: «В моём сердце горит боль». Боль изображена как горящий огонь. Здесь абстрактное чувство превращено в образ пламени. Также, в стихотворении душевная боль конкретизируется, а глагол «горит» придаёт образу динамику и силу, метафора усиливает внутренний драматизм.

«Моя жизнь пожелтела, как осенний лист». Здесь сравнение создаётся через слово «как». Осень символизирует быстротечность. Передаётся ощущение уходящей жизни.

Из стихов о матери: «Материнская любовь тёплая, как солнце». Через сравнение раскрывается тепло и жизненная сила любви, Отражаются национальный дух и семейные ценности.

В стихотворениях Абдуллы Орипова наблюдаются следующие художественно-изобразительные средства: «Моё сердце волнуется, как буря»[1;-34-с.]. Здесь **в**нутреннее состояние передаётся через природное явление, сравнение усиливает драматический эффект. Иногда поэт сначала использует сравнение, а затем превращает его в метафору:

«Моё сердце дрожит, как свеча» (сравнение), затем «Моё сердце — свеча» (метафора). Такой стилистический переход усиливает образ и углубляет мысль.

В стихах Абдулла Орипов использует метафору, которая превращает абстрактные понятия в живые образы; сравнение уточняет образ и усиливает выразительность; такие темы, как Родина, человек, жизнь, любовь и боль, раскрываются с новой художественной силой, а душевные переживания выражаются через явления природы.

Мастерство поэта в использовании метафоры и сравнения придаёт его поэзии философскую глубину, национальный дух и высокое эстетическое воздействие.

Таким образом поэтическое мышление Абдуллы Арипова отличается глубокой философичностью, национальным духом, яркой эмоциональностью и образностью. Выразительность его поэзии во многом обусловлена мастерским использованием художественных средств.

Использованная литература:

1.Абдулла Орипов. Танланган асарлар тўплами.-Т.Ғофур Ғулом номидаги нашриёт, 2019.-234б.

2. Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. — Ташкент: Ўқитувчи, 2005. — 320 б.

3.Мирзаев С. Ўзбек адабиёти тарихи. — Ташкент: Янги аср авлоди, 2010. — 356 б.

4.Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. — Ташкент: Akademnashr, 2018. — 280 б.

5.Холбеков М. Адабиёт назарияси. — Ташкент: Fan, 2006. — 240 б.

МОЙ ЛЮБИМЫЙ ПОЭТ

Рахматова Нигина Исламовна
Старший преподаватель кафедры языков НИУ ТИИИМСХ
Хемрайев Сапармурат
студент первого курса направления «Филология и обучение языкам: русский язык» 25-27 группы НИУ ТИИИМСХ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются основные этапы жизни и творческого пути выдающегося узбекского поэта Абдуллы Орипова. Особое внимание уделяется художественным особенностям его поэзии, тематическому разнообразию произведений, а также его вкладу в развитие современной узбекской литературы. В работе анализируются переводы стихотворений поэта на другие языки и их значение для популяризации узбекской поэзии в мировом культурном пространстве. На основе анализа литературных источников и поэтических текстов раскрываются идейно-*

художественные особенности творчества Абдуллы Орипова и его роль в формировании национального литературного сознания.

Ключевые слова: *Абдулла Орипов, узбекская поэзия, перевод поэзии, художественный текст, литературный анализ, национальная литература.*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada taniqli o‘zbek shoiri Abdulla Oripovning hayoti va ijodiy faoliyati yoritiladi. Shoir she’riyatining badiiy xususiyatlari, asarlarining mavzu jihatidan rang-barangligi hamda zamonaviy o‘zbek adabiyotining rivojlanishiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Shuningdek, shoir she’rlarining boshqa tillarga tarjima qilinishi va ularning o‘zbek she’riyatini jahon madaniy makonida targ‘ib etishdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot davomida Abdulla Oripov ijodining g‘oyaviy-badiiy jihatlari hamda milliy adabiy tafakkurni shakllantirishdagi o‘rni ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Abdulla Oripov, o‘zbek she’riyati, she’r tarjimasi, adabiy tahlil, badiiy matn.*

Abstract. *This article examines the life and creative work of the outstanding Uzbek poet Abdulla Oripov. Particular attention is paid to the artistic features of his poetry, the thematic diversity of his works, and his contribution to the development of modern Uzbek literature. The paper also analyzes translations of the poet’s poems into other languages and their role in promoting Uzbek poetry in the global cultural space. Based on the analysis of literary sources and poetic texts, the ideological and artistic characteristics of Abdulla Oripov’s творчество are revealed, as well as his significant role in the formation of national literary consciousness.*

Keywords: *Abdulla Oripov, Uzbek poetry, poetry translation, literary analysis, художественный текст, national literature.*

По свету разошлись мои стихотворенья.
Мне честно их писать моё велело время...
Абдулла Арипов

Абдулла Арипов — выдающийся узбекский поэт, переводчик и общественный деятель, чьё творчество стало яркой страницей узбекской литературы второй половины XX века. Его произведения отличаются глубоким философским содержанием, национальным духом и искренностью поэтического высказывания.

Особенно близко мне раннее творчество поэта — то время, когда его имя ещё не было широко известно, но в стихах уже ощущалась внутренняя сила и самобытность художественного мышления.

Абдулла Арипов родился в 1941 году в селении Некуз Касанского района Кашкадарьинской области. Окончив школу с золотой медалью, в 1958 году он поступил на отделение журналистики филологического факультета Ташкентского государственного университета (ныне Национальный университет Узбекистана), который с отличием окончил в 1963 году.

В нашей семье хранилось несколько сборников его стихов. Моё знакомство с его поэзией началось со стихотворения «Золотая рыбка». Я выучила его наизусть и однажды торжественно прочитала в кругу семьи.

Тогда я впервые увидела слёзы на глазах мамы. Она призналась, что в школьные годы тоже полюбила творчество поэта и начала именно с этих строк. Позже она перевела это стихотворение на русский язык.

…Пруд — всё, что видит золотая рыбка,
И высохших листьев этих- целый пуд…
Мне горько оттого, что рыбка эта
Считает целым миром этот пруд…
(перевод Дилбар Баратовой)

Этот образ стал для меня символом ограниченности человеческого восприятия, неспособности увидеть мир во всей его полноте.

С 1963 года поэт работал редактором в различных издательствах и учреждениях, возглавлял агентство по защите авторских прав, многие годы являлся председателем Союза писателей Узбекистана. Его творческий путь охватывает более полувека плодотворной деятельности.

Первое стихотворение — «Птица» — Абдулла Арипов написал ещё в студенческие годы. В его поэзии глубоко раскрываются духовный мир человека, историческая память народа, нравственные ориентиры общества. Поэт создал собственную творческую школу, а его многочисленные сборники — «Маленькая звезда», «В ожидании тебя», «Милая мама», «Мой дух», «Ветер Родины», «Мосты доверия», «Добро», «Сердце поэта» и другие — снискали широкое признание читателей.

Значительным является и вклад Орипова в развитие художественного перевода. Благодаря его таланту произведения таких классиков, как Данте Алигьери, Александр Пушкин, Тарас Шевченко, Расул Гамзатов, Кайсин Кулиев, зазвучали на узбекском языке. В свою очередь, его собственные произведения были переведены на многие языки мира.

В стихах поэта звучит тревога за судьбу народа, боль за исторические трагедии и призыв к нравственной ответственности:

Когда повешен был Машраб, скажи, где ты была?
Когда расстрелян был Чулпан, ты сладко ли спала?
Спросила ль ты, куда пропал однажды Кадыри?
Была ль щитом, когда беда пришла в края твои?
…Когда ж народом станешь ты, безликая толпа?

Эти строки — не просто поэтическое высказывание, а глубокий нравственный упрёк равнодушию и духовной пассивности.

Творчество Абдуллы Арипова особенно ярко проявилось в годы независимости Узбекистана. Его произведения, посвящённые Родине, свободе, достоинству человека, нашли широкий общественный отклик. В 1998 году поэт был удостоен высокого звания Героя Узбекистана. Он являлся народным поэтом Узбекистана, лауреатом Государственной премии Республики Узбекистан, был награждён орденом «Дустлик».

В 2007 году Всемирная организация интеллектуальной собственности (Всемирная организация интеллектуальной собственности) вручила ему Золотую медаль «WIPO Creativity Award» за вклад в мировую культуру.

На протяжении многих лет Абдулла Орипов активно участвовал в общественно-политической жизни страны как депутат Олий Мажлиса и член Сената.

…Смотри, как быстро вертится земля!
Как медленно добро на ней творится…
Пойдём туда, где тихая заря
И солнце в горы хлебные садится…

Светлая память о великом поэте своей эпохи продолжает жить в сердцах людей. Его искренние, порой суровые, но всегда жизнеутверждающие стихи вдохновляют молодёжь, формируют чувство ответственности за судьбу Родины и укрепляют веру в торжество добра.

Использованная литература:

1. Орипов А. Избранные произведения. – Ташкент: Шарк, 2001. – 320 с.
2. Орипов А. Муножот. Стихотворения и поэмы. – Ташкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 2010. – 256 с.
3. Каримов Н. История узбекской литературы XX века. – Ташкент: Ўзбекистон, 2012. – 412 с.
4. Баротова Д. Особенности художественного перевода поэтического текста в узбекской литературе. – Ташкент: Fan, 2018. – 198 с.
5. Баротова Д. Поэтика современного узбекского стихотворения. – Ташкент: Akademnashr, 2020. – 210 с.
6. Юлдашев Б. Современная узбекская поэзия: тенденции и направления. – Ташкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2015. – 276 с.

ВЛИЯНИЕ ТВОРЧЕСТВА АБДУЛЛЫ АРИПОВА НА РАЗВИТИЕ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Икрамов Махамад-Шухрат Эркенович
преподаватель кафедры “Языков” “Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства” Национальный исследовательский университет
E-mail: ikramovmahamadsuhrat@gmail.com

Аннотация. *В данной статье речь идет о творчестве выдающегося узбекского поэта А.Арипова, о влиянии его творчества на развитие узбекской литературы, о его богатом творческом наследии.*

Ключевые слова: *Творчество, поэтическое наследие, национальный дух, философская глубина, народный поэт, индивидуальное мастерство.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada atoqli o‘zbek shoiri A. Aripov ijodi, uning o‘zbek adabiyoti rivojiga ko‘rsatgan ta’siri hamda boy ijodiy merosi haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Ijod, she’riy meros, milliy ruh, falsafiy teranlik, xalq shoiri, individual mahorat.*

Abstract. *This article discusses the creative work of the outstanding Uzbek poet A. Aripov, the influence of his creativity on the development of Uzbek literature, and his rich creative heritage.*

Keywords: *Creativity, poetic heritage, national spirit, philosophical depth, national poet, individual mastery.*

Абдулла Арипов (1941–2016) — выдающийся узбекский поэт, общественный деятель и литературный переводчик, чье творчество стало важной вехой в развитии узбекской литературы XX–XXI веков. Его поэтическое наследие, богатое философской глубиной, национальным духом и гуманистическими идеями, прочно вошло в культурный и литературный контекст Республики Узбекистан. Он стал народным поэтом, народным любимцем и одним из тех авторов, чьи стихи и поэмы продолжают оказывать влияние на читателей и современных писателей.

Абдулла Арипов родился 21 марта 1941 года в селе Некуз, Касанского района, Кашкадарьинской области. В период обучения в Ташкентском государственном университете он начал публиковать свои первые стихи, а в 1965 году увидел свет его первый поэтический сборник «Митти юлдуз» («Маленькая звездочка»). После этого вышло множество сборников: «Кузларим йулингда», «Рухим», «Узбекистан», «Ветер родины», «Мосты доверия», «Муножот», «Сайланма» и другие.

С ранних лет Абдулла искал свой собственный голос и стиль, сочетая народные мотивы, глубокие философские обобщения и искренние переживания, что позволило ему стать одним из наиболее узнаваемых поэтов своей эпохи. Именно благодаря этой индивидуальной поэтической манере творчество оказало значительное влияние на модернизацию узбекской поэзии.

Особенностью поэзии мастера слова является сочетание глубокой философской мысли и народной эмоциональности. Его стихи затрагивают темы любви к Родине, духовного поиска, человеческой нравственности, смысла жизни и исторической памяти. Он умело вплетал в поэтическую ткань универсальные человеческие вопросы, делая своё творчество понятным как широкой аудитории, так и литературоведам.

Эта философская направленность стала источником вдохновения для многих молодых поэтов и прозаиков, которые, следуя его примеру, стремились соединить личностное переживание с национальной культурной традицией. Таким образом, творчество А. Арипова сыграло важную роль в

укреплении гуманистического и духовного начала в современной узбекской литературе.

Одной из центральных тем в творчестве поэта является любовь к родной земле, к культуре и истории своего народа. Стихи автора пропитаны чувством патриотизма и глубокой привязанностью к узбекской идентичности. В его поэмах прослеживается стремление отразить историческую память, заботу о духовном и нравственном состоянии общества, а также веру в будущее Узбекистана как самостоятельного, духовно богатого государства.

Его поэтические произведения нередко становятся источником духовного вдохновения на культурных и образовательных мероприятиях, проводят литературные чтения и обсуждения, посвященные укреплению национального духа и нравственных ценностей.

Помимо авторской поэзии он внёс существенный вклад в переводческую деятельность. Он переводил на узбекский язык отдельные произведения мировой классики, среди которых — знаменитая «Божественная комедия» Данте, стихи Пушкина, Некрасова, Шевченко и других поэтов. Благодаря этим переводам узбекские читатели получили доступ к важнейшим художественным текстам, что способствовало расширению литературного кругозора и интеграции узбекской литературы в общую мировую культурную среду.

Этот аспект его деятельности расширил влияние его творчества не только внутри страны, но и за её пределами, укрепляя литературные связи между узбекской культурой и мировым литературным пространством.

Творчество великого поэта продолжает вдохновлять современных поэтов, прозаиков и переводчиков. Его стихи и поэмы изучаются в школьной и вузовской литературе, а его вклад в развитие национального литературного процесса признается критиками и читателями как неотъемлемая часть современного узбекского культурного наследия.

Глубокие, философские, эмоциональные стихи остаются источником вдохновения для молодых авторов, которые стремятся продолжать традицию художественного слова и поиска смысла в постоянном диалоге с историей и обществом.

Абдулла Арипов — не просто поэт, но явление в узбекской литературе, чьи произведения стали одной из значительных форм выражения национального духа. Его способность проникать в сущностные вопросы человеческого бытия, любовь к родине, стремление к духовному обогащению сделали его творчество актуальным и востребованным. Своим поэтическим талантом он не только обогатил литературное наследие, но и сформировал современные литературные тенденции, оказав глубокое влияние на развитие узбекской литературы XX–XXI веков.

Использованная литература:

1. Арипов, Абдулла. Митти юлдуз и др. поэтические сборники.
2. Abdulla Aripov (1941–2016) — биографическая статья.

3. Suleymanov D. N. Creativity of Abdulla Aripov (European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices).
4. Биографические и публицистические материалы о творчестве Арипова (мероприятия, события).
5. Материалы о переводческой деятельности А.Арипова (переводы Данте, Пушкина и др.).

ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA LAYLI OBRAZINING BADIIY TALQINI

Ulug‘murodova Kamola Murodullayevna
Filologiya fanlari nomzodi, (PhD), Profi University Navoiy filiali
“Tillar” kafedrasi mudiri
kamolamurodullayevna@.gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Abdulla Oripov she’riyatida qo‘llangan obrazlar, xususan, Layli obrazining badiiyati, shuningdek, mazmun-mohiyatini yoritish ko‘zda tutilgan. Obraz bilan bog‘liq qarashlar shoir ijodidan olingan namunalar asosida izohlangan.*

Kalit so‘zlar: *Abdulla Oripov, Layli, obraz, Majnun, ishq, oshiq, she’riyat, timsol.*

Аннотация. *Данная статья призвана пролить свет на образность, используемую в поэзии Абдуллы Орипова, в частности, на мастерство и сущность образа Лейлы. Взгляды на образность объясняются на примерах из творчества поэта.*

Ключевые слова: *Абдулла Орипов, Лейла, образ, Маджнун, любовь, возлюбленный, поэзия, образ.*

Abstract. *This article aims to shed light on the imagery used in Abdulla Oripov’s poetry, in particular, the artistry and essence of the image of Layla. The views on imagery are explained based on examples from the poet’s work.*

Keywords: *Abdulla Oripov, Layla, image, Majnun, love, lover, poetry, image.*

Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari badiiy adabiyotida Layli obrazi bilan bog‘liq qissa va dostonlar keng tarqalgan. Ushbu obrazning genezisi va tadrijiy takomili ko‘plab olimlarning e’tiborini tortgan. Jumladan, bu obraz xususida rus olimlari Y.E.Bertels, I.Y.Krachkovskiy, turk adabiyotshunosi Ogoh Sirri Levend, o‘zbek olimi T.Ahmedovning maxsus izlanishlari bor [37].

Adabiyotshunoslikda Layli obrazi bevosita Majnun obrazi bilan birgalikda tadqiq etiladi. Bu masalani birinchi marta akademik I.Y.Krachkovskiy batafsil o‘rganadi va bu ikki obraz haqidagi ma’lumotlarni “Alisher Navoiy” nomli

[37] Бертельс Е.Э.Низами и Физули / Изб.труды. – М.: Наука, 1962; Крачковский И.Ю. Ранняя история повести о Меджнуне и Лейли в арабской литературе / Алишер Навои. – М., – Л.: Изд-во АН СССР, 1946; Levend Agah Sirri. Arab, fors ve türk edebiyatlarinda Leyla ve Mecnun hıkayesi. – Ankara, 1959; Аҳмедов Т. Алишер Навоийнинг Лайли ва Мажнун достони. – Т.: Фан, 1970.

to‘plamida e’lon qiladi[38]. Olimning ma’lumot berishicha, ushbu obrazning ildizlari VII asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi. U dastlab arablar o‘rtasida yuzaga kelgan qadimiy tarqoq manbalarda o‘z ifodasini topgan[39].

Layli ismi ilk bor xalq og‘zaki ijodidagi she’riy matnlarda uchragan. Keyinchalik yozma adabiyotga ko‘chib, asrlar davomida shoirlar ijodining badiiyatini oshirishga xizmat qilgan. Xususan, Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy ijodi fikrimizning isboti bo‘la oladi. Chunki Layli obrazi ilk bor forsiy epik she’riyatda bosh qahramon sifatida Nizomiy Ganjaviy dostonida qo‘llangan. Mazkur ijodkordan so‘ng Layli obrazi ham she’riyatda, ham dostonchilikda ko‘zga tashlana boshlandi. Jumladan, she’riyat yo‘nalishida XX asr adabiyoti vakillari ijodida ham mazkur obrazning namunalari uchraydi. Usmon Nosir, Erkin Vohidov va Abdulla Oripovlar ijodi fikrimizni asoslaydi.

Abdulla Oripov she’riyatida obraz yaratish masalasi o‘zbek adabiyotshunosligida “yangi o‘zbek she’riyatining intellektual va falsafiy qiyofasi” sifatida talqin qilinadi. Chunki shoir an’anaviy lirik obrazlarni zamonaviy ijtimoiy-ruhiy mazmun bilan boyita olgan. Buni biz “Layli” obrazi misolida ko‘zdan kechiramiz. Abdulla Oripov ijodidagi Layli (Laylo) obrazi mumtoz adabiyotdagi an’anaviy qoliplardan oziqlangan bo‘lsa-da, mazmun va mohiyat jihatidan jiddiy farqlarga ega. Mumtoz she’riyatda Layli — mutlaq go‘zallik va ilohiy ishq ramzi bo‘lsa, Abdulla Oripov she’riyatida u ijtimoiy-psixologik va intellektual mazmunga ega obrazga aylanadi. Chunki shoirning Laylosi esa XX asr fojialari, insoniyatning ma’naviy tanazzuli va qalb qurshovlari ichida namoyon bo‘ladi. Shoir uni "g‘urbat bog‘lari"dan qidiradi. Uning iztirobi nafaqat hijron azobi, balki dunyoning nomukammalligidan tug‘ilgan falsafiy og‘riq kabi tasvirlaydi. Shoirning “Yalong‘och satrlar” she’rida qo‘llangan Layli obrazi ana shunday falsafaga boyligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Siz, mening yalang‘och satrlarim,
Doroning oldida Shiroq kabi,
Yoki uzoq borsa, Laylining qoshida Majnun yanglig‘,
Yoxud muz qobig‘idagi Karbishev misol,
Siz, mening yalang‘ och satrlarim…[40]

Mazkur parchada Layli obrazi orqali ilgari surilayotgan g‘oya falsafiy mushohada yuritishni talab etadi. Chunki shoir unda “haqiqiy she’r — bu qurbonlik mevasidir” degan tushunchani targ‘ib qiladi. Ya’ni satrlar Laylining qoshida o‘zini fido qilishga tayyor turishi — bu san’atkorning o‘z asari oldidagi mas’uliyati va e’tiqodidir. Bu yerda Layli — Hakam obrazida. U satrlarning chinligini o‘zining ilohiy go‘zalligi bilan sinovdan o‘tkazadi. Shu bilan birga "San’at — bu mutlaq haqiqatga tiz cho‘kishdir" degan falsafiy-estetik g‘oyani ham

[38] Крачковский И.Ю. Ранняя история повести о Меджнуне и Лейли в арабской литературе / Алишер Навои. – М., – Л.: Изд-во АН СССР, 1946. – С. 30-31.
[39] O‘sha manba. – B. 31.
[40] Абдулла Ориф. ҲАЖ ДАФТАРИ ҲИКМАТ САДОЛАРИ (Эллик ҳадис) – Тошкент: 1992. – Б.22

singdiradi. Qolaversa, Layli shoirning vijdoni va badiiy mezoni sifatida namoyon bo‘ladi.

“Dorulfununga” she’rida esa shoir yana bir qarashni targ‘ib etadi. Unda qalamga olingan Layli timsoli bir qarashda bugungi kundagi ta’lim olayotgan sodda bir qizaloqning ismiga ishora qilayotgandek ko‘rinsa, ikkinchi tomondan boshqa bir g‘oyaning singdirilganini kuzatamiz. Ya’ni “Toliba Layli” va “talaba Majnun” birikmalari orqali shoir an’anaviy obrazlarga ijtimoiy maqom beradi. Bu yerda Layli endi taqdir hukmi bilan sahroda qolgan ma’shuqa emas, balki muayyan ijtimoiy muhitda (bilim dargohida) shakllanayotgan zamonaviy shaxsdir. Layli timsoli bu yerda “ma’naviy merosxo‘rlik” g‘oyasini ifodalaydi. Ya’ni, shoir o‘zbek yoshlarining qalbidagi pokiza tuyg‘ularni mumtoz ildizlar bilan bog‘lamoqda. Layli — bu o‘zbek qizining (tolibaning) hayo, iffat va muhabbat borasidagi tarixiy genetik qarashlari sifatida talqin qilinmoqda.

Neki qalbimizga cho‘g‘ bo‘lib tushgan,
Sening otashingda toblangan bari.
G‘ishtin binolaring taftida pishgan
Muhabbat atalmish sevgi gavhari.

O‘ylar surar edik tegrangda uzoq —
Toliba Layli-yu, talaba Majnun.
Muhabbat darsidan bergansan saboq,
Vafo darsxonasi, ey dorilfunun.[41]

Shoirning bu she’rida ilgari surilgan yashirin ma’no uning “Haj daftari” turkumidan o‘rin olgan “Layli va Majnun” nomli she’rida ham uchraydi. Unda shoir Layli obrazi orqali insoniyat uchun muqaddas tuyg‘u sanalgan haqiqiy “Ishq”ni targ‘ib qiladi. Ya’ni insoniyatning Yaratganga bo‘lgan pok muhabbati shoir tilida yuqori darajaga ko‘tarilgan

Oyoq qo‘lin bog‘lab Laylini bir kun
Olib kelishdilar Ka’baga tomon.
Layli xitob qildi: — Tavba ne uchun,
Majnunim bo‘lmasa tiyradir jahon.

Ibodat Majnununning navbati edi,
U ham oshkor etdi ko‘ngil maylini.
Ka’baga bosh urib turarkan dedi:
Men sendan so‘rayman faqat Laylini.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Abdulla Oripov Layli obrazinini mumtoz adabiyotda talqin etilgan mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, uni real voqelik darajasiga ko‘chirdi. Abdulla Oripov talqinida Layli — erishib bo‘lmas ilohiy nur emas, balki inson hayotining mazmunini belgilovchi, u bilan birga iztirob chekuvchi va izlanuvchi tirik haqiqatdir. Shuning uchun shoir yaratgan obrazlar

[41] Абдулла Орипов. ҲАЙРАТ. Шеърлар. – Тошкент:Ғафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашри, 1974. – б. 47.

tizimi o‘zbek she’riyatining nafaqat badiiy, balki falsafiy qiyofasini ham belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Oripov A. Tanlangan asarlar. 3-tom. T. Adabiyot va san’at, 2001. 382-b
2. Oripov A. Tanlangan asarlar. 4-tom. T. Adabiyot va san’at, 2001.381- b
3. Orif A. Haj daftari. -T. :Murod firmasi . Mirzo Akbar nashr bo‘limi, 1992.
4. Орипов А. Ҳайрат. Шеърлар. – Тошкент:Ғафур Гулом Номидаги Адабиёт Ва Санъат Нашри, 1974. – Б. 47.
5. Ernazarova G.H. XX asr o‘zbek poeziyasida milliy tafakkur va uning badiiy talqini (Cho‘lpon, G‘.G‘ulom A.Oripov she’riyati misolida). - Toshkent, 2001, 30-bet.
6. Egamqulova N.B. “Abdulla Oripov she’riyatining lingvopoetik tahlili” nomli dissertatsiyasi.
7. Бертельс Е.Э.Низами и Физули / Изб.труды. – М.: Наука, 1962; Крачковский И.Ю. Ранняя история повести о Меджнуне и Лейли в арабской литературе / Алишер Навои. – М., 2006;
8. Крачковский И.Ю. Ранняя история повести о Меджнуне и Лейли в арабской литературе / Алишер Навои. – М., – Л.: Изд-во АН СССР, 1946. – С. 30-31.

ТВОРЧЕСТВО АБДУЛЛЫ ОРИПОВА КАК ОТРАЖЕНИЕ ДУХОВНЫХ И ФИЛОСОФСКИХ ПОИСКОВ СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ

Юсупов Эркин Курбанбаевич

Преподаватель кафедры “Языков” “Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства” Национальный исследовательский университет

Аннотация: *В статье анализируется поэтическое наследие Абдуллы Орипова — одного из крупнейших представителей современной узбекской литературы. Рассматриваются основные темы его творчества, художественные особенности поэзии, философская проблематика и роль поэта в развитии национальной литературной традиции. Особое внимание уделяется патриотическим мотивам, духовным поискам и художественным средствам, которые формируют уникальный стиль поэта. Делается вывод о значительном влиянии поэта на развитие современной узбекской поэзии.*

Ключевые слова: *узбекская литература, поэзия, поэт, философская лирика, патриотизм, национальная идентичность, художественный образ.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola zamonaviy o‘zbek adabiyotining yetakchi namoyandalaridan biri Abdulla Oripovning she’riy merosini tahlil qiladi. Unda uning ijodining asosiy mavzulari, she’riyatining badiiy xususiyatlari, falsafiy tashvishlari va milliy adabiy an’anani rivojlantirishdagi roli o‘rganiladi. Shoirning o‘ziga xos uslubini shakllantiruvchi vatanparvarlik motivlari, ma’naviy izlanishlar va badiiy vositalarga alohida e’tibor qaratilgan. Unda shoir zamonaviy o‘zbek she’riyatining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan degan xulosaga kelish mumkin.*

Kalit so‘zlar*: o‘zbek adabiyoti, she’riyat, shoir, falsafiy lirika, vatanparvarlik, milliy o‘ziga xoslik, badiiy obraz.*

Abstract: *This article analyzes the poetic legacy of Abdulla Oripov, one of the leading figures in modern Uzbek literature. It examines the main themes of his work, the artistic features of his poetry, his philosophical concerns, and his role in the development of the national literary tradition. Particular attention is paid to the patriotic motifs, spiritual quests, and artistic devices that shape the poet’s unique style. It concludes that the poet has had a significant influence on the development of modern Uzbek poetry.*

Keywords: *Uzbek literature, poetry, poet, philosophical lyricism, patriotism, national identity, artistic image.*

Во второй половине XX века узбекская литература пережила важный этап своего развития. В этот период появились поэты, которые сумели по-новому осмыслить национальные традиции и соединить их с современными художественными формами. Среди таких авторов особое место занимает Абдулла Орипов.

Его поэзия отличается глубоким философским содержанием, эмоциональной искренностью и высоким художественным мастерством. В произведениях поэта отражаются важнейшие вопросы человеческого существования: смысл жизни, духовное развитие личности, любовь к родине и судьба народа.

Творчество А.Орипова стало значительным вкладом в развитие современной узбекской поэзии и оказало влияние на формирование национального литературного сознания. Абдулла Орипов родился в 1941 году в Кашкадарьинской области Узбекистана. Его детство прошло в сельской местности, где он с ранних лет познакомился с народной культурой, фольклором и традициями. Позднее он поступил на факультет журналистики Ташкентский государственный университет (ныне Национальный университет Узбекистана). Именно в студенческие годы поэт начал активно публиковать свои произведения.

Первый сборник стихов принес автору широкую известность. С этого момента А.Орипов становится одной из центральных фигур узбекской поэзии. Первые стихотворения поэта были опубликованы в литературных журналах. Они сразу привлекли внимание читателей своей искренностью и глубиной мысли. С течением времени поэт стал одной из ведущих фигур узбекской поэзии. Его произведения получили широкое признание как среди читателей, так и среди литературных критиков.Одной из ключевых тем творчества Абдуллы Орипова является тема родины. Поэт с особой любовью описывает красоту родной земли, историю народа и духовные ценности национальной культуры. В его стихах родина выступает не только как географическое пространство, но и как духовная категория. Поэт воспринимает её как источник силы, вдохновения и нравственного ориентирования. Особую известность А.Орипову принесло создание текста Государственного гимна Республики Узбекистан, который стал символом национального единства и независимости страны.

Философская глубина является одной из важнейших характеристик поэзии А.Орипова. Поэт часто обращается к вечным вопросам человеческого существования. В его произведениях звучат размышления о времени, судьбе, жизни и смерти. Поэт пытается осмыслить место человека в мире и его ответственность перед обществом.

Например, в одном из стихотворений он пишет:

«Человек приходит в мир не случайно —
ему дана возможность оставить след.»

Эти строки отражают характерную для поэта идею духовной ответственности человека. Важной особенностью поэзии Орипова является философская глубина. Поэт размышляет о смысле жизни, судьбе человека и его ответственности перед обществом. Многие его стихотворения посвящены вопросам времени, человеческой памяти и духовных ценностей.

Значительное место в творчестве поэта занимают духовные мотивы. Одним из наиболее известных произведений является цикл **«Хаж дафтари»**, в котором поэт размышляет о вере, духовном очищении и нравственном совершенствовании.

В этом произведении религиозные мотивы переплетаются с философскими размышлениями о жизни человека и его духовном пути. Поэзия А.Орипова отличается своеобразием художественного стиля. Можно выделить несколько характерных особенностей его поэтики. Поэт активно использует символы и метафоры, создавая многозначные художественные образы. Стихи А.Орипова отличаются эмоциональной глубиной и

искренностью. Особое внимание поэт уделяет ритму и звучанию стихотворений, что придаёт им выразительность и мелодичность.

Творчество поэта продолжает традиции классической восточной поэзии, но одновременно включает современные художественные элементы.

Творчество Абдуллы Орипова сыграло важную роль в развитии современной узбекской литературы. Его произведения способствовали:

- ✓ расширению тематического диапазона поэзии;
- ✓ обновлению художественного языка;
- ✓ укреплению национальной литературной традиции.

Стихи поэта переведены на многие языки мира и изучаются в литературоведении.

Таким образом, творчество Абдулла Орипов является важным явлением в истории узбекской литературы. Его поэзия соединяет глубокую философию, искренние чувства и высокое художественное мастерство. Произведения поэта отражают духовные поиски человека и судьбу народа, что делает их актуальными и в современную эпоху. Поэзия Орипова продолжает вдохновлять читателей и исследователей, занимая достойное место в мировом литературном наследии. Вклад поэта в развитие узбекской литературы является значительным и продолжает оказывать влияние на новые поколения читателей и исследователей.

Список литературы

1. Орипов А. Избранные произведения. — Ташкент: Издательство литературы и искусства.
2. История узбекской литературы XX века. — Ташкент.
3. Современная узбекская поэзия: исследования и статьи. — Ташкент.
4. Литературоведение Узбекистана. Научные статьи о поэзии Абдуллы Орипова.

ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA VATAN TIMSOLI VA TARIXIY XOTIRA (“O‘ZBEKISTON” SHE’RI MISOLIDA)

Amonov Lazizbek

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Ekologiya va huquq fakulteti Sun’iy intellekt yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Qo‘shnazarova Maloxat Alimovna**

Tillar kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada Abdulla Oripovning “O‘zbekiston” she’ri badiiy-filologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida she’rning g‘oyaviy mazmuni, lirik qahramon ruhiyati, Vatan obrazining poetik talqini hamda tarixiy shaxslar obrazlari o‘rganiladi. Shuningdek, asarda qo‘llangan metafora, ramz va poetik obrazlarning badiiy funksiyasi ilmiy asosda yoritiladi. Tahlil natijasida shoir lirikasida Vatan timsoli milliy g‘urur, tarixiy xotira va ma’naviy merosni ifodalovchi muhim badiiy kategoriya sifatida namoyon bo‘lishi aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Vatan timsoli, lirik qahramon, metafora, ramz, tarixiy xotira, poetik obraz, o‘zbek she’riyati.*

АННОТАЦИЯ:*В данной статье проводится художественно-филологический анализ стихотворения Abdulla Oripov «Узбекистан». В исследовании рассматриваются идейное содержание произведения, духовное состояние лирического героя, поэтическое изображение образа Родины, а также исторические личности, упомянутые в тексте. Особое внимание уделено художественным средствам — метафоре, символу и поэтическому образу. Анализ показывает, что в лирике поэта образ Родины выступает важной художественной категорией, отражающей natsіональную гордость, историческую память и духовное наследие.*

Ключевые слова: *образ Родины, лирический герой, метафора, символ, историческая память, поэтический образ, узбекская поэзия.*

ABSTRACT: *This article presents a literary and philological analysis of the poem “Uzbekistan” by Abdulla Oripov. The study examines the ideological content of the poem, the spiritual state of the lyrical hero, the poetic depiction of the Motherland, and the historical figures mentioned in the text. Special attention is paid to artistic devices such as metaphor, symbolism, and poetic imagery. The analysis reveals that the image of the Motherland in the poet’s lyrics functions as an important artistic category expressing national pride, historical memory, and spiritual heritage.*

Keywords: *image of the Motherland, lyrical hero, metaphor, symbol, historical memory, poetic imagery, Uzbek poetry.*

O‘zbek zamonaviy she’riyatining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Abdulla Oripov ijodida Vatan mavzusi markaziy o‘rin egallaydi. Shoir lirikasida milliy tarix, xalqning ma’naviy merosi, buyuk ajdodlar siymosi hamda Vatanga bo‘lgan muhabbat chuqur falsafiy va badiiy talqin etiladi.

“O‘zbekiston” she’ri shoirning eng mashhur va g‘oyaviy jihatdan mukammal yaratilgan bo‘lib, unda Vatan madhiyasi, tarixiy xotira va milliy g‘urur uyg‘un holda ifodalanadi. Asarda lirik qahramon Vatan tarixini eslar ekan, buyuk

allomalar va tarixiy shaxslar siymosi orqali xalqning ma’naviy qudratini ko‘rsatadi.

She’rning bosh g‘oyasi — Vatanga cheksiz muhabbat va milliy g‘urur tuyg‘usidir. Lirik qahramon she’r boshidayoq o‘z yurti uchun she’r yozayotganini bildiradi:

Yurtim, senga she’r bitdim bu kun,

Qiyosingni topmadim aslo.

Bu misralarda shoir Vatanining beqiyos ekanini ta’kidlaydi. Shoirlar ko‘p yurtlarni madh etgan bo‘lsalar ham, lirik qahramon uchun O‘zbekiston betakror diyor sifatida namoyon bo‘ladi.

She’rda Vatan faqat geografik makon sifatida emas, balki tarixiy, madaniy va ma’naviy qadriyatlar mujassam bo‘lgan muqaddas tushuncha sifatida talqin qilinadi.

Shoir Vatan tarixiga murojaat qilar ekan, o‘zbek xalqining buyuk ajdodlari bilan faxrlanish tuyg‘usini ifodalaydi. Bu jihatdan asar milliy o‘zlikni anglash g‘oyasini ham o‘zida mujassam etadi.

“O‘zbekiston” she’rida lirik qahramon ruhiyatining ifodasi qahramonning ruhiyati g‘urur, hayrat va tarixiy xotira tuyg‘ulari bilan ifodalanadi.Masalan, quyidagi misralarda tarixiy shaxs obraziga murojaat qilinadi:

Ikki asr yarim dunyoni

Zir qaqshatdi Buyuk jahongir.

Bu misralarda buyuk sarkarda Amir Temur nazarda tutiladi. Lirik qahramon bu tarixiy siymo orqali o‘z xalqining qudratini ko‘rsatadi.

Keyingi bandlarda esa ilm-fan sohasidagi buyuk ajdodlar tilga olinadi.

Masalan:

Osmon ilmi tug‘ilgan ilk bor

Ko‘ragoniy jadvallarida.

Bu misralarda buyuk astronom Mirzo Ulug‘bekning ilmiy merosi nazarda tutiladi. Shoir ilm-fanni ham milliy g‘urur manbai sifatida talqin qiladi. Shuningdek, ilm-fan rivojida ulkan hissa qo‘shgan yana bir alloma tilga olinadi:

Dengiz ortin yoritdi ilk bor,

Beruniyning aql mash’ali.

Bu misralarda Abu Rayhon Beruniy siymosi orqali ilm-fan nurining butun dunyoga tarqalishi ramziy tarzda ifodalanadi.

She’rning badiiy kuchini oshiruvchi asosiy vositalardan biri metaforalardir.

“Bitilmagan doston” - shoir O‘zbekistonni “bitilmagan doston” deb ataydi. Bu metafora Vatan tarixining nihoyatda boy va ulug‘ ekanini bildiradi.

“Aql mash’ali” - ilm-fan nurining timsoli sifatida ishlatilgan. Beruniy ilmiy tafakkurining butun dunyoga nur sochganini anglatadi.

“Kumush diyori”- yurtning go‘zalligi va boyligini tasvirlash uchun ishlatilgan poetik obrazdir.

She’rda bir qator ramziy obrazlar mavjud bo‘lib, ular asarning falsafiy mazmunini boyitadi.

Vatan- she’rning markaziy ramzi — Vatan. U shoir uchun muqaddas qadriyat sifatida talqin qilinadi. Yulduz- ilm-fan va abadiyat ramzi sifatida tasvirlangan. Ulug‘bek nomi bilan bog‘liq misralarda yulduzlar ilm-fan timsoli sifatida ko‘rinadi. Mash’al- nur va bilim ramzidir. Beruniy nomi bilan bog‘liq holda ishlatilishi ilmning insoniyat taraqqiyotidagi ahamiyatini bildiradi. She’r kompozitsion jihatdan mukammal tuzilgan. Har bir band oxirida takrorlanadigan misra mavjud:

O‘zbekiston, Vatanim manim.

Bu takror she’rning asosiy g‘oyasini mustahkamlaydi. Takror usuli she’rga tantanavor ohang bag‘ishlaydi va Vatanga bo‘lgan muhabbatni yanada kuchaytiradi. Shoir tarixiy shaxslarni ketma-ket tilga olish orqali she’rga epik kenglik beradi. Bu usul lirik va epik unsurlar uyg‘unligini yuzaga keltiradi.

Abdulla Oripovning “O‘zbekiston” she’ri o‘zbek she’riyatida Vatan madhiyasining eng yorqin namunalaridan biridir. Vatanga bo‘lgan chuqur muhabbat va milliy g‘urur ifodasi, tarixiy shaxslar orqali milliy o‘zlikni anglash g‘oyasi, kuchli metafora va ramzlar tizimi, tantanavor poetik ohang va kompozitsion mukammallik she’rning asosiy badiiy xususiyatlarini aniqlab bergan.

Asarda Vatan obrazining ulug‘vorligi tarix, ilm-fan va madaniyat bilan uyg‘un holda tasvirlanib, milliy o‘zlikni anglash g‘oyasi badiiy jihatdan yuksak darajada ifoda etilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.
2. Abdulla Oripov. Haj daftari. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2012.
3. Ozod Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004.
4. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
5. Oripov A. Ehtiyoj farzandi.-Toshkent.: Yosh gvardiya nashriyoti.1988.

“SEN BAHORNI SOG‘INMADINGMI” SHE’RINING BADIIY-POETIK XUSUSIYATLARI

Gulzada Rejepova Maksadovna

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Iqtisodiyot fakulteti

Filologiya va tillarni o‘qitish: Rus tili yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
munis_76@mail.ru
Ilmiy rahbar: PhD, dotsent **Eshmatova Yulduz Boymaxmatovna**

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada Abdulla Oripovning “Sen bahorni sog‘inmadingmi” she’ri badiiy-filologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida she’rning g‘oyaviy mazmuni, lirik qahramon ruhiyati hamda tabiat tasvirlari orqali ifodalangan sog‘inch motivi o‘rganiladi. Shuningdek, asarda qo‘llangan poetik vositalar — metafora, ramz va obrazlarning badiiy funksiyasi ilmiy asosda yoritiladi. Tahlil natijasida shoir lirikasida tabiat obrazlari insonning ichki ruhiy kechinmalarini ifodalovchi muhim badiiy vosita sifatida xizmat qilishi aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *lirik qahramon, sog‘inch motivi, metafora, ramz, poetik obraz, tabiat tasviri, badiiy tahlil, o‘zbek she’riyati.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье проводится художественно-филологический анализ стихотворения Abdulla Oripov «Ты не скучал по весне?». В исследовании рассматриваются идейное содержание произведения, духовное состояние лирического героя и мотив тоски, выраженный через пейзажные образы природы. Особое внимание уделяется художественным средствам, таким как метафора, символ и поэтический образ. В результате анализа выявлено, что природные образы в поэзии поэта выступают важным средством раскрытия внутреннего мира человека.*

Ключевые слова: *лирический герой, мотив тоски, метафора, символ, поэтический образ, изображение природы, художественный анализ, узбекская поэзия.*

ABSTRACT: *This article presents a literary and philological analysis of the poem “Did You Not Miss the Spring?” by Abdulla Oripov. The study examines the ideological content of the poem, the spiritual state of the lyrical hero, and the motif of longing expressed through images of nature. Special attention is paid to artistic devices such as metaphor, symbolism, and poetic imagery. The analysis reveals that natural imagery in the poet’s lyrics functions as an important artistic means for expressing the inner emotional world of a person.*

Keywords*: lyrical hero, motif of longing, metaphor, symbol, poetic image, nature imagery, literary analysis, Uzbek poetry.*

O‘zbek zamonaviy she’riyati taraqqiyotida Abdulla Oripov ijodi alohida o‘rin egallaydi. Shoir lirikasida inson qalbi, muhabbat, sog‘inch, vatan va tabiat o‘rtasidagi ruhiy bog‘liqlik chuqur falsafiy ruhda ifodalanadi. Uning she’rlarida

lirik qahramonning ichki kechinmalari tabiat tasvirlari orqali yoritilishi o‘ziga xos poetik uslubni tashkil etadi.

“Sen bahorni sog‘inmadingmi” she’ri shoir lirikasining yorqin namunalaridan biri bo‘lib, unda muhabbat sog‘inchi, ayriliq iztirobi hamda tabiat bilan inson ruhiyati o‘rtasidagi uyg‘unlik badiiy tasvir orqali ifodalanadi. Asarda lirik qahramon sevgan insonini izlaydi, uni tabiat manzaralari orasidan topishga harakat qiladi, biroq uning yo‘qligi bahorning ham ma’nosiz ko‘rinishiga sabab bo‘ladi.

She’rning g‘oyaviy-badiiy mazmuni she’r markazida lirik qahramonning sog‘inch hissi turadi. Asarda bahor fasli tasvirlanadi, biroq bu bahor shodlik emas, balki ayriliq hissi bilan uyg‘un holda berilgan. She’rning birinchi bandidayoq lirik qahramon sevgilisining izidan tabiat bag‘rida izlaydi:

Uyg‘onguvchi bog‘larni kezdim,

Topay dedim qirdan izingni.

Bu misralarda “uyg‘onuvchi bog‘lar” tasviri bahorning kelishi, tabiatning yangilanishini bildiradi. Biroq qahramon uchun bu uyg‘onish to‘liq emas, chunki u sevgan insonini topa olmaydi.

Keyingi misralarda shoir tabiat va inson go‘zalligini o‘zaro qiyoslaydi:

Yonog‘ingdan rang olgan dedim –

Lolazorga burdim yuzimni.

Bu yerda lola sevgilining yuz rangiga qiyoslanadi. Tabiatdagi go‘zallik sevgilining go‘zalligi bilan bog‘lanadi. Biroq she’rning asosiy dramatik nuqtasi quyidagi misrada ifodalanadi:

Uchratmadim ammo o‘zingni.

Bu jumla lirik qahramonning ichki iztirobini ochib beradi. Natijada bahor ham quvonch emas, balki sog‘inch manzarasiga aylanadi. She’rda lirik qahramon ruhiyatining ifodasi ruhiy holati sog‘inch, iztirob va umid aralash hissiyotlar orqali tasvirlanadi.

Masalan:

Sensiz men ham, bahor ham g‘arib.

Ushbu misrada she’rning asosiy g‘oyaviy markazidir. Bu yerda shoir inson ruhiyati bilan tabiatni bir butun holatda tasvirlaydi. Bahor — odatda quvonch fasli, ammo sevgili yo‘qligi sabab u ham “g‘arib” bo‘lib qoladi. She’r davomida lirik qahramon tabiat manzaralariga: tog‘lar, ohu, sa’va qushi va tog‘ suvlarida murojaat qiladi. Bu obrazlar lirik qahramonning ichki dunyosini aks ettiruvchi poetik vositalardir.

Qorliklardan sipqarilgan suv,

Daralarda uradi javlon.

Bu misralar tabiatdagi harakatni tasvirlaydi. Suvning shiddat bilan oqishi lirik qahramon qalbidagi jo‘shqin his-tuyg‘ularni eslatadi.

She’rning badiiy kuchini oshirayotgan asosiy vositalardan biri – metaforalardir.

“Uyg‘onguvchi bog‘lar”	Bu metafora bahorning kelishi bilan tabiatning tirilish jarayonini bildiradi. Shu bilan birga, u inson qalbidagi umidning uyg‘onishini ham ifodalaydi.
“Yonog‘ingdan rang olgan lola”	Bu yerda lola sevgilining go‘zalligi ramziga aylangan. Shoir tabiat ranglarini inson go‘zalligi bilan uyg‘unlashtiradi.
“Sensiz bahor g‘arib”	Bu juda kuchli poetik metafora hisoblanadi. Bahor — odatda quvonch timsoli bo‘lsa-da, sevgili yo‘qligi sabab u ham ma’nosiz bo‘lib qoladi.

She’rda bir qator ramziy obrazlar mavjud bo‘lib, ular asarning falsafiy mazmunini chuqurlashtiradi. Simvollar (ramzlar) tahlili quyidagicha:

Bahor	v Umid va yangilanish ramzi. Ammo she’rda u sog‘inch bilan
Lola	Lola o‘zbek she’riyatida ko‘pincha muhabbat va go‘zallik timsoli sifatida talqin qilinadi.
Tog‘lar	Tog‘lar masofa va ayriliq ramzi sifatida tasvirlanadi.
Ohu	Ohu sharq she’riyatida noziklik va go‘zallik timsolidir.
Navro‘z	She’rning oxirgi bandida Navro‘z eslatiladi. Bu yangi hayot, yangilanish ramzi hisoblanadi. Biroq lirik qahramon uchun bu bayram ham sevgilisiz to‘liq emas.

Poetika va kompozitsiya usullarini tahlil qilamiz. She’r kompozitsion jihatdan juda mukammal qurilgan. Har bir band oxirida takrorlanadigan savol: “*Sen bahorni sog‘inmadingmi?”* Bu savol she’rning asosiy poetik tayanchiga aylanadi. Takror usuli orqali shoir:

- ✓ sog‘inch hissini kuchaytiradi;
- ✓ lirik dramatizmni oshiradi;
- ✓ she’rga musiqiy ohang bag‘ishlaydi.

Shu usul o‘zbek lirik she’riyatida keng qo‘llaniladigan poetik vositalardan biridir.

Abdulla Oripovning “Sen bahorni sog‘inmadingmi” she’ri o‘zbek lirik poeziyasining nafis namunalaridan biridir.

She’rning asosiy badiiy xususiyatlarida lirik qahramon ruhiyatining chuqur ifodasi, tabiat tasvirlari orqali ichki kechinmalarni ochish, kuchli metafora va ramzlar tizimi, takroriy savol orqali yaratilgan poetik dramatizm xususiyatlari bezab turibdi. Asarda tabiat obrazlari inson qalbi bilan uyg‘un holda tasvirlanib, muhabbat sog‘inchi falsafiy mazmunda ifodalanadi. Shu jihatdan ushbu she’r shoir

lirikasining ruhiy-falsafiy yo‘nalishini yorqin aks ettiruvchi badiiy asar hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.
2. Naim Karimov. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008. Umarali Normatov. Ijod sehri. – Toshkent: Sharq, 2007.
3. Aristotle. Poetika. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.

ABDULLA ORIPOV-YANGI SHABBODA ELCHSI

Abduxamidova Xadichaxon Umidjon qizi
“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti Ekologiya va huquq fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O’zbekiston Respublikasi davlat madhiyasining muallifi, Yassaviy, Navoiy, Bobur, Cho’lpon kabi buyuk adiblar ijoding davomchisi_Abdulla Oripov-o’zbek adabiyotining yangi shabboda elchisi ekanligi takidlanadi va she’riyati tahlil qilinadi, asarlari haqida ma’lumot beriladi.*

Kalit so’zlar: *falsafiylik, yangi shabboda, “Mitti yulduz”, “Shoir Umri”.*

Аннотация. *В данной статье подчеркивается, что автор Государственного гимна Республики Узбекистан, продолжатель творчества таких великих писателей, как Яссавий, Навои, Бабур, Чулпон — Абдулла Орипов является посланником новой эпохи узбекской литературы. Анализируется его поэзия и представлена информация о его произведениях.*

Ключевые слова: *философичность, новое дыхание, «Маленькая звезда», «Жизнь поэта».*

Annotation. *This article emphasizes that Abdulla Oripov, the author of the National Anthem of the Republic of Uzbekistan and a successor to the creative legacy of such great writers as Yassavi, Navoi, Babur, and Cholpon, is a messenger of a new era in Uzbek literature. His poetry is analyzed, and information about his works is provided.*

Key words: *philosophical depth, new breath, “Little Star”, “The Life of a Poet”.*

Kirish. Abdulla Oripov – buyuk iste’dod sohibi. Uning she’riyati falsafiylik, milliy ruh, diniy-axloqiy mezonlarga sadoqat, vatanparvarlik kabi tuyg’ularni chulg’ab oladi. Shoir o’z ijodida xalqning erkinligi va mustaqil fikrga ega bo’lishi, hurlik, milliy tiklanishga alohida e’tibor qaratadi. O’zbekiston xalq shoiri, taniqli jamoat arbobi Abdulla Oripov 1941-yilda Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi Neko’z qishlog’ida dunyoga kelgan. O’rta maktabni tugatgandan so’ng, Toshkent Davlart universiteti filologiya fakultetining jurnalistika bo’limiga kirb, o’qishni 1963-yilda muvaffaqiyatli tamomlagan.

Oripov o’zbek she’riyatiga o’tgan asrning 60-yillarida sobiq sovet jamiyatida esa boshlagan yangi shabbodaning elchisi sifatida kirb keldi. Dastlabki ijodini talabalik yillarida boshlagan bo’lib, uning birinchi she’rlar to’plami “Mitti yulduz” nomi bilan 1965-yilda chop etilgan. Shoirning ilk to’plami o’zbek she’riyatida yangi yangi davr boshlanganidan darakchi bo’ldi. Yarim asrdan ortiq vaqtdan buyon nafaqat “Mitti yulduz” she’ri, balki boshqa she’rlari ham adabiyot dunyosida o’zining o’chmas nurlarini taratib kelmoqda. Ushbu to’plam o’quvchilar orasida keng tarqalib, xatto adabiyotshunoslik olamida ham anchagina ijobiy fikrlarga ega bo’lgan.1965-yilda “O’zbekiston madaniyati” gazetasida o’z faoliyatini olib borgan adabiyotshunos olim M. Olimov: “Abdulla she’rlari qalbga nurday singadi-yu, nogahon sukunatni tilka-pora qilib, tug’yon ko’taradi. Yurakni o’rtab, shuurga chaqmoqdek nur beradi”, - deb yozgan edi “Mitti yulduz” haqidagi taqrizida. Va to’plamdan **“Shoir Umri”** deb ataluvchi she’r ham o’zining ohangraboligi bilan ajralmas o’rin olgan.

Daraxtni hamisha o’raydi shamol,
Shoirni tashvishlar chulg’ar hamisha.
Sen shoir umrini dema bezavol
Uning ham har oni tashvishga pesha.
Qara-ya, o’tibdi qirq yil muttasil,
Yashabman yulduzlar ostida karaxt.
Oh, shoir umriga havas qilmagil,
U quyun ichida ungan bir daraxt.

Shoir ushbu she’r orqali o’zining va kasbdoshlarining mashaqqatli hayotini quyunlar orasida ungan bir daraxtga qiyoslaydi, hamda “shoirlarning umrini qiyinchiliklarsiz dema, ularga doimo tashvishlar hamroh” deya ta’riflaydi. Haqiqatdan ham Abdulla Oripovning she’r va dostonlarida mustaqillik davridagi ma’naviy muammolar dolzarb ahamiyat kasb etgan. Uning ijodida Hamid Olimjonning she’rlarga xos bo’lgan musiqiy ravonligi va G’afur G’ulomga xos lirik falsafiylik uyg’unlashgan holda ko’zga tashlanadi va orifona she’riyatning asosiy xususiyatlarini ifodalab beradi.1968 yildan buyon turli nashriyotlarda muharrir, Yozuvchilar uyushmasida kotib vazifalarida xizmat qilib kelgan.

Mualliflar huquqini himoya qilish agentligi va O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi lavozimlarida o’z faoliyatini olib borgan. Shoirning 70-yillardan so’ng yaratilgan ijod namunalarida hayot va inson, jamiyat va tabiat haqidagi falsafiy mushohadalarning oshib borayotganligi yaqqol seziladi. Kuchli ehtirosli tuyg’ular asarlarda o’zining yuksak talqinini topib boradi va shoirning ijodiy kamolotga erishganidan darak beradi. Bunga yaqqol misol uning “Saylanma” (1996) asaridir. Ayniqsa, asardagi Ona Vatanni ozod va obod ko’rish istagi, istiqlolga intilish va el-yurt mustaqilligiga erishish g’oyalari o’z mazmuniga ega bo’lib ajib bir o’ziga xoslik kasb etadi. “Men nechun sevaman O’zbekistonni”, “O’zbekistonda kuz”, “Kuz” kabi 60-yillarda yozilgan she’rlaridayoq istiqlolning isi ufurib turadi. Bir gap bilan aytganda, shoirning tuyg’ular ummonini-Vatan va xalqqa mehr-muhabbat, tabiatni sevish, ardoqlash, imonli, vijdonli insonlarga madhiyalar o‘qish, goh yig‘lab, goh quvonib kuylash tashkil etadi.

O‘zbekman

Yangi bir asrning ostonasi bu,
Yetishdim umrimning qutlug‘ yoshiga.
Tilimda shukrona, dilimda g‘ulu,
Tarix sarkotibin keldim qoshiga:
— Mana, men - O‘zbekman, qo‘limda tug'im
Va barcha a’molim bitilgan kitob.
Shuning ichidadir borim va yo‘g‘im,
Shuning ichidadir men uchun oftob.
O‘zbekman, inshoolloh, iymonim butun
Tilim qisiq emas bashariyatdan.
Kimgadir tengdirman, kimdandir ustun
Zuvalam qorilgan samimiyatdan.
O‘zbekman, gohida iqbolim kulib,
Gohida o‘zimdan chiqqan ofatim.
Dunyoni olsam-da jahongir bo‘lib,
Go‘dak yig‘isiga yo‘qdir toqatim.
O‘zbekman, qanchalik jafo chekmayin,
O‘zimga haq bo‘ldim, o‘zimga haqman.
Yashadim yovlarga bo‘yin egmayin,
Bu kun o‘z erkiga erishgan xalqman.
Istiqlol, ketma yurt peshonasidan,
Tole, tark etmagin bizni ilohim.
Mana, yangi asr ostonasidan
O‘tdim. Bismillohir rahmonir rohim.

Ushbu she’r yangi bir asrning ostonasida yozilgan she’r bo’lib, unda shoirning falsafiy o’ylari, fikr va mulohazalari ifodalangan. Uni o’qir ekansiz, qalbingizda o’zbek ekanligingizdan faxr va g’urur hissini tuyasiz. Bu hislar ko’ngilga shunchalar yaqinki, she’r tugagach ham, inson ko’nglida davom etaveradi.

Buyuk iste’dod egasi o’z imkoniyatlarini o’zbek adabiyoti bilan cheklabgina qolmay, xalqimizni dunyo adabiyotining sara namunalari bilan tanishtirish borasida ham talay ishlarni amalga oshirgan. U Dantening “Ilohiy komediya” asarini, L.Ukrainka, T.Shevchenko,N, Nekrasov, Q.Quliyev, R.Hamzatov singari shoirlarning she’rlarini mahorat bilan o’zbek tiliga tarjima qilgan. O‘z navbatida, uning asarlari ham rus, ingliz, bolgar, turk, ukrain, turkman, ozarbay-jon kabi ko‘plab xorijiy tillarga tarjima qilingan. 1990 yilda O‘zbekiston Oliy Kengashi, 1995 yilda O‘zbekiston Oliy Majlisi deputatligiga saylandi. Abdulla Oripov Kaliforniya (AKSh) Fan, ta'lim, sanoat va san'at xalkaro akademiyasining haqiqiy a'zosi. Soka universiteti (Yaponiya) professori. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Bosh tahrir hay'ati a'zosi, Hamza nomidagi hamda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofotlari laureati edi.

Abdulla Oripov O’zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi matni muallifi va o’zbek zamonaviy she’riyatining “Navoiy”si ekanligi bilan ham xotiralarda mangu saqlanib qoladi. Uning unutilmas va o’ziga hos she’riy uslubiyati, insonni o’ziga jalb qiluvchi ohangrabo she’rlari faqatgina yosh shoirlarga emas, aksincha har bir yosh avlodga yo’l boshlovchilik vazifasini bajarib qoladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2019.

2.O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2005.

3.O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2018.

4.Hozirgi o‘zbek adabiyoti (oliy ta’lim muassasalari uchun darslik). – Toshkent: Akademnashr, 2020.

5.Adabiyot (9–11-sinflar uchun darslik). – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2021.

6.Ziyonet ta’lim portali materiallari.

7.O‘zbekiston Milliy kutubxonasi elektron resurslari.

ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA VATAN OBRAZI VA MILLIY G‘URUR IFODASI

Abdunabiyeva Nigora Ikrom qizi
“TIQXMMI” milliy tadqiqot universiteti “Iqtisodiyot” fakulteti 2-kurs bakalavriyat talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Abdulla Oripov she’riyatida milliy o‘zlik, vatanparvarlik tuyg‘ulari hamda insoniy qadriyatlarning badiiy ifodalanishi tahlil qilinadi. Shoir ijodi o‘zbek adabiyotida alohida o‘rin egallab, unda Vatan obrazi, xalqning tarixiy xotirasi va ma’naviy merosi chuqur poetik talqin etilgan. Maqolada shoirning ayrim she’rlari misolida Vatan tushunchasining badiiy talqini, undagi ramziy obrazlar va poetik vositalar o‘rganiladi. Shuningdek, shoir she’riyatida milliy qadriyatlar, inson ruhiyati, ma’naviy mas’uliyat hamda ezgulik g‘oyalarining aks etishi yoritib beriladi.Tadqiqot davomida adabiy tahlil, qiyosiy o‘rganish va matn tahlili usullaridan foydalanildi. Natijada shoir ijodida milliy g‘oya, vatanparvarlik ruhining kuchli ifodasi, shuningdek, badiiy tilning o‘ziga xosligi aniqlanadi. Abdulla Oripov she’riyatida Vatan nafaqat geografik makon, balki xalqning ma’naviy birligi va tarixiy qadriyatlarini mujassam etgan muqaddas tushuncha sifatida tasvirlanadi.Maqola natijalari shoir ijodining falsafiy va badiiy jihatlarini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi hamda o‘zbek adabiyotini o‘rganishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *Abdulla Oripov, o‘zbek adabiyoti, she’riyat, Vatan obrazi, milliy o‘zlik, vatanparvarlik, badiiy til, poetika, ma’naviy qadriyatlar, lirik qahramon.*

Annotation: *This article analyzes the artistic expression of national identity, patriotism, and human values in the poetry of Abdulla Oripov. The poet’s works occupy an important place in Uzbek literature, where the image of the Motherland, the historical memory of the people, and their spiritual heritage are deeply reflected through poetic interpretation. The article examines the artistic interpretation of the concept of the Motherland in the poet’s works, as well as the use of symbolic images and poetic devices in his poetry.In addition, the article highlights the reflection of national values, human emotions, moral responsibility, and ideas of goodness in the poet’s poetry. During the research, methods such as literary analysis and comparative study were used. As a result, it is revealed that the poet’s works strongly express national ideas and patriotic spirit. In Abdulla Oripov’s poetry, the Motherland is depicted not only as a geographical space but*

also as a sacred concept representing the spiritual unity and historical values of the people.

Keywords: *Abdulla Oripov, Uzbek literature, poetry, image of the Motherland, national identity, patriotism, artistic language, poetics, spiritual values.*

Аннотация. *В данной статье анализируется художественное выражение национальной идентичности, патриотизма и человеческих ценностей в поэзии Abdulla Oripov. Творчество поэта занимает особое место в узбекской литературе, в котором образ Родины, историческая память народа и его духовное наследие получили глубокое поэтическое осмысление. В статье рассматривается художественная интерпретация понятия Родины на примере некоторых стихотворений поэта, а также исследуются символические образы и поэтические средства.Кроме того, освещается отражение национальных ценностей, человеческих чувств, нравственной ответственности и идей добра в поэзии автора. В ходе исследования были использованы методы литературного анализа и сравнительного изучения. В результате выявлено, что в творчестве поэта ярко выражены национальная идея и дух патриотизма. В поэзии Абдуллы Орипова Родина изображается не только как географическое пространство, но и как священное понятие, олицетворяющее духовное единство и исторические ценности народа.*

Ключевые слова: *Абдулла Орипов, узбекская литература, поэзия, образ Родины, национальная идентичность, патриотизм, художественный язык, поэтика, духовные ценности.*

Kirish. O‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Abdulla Oripov ijodi milliy ruh, vatanparvarlik g‘oyalari hamda chuqur falsafiy mazmuni bilan ajralib turadi. Shoir she’riyatida inson, jamiyat va Vatan o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik chuqur badiiy ifodasini topgan. Ayniqsa, Vatan tushunchasi uning ijodida muhim g‘oyaviy va badiiy markaz sifatida namoyon bo‘ladi.Abdulla Oripov she’rlarida Vatan nafaqat geografik hudud sifatida, balki xalqning tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari va ma’naviy merosini o‘zida mujassam etgan muqaddas maskan sifatida tasvirlanadi. Shoir o‘z asarlarida o‘zbek xalqining boy tarixi, qadimiy an’analari va milliy ruhini yuksak badiiy mahorat bilan ifodalaydi. Bu esa uning ijodiga chuqur ma’naviy mazmun bag‘ishlaydi.Shoir she’riyatida Vatanga bo‘lgan muhabbat insonning eng yuksak tuyg‘ularidan biri sifatida talqin etiladi. Uning she’rlarida lirik qahramon Vatan taqdiri, xalqning kelajagi va jamiyat taraqqiyoti haqida chuqur mulohaza yuritadi. Bu holat shoir ijodining faqat badiiy emas, balki ma’naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ham ega ekanligini

ko‘rsatadi.Abdulla Oripov ijodida milliy o‘zlikni anglash masalasi ham muhim o‘rin egallaydi. Shoir o‘z she’rlarida xalqning tarixiy xotirasini tiklash, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni kelajak avlodga yetkazish g‘oyasini ilgari suradi. Shu sababli ham uning asarlari o‘zbek xalqining ma’naviy merosi sifatida alohida qadrlanadi.Shoir she’riyatining yana bir muhim xususiyati uning badiiy tilining boyligi va obrazlar tizimining rang-barangligidir. Abdulla Oripov metafora, ramz va badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalanib, o‘quvchi qalbiga chuqur ta’sir etadigan obrazlarni yaratadi. Bu esa uning poetikasining o‘ziga xosligini belgilaydi.Shuningdek, shoir ijodida inson ruhiyati va ichki kechinmalarini tasvirlash alohida ahamiyatga ega. Lirik qahramonning ruhiy olami, uning hayot haqidagi fikrlari va ma’naviy izlanishlari she’rlarda chuqur falsafiy mazmun bilan yoritiladi. Bu esa o‘quvchini hayot, inson va jamiyat haqida chuqurroq mushohada yuritishga undaydi.Abdulla Oripov asarlarida ezgulik va yovuzlik, haqiqat va adolat kabi muhim falsafiy masalalar ham o‘z aksini topgan. Shoir o‘z she’rlari orqali insonni ezgulikka, halollikka va ma’naviy poklikka chorlaydi. Shu jihatdan uning ijodi yosh avlodni tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Oripovning dastlabki she'rlaridagi romantik kayfiyat asta-sekin o‘z o‘rnini falsafiy mushohadalarga bo‘shatib, shoirning hayotda ro‘y berayotgan voqea va hodisalarga munosabati faol tus oldi. Shu ma'noda «Tilla baliqcha», «Qo‘riqxona», «Genetika», «Olomonga» kabi she’rlar Oripovning lirik she'riyat ufqlarini hayot muammolari tasviri hisobiga kengaytirib borayotganidan darak berdi. Umuman, Oripovning she'r va dostonlarida olg‘a surilgan ma'naviy muammolar mustaqillik davrida, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etib, shoirning xuddi shu masalalar tasvirida o‘z davriga nisbatan (ularning aksari 90-y.larga qadar yozilgan) ilg‘orlab ketganini namoyish etdi. Uning ijodida, bir tomondan, G‘afur G‘ulom lirikasiga xos falsafiylik ko‘zga tashlansa, ikkinchi tomondan, Hamid Olimjon she'rlariga xos musiqiy ravonlik va badiiy soddalik aks etib turadi. Mazkur 2 manba Oripov she'rlarida o‘zaro tutashgan holda orifona she'riyatning asosiy xususiyatlarini ifodalab keladi.

Abdulla Oripov hayoti va ijodini keng targ’ib qilish borasida “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetida ham bir qancha tadbirlar va uchrashuvlar olib borilmoqda.

“Mening deyarli har bir she’rim hayotdagi ma’lum bir voqea, hodisa bilan bog‘liq, jo‘nroq qilib aytganda, har birining turtkisi bor” deydi shoir intervyusida. “Mening har bir she’rimning turtkisi bo‘lgan, - deb yozadi shoir o‘z xotiralarida. - Masalan “Ayol” degan she’rim urushdan qaytmagan amakilarimning bevalariga bag‘ishlangan. Ishxonamiz yonida bir sassiq hovuz bo‘lib, unda uch-to‘rtta tilla baliq og‘zini kappa-kappa ochgancha o‘lar holda kun o‘tkazardi. Boshqa shoirlar qatori o‘sha baliqlarning holiga achinib, men ham “Tilla baliqcha” degan she’r

yozib, baloga qolganman. Emishki, sassiq hovuz deganda sovet tuzumini nazarda tutganman. Demakkim, haqiqatdan ham bir gap bor ekanki, arqon ularning ko‘ziga ilon bo‘lib ko‘rinibdi” – Abdulla Oripov.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripov ijodi o‘zbek adabiyotining muhim qismi hisoblanadi. Uning she’riyatida milliy o‘zlik, vatanparvarlik va insoniy qadriyatlar chuqur badiiy talqin etilgan. Shoir asarlarida Vatan obrazi xalqning tarixiy xotirasi, ma’naviy merosi va milliy qadriyatlari bilan uzviy bog‘liq holda tasvirlanadi.Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Abdulla Oripov she’riyatida badiiy tilning boyligi, obrazlarning chuqur ma’nosi va lirik qahramonning ruhiy kechinmalari orqali inson hayoti va jamiyat muammolari keng yoritilgan. Shoir ijodi nafaqat badiiy adabiyot namunasi, balki ma’naviy tarbiya manbai sifatida ham katta ahamiyatga ega.Shu bois Abdulla Oripovning boy adabiy merosini o‘rganish, tahlil qilish va targ‘ib etish o‘zbek adabiyotshunosligining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 45–48-betlar.
2. Abdulla Oripov. Haj daftari. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2018. – 22–25-betlar.
3.Abdulla Oripov. Munojot. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2017. – 30–33-betlar.
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 112–115-betlar.
5. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 210–214-betlar.
6. Yo‘ldoshev Q. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 95–99-betlar.
7. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2015. – 180–184-betlar.
8. Ziyonet axborot ta’lim portali: www.ziyonet.uz.

ABDULLA ORIPOV – MILLAT DARDINI KUYLAGAN SHOIR

Tohirjonov Ibrohim Dilshod o‘g‘li
“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti Energetika fakulteti 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya.*Ushbu maqolada o’zbek adabiyotining yirik namoyondasi, O’zbekiston Qahramoni, O’zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning hayoti, badiiy, ijodiy faoliyati hamda milliy adabiyot rivojiga qo’shgan hissasi yoritiladi. Unda shoirning bolalik yillari, adabiy shakllanish jarayoni, Vatan oldida qilgan*

xizmatlari, she’riyatidagi vatanparvarlik, insonparvarlik va ma’naviy qadriyatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, uning o‘zbek adabiyotidagi o‘rni va zamonaviy adabiy jarayonga ta’siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *shoir, muharrir, vatanparvarlik, she’riyat, tarjimon, orden*

XX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyoti tarixida chinakam burilish pallasi bo‘ldi. Bu davrda maydonga chiqqan avlod adabiyotga nafaqat yangi mavzularni, balki yangicha badiiy tafakkur tarzini ham olib kirdi. Ushbu adabiy harakatning markazida turgan, o‘zbek she’riyatini qoliplardan ozod qilib, uni inson dardi va milliy g‘oya bilan boyitgan ijodkor, shubhasiz, O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovdir. Abdulla Oripov (1941-2016) – zamonaviy o’zbek adabiyotining eng yirik namoyondalaridan biri bo’lib, u nafaqat shoir balki, tarjimon, publitsist hamda jamoat arbobi sifatida xalq ma’naviyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo’shgan. Abdulla Oripov o’zining teran falsafiy she’riyati va milliy ruhdagi asarlari bilan xalq mehrini qozongan va uning ijodi o’zbek she’riyatida milliy ong, vatanparvarlik va insoniylik g’oyalarini yangi bosqichga olib chiqdi.

Abdulla Oripov 1941-yilning 21-martida Qashqadaryo viloyatida tug’ilgan. O’zi haqida shoir bunday yozadi: *“ Men tug’ilib o’sgan, bolaligim o’tgan joylar Qarshi (qadimgi Nasaf) shahridan besh-o’n chaqirim shimolroq tomondagi Qo’ng’irtov etaklaridir. Bahor kelganda havoni o’t-o’lanning yoqmli xushbo’y hidi qoplar, sharros yomg’ir quyganda biz tog’ cho’qqisi unguridagi kichik kichik g’orlarga berkinib olardik. O’sha yuksaklikdan shimol tarafdagi yam-yashil, bepoyon kengliklarni tomosha qilar edim, ko’ksimni to’ldirib nafas olar edim. Ayniqsa, bu joylarda janub kechalari, yulduzli osmon nihoyatda g’zal bo’lar edi. Tim qora osmonda qo’l cho’zsang yetgudek ulkan-ulkan novvotrang yulduzlar charaqlab turadi. Hayotimda bunday go’zal manzaralarni keyin uchrata olamadim. “*. Otasi Orifboy Ubaydulla o’g’li jamoa xo’jaligi raisi bo’lgan bo’lsa onasi Turdixol momo ko’pchilik o’zbek ayollari singari mehnatkash inson bo’lgan. Oilada sakkiz farzand – to’rt o’g’il, to’rt qiz bo’lib, shoir Abdulla o’g’illarning kenjasi bo’lgan. Yoshligidan ilmga, she’riyatga mehr qo’ygan Abdulla Oripov 1958-yilda o’rta maktabni oltin medal bilan tamomlagach, Toshkent Davlat universiteti (hozirgi Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti) O’zbek filologiyasi fakultetining Jurnalistika yo’nalishiga o’qishga kirib, oliygohni ham 1963-yilda imtiyozli diplom bilan tamomladi. Universitetdan so’ng 1963-1967-yillarda “Yosh Gvardiya” nashriyotida muharrir; 1974-1976-yillar mobaynida “Sharq Yulduzi” jurnali bo’lim mudiri; 1976-1982-yillarda O’zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi adabiy maslahatchisi; 1982-1983-yillar oralig’ida uyushmaning Toshkent viloyati bo’limi mas’ul kotibi; 1983-1985-yillarda esa “Gulxan” jurnali bosh muharriri; 1985-1996-yillarda Yozuvchilar

uyushmasi mas’ul kotibi; 1996-2009- yillarda O’zbekiston Yozuvchilar Uyshmasi raisi va bir vaqtning o’zida O’zbekiston Respublikasi Mualliflik huquqini himoya qilish davlat agentligi raisi lavozimlarida faoliyat yuritdi. 2009-yildan umrining oxirigacha O’zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi faxriy raisi lavozimini egallagan. Abdulla Oripov 1990-yilda O’zbekiston Oliy kengashi, 1995-yilda O’zbekiston Oliy Majlisi deputatligiga saylandi. 2005-yilda Senat a’zosi etib tayinlangan. Abdulla Oripov 2016-yilning 5-noyabrida uzoq vaqt davom etgan xastalikdan so’ng, AQShning Texas shtatida vafot etdi. U Toshkent shahridagi Chig’atoy qabristoniga dafn etilgan.

“Mening deyarli har bir she’rim hayotdagi ma’lum bir voqea, hodisa bilan bog’liq, jo’nroq qilib aytganda, har birining turtkisi bor”, deya ta’kidlaydi o’z nutqida Abdulla Oripov

Qushcha

Goh butoqqa, goh gulga qo'nar,
Tinim bilmas sayroqi qushcha.
Nechun bahor seni rom etgan,
Qayda eding bahor kelguncha?
Kel, yashaylik xamisha birga,
Bizda bahor, gullar barchasi.
Bilsang men ham chaman o'lkamning
Sho'x va quvnoq, shod o'g'ilchasi.

Tilla baliqcha

Tuxumdan chiqdi-yu, keltirib uni
Shu loyqa hovuzga tamom otdilar.
Tashlandiq ushoq yeb o'tadi kuni,
Xoru xas, xazonlar ustin yopdilar.
Dunyoda ko'rgani shu tor havuzcha
Va gavjum tollarning achchiq hazoni.
Menga alam qilar, tilla baliqcha
Bir ko'lmak hovuz deb bilar dunyoni !

Abdulla Oripovning talabalik vaqtlarida Respublika matbuotida “Qushcha” deb atalganilk she’ri chiqqan. Shundan so’ng uning ketma-ket “Munojotni tinglab”, “Birinchi Muhabbatim”, “Bahor”, “Kuz”, “Saraton”, “O’zbekiston”, “Otello”, “Sarob”, “Dengizga”, “Malomat toshlari”, “Oltin baliqch”, “Yuzma-yuz”, “Genetika” kabi she’rlari o’sha davrda o’zbek adabiyotining yorqin namunalaridan biriga aylanishining sabablaridan biri bu uning ijodida Vatan, ona,

iymon, inson qalbi, milliy g’urur va adolat asosiy mavzular sifatida yetakchi o’rin tutishidir. Shoir ijodi o‘zbek xalqining ma’naviy olami bilan chambarchas bog‘liq. Uning har bir misrasi vatanparvarlikning balandparvoz shiorlari emas, balki samimiy tuyg‘ulari sifatida jaranglaydi. 1965-yilda Oripovning “Mitti yulduz” nomli ilk she’riy to’plami o’quvchilar qo’liga yetib borgan. Bu Abdulla Oripov ijodining boshlanishi edi xolos. “Mitti yulduz”dan so’ng “Ko’zlarim yo’lingda” (1967), “Onajon” (1969), “Ruhim” (1971), “O’zbekiston” (1972), “Qasida”, “Xotirot” (1974), “Yurtim shamoli” (1974), “Hayrat” (1979), “Najot qal’asi” (1981), “Yillar Armoni” (1983), “Ishonch ko’prigi”, “Munojot”, “Haj daftari” (1992), “Saylanma” (1996), “Ishonch ko’priklari” (1989) kabi ir qator she’riy to’plamlari bosmadan chiqqan. Abdulla Oripov she’riyati sodda ifoda bilan chuqur falsafiy mazmunni uyg’unlashtirishi bilan ajralib turadi. U juda sermahsul ijodkor bo’lib dostonchilikda ham o’zini ko’rsatgan. Xususan uning “Jannatga yo’l” (1978), “Tabib va o’lim” (1980), “Ranjkom” (1988), “Sohibqiron” (1996) kabi dostonlari o’zbek xalqi adabiyot muxlislariga juda manzur kelgan. Abdulla Oripov g’azal janrida ham ijod qilgan. Jumladan 2024-yilda nashr etilgan ”Buyuk soddalik” nomli to’plamida 34 ta g’azali nashr etilgan. U o’z asarlarida millat ruhini, tarixiy xotirani va zamon muammolarini badiiy yukaklikda ifodalagan. Abdulla Oripovning O’zbekiston oldidagi xizmatlari cheksiz, u mustaqil O’zbekistonning madhiyasi muallifi hisoblanadi. Abdulla Oripov nafaqat shoir balki, yukak saviyadagi tarjimon sifatida ham o’zbek madaniyati takomiliga ulkan hissa qo’shgan. U Dantening “Ilohiy komediya” asarini, Nikolay Nekrasov, Lesya Ukrainka, Taras Shevchenko, Qaysin Qulliyev, Rasul Hamzatov, Mar Bayjiyev kabi dunyoga mashhur yozuvchilarning she’rlarini o’zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.

Abdulla Oripov Kaliforniyada joylashgan Fan, ta’lim, sanoat va san’at xalqaro akademiyasining chet ellik a’zosi ; Yaponiyaning Soka universiteti professori ; „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ bosh tahrir hay’ati a’zosi ; Hamza nomidagi hamda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofotlari laureati hisoblanadi. 2015-yilda Oripov Italiya yulduzi ordeni bilan taqdirlangan. Ordenni Abdulla Oripovga Italiya prezidenti Serj Sotarelloning o’zi shaxsan topshirgan. Shuningdek u “Xalqlar Do’stligi ordeni”, 1983-yilda “O’zbekiston Xalq Shoiri”, 1994-yilda “Do’stlik ordeni” hamda Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti va 1998-yilda “O’zbekiston Qahramoni” kabi qator unvonlarga sazovor bo’lgan.

Xulosa. Abdulla Oripov o’zbek adabiyoti tarixida shunchaki shoir emas, balki milliy uyg’onish davri tafakkurining me’mori sifatida qoladi. Uning ijodi o’zbek adabiyotining eng bebaho boyliklaridan hisoblanishining sabablaridan biri shuki uning ijodi o’zbek she’riyatini qoliplardan chiqarib, uni inson dardi, millat

taqdiri va koinot falsafasi bilan boyitganligidadir. Uning asarlari bugungi kunda ham yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik va milliy g’urur ruhida tarbiyalashda muhim manba bo’lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1.O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi – Abdulla Oripov biografiyasi va davlat mukofotlari haqida.
2. Abdulla Oripov Tanlangan asarlar – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot, 2000
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Oripov
4. www.ziyonet.uz
5. Mustaqillik.uz: Shoirning mustaqillik yillaridagi faoliyati va mukofotlari.
6. O‘zbekiston Milliy Axborot Agentligi (UzA): A. Oripov tavalludiga bag'ishlangan yangi materiallar (2021-2024)
7. https://oz.sputniknews.uz/20180321/abdulla-oripov-hayoti-va-ijodi-22276444.html
8. https://ru.scribd.com/document/914204491/5-sinf-Adabiyot-1-qism

ABDULLA ORIPOV POEZIYASIDA LIRIK QAHRAMON RUHIYATI

Jumyazova Lolaxon Hamro qizi
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Iqtisodiyot fakulteti
Filologiya va tillarni o‘qitish: Rus tili yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: *PhD, dotsent **Eshmatova Yulduz Boymaxmatovna***

Annotatsiya. *Mazkur ishda “Bahor kunlarida kuzning havosi” she’ri badiiy-filologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida asarning g‘oyaviy mazmuni, poetik xususiyatlari, badiiy tasvir vositalari, xususan metafora, ramz va poetik obrazlarning funksional ahamiyati o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *she’riyat, badiiy tahlil, metafora, ramz, poetik obraz, lirik qahramon, tabiat tasviri, psixologik parallelizm.*

Аннотация: *В данной работе проводится художественно-филологический анализ стихотворения «Воздух осени в весенние дни». В процессе исследования рассматриваются идейное содержание произведения, его поэтические особенности и художественно-изобразительные средства, в частности метафоры, символы и поэтические образы.*

Ключевые слова: *поэзия, художественный анализ, метафора, символ, поэтический образ, лирический герой, изображение природы, психологический параллелизм.*

Abstract: *This study presents a literary and philological analysis of the poem “The Air of Autumn in Spring Days.” The research examines the ideological content of the work, its poetic features, and artistic expressive means, particularly metaphors, symbols, and poetic images.*

Keywords: *poetry, literary analysis, metaphor, symbol, poetic image, lyrical hero, nature imagery, psychological parallelism.*

O‘zbek poeziyasida inson ruhiyati, tabiat va ichki kechinmalar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni badiiy tasvirlash an’anasi juda qadimiy va serqirradir. Shoirlar ko‘pincha tabiat manzaralari orqali inson qalbining nozik holatlarini ifoda etadilar. Taqdim etilgan “Bahor kunlarida kuzning havosi” she’r ham ana shunday falsafiy-lirik ruhdagi asarlardan biri hisoblanadi.

“Bahor kunlarida kuzning havosi” she’rda tabiat manzaralari, kechki shamol, yulduzlar, barglar, terak uchlari kabi obrazlar orqali inson qalbidagi g‘am, iztirob, o‘kinch va ruhiy bo‘shliq ifoda etilgan. Asarning asosiy poetik g‘oyasi – inson ruhiyatidagi ichki ziddiyat va hayotning o‘tkinchiligi haqidagi falsafiy mushohadalardir.

She’rda tabiat va inson ruhiyati o‘zaro parallel tarzda tasvirlanadi. Bahor – odatda yangilanish, hayot va quvonch ramzi bo‘lsa-da, lirik qahramon uchun u “kuzning havosi” bilan keladi. Bu esa ichki ruhiy tushkunlik, hasrat va o‘kinch holatini anglatadi.

Bahor kunlarida kuzning havosi,
Tanimni junjitar oqshom shamoli.
Nega buncha g‘amgin nayning navosi,
Nega qalbim to‘la o‘kinch va malol?

She’rning birinchi misrasiyoq asarning falsafiy mazmunini ochib beradi. Bu misrada kuchli kontrast va psixologik parallelism mavjud.

Bahor – hayot va yasharish fasli. Kuz esa so‘nish, xazon va ayriliq ramzi hisoblanadi. Shu ikki faslning bir misrada birlashtirilishi inson qalbidagi ruhiy ziddiyatni ifoda etadi.

Lirik qahramon tabiat manzarasini tasvirlar ekan, uni o‘z ichki kechinmalari bilan uyg‘unlashtiradi:

“Tanimni junjitar oqshom shamoli”- bu yerda shamol oddiy tabiat hodisasi emas, balki inson ruhiyatidagi sovuqlik, iztirob va bezovtalik ramzidir.

She’r davomida lirik qahramon qalbidagi iztirobning sababini anglashga harakat qiladi:

“Bilmayman, qiynaydi qaysi xotira” -bu misrada inson ongi va xotirasidagi o‘tmish voqealari ruhiy azob manbai sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur she’rda tabiat obrazlari lirik qahramonning ruhiy holatini ochishda asosiy vosita vazifasini bajaradi. Shoir yulduzlarni quyidagicha tasvirlaydi:

“Oshno yulduzlardan to‘kiladi nur” - Yulduzlar odatda umid va abadiylik ramzi sifatida talqin qilinadi. Biroq bu she’rda ularning nuri ham lirik qahramonga tasalli bermaydi. Bu holat insonning chuqur ruhiy iztirobga tushganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, quyidagi misra ham juda ta’sirli:

“Titroq yulduz kabi muzlagan shuur” - bu yerda inson ongi yulduzga qiyoslangan. Lekin u “titroq” va “muzlagan” holatda tasvirlanadi. Bu esa ruhiy charchoq va umidsizlik holatini ifodalaydi.

She’rning badiiy kuchini oshirayotgan asosiy vositalardan biri – metaforalardir.

“Kuzning havosi”	Bu metafora inson qalbidagi huzun va iztirobni anglatadi. Bahor faslida kuz havosining bo‘lishi tabiat qonuniyatiga zid bo‘lgani kabi, inson qalbida ham tushkunlik hukmron.
“Muzlagan shuur”	Bu juda kuchli metafora hisoblanadi. Terak uchlarining egilishi mag‘lub bahodirning nayzasiga o‘xshatilgan.
“Mag‘lub bahodirning nayzasi misol”	Bu tasvir inson hayotidagi mag‘lubiyat va ruhiy charchoqni anglatadi.

She’rda bir qator ramziy obrazlar mavjud. Simvollar (ramzlar) tahlili quyidagicha;

Yulduz	Yulduz – odatda umid, orzu va abadiylik ramzi hisoblanadi. Lekin bu she’rda yulduzlar sovuq va titroq holda tasvirlanadi. Bu esa umidning zaiflashganini ko‘rsatadi.
Shamol	Shamol inson hayotidagi beqarorlik va iztirob ramzidir. U lirik qahramon tanasini “junjitadi”, ya’ni ruhiy iztirobni kuchaytiradi.
Barglar	Barglar hayotning o‘tkinchiligini anglatadi. Ular soyasida “uyqudagi qizning bedor tushlari” o‘ynashi – inson orzulari va xayollarining beqarorligini ifoda etadi.
Terak	Terak obrazi matondagi ruhiy kuch ramzi bo‘lishi mumkin. Ammo bu yerda u “ma’yus egiladi”. Bu esa inson irodasining singan holatini anglatadi.

Abdulla Oripov poeziyasida lirik qahramon ruhiyatida Psixologik parallelizmda aks etgan ifodalarni tahlilga tortdik.

She’rda tabiat manzarasi va inson ruhiyati o‘rtasida kuchli psixologik parallelizm mavjud. Masalan:

shamol – ruhiy iztirob

kuz havosi – hasrat

titroq yulduz – beqaror ong

egilgan terak – mag‘lubiyat

Bu obrazlar birgalikda lirik qahramonning ichki holatini ochib beradi.

Asarning asosiy falsafiy g‘oyasi inson hayotidagi ruhiy bo‘shliq va o‘tmish xotiralarining ta’siri haqidadir.

Lirik qahramon o‘z qalbidagi iztirob sababini aniq bilmaydi:

“Bilmam, nega uchdi qalbim safosi” - misrada inson hayotida ba’zan sababsiz tushkunlik va ruhiy bo‘shliq paydo bo‘lishini ifoda etadi.

She’rning oxiri yana birinchi misraga qaytib, kompozitsion halqani yaratadi:

“Bahor kunlarida kuzning havosi.” - bu takror inson ruhiyatidagi doimiy iztirob holatini yanada kuchaytiradi.

“Bahor kunlarida kuzning havosi” she’r inson ruhiyatining nozik holatlarini tabiat obrazlari orqali chuqur va ta’sirli ifoda etgan lirik asar hisoblanadi.

She’rning asosiy badiiy xususiyatlarida tabiat va inson ruhiyati o‘rtasidagi psixologik parallelism, kuchli metafora va ramziy obrazlar, falsafiy lirizm va kontrast usulidan mahorat bilan foydalanishdan iborat ekanligi shoirning kuchli mahoratidan darak beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.
2. Abdulla Oripov. Haj daftari. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2012.
3. Ozod Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004.
4. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.

ДОҲОНИ ТУШУНИШ ЙУЛЛИДА

Н.Маматов

Ижтимоий-сиёсий фанлар институти профессори, ф.ф.д.

Кўпчиллик тан олгани сингари А.Орипов жаҳон миққиёсидаги буюк шоир. Унинг буюклиги оламни инсон дунёси орқали оламдек намоён қилишда, поэзиянинг бениҳоя мураккаб сирли кучларидан мохирона фойдаланганлигида кўринади.

Унинг асарларини ўқиган сайин ўқувчи шоирнинг мураккаб рационал тафаккур дунёсининг сирли можизаларини хис қила бошлайди. Шунинг учун шоирни билишнинг биринчи йули унинг тафаккур дунёсининг хажми ва мазмунини идрок қилишдан бошланади.

Бизнининг назаримизга кўра, шоир инсон дунёсининг барча мураккабликларини умумий моҳият доирасида талқин этади ва чуқур фалсафий мушохадалар силсиласидан иборат бўлган ушбу бирликни шоир хиссий кечинмаларга кўчиради, ва ушбу аниқ ва кучли, хиссиётли тассаввурни у бениҳоя содда, равон, тушунарли инсон қалбига ҳеч бир тўсиқсиз сингиб кетадиган ва шу орқали шоирнинг чексиз уммондан иборат рационал мушохада дунёсига етаклайди.

Биз бу холатни шоирнинг хажми жихатдан кичкинами, каттами барча асарларини ўқиш жараёнида идрок этамиз.

Масалан, шоир гўё хазиллашиб ёзгандек ёзилган шарқ ҳиқояси номли шерида кундалик, оддий ходисани худдий шундай оддий содда баён орқали берганки, бир қараганда уни бир мартда ўқиб қўйиладиган шерга ўхшатасиз. Вахоланки, шерни ўқиш жараёнида кўз олдингизда икки турмуш идрок, хиссиёт ва қадриятлардан иборат бўлган дунёнинг ўзига хослиги келади. Уларнинг биринчиси шарқ дунёси, иккинчиси эса ғарб дунёсидир. Маълумки, шарқ дунёси биз, бизлар деган сўздан бошланади. Шарқ халқлари ҳамиша қон-қардошлик, ёрдўст-биродарлик, қадрдонлик, ака-укалик каби муносабатлар орқали биррикан тириклигини ҳам, ўлимини ҳам, абадийлигини ҳам шу призма орқали қарайдиган буюк маданиятдир.

Ғарб турмуш тарзи ҳам мен диган сўз билан бошланади. Турмушга бундай қараш қадимги Афина, Спарта, Рим маданияти билан боғланган ва у асрлар ўша ўзининг моҳиятини, мазмунини, кўринишини такомиллаштириб келаётган дунёдир.

Биз ушбу мулохазада шарқ ижтимоий, маданий хаётини ғарб ижтимоий, маданий хаётига қарама қарши қўйишдан мутлақ узоқмиз, чунки юқорида келтирилган хар иккала турмуш тарзи ўзи-ўзича қадрли, ўзи-ўзича хаётий турмуш тарзларидир.

Булардан ташқари, хар бир турмуш тарзининг ўзига хос хусусиятлари мутлақ чексизликга йуналтирилган. Шулардан бирини шоир ўзининг ота ва ўғилнинг эшакка миниб қилган саёхатида ниҳоятда сезгирлик билан ифода этган.

Шернинг бошида шоир ота ва ўғилнинг қанчалик бир бирига меҳрибон эканлиги, ўғилнинг назарида отанинг ниҳоятда катта хурматга эга эканлигини шоир “улар ғоят тотув экан, ўртада мол-жони бир, минг қилса ҳам ота-ўғил, минг қилса ҳам қони бир”деб тарифлайди. Бунда ота ва ўғил

ўртасидаги шарқона муносабатнинг ниҳоятда улуғ эканлигига ва улуғлик ўзбек миллатининг энг катта бойлиги эканлигига, шу бойлик туфайли миллат жаҳон ҳалқлари орасида ниҳоятда катта иззат ва хурмат эга эканлигига диққатимизни қаратган. Мана шу қадриятлардан келиб чиққан холда ўғил отасини эшакка миндириб ёнмаён суҳбат қилиб, қишлоқ ўртасидан ўта бошлайди. Шунда ота ва ўғилнинг кўзатаётган қишлоқ аҳли эшак минган чолдан ранжиб, пиёда кетаётган ўғилга ачиниб айтади “аҳмоқ экан манави чол, аҳмоқ хаддан зиёда. Ўзи улов миниб олган, ўғли эса пиёда”.

Шу ўринда шоир ҳалқимизнинг ажойиб бир нақлининг маъносини шер мохиятига кўчирган, яъни ақллий инсон талабни аввал ўзига қўяди, ақли ночор инсонлар эса талабни бошқаларга қўяди. Инсонлар ҳамиша ўзларининг ўй хаёлларини поклаш билан банд бўлишлари керак. Агар инсонларда ёмон ўйлар бўлмаса ёмон қилмишлар ҳам бўлмайди. Мана шу нақлдан келиб чиққан ҳолда, чол эшакдан тушиб ўғлини эшакка миндиради, аммо кейнги махалладан улар ўтаятгонида яна уларни кузатаётганлар шоир тили билан айтганда “аҳмоқ экан манов бола, аҳмоқ хаддан зиёда. Ўзи улов миниб олган, отаси-чи, пиёда” дийшади.

Бу гаплардан хулоса чиқарган ўғил эшакдан тушиб отасига энди ўзингиз бошкатдан эшакга мининг деганда, ота келақол энди хар иккаламиз минай қолайлик, йулда чарчадик дейди. Ва шундай қилиб ота ва ўғил йулда равона бўлади. Буни кўрган одамлар “аҳмоқ экан булар роса, инсофи йўқ лаванглар, икки одам бир эшакни миниб опти, қаранглар. Маломатдан ота-ўғил тамом ҳориб толдилар. Ғазаб билан бир-бирига Термулишиб қолдилар. –Айтмабмидим, - деди ота, - Гап уқмадинг, тирранча. Элу юртнинг ўртасида Бўлдик роса бўлганча”.

Шоирнинг ушбу хулосаси шарқ ижтимоий, маданий хаётида ижтимоий фикрнинг қанчаллик кучли эканлигини, одамлар “нима дейди” деган қарашнинг кучини ифода этади. Албатта, шахснинг шаклланишида ижтимоий, маданий муносабатларнинг, дунёқарашнинг, қадриятларнинг шаклланиши ва мавжудлигида ижтимоий фикрнинг роли бениҳоя каттадир. Чунки одам, шахс жамиятда ижтимоийлашади. Жамиятдан у одоб, аҳлоқ, қоида, тартиб, дунёқараш билан боғлиқ жуда кўп қадриятларни қабул қилади ва яккалик сифатида ўзини умумийликда кўради.

Мана шу мурракаб муносабатда шахснинг эркинлиги, шахснинг менлиги, ўзининг тараққиёт йуллининг мавжудлиги деган масала ҳам келиб чиқади. Ота ва ўғил муносабатининг охирги пардаларидаги ҳиссиётларида биз ушбу қарашни идрок этамиз.

Бу фикрлар бизнинг Абдулла ака доҳосини тушуниш йуллида қўйган илиқ қадамларимиз ҳисобланади. Дунё ижтимоий фикрлари чексиз ва хилма

хил бўлганлиги учун Абдулла ака моҳиятини тушуниш ҳам хилма хилдир. Хар бир ўқувчи Абдулла акани тушунишда ўз йуллидан, ўз қизиқишидан, ўзининг маънавий қобилияти даражасидан келиб чиққан ҳолда ёндашади. Шу оринда яна бир нарсага ўқувчининг диққатини тортмоқчимизки Абдулла ака ушбу шерда ўзининг тушунчасини, ўзининг иқрорини қандай даражада шерга кўчирган, ёзилган шерда Абдулла аканинг айта олмаган, ёзилмаган яна қандай қарашлари, қарорлари кўринмайди. Ва бундай кенгтимлик шоир ижодида нега учрайди? Бу ҳолатнинг ўзи алоҳида тахлилни талаб қилади.

Шоир “шарқ ҳикояси” деб номлаган шерида жуда кўплаб ижтимоий, маданий, маънавий муомалларни қўйган. Бунда бир томондан, ота ва ўғил муносабатида шарқона меҳрибонлик, иззат, хурмат, бурч фалсафасининг поэзияси бўлса, иккинчи томонда ижтимоий муҳитнинг инсоннинг хаёти, ўй хаёли, мақсади, муоммалари ва хоказоларни ўз ичига олган дунёни ифодалайди.

Албатта, ушбу мураккаб муносабатлар доирасида ҳар бир инсон ўзининг ақлига, қарашига, мақсадига, муаммосига эга бўлиши кераклигини ифодалаган. Юқорида келтирилганидек, одамларнинг қарашлари билан алоҳида олинган инсон ўзининг мақсадларидан вос кечмаслиги керак балки уларни хисобга олган холда, мақсадга эришининг йуллари ва воситаларини ўзгартириши керак. Фақат ақли ночор одамларгина хаётда ўз фикрини ўзгартирмайдилар. Олам, хаёт қанчалик ўзгарувчан эканлигини идрок этсакда, аммо инсоннинг онгида, қалбида ички дунёсидаги хаётнинг унданда кучлироқ ўзгарувчан эканлигини ҳамиша идрок этавермаймиз.

Шоирнинг ушбу шерини ўқир эканмиз, биз А.Орипов маънавий доҳосининг беқиёс эканлигига иқрор бўламиз. Демак, ўқувчилар Абдулла акани унинг ўзини ўзидек тушунишга интилмасалар, бундан Абдулла ака рухи хафа бўлмайди. Бундан афсуски биз ўзимиз хафа бўлишимиз керак. Биз мухокама қилган шернинг мазмунини янада тўлароқ тушунишимиз учун худдий шу мавзуга бағишланган Абдулла аканинг бир қатор шерларини қўлимизга қалам олиб қайта-қайта ўқишиз, ва уни тушуниш орқали уқишимиз керак. Бу ҳар бир ўқувчининг маънавий дунёсини бойтишда ва мураккаб ижтимоий хаётда ўзининг ўрнини баҳтли хаёт деб номлаган хаёт орқали топишида ёрдам беради.

АБДУЛЛА ОРИПОВ ЛИРИКАСИДА ҚЎЛЛАНГАН ТАРИХИЙ ЛЕКСЕМА ВА КЕЛИШИКЛАР ХУСУСИДА

Махмудова Матлуба Сағдулла қизи
Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат Ўзбек тили ва адабиёти университети 2-курс таянч докторанти

Аннотация. *Ўзбек адабиётида миллий тил қудрати, тарихий хотира ва маънавий меросни поэтик шаклда ифода этишда Абдулла Орипов ижоди алоҳида ўрин тутади. Шоир лирикасида халқнинг кўп асрлик тил қатламлари, айниқса, қадимги туркий лексемаларнинг қўлланилиши бадиий-услубий жиҳатдан диққатга сазовордир. Қадимги туркий сўзлар Орипов шеъриятида фақат архаик безак сифатида эмас, балки миллий руҳ, тарихий хотира ва маънавий давомийликни таъминловчи муҳим поэтик восита сифатида намоён бўлади. Ушбу мақолада Абдулла Орипов лирикасида учрайдиган айрим қадимги туркий лексемалар, уларнинг семантик хусусиятлари ҳамда бадиий функциялари таҳлил қилинади.*

Калит сўзлар. *Абдулла Орипов лирикаси, тарихий лексема ва грамматик шакллар, миллий руҳ ва тарихий хотира, поэтик тил ва услуб, ўзбек шеъриятида лексик мерос.*

Қадимги туркий лексема тушунчаси. Қадимги туркий лексемалар деб туркий тилларнинг илк ёзма ёдгорликлари – Ўрхун-Енисей битиклари, қадимги уйғур ёзма манбалари ва ўрта аср туркий ёзма адабиётида қайд этилган сўз ва ибораларга айтилади. Бу лексик қатлам қаҳрамонлик, давлатчилик, табиат, инсон ва космос ҳақидаги қадимги тасаввурларни ўзида мужассам этган. Замонавий ўзбек тилида ушбу лексемаларнинг бир қисми фаол, бир қисми эса пассив (архаик ёки тарихий) лексика сифатида сақланиб қолган. Абдулла Орипов айнан шу пассив қатламга мансуб сўзларни поэтик мақсадда қайта жонлантирган ижодкорлардан биридир. Шоир шеърларида қуйидаги қадимги туркий лексемалар ва уларга яқин бирликлар тез-тез учрайди:

Эл – халқ, юрт маъносида. Бу лексема Орхон битикларида ҳам кенг қўлланиб, давлат ва миллат тушунчасини ифода этган. Орипов лирикасида "эл" сўзи халқ тақдири, миллий бирлик ва ватанпарварлик ғоялари билан боғлиқ ҳолда ишлатилади.

Юрт – ватан, макон маъносини англатади. Қадимги туркий даврда у фақат географик ҳудудни эмас, балки ижтимоий-сиёсий бирликни ҳам ифода этган. Шоир шеърларида "юрт" муқаддас тушунча даражасига кўтарилади.

Тенгри (Тангри) – қадимги туркий дунёқарашда осмон ва олий илоҳий куч рамзи. Абдулла Орипов бу лексемани илоҳий адолат, тақдир ва инсон масъулияти билан боғлиқ фалсафий контекстда қўллайди.

Кўк – осмон, олий макон маъносида. Қадимги туркий маданиятда "кўк" муқаддас ранг ва космик рамз ҳисобланган. Орипов лирикасида у эркинлик, абадийлик ва руҳий поклик тимсоли сифатида намоён бўлади.

Ота-бобо, **аждод** тушунчалари билан боғлиқ лексемалар ҳам қадимги туркий анъананинг давомийлигини ифода этади.

Абдулла Орипов лирикасида қадимги туркий лексемалар қуйидаги асосий вазифаларни бажаради:

тарихий хотирани уйғотиш – шоир ўқувчини миллатнинг илдизларига, унинг қадимий давлатчилик ва маънавий анъаналарига мурожаат эттиради.

миллий руҳни мустаҳкамлаш – қадимги сўзлар орқали шеърда миллий ўзлик, ватанга муҳаббат ва халқ тақдири ғояси кучаяди.

поэтик ифоданинг теранлашуви – архаик лексемалар шеърий матнга салобат, улуғворлик ва фалсафий чуқурлик бағишлайди.

замонлар боғланишини таъминлаш – ўтмиш, ҳозир ва келажак ўртасида маънавий кўприк вужудга келади.

Тилнинг ижтимоий ҳодиса сифатида даврлар ўтиши билан ўзгариши, бойиши табиий ҳолат. Энг қадимги ёзма ёдгорликларимиз, оғзаки ижод намуналари фикримизга мисол бўла олади. Дарвоқе, бадиий адабиёт ижтимоий-сиёсий жараён, маънавий-маданий юксалиш – миллат тарихининг инъикосидир. Муайян ижодкор асарларини тадқиқ этганимизда, ўша давр муҳити, жонли халқ тили, анъана ва одатларидан ҳам бохабар бўламиз. Ўзбек адабиётининг йирик вакили Абдулла Орипов шеъриятида ҳам қадим она юрт тараннуми баъзан эски туркий сўзларнинг истифодаси ўлароқ намоён бўлишини кузатиш мумкин.

Ўзинг Алп Тўнғасан ёки,
Тутанхамон, эслаёлмассан.
Боис улким, бошингга тушди
Кўп гаврон, эслаёлмассан.

Ушбу тўртликда Алп Эр Тўнга образи тарихий шахс сифатида эмас, балки бадиий-рамзий маънода талқин этилади. Шоир «Ўзинг Алп Тўнғасан ёки, Тутанхамон» деган қарши қўйиш орқали икки турли цивилизация ва икки хил тарихий хотирани таққослайди. Алп Эр Тўнга туркий халқлар

онгида қаҳрамонлик, давлатчилик, мардлик ва миллий ифтихор тимсоли бўлса, Тутанхамон бегона маданият ва узоқ тарих рамзи сифатида келади. Лирик қаҳрамон эса шу икки қутб орасида ўз кимлигини англай олмай, ўз аждодларини эслай олмайдиган инсон сифатида кўрсатилади. «Боис улким, бошингга тушди кўп гаврон» мисрасида ҳаёт синовлари, тарихий зарбалар ва замон талотумлари инсон хотирасини заифлаштиргани таъкидланади. Ана шу кулфатлар натижасида инсон ўз илдизидан узилиб, Алп Эр Тўнга каби буюк аждод образини ҳам эслай олмай қолади. Шу тарзда Алп Эр Тўнга бу шеърда миллий хотира, унутилган қаҳрамонлик анъаналари ва йўқолиб бораётган миллий ўзликнинг рамзи сифатида бадиий тасвирланади. Шоир умрининг сўнгги йилларида ҳам самарлари ижод қилди. Руҳиятидаги тушкунлик кўпроқ учликлар ва ғазал шаклида қоғозга тушди. “Алп Эртунға” номли ғазали инсонга мурожаатдир. Алп Тўнға, Тутанхамон сингари тарихий шахслар номини келтириш билан мумтоз шеъриятдаги ийхом санъатини вужудга келтирса, инсоният тамаддунидаги тарихий бурилишлар даврини ҳам ўқувчига эслатишни жоиз билади.

Ахир, кўз ўнгимда улғайди ниҳол,
Нега ғурурланмай, эккан мен ўзим.
Балки не оғочлар топгайдир завол,
Буларнинг умри-чи, жуда ҳам узун.

Бу тўртликда оғоч (дарахт) сўзи оддий табиат объекти эмас, балки чуқур бадиий-рамзий маъно юкланган образ сифатида қўлланган. Шоирнинг «кўз ўнгимда улғайди ниҳол» дейиши оғочни инсон қўли билан экилган, меҳнат ва муҳаббат билан парваришланган ҳаётий қадрият сифатида кўрсатади. Бу ерда оғоч, аввало, инсоннинг ўзи яратган амаллари, тарбиялаган ғоялари ёки вужудга келтирган маънавий меросини ифодалайди. «Экан мен ўзим» деган таъкид эса ижодкор ёки инсоннинг жавобгарлигини, қилган ишлари учун масъул эканини англатади. Шеърда «Балки не оғочлар топгайдир завол» мисраси орқали дунёдаги кўплаб нарсаларнинг ўткинчи экани, айрим қадриятлар вақт ўтиши билан йўқолиб кетиши мумкинлиги назарда тутилади. Аммо «Буларнинг умри-чи, жуда ҳам узун» деган хулоса оғоч образини боқийлик рамзига айлантиради. Яъни инсон томонидан сидқидилдан яратилган, эзгу ният билан экилган қадриятлар, ғоялар ва амаллар узоқ умр кўради. Демак, ушбу шеърда оғоч (дарахт) бадиий рамз сифатида инсон меҳнати, маънавий мерос, эзгу амаллар ҳамда авлодлар давомийлигини ифодалайди. Орипов бу образ орқали инсон ўз қўли билан яратган яхшиликлар замон ўтса-да йўқолмаслигини поэтик тарзда ифода этади.

Зўр мажлисдан сал ўтмай

Замонлар чеврилдилар.
Ёлғон кетиб ёлғонга,
Рост – ростга эврилдилар.

Чеврул – айланмоқ, ўгирилмоқ маъносини ифодалаб, қадимги туркий халқлар лексикасида фаол ишлатилган. “Жонингиз эрамида файз шабнамидин нишот гули очилса, бу зори беқарор булбул каби ул гулшан теграсига чеврулгай”.

Йўл кенгайса одам ҳам
Ундан улгу олгайдир.
Кимнингдир феъли аммо
Торлигича қолгайдир.

“Улгу” сўзи халқ сўзлашув нутқида, айрим шеваларда ҳозир ҳам сақланиб қолган бўлиб, ўрнак, намуна маъноларида ишлатилади.

Ажиб сиймо эрурсан,
Инжимай дарҳол кечиргайсан,
Мурувватлар қилиб гоҳ,
Бўлса ҳам даввол кечиргайсан.

“Инжимоқ” – ранжимоқ, хафаланмоқ маъноларини ифодалайди. “Кечиргайсан” шеърида шоир бандалар қанчалик гуноҳ қилмасин, кўпинча Оллоҳнинг раҳматига, мурувватига ноил бўлишини қаламга олади.

Кимнидир қарғашар:
– Кўзинг оқсин, деб,
Кимнидир алқашар:
– Омад боқсин, деб.

Биров қўшнисини ёзғирар эди: – Ёпмаган томингга ёмғир ёғсин, деб. Қуйидаги парчада эса торози детали – шайин сўзини қўллаган. Муз ҳам эриб бир кун майинланади, Тарози бордирки – шайинланади. Авлиё бўлиши мумкин ҳар одам, Фақат пайғамбарлар тайинланади.

Хулоса қилиб айтганда, Абдулла Орипов лирикасида қўлланган қадимги туркий лексемалар шоирнинг тил ва тарихга бўлган чуқур эҳтиромини намоён этади. Ушбу лексик қатлам орқали шоир миллий хотирани қайта жонлантиради, ўзбек шеъриятида тарихий-маънавий давомийликни таъминлайди. Қадимги туркий сўзлар Орипов ижодида фақат тил ҳодисаси эмас, балки миллий тафаккур ва бадиий дунёқарашнинг муҳим таркибий қисми сифатида намоён бўлади. Абдулла Орипов лирикасини қадимги туркий лексика нуқтаи назаридан ўрганиш ўзбек адабиёти, тилшунослик ва маданиятшунослик соҳалари учун муҳим илмий аҳамиятга эга.

АДАБИЁТЛАР

1. Ёқубов О. Сўз. – Тошкент: Sharq, 2019. – 496 б.
2. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. – Тошкент: - Маънавият, 2010. – 392 б.
3. Орипов А. Қуёш бекати: Шеърлар, мақолалар, суҳбатлар, таржималар. – Тошкент: - Sharq, 2010. – 384 б.
4. Орипов А. Танланган асарлар: тўрт жилдлик. 3-жилд. Таржималар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – 384 б.
5. Орипов А. Эҳтиёж фарзанди: Адабий мақолалар. Суҳбатлар. Бадиий публицистика. – Тошкент: ―Ёш гвардия, 1988. – 224 б.

Mundarija / Contents

1 **Choriev Ro‘zimurot Kungratovich**
ABDULLA ORIPOV IJODIDA AXLOQIY QADRIYATLARNING BADIIY IFODALANISHI VA AVLODLAR VORISLIGI MASALASI 5

2 **Улуғбек Ҳамдамов**
АБДУЛЛА ОРИПОВ ЛИРИКАСИДА ИЖТИМОИЙ ДАРД ТАДРИЖИ ВА ТАСВИРИ 8

3 **Abdullaeva Shaxzoda Abdullaevna**
ABDULLA ORIPOV ASARLARINI TA’LIM MUASSASALARIDA O‘RGANISHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI 18

4 **Nurboy Jabborov**
ABDULLA ORIPOV FENOMENINING BOSH XUSUSIYATLARI 25

5 **Rozmatov Elbek Erkinovich**
ANDROGOGIK TA’LIMDA ABDULLA ORIPOV IJODINI O‘RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK JIHATLARI 34

6 **Ikramxanova Feruza Ikramovna**
XALQ SHOIRI ABDULLA ORIPOV POEZIYASIDA PEYZAJ MOTIVLARI VA UNING FALSAFIY IFODASI 39

7 **Kodirova Ra’no Tuxtaevna**
ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA AYOL OBRAZINING ULUG‘LANISHI 44

8 **Ахмедов Исмаил Ризаевич**
АБДУЛЛА АРИПОВ:ОЧЕРК УСТРЕМЛЕНИЙ 48

9 **Абдуллаева Камола Абдурашидовна**
ТЕМА РОДИНЫ И ПАТРИОТИЗМА В ТВОРЧЕСТВЕ АБДУЛЛЫ ОРИПОВА 54

10 **Қурбонова Муқаддас Омоновна, Ғулмонова Шоира**
ХАЛҚ ШОИРИ АБДУЛЛА ОРИПОВНИНГ “СОҲИБҚИРОН” ДОСТОНИДА АНТОНИМЛАР ҚЎЛЛАШ МАҲОРАТИ 60

11 **Арипова Малика Ганишеровна**
МЕТАКОГНИТИВНЫЙ ПОТЕНЦИАЛ ПОЭЗИИ АБДУЛЛЫ ОРИПОВА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПРАКТИКЕ 64

12 **Boynazarova Nigora Ismoilovna**
ABDULLA ORIPOV LIRIKASIDA QO‘LLANGAN QADIMGI TURKIY LEKSEMALAR XUSUSIDA 70

13 **Suvonova Lobar Islom qizi**
ABDULLA ORIPOV IJODIDA MILLIY TIMSOLLAR VA ULARNING MA’NAVIY RUHNI ShAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI 74

14 **Nishonov Sarvar Jasur o‘g‘li**
IJODKOR IDEOLEKTIDA MADANIY XOTIRA VA INDIVIDUAL ONG SINTEZI 79

15 **Jo‘rayeva Go‘zal Qodirovna**
ABDULLA ORIPOVNING “SOHIBQIRON” DRAMASINING TIL XUSUSIYATLARI 83

16 **Dustmurodov Ma’rufjon Mansur o‘g‘li**
ABDULLA ORIPOV LIRIKASIDA QADIMGI TURKIY LEKSEMALARNING BADIIY TRANSFORMATSIYASI *(ko‘ragon* o‘rnagida) 88

17 **Atamurodov Saidmurod Yaxyoyevich**
ABDULLA ORIPOV- SAMIMIY INSON YOXUD TOK QAYCHIDAN QOLGAN XOTIRALAR 91

18 **Алленова Ирина Владимировна**
ПОЭЗИЯ АБДУЛЛЫ АРИПОВА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ: ИЗУЧЕНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ В ШКОЛЕ И ВУЗЕ, МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ВОСПИТАТЕЛЬНЫЙ ПОТЕНЦИАЛ 95

19 **Ташева Умида Тимуровна**
АКТУАЛЬНОСТЬ ПОЭТИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ АБДУЛЛЫ АРИПОВА В XXI ВЕКЕ 98

20 **Солиева Мухаббат Уразбаевна**
АКТУАЛЬНОСТЬ ПОЭТИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ АБДУЛЛЫ АРИПОВА В XXI ВЕКЕ: СОВРЕМЕННОЕ ЗВУЧАНИЕ ПОЭЗИИ, ВОСПРИЯТИЕ МОЛОДЁЖЬЮ, КУЛЬТУРНОЕ ЗНАЧЕНИЕ 101

21 **Koshnazarova Maloxat Alimovna**
ABDULLA ORIPOV IJODIDA FALSAFIY VA AXLOQIY MOTIVLAR: INSONIYLIK, EZGULIK VA YOVUZLIK, SHAXS MAS’ULIYATI HAQIDAGI MULOHAZALAR 105

22 **Дуйсинова Гуланда Абдуманобовна**
НАЦИОНАЛЬНАЯ ИДЕНТИЧНОСТЬ И ПАТРИОТИЗМ В ПОЭЗИИ АБДУЛЛЫ АРИПОВА 109

23 **Saparova Aysultan, Jumabaev Umidjan, Iskanderova Dilafruz**
ABDULLA ORIPOV VA KERIM GURBANNEPESOV IJODIDA LIRIK QAHRAMON OBRAZINING TALQIN QILINIShI 114

24 **Жузбаев Нурлан Урал угли**
ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИЗУЧЕНИЯ ТВОРЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ АБДУЛЛЫ ОРИПОВА 118

25 **Yoqubaliyeva Dilafro‘z Payzidin qizi**
TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA ABDULLA ORIPOV **IJODIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK ASOSLARI** 122

26 **Atageldiev Baymuxammet Nedirmuxammedovich, Sobetova Tovus Amanovna, Sh.A.Abdullaeva**
MAXTUMQULI VA ABDULLA ORIPOV IJODIDA VATAN OBRAZINING TALQIN QILINIShI 125

27 **Nurimova Diyora Qurbon qizi**
ABDULLA ORIPOV LIRIK DISKURSDA RITORIK VOSITALAR 130

28 **Yakubova Dilafruz Tog‘aymuratovna, Umurqulov Bekpo‘lat Normurodovich**
NAFRAT VA NOROZILIK MOTIVLARI ABDULLA ORIPOV IJODIDA 134

29 **Ko‘makova Dilshoda Shirinqulovna, O‘lmasova Madinabonu Faxriddin qizi, Nazarova Gulchehra Ravshan qizi** 134

30 **Sanakulova Aziza Rahimovna, Nurmatova Iroda Iskandar qizi**
ABDULLA ORIPOV IJODINING O‘ZBEK ADABIYOTI RIVOJIDAGI O‘RNI 142

31 **Mavlonberdiyeva Gulbahor Razzoqovna**
TA’LIM MUASSASALARIDA ABDULLA ORIPOV ASARLARINI O‘QITISHGA BO ‘lGAN METODIK YONDASHUVLAR 144

32 **Shukriddinova Adolat Anorvay qizi**
ABDULLA ORIPOV MEROSINI RAQAMLI TA’LIMDA QO‘LLASH 149

33 **Abdullayeva Surayyo Hasanboy qizi**
ABDULLA ORIPOVNING O‘ZBEK ADABIYOTI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI: FALSAFIY VA AXLOQIY MOTIVLAR 152

34 **Asilbekov Izzatilla, Nigora Erkinova**
ABDULLA ORIPOV “MAKTABI” VA ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE’RIYATI: TAFAKKUR VA VORISLIK 155

35 **Xo‘jamberdiyeva Shahnoza Ko‘paysinovna**
ABDULLA ORIPOV IJODIDA RAMZ VA TIMSOLLAR 158

36 **Sattarova Sitora Alibek qizi**
ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA ERKINLIK, VATANPARVARLIK VA INSONIYLIK G‘OYALARI: TAHLIL VA QIYOSIY TALQIN 161

37 **Imomaliyeva Musharrafxon, G‘aniyeva Madinaxon,** 165

38 **Asqarov Dilmurod Mo‘sajon o‘g‘li**
ABDULLA ORIPOV IJODIDA BADIIY TASVIR VOSITALARI VA FALSAFIY TALQIN 170

39 **Ахмедов Исмаил Ризаевич**
АБДУЛЛА АРИПОВ: МОЙ ОПЫТ ПРОЧТЕНИЯ 174

40 **Ташева Севара Равшановна**
КЛАССИЧЕСКАЯ РУССКАЯ ПОЭЗИЯ В ПЕРЕВОДЕ АБДУЛЛЫ АРИПОВА 183

41 **Ixtiyorova O‘g‘iloy**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA VATANPARVARLIK TUYG‘ULARINI SHAKLLANTIRISHDA ABDULLA ORIPOV SHE’RLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI 186

42 **Ismailova Nilufar Isroildjanovna**
SHE’RIYAT QUYOSHI: JAJJI QALBLARDA ABDULLA ORIPOV SIYMOSI 189

43 **Utaganova Roza Mamadiyor qizi**
TEACHING THE WORKS OF ABDULLA ARIPOV IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS: METHODOLOGICAL APPROACHES AND THEIR EDUCATIONAL SIGNIFICANCE 193

44 **Dildora Turgunovna Pulatova**
ABDULLA ORIPOV IJODINING TA’LIM JARAYONIDAGI DIDAKTIK AHAMIYATI 197

45 **Ataxanova Sabina Iqboliddin qizi** 200

ABDULLA ORIPOVNING HAYOTIDAGI ASOSIY BOSQICHLARI, DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHI, DAVR VA MUHITNING IJODIGA TA’SIRI

46 **Abdug‘afforova E’zozabonu Abdusaid qizi**
TARJIMA VA BADIIY TASVIR: ABDULLA ORIPOVNING TARJIMONLIK MAHORATINI O‘RGANISH 203

47 **Abdukarimova Shaxnoza Nabievna, Xayitboeva Hadisa**
АБДУЛЛА ОРИПОВ ИЖОДИНИНГ ИЛМИЙ- МАЪРИФИЙ АХАМИЯТИ 207

48 **Usmonov Murodjon Ibrohim o‘g‘li, Soliyev Elyorbek Muhammadmuso o‘g‘li**
ABDULLA ORIPOVNING O‘ZBEK ADABIYOTI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI 210

49 **Shodiyeva Shohsanam G‘anisher qizi, Xusanova Hayriniso Tayirovna**
ABDULLA ORIPOV IJODIDA YOSH AVLOD TARBIYASI G‘OYALARI 213

50 **Imomaliyeva Musharrafxon, Abdumalikova Dildora Abdumuhammad qizi** 216

51 **Ermatova Mehriniso Bekmuradovna, Normamatova Anora Xayrullayevna**
MAKTABGACHA TA’LIM YOSHDAGI BOLALARGA ABDULLA ORIPOV IJODI BILAN TANISHTIRISH ORQALI VATANGA BO‘LGAN MUHABBATNI UYG‘OTISH 223

52 **Artiqova Donoxon, Iriskulova Charos**
ABDULLA ORIPOV TARJIMONLIK FAOLIYATIDA POETIK TRANSFORMATSIYA VA BADIIY TARJIMA MUAMMOLARI 226

53 **Sabina Xushmurodova, Lobar Usmonova**
ABDULLA ORIPOV IJODIDA "MUNOJAT" VA RUHIYAT TASVIRI: INSONIY DARDNING FALSAFIY TADQIQI 229

54 **Sharipova Mohizarbegim Elmurod qizi**
ABDULLA ORIPOVNING DAVLAT MADHIYASI MATNI VA UNDAGI MILLIY-FALSAFIY G‘OYA 231

55 **Bahromov Umidjon Bahrom o‘g‘li, Nazarov Kamol Hasanovich**
ABDULLA ORIPOV IJODIDA FALSAFIY TAFAKKUR VA AXLOQIY QADRIYATLAR: MUZEY EKSPOZITSIYASI TALQINIDA AVLODLAR VORISLIGI 234

56 **Ibragimova Sevara Raushanovna, Xusenov Shoxrux Sherali o‘g‘li**
ABDULLA ORIPOVNING ADABIY MEROSI VA O‘ZBEK ADABIY TILINING RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI 237

57 **M.F. No‘monova**
ABDULLA ORIPOV IJODIDA FALSAFIY VA AXLOQIY MOTIVLAR 239

58 **Khakima Abdullajonova Abdukodir qizi**
ABDULLA ORIPOV IJODINING O‘ZBEK ADABIYOTI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI HAMDA AVLODLAR VORISLIGI 243

59 **Shorustamova Gulchexra**
ABDULLA ORIPOV IJODINING XORIJIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA O‘RGANILISHI: ASOSIY ILMIY YONDASHUVLAR 246

60 **Imomaliyeva Musharrafxon, Rahmonjonova Ro‘zixon Rustamjon qizi**
ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA MA’NAVIY KOMILLIK VA HAYOT HAQIQATI TALQINI 249

61 **Imomaliyeva Musharrafxon, Akbaraliyeva Zeboxon Islomjon qizi**
ABDULLA ORIPOV SHE’RLARIDA MILLIY G‘URUR VA ISTIQLOL RUHI 253

62 **Abduraupova Muhlisa Abdunabi qizi**
ABDULLA ORIPOVNING O‘ZBEK ADABIYOTI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI 258

63 **Nurali Abdurashid o‘g‘li Boqiyev**
MILLAT VA KOINOT KUYCHISI: ABDULLA ORIPOV IJODINING FALSAFIY-MA’NAVIY KO‘LAMI 261

64 **Suhrob ZIYODOV**
PERSONAJLI SHE’RDA LIRIK QAHRAMONNING SHAKLLANISHI (ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATI MISOLIDA) 264

65 **Toshmuxammadova Sevinch Xayrulla qizi**
ABDULLA ORIPOVNING O‘ZBEK ADABIYOTIGA QO‘SHGAN HISSASI VA IJODINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI 270

66 **Rustamova Aziza, Zakirova Z.Z.**
ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA MILLIY O‘ZLIK VA VATANPARVARLIK G‘OYALARI 273

67 **Abdurahmonova Zubaydaxon, Zakirova Z.Z.**
ABDULLA ORIPOVNING “O‘ZBEKISTON” SHE’RIDA VATANPARVARLIK G‘OYASI 275

68 **Egamberdiyeva Xulkaroy Bekzod qizi, Zakirova Z.Z.**
TA’LIM MUASSASALARIDA ABDULLA ORIPOV ASARLARINI O‘QITISHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI 277

69 **Rustamova Aziza, Zakirova Z.Z.**
ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA MILLIY O‘ZLIK VA VATANPARVARLIK G‘OYALARI 280

70 **Xusenova Nigina Sherali qizi, Xusenov Shoxrux Sherali o‘g‘li**
ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTIGA ABDULLA ORIPOVNING FALSAFIY VA MA’NAVIY TA’SIRI 283

71 **Temirova S.T, Djurakulova Gulnoza**
ABDULLA ORIPOV IJODIDA FALSAFIY TAFAKKUR VA AXLOQIY MOTIVLARNING BADIIY TALQINI 285

72 **Dolixonova Muxlisa, Zakirova Zulhumor Zoirjonova**
TA’LIM MUASSASALARIDA ABDULLA ORIPOV ASARLARINI O‘QITISHNING O‘ZIGA HOS JIHATLARI 287

73 **Абдухакимова Дурдона Абдулхамид қизи**
ХУДОЖЕСТВЕННО-ИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫЕ СРЕДСТВА В ПОЭЗИИ АБДУЛЛЫ ОРИПОВА 290

74 **Рахматова Нигина Исламовна,**
МОЙ ЛЮБИМЫЙ ПОЭТ Хемрайев Сапармурат 295

75 **Икрамов Махамад-Шухрат Эркенович**
ВЛИЯНИЕ ТВОРЧЕСТВА АБДУЛЛЫ АРИПОВА НА РАЗВИТИЕ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ 298

76 **Ulug‘murodova Kamola Murodullayevna**
ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA LAYLI OBRAZINING BADIIY TALQINI 301

77 **Юсупов Эркин Курбанбаевич**
ТВОРЧЕСТВО АБДУЛЛЫ ОРИПОВА КАК ОТРАЖЕНИЕ ДУХОВНЫХ И ФИЛОСОФСКИХ ПОИСКОВ СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ 304

78 **Amonov Lazizbek, Qo‘shnazarova Maloxat Alimovna**
ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA VATAN TIMSOLI VA TARIXIY XOTIRA (“O‘ZBEKISTON” SHE’RI MISOLIDA) 307

79 **Gulzada Rejepova Maksadovna, Eshmatova Yulduz Boymaxmatovna**
“SEN BAHORNI SOG‘INMADINGMI” SHE’RINING BADIIY-POETIK XUSUSIYATLARI 310

80 **Abduxamidova Xadichaxon Umidjon qizi**
ABDULLA ORIPOV-YANGI SHABBODA ELCHSI 314

81 **Abdunabiyeva Nigora Ikrom qizi**
ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA VATAN OBRAZI VA MILLIY G‘URUR IFODASI 318

82 **Tohirjonov Ibrohim Dilshod o‘g‘li**
ABDULLA ORIPOV – MILLAT DARDINI KUYLAGAN SHOIR 321

83 **Jumyazova Lolaxon Hamro qizi, Eshmatova Yulduz Boymaxmatovna**
ABDULLA ORIPOV POEZIYASIDA LIRIK QAHRAMON RUHIYATI 325

84 **Н.Маматов**
ДОҲОНИ ТУШУНИШ ЙУЛЛИДА 328

85 **Махмудова Матлуба Сағдулла қизи**
АБДУЛЛА ОРИПОВ ЛИРИКАСИДА ҚЎЛЛАНГАН ТАРИХИЙ ЛЕКСЕМА ВА КЕЛИШИКЛАР ХУСУСИДА 332

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

“SCIENCE AND INNOVATION” XALQARO JURNALI

“ABDULLA ORIPOVNING O‘ZBEK ADABIYOTI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI: FALSAFIY VA AXLOQIY MOTIVLAR. AVLODLAR VORISLIGI”

mavzusidagi shoirning 85 yosh xotira yubileyiga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy

KONFERENSIYA MATERIALLARI TO‘PLAMI

2026-yil 18-mart

Published: 18.03.2026. Font: «Times New Roman».

LLC «Science and innovation»
License Mass Media №:1597 27.04.2022
License Publisher №:038864 15.09.2022
Address: 100121, Tashkent, Yakkasaroy, st. Sh. Rustaveli 150,
Business center “Vega”, 6th floor, Office №:2
www.scientists.uz, info@scientists.uz, +998933549654, +998993319654